Mazkur model oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasini “jonli laboratoriya” modeli, hududga asoslangan ta’lim yondashuvi hamda “universitetning uchinchi missiyasi” konsepsiyasi

bilan bog'laydi. Shuningdek, u Barnett (2018) tomonidan ilgari surilgan ekologik universitet konsepsiyasiga ham mos keladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, universitetlar bilim, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va ekologik tizimlar bilan bir vaqtning o'zida o'zaro aloqada faoliyat yuritadi.

Mazkur maqolada rivojlanayotgan oliy ta'lim tizimi sharoitida faoliyat yuritayotgan yosh, ixtisoslashgan universitet namunasi sifatida Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritagening strategik transformatsiyasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, universitetning asosiy ustunligi uning aniq yo'naltirilgan differensiallashuv strategiyasida namoyon bo'ladi. Ushbu strategiya Samarqand, Buyuk Ipak yo'li, barqaror turizm, madaniy meros, raqamli innovatsiyalar va jamiyat uchun ijtimoiy qiymat yaratish tamoyillarini yagona akademik model doirasida birlashtiradi.

Shuningdek, tadqiqot strategiyalar faqatgina hujjat sifatida emas, balki qarorlar qabul qilish jarayonlari, resurslarni taqsimlash mexanizmlari, akademik amaliyot, hamkorlik tizimlari va hisobdorlik mexanizmlarini o'zgartirgandagina haqiqiy strategik ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi. Universitetning 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi oltita strategik yo'nalish, rivojlanish tamoyillari hamda amalga oshirish jarayonini ta'minlovchi Mas'uliyat matritsalarini bilan birlashtirilgan KPI tizimiga asoslangan kompleks transformatsiya modelini taklif etadi (SRU, 2026a, 2026e). Biroq strategiyaning muvaffaqiyati, avvalo, uning samarali amalga oshirilishi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimi, professional akademik kadrlarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, hamkorliklar sifatini oshirish va Ipak yo'li identikligini universitet faoliyatining barcha yo'nalishlariga integratsiya qilishga bog'liq bo'ladi.

Kengroq xulosaga ko'ra, yosh, ixtisoslashgan universitetlar keng qamrovli tadqiqot universitetlarining korporativ modellarini takrorlashga intilmasligi kerak. Ularning muvaffaqiyat yo'li mahalliy ehtiyojlarga moslashgan, xalqaro tizimga integratsiyalashgan, akademik jihatdan aniq yo'naltirilgan va jamiyat uchun dolzarb bo'lgan ta'lim institutlariga aylanish orqali shakllanishi lozim. Silk Road International University uchun eng istiqbolli yo'nalish nafaqat yirik universitetga aylanish, balki bilim, madaniyat, madaniy meros, turizm va innovatsiyalarni birlashtiruvchi noyob "jonli laboratoriya" universiteti modelini yaratishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). Trends in global higher education: Tracking an academic revolution. UNESCO.
2. Barnett, R. (2011). Being a university. Routledge.
3. Barnett, R. (2018). The ecological university: A feasible utopia. Routledge.
4. Becher, T., & Trowler, P. R. (2001). Academic tribes and territories: Intellectual enquiry and the culture of disciplines (2nd ed.). Open University Press.
5. Bok, D. (2017). The struggle to reform our colleges. Princeton University Press.
6. Bryson, J. M. (2018). Strategic planning for public and nonprofit organizations: A guide to strengthening and sustaining organizational achievement (5th ed.). Wiley.
7. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). Smart tourism destinations: Enhancing tourism experience through personalisation of services. In I. Tussyadiah & A. Inversini (Eds.), Information and communication technologies in tourism 2015 (pp. 377–389). Springer.
8. Clark, B. R. (1998). Creating entrepreneurial universities: Organizational pathways of transformation. Pergamon.
9. De Wit, H., Hunter, F., Howard, L., & Eggen-Polak, E. (2015). Internationalisation of higher education. European Parliament.
10. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From national systems and "Mode 2" to a triple helix of university–industry–government relations. Research Policy, 29(2), 109–123.

11. Evans, J., Jones, R., Karvonen, A., Millard, L., & Wendler, J. (2015). Living labs and co-production: University campuses as platforms for sustainability science. *Current Opinion in Environmental Sustainability*, 16, 1–6.
12. Gibbons, M., Limoges, C., Nowotny, H., Schwartzman, S., Scott, P., & Trow, M. (1994). *The new production of knowledge: The dynamics of science and research in contemporary societies*. SAGE.
13. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: Foundations and developments. *Electronic Markets*, 25, 179–188.
14. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. *Journal of Studies in International Education*, 8(1), 5–31.
15. Kotler, P., & Murphy, P. E. (1981). Strategic planning for higher education. *The Journal of Higher Education*, 52(5), 470–489.
16. Leminen, S., Westerlund, M., & Nyström, A.-G. (2012). Living labs as open-innovation networks. *Technology Innovation Management Review*, 2(9), 6–11.
17. Marginson, S. (2016). The worldwide trend to high participation higher education: Dynamics of social stratification in inclusive systems. *Higher Education*, 72, 413–434.
18. McCormick, K., & Hartmann, C. (2017). *The emerging landscape of urban living labs: Characteristics, practices and examples*. Lund University.
19. Mintzberg, H. (1994). *The rise and fall of strategic planning*. Free Press.
20. OECD. (2021). *OECD digital education outlook 2021: Pushing the frontiers with artificial intelligence, blockchain and robots*. OECD Publishing.
21. Pinheiro, R., Langa, P. V., & Pausits, A. (2015). One and two equals three? The third mission of higher education institutions. *European Journal of Higher Education*, 5(3), 233–249.
22. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The competitive destination: A sustainable tourism perspective*. CABI.
23. Schuurman, D., De Marez, L., & Ballon, P. (2013). Open innovation processes in living lab innovation systems: Insights from the LeYLab. *Technology Innovation Management Review*, 3(11), 28–36.
24. Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage. (2026). *Strategy 2026–2030: A living laboratory of knowledge, culture and civilizations*. Samarkand, Uzbekistan.
25. Stake, R. E. (1995). *The art of case study research*. SAGE.
26. Timothy, D. J. (2011). *Cultural heritage and tourism: An introduction*. Channel View Publications.
27. UN Tourism. (2013). *Sustainable development for development guide*.

OLIJ TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINING BANDLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Esanov Muzaffar Xoshimovich,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi,
pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston*

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalasi bugungi kunda faqat mehnat bozori siyosati emas, balki ta'lim sifati, inson kapitali, hududiy iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog'liq strategik vazifa hisoblanadi. Oliy ta'lim qamrovining kengayishi bir tomondan yoshlar uchun ijtimoiy lift vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan mehnat bozoriga kirib kelayotgan oliy ma'lumotli yoshlar sonining keskin ortishi, ularning kasbiy kompetensiyalari, amaliy ko'nikmalari va ish beruvchilar talablari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash zaruratini kuchaytiradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadlari belgilangan [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bitiruvchi diplom olganidan keyin ish topish jarayonini shaxsiy imkoniyatlariga tashlab qo'yish zamonaviy oliy ta'lim modeliga mos kelmaydi. Bugungi talab – universitetni mehnat bozori bilan doimiy muloqotda ishlaydigan, ish beruvchi ehtiyojini o'quv reja, amaliyot, stajirovka, kasbiy trayektoriya va startap qo'llab-quvvatlash tizimiga aylantira oladigan institut sifatida rivojlantirishdir. Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish, nazariy bilimdan amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'limga bosqichma-bosqich o'tish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifalari qayd etilgan [2].

Ushbu tahliliy materialda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash bo'yicha mavjud mexanizmlar, muammolar, ularni takomillashtirish yo'nalishlari va natijadorlik indikatorlari tizimli tahlil qilinadi. Tahlilda rasmiy strategik hujjatlar, Prezident qarorlari va vazirlik axborotlari asos qilib olindi. Matnda manbalar [1], [2], [3] shaklida berilgan.

Mavjud holat va muammoning mazmuni.

Bitiruvchilar bandligini ta'minlashdagi asosiy muammo kadrlar tayyorlash hajmi va mehnat bozoridagi haqiqiy talab o'rtasidagi nomutanosiblikdan iborat. 2026-yilda respublika oliygothlarini 320 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich oliy ta'lim tizimi oldiga bitiruvchilarni individual kuzatish, ularni iqtisodiyot tarmoqlaridagi bo'sh ish o'rinlariga yo'naltirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va karyera markazlari imkoniyatlari-dan samarali foydalanish kabi aniq vazifalarni qo'yadi [5].

Muammoning ikkinchi jihati – ish beruvchi talab qiladigan kompetensiyalar bilan ta’lim dasturlarida shakllantirilayotgan bilim va ko’nikmalar o’rtasidagi farqdir. Xalqaro tahlillarda O’zbekiston oliy ta’limida iqtisodiyot va tadqiqot foydalanuvchilari bilan aloqalar yetarlicha mustahkam emasligi, bu esa ko’nikmalar va innovatsiya natijalarining mehnat bozoriga chiqishini cheklashi ta’kidlanadi [8]. Demak, bandlik masalasi faqat vakansiya topish emas; u o’quv rejani ish beruvchi talablari bilan qayta bog’lash, kafedra va korxona hamkorligini faollashtirish, amaliyotni haqiqiy ish joyida tashkil etish hamda bitiruvchining kasbiy portfoliosini shakllantirishni talab qiladi.

Uchinchi jihat – monitoring va mas’uliyatning pastligi. Agar universitet, mahalliy hokimlik, vazirlik, bank, korxona va bitiruvchi o’rtasida yagona ma’lumotlar almashinuvi bo’lmasa, bandlik bo’yicha statistika formal hisobotga aylanib qoladi. Shu bois 2026-yilda barcha jarayonlarni career.edu.uz platformasi orqali monitoring qilish, bandlik masalasini mahalliy hokimliklar darajasigacha tushirish va bitiruvchilar bilan ishlashning vertikal tizimini yo’lga qo’yish zarurligi qayd etildi [5].

1-jadval. Bitiruvchilar bandligiga ta’sir etuvchi asosiy muammolar tahlili

№	Muammo	Namoyon bo’lishi	Oqibati	Takomillashtirish yo’nalishi
1	Ta’lim dasturi va ish beruvchi talabi o’rtasidagi uzilish	Fan mazmunida amaliy kompetensiyalar, raqamli ko’nikmalar va kasbiy standartlar yetarli aks etmasligi	Bitiruvchi diplomga ega bo’lsa-da, ish joyida tez moslasholmaydi	O’quv rejani mehnat bozori monitoringi va ish beruvchi buyurtmasi asosida yangilash
2	Amaliyotning formal tashkil etilishi	Amaliyot haqiqiy ish jarayoni emas, hujjat topshirish jarayoniga aylanib qolishi	Ish tajribasi yo’qligi sababli birinchi ishga kirish qiyinlashadi	Uch tomonlama shartnoma, ish joyida mentorlik va natijaviy amaliyot hisobotini joriy etish
3	Karyera markazlari faoliyatining zaifligi	Vakansiya bazasi, rezyume tayyorlash, intervyu treninglari va alumni aloqalari tizimli emas	Bitiruvchi mehnat bozoriga tayyor holda chiqmaydi	Karyera markazlarini KPI va “Bitiruvchi sifati indeksi” asosida baholash
4	Bandlik statistikasining to’liq emasligi	Bitiruvchi o’z sohasida ishladimi yoki vaqtincha ishladimi – farqlanmasligi	Sifatsiz hisobot va noto’g’ri boshqaruv qarorlari	career.edu.uz orqali 6, 12 va 24 oylik kuzatuv monitoringi
5	Tadbirkorlik ko’nikmalarining yetarli shakllanmasligi	Biznes reja, moliyaviy savodxonlik, startap madaniyati bo’yicha bilimlar kamligi	O’zini o’zi band qilish va yangi ish o’rni yaratish imkoniyati cheklanadi	“Tadbirkorlik asoslari”, inkubatsiya, grant va imtiyozli kredit mexanizmlarini kuchaytirish

Normativ-strategik asoslar tahlili.

Bitiruvchilar bandligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun birinchi navbatda normativ-strategik asoslarni yaxlit tizim sifatida ko’rish zarur. Bu tizimda “O’zbekiston – 2030” strategiyasi umumiy maqsadlarni belgilaydi, Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim sifatini iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyoji bilan bog’laydi [3], [4].

Ayniqsa, “Kelajakka qadam” dasturi bitiruvchi bilan ish beruvchi, universitet va banklar o’rtasida institutsional ko’priq vazifasini bajaradi. Unda bitiruvchi bosqich talabalari hamda oliygohni tamomlaganiga uch yildan oshmagan bitiruvchilarning biznes g’oyalarini tayyor loyihagacha olib borish, qulay shartlarda moliyalashtirish, sohalar bo’yicha ochiq tanlovlar o’tkazish, ish beruvchilar ehtiyojini aniqlash va individual kasbiy ta’lim dasturlari asosida kasbga dastlabki tayyorlash kabi yo’nalishlar belgilangan [3].

2-jadval. Bitiruvchilar bandligi bo'yicha normativ-strategik asoslar

Manba	Asosiy g'oya	Bandlikka ta'siri	Amaliyotdagi vazifa
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1]	Oliy ta’lim qamrovini kengaytirish va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish	Bitiruvchilar soni ortishi sharoitida sifat va bandlikka mas’uliyatni kuchaytiradi	Oliy ta’limni mehnat bozori ehtiyoji bilan bog‘lash
Oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [2]	Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash	Nazariy bilimdan amaliy ko‘nikmalarga o‘tishni talab qiladi	Korxona, ilmiy tashkilot va universitet hamkorligini tizimlashtirish
Hukumat topshiriqlari	career.edu.uz, karyera markazlari, TalabaExpo, dual ta’lim va KPI tizimi	Bitiruvchilar bilan ishlashni vertikal boshqaruv va raqamli monitoringga o‘tkazadi	Har bir bitiruvchini individual kuzatish, ish beruvchi bilan workshop va mehnat yarmarkalarini kengaytirish

Takomillashtirilgan mexanizmning mazmuni.

Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishda “diplomdan ish o‘rnigacha” bo‘lgan uzluksiz trayektoriya asosiy metodologik yondashuv bo‘lishi lozim. Bu trayektoriya birinchi kursdan boshlab talabaning kasbiy yo‘nalishini aniqlash, uning kompetensiyalarini diagnostika qilish, portfoliosini shakllantirish, amaliyot va stajirovkalarga yo‘naltirish, ish beruvchilar bilan muloqotini ta’minlash, bitiruv loyihasini real ishlab chiqarish yoki ijtimoiy muammo bilan bog‘lash va bitiruvdan keyin kamida ikki yil kuzatib borishni o‘z ichiga oladi.

Mexanizmning birinchi elementi – mehnat bozori ehtiyojini tahlil qilishdir. Har bir ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hududdagi korxonalar, davlat tashkilotlari, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va startap muhitida qanday lavozimlar va kompetensiyalar talab qilinayotgani yillik tarzda o‘rganilishi kerak. Bu ma’lumotlar faqat hisobot sifatida qolmasdan, fanlar sillabusi, amaliyot dasturi, mustaqil ta’lim topshiriqlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulariga kiritilishi zarur.

Ikkinchi element – o‘quv dasturlarini kompetensiyaga asoslangan holda qayta loyihalash. Bunda har bir fan bitiruvchining mehnat bozoridagi aniq kompetensiyasini shakllantirishi, baholash mezonlari esa amaliy mahsulot, keys, portfolio, loyiha, tadqiqot yoki ish beruvchi ekspertizasi bilan bog‘lanishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–328-son qarorida 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab barcha oliygohlarda “Tadbirkorlik asoslari” fanini o‘qitish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, spin-off korxonalariga talabalarni jalb etish va bitiruv loyihalari himoyasini ish beruvchi korxonalarda o‘tkazish choralari belgilab berilgani ushbu yondashuvni amaliy jihatdan kuchaytiradi [4], [5].

Uchinchi element – karyera markazlarining institutsional maqomini oshirish. Karyera markazi faqat bo‘sh ish o‘rinlari haqida e‘lon beruvchi bo‘lim emas, balki mehnat bozori tahlili, rezyume va intervyu tayyorgarligi, ish beruvchi bilan uchrashuv, bitiruvchilar bazasi, alumni tarmog‘i, amaliyot monitoringi, startap maslahati va bandlik natijalari bo‘yicha hisobot yurituvchi markazga aylanishi kerak. 2026-yilgi takliflarda markazlar faoliyati “Bitiruvchi sifati indeksi” orqali baholanishi va yuqori natija ko‘rsatgan 20 ta oliygohning karyera markazlariga 500 million so‘mdan mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan [5].

To‘rtinchi element – dual ta’lim va ish beruvchi buyurtmasi asosida maqsadli tayyorlash. Dual ta’lim shaklida talabgorni dasturga qabul qilish, to‘lov-kontrakt miqdorini belgilash va o‘quv jarayonini tashkil etish ish beruvchi hamda oliygoh o‘rtasida kelishuv asosida amalga oshiriladi; buyurtmachi esa talaba o‘qishni tamomlagach uni ish bilan ta’minlashga kafolat beradi [5]. Bu mexanizm kadrlar tayyorlashni “avval o‘qitish – keyin ish qidirish” modelidan “ish beruvchi ehtiyoji asosida o‘qitish – kafolatli ishga joylashtirish” modeliga o‘tkazadi.

3-jadval. Takomillashtirilgan bandlik mexanizmining tarkibiy modeli

Bosqich	Mexanizm	Ishtirokchilar	Asosiy vosita	Kutiladigan natija
1-bosqich: diagnostika	Talaba kompetensiyasi va kasbiy qiziqishini aniqlash	OTM, kafedra, karyera markazi	So'rovnoma, portfolio, kompetensiya xaritasi	Kasbiy trayektoriya shakllanadi
2-bosqich: moslashtirish	O'quv reja va fan mazmunini mehnat bozori talablari bilan bog'lash	Kafedra, ish beruvchi, metodik kengash	Ish beruvchi talablari, kasbiy standartlar, sillabus	Kompetensiyaga asoslangan ta'lim kuchayadi
3-bosqich: amaliyot	Korxonada amaliyot, stajirovka va ish joyida mentorlik	OTM, ish beruvchi, talaba	Uch tomonlama shartnoma, individual kasbiy dastur	Ish tajribasi va ishga kirish imkoniyati oshadi
4-bosqich: ishga joylashtirish	Vakansiya, yarmarka, workshop, ochiq tanlov va dual ta'lim	Karyera markazi, hokimlik, korxonalar, banklar	career.edu.uz, TalabaExpo, "Kelajakka qadam"	Bitiruvchi mehnat bozoriga tez integratsiyalashadi
5-bosqich: monitoring	Bitiruvchini 6, 12 va 24 oy davomida kuzatish	OTM, vazirlik, bandlik organi	Raqamli baza, KPI, "Bitiruvchi sifati indeksi"	Haqiqiy bandlik sifati baholanadi

Moliyaviy va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.

Bitiruvchilar bandligini oshirishda davlat, banklar va xususiy sektor ishtirokidagi moliyaviy mexanizmlar alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–328-son qaroriga muvofiq, bitiruvchi bosqich talabalarining korxona yoki tashkilotda amaliyot o'tash xarajatlarini moliyalashtirish hamda eng yaxshi startap va innovatsion loyihalarga grant mablag'lari taqdim etish uchun 20 million AQSH dollari ekvivalentida beg'araz mablag' ajratilishi belgilandi [4]. Shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 100 million AQSH dollari ekvivalentida resurslarni vakolatli banklar o'rtasida taqsimlash nazarda tutildi [4].

Qarorda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlagan tadbirkorlik subyektlariga 2 yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilishi belgilangan. Bunda har bir milliard so'mgacha mablag' uchun kamida bir nafar bitiruvchini ishga qabul qilish sharti qo'yiladi [4]. Mazkur talab kreditni bevosita ish o'rni yaratish bilan bog'laydi va ish beruvchining bandlikdagi mas'uliyatini oshiradi.

Bundan tashqari, amaliyot xarajatlarini moliyalashtirishda OTM, ish beruvchi va talaba o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuzilishi, individual kasbiy ta'lim dasturi shartnomaga ilova qilinishi, tomonlarning aniq majburiyatlari va javobgarlik choralari belgilanishi nazarda tutilgan [4]. Bu amaliyotni formal jarayondan natijaga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik bosqichiga aylantiradi.

Startap va innovatsion loyihalar bo'yicha esa tanlov g'oliblariga kamida ikki nafar bitiruvchini ishga olish majburiyati bilan bir milliard so'mgacha grant mablag'i ajratilishi belgilangan [4]. Bu mexanizm bitiruvchini faqat ish qidiruvchi emas, balki yangi ish o'rinlari yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli monitoring va KPI tizimi.

Bitiruvchilar bandligi bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari ishonchli ma'lumotsiz qabul qilinmaydi. Shu sababli bandlik monitoringi faqat "ishga joylashdi yoki joylashmadi" ko'rinishida emas, balki ishning yo'nalishga mosligi, ish haqi barqarorligi, mehnat shartnomasi mavjudligi, ish joyida saqlanib qolish muddati, bitiruvchining qoniqishi va ish beruvchi bahosi kabi sifat ko'rsatkichlarini ham qamrab olishi kerak. 2026-yilda barcha jarayonlar career.edu.uz platformasi orqali monitoring qilinishi hamda bitiruvchi bilan ishlash mahalliy hokimliklar darajasigacha tushirilishi belgilangan [5].

Karyera markazlari faoliyatini baholashda “Bitiruvchi sifati indeksi” muhim instrument bo‘lishi mumkin. Unda bitiruvchining diplom olgandan keyin 6 oy ichida ishga joylashishi, 12 oy ichida o‘z sohasiga mos ishda barqaror qolishi, amaliyotda ish beruvchi tomonidan ijobiy baholanishi, kasbiy sertifikat va portfolioga ega bo‘lishi, startap yoki tadbirkorlik tashabbusida ishtirok etishi kabi indikatorlar qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

4-jadval. Bitiruvchilar bandligi bo‘yicha KPI indikatorlari

Indikator	O‘lchash usuli	Muddat	Mas’ul subyekt	Boshqaruv qarorlarida qo‘llanishi
6 oylik ishga joylashish darajasi	career.edu.uz va mehnat shartnomasi ma’lumotlari	Bitiruvdan keyin 6 oy	Karyera markazi, OTM, bandlik organi	Yo‘nalishlar kesimida bandlik samaradorligini baholash
O‘z sohasiga mos bandlik ulushi	Lavozim va ta’lim yo‘nalishini taqqoslash	6–12 oy	Kafedra, ish beruvchi, karyera markazi	O‘quv reja va fan mazmunini qayta ko‘rib chiqish
Ish joyida saqlanib qolish	12 oy davomida mehnat shartnomasi davomiyligi	12 oy	Ish beruvchi, karyera markazi	Amaliyot va mentorlik sifatini baholash
Ish beruvchi qoniqishi	So‘rovnoma, intervyu, kompetensiya baholash varaqasi	Yilda 1-marta	Kafedra, sifat bo‘limi	Kompetensiya xaritasini yangilash
Startap va o‘zini o‘zi band qilish	Ro‘yxatdan o‘tgan loyiha, YATT, MCHJ yoki grant ma’lumotlari	Yil yakunida	Innovatsiya markazi, bank, OTM	Tadbirkorlik fanlari va inkubatorlar samarasini baholash
Ijtimoiy himoyaga muhtoj bitiruvchilar bandligi	Alohida guruhlar kesimida monitoring	6–12 oy	OTM, hokimlik, bandlik organi	Inklyuziv bandlik mexanizmlarini kuchaytirish

Takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar.

Birinchi taklif – har bir oliy ta’lim tashkilotida “bitiruvchi trayektoriyasi”ni birinchi kursdan boshlab yuritish. Bunda talaba o‘qishga qabul qilingan paytdan boshlab uning kasbiy qiziqishi, soft skills, raqamli savodxonligi, xorijiy til bilimi, loyihalarda ishtiroki, amaliyot natijalari va ish beruvchi bilan muloqoti elektron portfolioda aks ettirilishi lozim. Bu portfolio bitiruvchi uchun rezyume, universitet uchun sifat ko‘rsatkichi, ish beruvchi uchun esa nomzodni baholash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi taklif – kafedralarning tarmoq korxonalarida filiallarini ochishni tizimlashtirish. Kafedra filialida amaliy mashg‘ulotlar, master-klasslar, ishlab chiqarish muammolari asosida keyslar, bitiruv loyihasi muhokamalari va ish beruvchi ekspertizasi tashkil etilishi kerak. Bu mexanizm talabaning real ish muhitiga moslashishini tezlashtiradi.

Uchinchi taklif – bitiruv loyihalarini ish beruvchi buyurtmasi asosida shakllantirish. Bitiruv loyihasi yoki magistrlik dissertatsiyasi mavhum nazariy mavzuga emas, balki tashkilot, korxona, maktab, bank, mahalla yoki nodavlat tashkilot oldida turgan aniq muammoni hal etishga qaratilsa, bitiruvchining ishga joylashish imkoniyati oshadi. 2026-yilgi rasmiy takliflarda bitiruv loyihalari himoyasini ish beruvchi korxonalarda o‘tkazishni kengaytirish choralari belgilangani ham aynan shu yondashuvga mos keladi [5].

To‘rtinchi taklif – “Karyera kuni” va mehnat yarmarkalarini natijaviy formatga o‘tkazish. 2026-yilda oliygoh miqyosida 360 ta, fakultetlar miqyosida 750 ta mehnat yarmarkalari hamda har bir yo‘nalish kesimida mingdan ortiq ish beruvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilishi belgilangan [5]. Bu tadbirlar faqat ko‘rgazma emas, balki oldindan vakansiyalar bazasini

shakllantirish, talabalarni rezyume va intervyuga tayyorlash, tadbirdan keyin ishga joylashish shartnomalarini monitoring qilish bilan yakunlanishi kerak.

Beshinchi taklif – ish beruvchi ishtirokida ta’lim dasturini baholashni kuchaytirish. Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish mezonlarida boshqaruv qarorlari va sifatni ta’minlash jarayonida talabalar, professor-o’qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va bitiruvchilar ishtirokini ta’minlash zarurligi nazarda tutilgan [7]. Demak, ish beruvchi fikri formal xat yoki tavsiya emas, balki fan dasturi, amaliyot, baholash va kompetensiya xaritasini o’zgartiruvchi real mexanizmga aylanishi zarur.

Xulosa. Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim sifati, iqtisodiyot ehtiyoji va yoshlar ijtimoiy faolligini birlashtiruvchi kompleks jarayondir. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, bandlikni ta’minlash faqat bitiruv yilida ish o’rni topish bilan cheklanmasligi, balki birinchi kursdan boshlanadigan kasbiy trayektoriya, kompetensiya diagnostikasi, ish beruvchi talablari asosida o’quv rejani yangilash, amaliyot va stajirovka, dual ta’lim, startup qo’llab-quvvatlash hamda raqamli monitoring orqali uzluksiz boshqarilishi lozim.

Mavjud islohotlar – “Kelajakka qadam” dasturi, career.edu.uz platformasi, karyera markazlari, TalabaExpo tadbirlari, imtiyozli kreditlar, startup-grantlar va biznes ko’nikmalarni o’quv dasturlariga kiritish – bandlikni ta’minlashda yangi institutsional asos yaratmoqda. Ammo ushbu mexanizmlar samarali ishlashi uchun ularni oliy ta’lim tashkilotlarining ichki sifatni ta’minlash tizimi, kafedralar faoliyati, fanlar mazmuni, amaliyot dasturlari va rahbariyat KPI ko’rsatkichlari bilan bog’lash zarur.

Takomillashtirilgan mexanizmning asosiy natijasi bitiruvchining mehnat bozoriga tayyor, raqobatbardosh, amaliy ko’nikmalarga ega va o’z kasbiy yo’lini mustaqil boshqara oladigan mutaxassis sifatida shakllanishidir. Bunda oliy ta’lim tashkiloti diplom beruvchi muassasa emas, balki bitiruvchining kasbiy kelajagi uchun mas’ul, ish beruvchi bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlaydigan, innovatsion va tadbirkorlik muhitini yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida namoyon bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-sonli “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ–61-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko’maklashish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori.
4. Oliygothlar bitiruvchilarining bandligini ta’minlash masalalari muhokama qilindi // O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 08.06.2026.
5. OTM bitiruvchilarini ishga joylashishiga ko’maklashuvchi “Kelajakka qadam” dasturi amalga oshiriladi // O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi veb-sayti. 18.02.2025.
6. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. “OTM bitiruvchilarini ishga joylashishiga ko’maklashuvchi ‘Kelajakka qadam’ dasturi amalga oshiriladi”. 18.02.2025.
7. Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda baholash mezonlari bo’yicha indikatorlar // O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi. 24.12.2025.
8. World Bank. Uzbekistan.

OLIY TA'LIM SIFATI: TALABALAR BAHOSI VA USTUVORLIKLARI

**Axmedov To'ychi Adashevich,
Kasimov Botir Sadriddinovich,
Abdurahmonov Nodirbek Farhodjonovich**

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi, O'zbekiston

Inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan XXI asrda oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi institut, balki innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va yuqori malakali kadrlar tayyorlash markazi sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Shu bois ta'lim sifati milliy taraqqiyotning strategik ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, universitetlar faoliyatini baholashda infratuzilma yoki professor-o'qituvchilar tarkibi bilan bir qatorda talabalarning qoniqish darajasi ham asosiy indikatorlardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Sababi, talaba ta'lim xizmatining bevosita iste'molchisi bo'lib, uning fikri ta'lim jarayonidagi haqiqiy holatni aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan talabalarning universitet muhiti, dars sifati, pedagogik yondashuvlar va ta'lim jarayoni haqidagi munosabatlarini muntazam o'rganish ta'lim siyosati samaradorligini baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida universitetlar soni ko'paydi, qabul kvotalari kengaydi, raqamli ta'lim tizimlari joriy etildi, xalqaro hamkorlik rivojlantirildi hamda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlari shakllantirildi. Biroq mazkur o'zgarishlarning talabalar tomonidan qanday qabul qilinayotgani, ularning ta'lim sifatiga ta'siri va mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi talabalar fikri asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining hozirgi holatini baholash, mavjud tendensiyalar va muammolarni aniqlash hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot empirik sotsiologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Ma'lumotlar Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi tomonidan survey.edu.uz platformasi orqali yig'ildi.

So'rovnoma respublikadagi 127 ta oliy ta'lim muassasasini qamrab oldi. Ulardan 95 tasi davlat va 32 tasi nodavlat universitetlari hisoblanadi. Tadqiqotda bakalavriyatning kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan jami 78 682 nafar talaba ishtirok etdi.

Bunday katta hajmdagi tanlanma mamlakat oliy ta'lim tizimida talabalar fikrini reprezentativ darajada baholash imkonini beradi. Shuningdek, davlat va nodavlat universitetlarining qamrab olinganligi natijalarning ishonchliligini yanada oshiradi.

Maqolada javoblar tavsifiy statistika, nisbiy ulushlarni taqqoslash, mazmunli tahlil va interpretatsiya usullari orqali o'rganildi. Tahlil jarayonida raqamlarning o'zi bilan cheklanilmasdan, ularning ta'lim siyosati uchun ahamiyati ham baholandi. Bu esa tadqiqot natijalarini oddiy

statistik hisobot emas, balki ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha analitik material sifatida baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Universitet tanlashda talabalar ustuvorliklari: shaxsiy qiziqishning ustunligi

Talabalarning universitet va mutaxassislik tanlashi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Pedagogika va ta'lim psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kasbni ongli va mustaqil tanlagan talabalarning akademik faolligi, darslarda ishtiroki hamda kelgusida mehnat bozoriga moslashuv darajasi yuqoriroq bo'ladi. Shu bois mazkur tadqiqotda universitet tanlash motivlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 72 foizi (56 749 nafar) universitet va mutaxassislikni tanlashda shaxsiy qiziqish asosiy omil bo'lganini qayd etgan. Bu ko'rsatkich yoshlar o'rtasida ongli kasb tanlash madaniyati tobora shakllanayotganini anglatadi. Avvalgi yillarda ota-ona xohishi yoki jamiyatdagi stereotiplar asosiy omil sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, hozirgi natijalar shaxsiy manfaat va kasbiy o'zini anglashning kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda.

Biroq natijalarning ikkinchi jihati ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 14 foiz (10 609 nafar) talabalar universitetni uning nufuzi va istiqbolliligi sababli tanlaganini bildirgan. Bu holat abituriyentlar mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olishga harakat qilayotganini ko'rsatadi. Demak, universitet brendi va bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi ham tanlovga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, 6 foiz (4 979 nafar) talabalar mutaxassislikni ota-ona yoki yaqinlarining tavsiyasi bilan tanlagan. Bu ko'rsatkich nisbatan past bo'lsa-da, oila institutining kasb tanlashdagi ta'siri hali ham saqlanib qolayotganini anglatadi.

Tahlilning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, 3,8 foiz (3 026 nafar) talabalar past o'tish ballari tufayli, 4,2 foiz (3 319 nafar) esa tasodifan hujjat topshirganini bildirgan. Ya'ni qariyb har o'n ikkinchi talaba o'z mutaxassisligini ongli ravishda tanlamagan. Bu holat keyinchalik ta'limga qiziqishning pasayishi, akademik o'zlashtirishning susayishi hamda kelajakda kasbini o'zgartirish ehtimolining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Demak, mazkur natijalar kasbga yo'naltirish tizimini maktab bosqichidan boshlab kuchaytirish, abituriyentlarning qobiliyati va qiziqishini aniqlashga xizmat qiluvchi psixologik diagnostika hamda professional maslahat xizmatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

So'rovnomaning keyingi qismi talabalarning o'z universitetidagi ta'lim jarayoniga munosabatini baholashga qaratildi.

Natijalarga ko'ra, ishtirokchilarning 57 foizi (45 107 nafar) universitetlarda ta'lim jarayoni texnik imkoniyatlar bilan yetarli darajada ta'minlanganini bildirgan. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda raqamli platformalar, multimedia vositalari, elektron ta'lim tizimlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar muayyan samara berayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, 25 foiz (19 490 nafar) talabalar an'anaviy va zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilayotganini qayd etgan. Bu esa universitetlarda gibrid ta'lim modeli shakllanayotganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv nazariy bilimlarni raqamli resurslar bilan boyitish imkonini beradi.

Yana 13 foiz (10 167 nafar) talabalar ta'lim jarayoni to'liq zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilganini ta'kidlagan. Ushbu ko'rsatkich hozircha yuqori emas. Bu raqam mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari boshlangan bo'lsa-da, uning barcha universitetlarda bir xil sur'atda kechmayotganini anglatadi.

Shu bilan bir vaqtda, 2,8 foiz (1 849 nafar) talabalar darslar sifatsiz tashkil etilayotganini, 1,3 foiz (860 nafar) esa darslarga qiziqishi yo'qligini bildirgan.

Foiz jihatidan bu ko'rsatkichlar katta emasdek ko'rinsa-da, mutlaq sonlarda qariyb 2,7 ming nafar talabani ta'lim jarayonidan qoniqmasligi ta'lim sifati uchun jiddiy signal hisoblanadi. Chunki hatto nisbatan kichik ulush ham butun tizimda muayyan institutsional muammolar mavjudligini anglatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim sifati infratuzilma bilan emas, balki pedagogik texnologiyalar, talabalar faolligini ta'minlaydigan interfaol metodlar va akademik muhit sifati bilan ham belgilanadi.

So'rovnomaning eng muhim natijalari talabalar ta'lim sifati oshirish bo'yicha qaysi yo'nalishlarni ustuvor deb bilishlarini aks ettirdi.

Eng yuqori ko'rsatkich 42 foiz (32 918 nafar) talabalar tomonidan bildirildi. Ular surunkali ravishda dars o'tmaydigan yoki o'quv rejasidan chetga chiqadigan professor-o'qituvchilarga nisbatan qat'iy choralar ko'rish zarurligini ta'kidladilar.

Bu natija juda muhim ilmiy xulosani anglatadi. Talabalar uchun ta'lim sifati, avvalo, zamonaviy binolar yoki texnik vositalar emas, balki professor-o'qituvchining mas'uliyati va auditoriyadagi faoliyati bilan belgilanadi. Demak, inson kapitali ta'lim sifatida hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, 7 foiz (5 704 nafar) talabalar yuqori ilmiy darajaga ega professorlar o'rniga assistentlar yoki magistr dars o'tishini salbiy baholagan. Bu holat talabalarning akademik adolat va ta'lim xizmatining sifatiga nisbatan talabchanligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari talabalar raqamli ta'lim infratuzilmasini yanada kengaytirish zarurligini ham ko'rsatdi.

Jumladan, 13 foiz (10 492 nafar) talabalar raqamli platformalardan to'liq foydalanish lozimligini ta'kidlagan. Bu talabalarning elektron ta'lim resurslari, mustaqil ta'lim materiallari, onlayn baholash tizimlari va raqamli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi.

Boshqa tomondan, 15 foiz (12 013 nafar) talabalar ortiqcha qog'ozbozlik, majlisbozlik va tadbirbozlikni qisqartirish zarurligini bildirgan.

Mazkur natija ta'lim muassasalarida vaqt resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarbligini ko'rsatadi. Agar professor-o'qituvchilarning asosiy vaqti hisobot va tashkiliy jarayonlarga sarflansa, bu ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun universitetlarda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish nafaqat ma'muriy samaradorlikni, balki ta'lim samaradorligini ham oshiradi.

Tadqiqotning eng qiziqarli natijalaridan biri talabalarning intellektual muhitga bo'lgan talabida namoyon bo'ldi.

Jumladan, 22 foiz (17 555 nafar) ishtirokchi kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi seminarlar, ilmiy tadbirlar va konferensiyalar sonini ko'paytirish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, 63 ta oliy ta'lim muassasasida so'rovda qatnashgan talabalarning 20 foizdan ortig'i aynan shu yo'nalishni ustuvor deb baholagan.

Bu natija zamonaviy talabalar faqat ma'ruza tinglash bilan cheklanib qolishni istamasligini, balki muhokama qilish, mustaqil fikr bildirish, ilmiy bahslarda qatnashish va tadqiqot olib borish imkoniyatlarini kengaytirishni xohlayotganini ko'rsatadi.

Bu holat kompetensiyaviy ta'lim modeliga o'tish jarayoni bilan ham uyg'un hisoblanadi. Chunki mehnat bozorida muvaffaqiyat faqat nazariy bilim emas, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash va ilmiy tahlil ko'nikmalari bilan ham belgilanadi.

Umuman olganda, so'rovnoma natijalari talabalar ta'lim sifati baholashda beshta asosiy ustuvorlikni ilgari surayotganini ko'rsatadi: professor-o'qituvchilar mas'uliyati, raqamli ta'lim muhiti, byurokratik jarayonlarni qisqartirish, ta'limning amaliyligi hamda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi akademik muhitni shakllantirish. Bu ustuvorliklar oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarini belgilashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot respublikadagi 127 ta davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 78 682 nafar talabaning fikri asosida ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kompleks baholash imkonini berdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar tomonidan asosan ijobiy qabul qilinmoqda. Ayniqsa, universitet tanlashda shaxsiy qiziqishning ustuvor omilga aylanayotgani, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaygani hamda zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirishga bo'lgan intilish ta'lim tizimida sifat o'zgarishlari yuz berayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ta'lim sifati faqat moddiy-texnik ta'minot yoki raqamli infratuzilma bilan emas, balki professor-o'qituvchilarning kasbiy mas'uliyati, darslarning muntazam va sifatli tashkil etilishi, talabalar bilan akademik muloqot madaniyati hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash bilan belgilanishini tasdiqladi. Demak, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar markazida inson kapitali, xususan, pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati turishi lozim.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, talabalar endilikda faqat bilim olish emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ilmiy muhokamalarda ishtirok etish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi ta'lim muhitiga ehtiyoj sezmoqda. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning amaliy mazmunini yanada kuchaytirish, o'qitish metodikasini talabalarning faol ishtirokiga asoslangan modellarga bosqichma-bosqich o'tkazish zarurligini anglatadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, maktabdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda kasbga yo'naltirishning uzviy milliy modelini shakllantirish zarur. Bu jarayon psixologik diagnostika, kasbiy qiziqishlarni baholash va mehnat bozori ehtiyojlari haqidagi axborotlarni birlashtirgan yagona tizim asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, professor-o'qituvchilarning dars intizomi va akademik mas'uliyatini baholashning raqamli monitoring tizimini takomillashtirish lozim. Bunda talabalar fikrini o'qituvchilar faoliyatini baholashning muhim indikatorlaridan biri sifatida qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli ta'lim platformalarini faqat o'quv materiallarini joylashtirish vositasi sifatida emas, balki talabalarning mustaqil ta'limi, formativ baholash, akademik maslahat berish va ta'lim analitikasini yuritishning kompleks tizimi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida munozara klublari, ilmiy seminarlar, startap loyihalari, tadqiqot guruhlar va fanlararo konferensiyalar faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu ta'limning mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga yanada yaqinlashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, ta'lim sifatini baholashda talabalar fikrini muntazam monitoring qilish institutsional amaliyotga aylantirilishi lozim. Bunday monitoring natijalari universitetlarning ichki sifatni ta'minlash tizimi, strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD. Education at a Glance. Paris: OECD Publishing.
3. OECD. The Future of Education and Skills 2030. Paris.
4. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris, 2021.
5. Harvey L., Green D. Defining Quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 1993.
6. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. Open University Press.

7. Tinto V. Leaving College: Rethinking the Causes and Cures of Student Attrition. University of Chicago Press.
8. Astin A. Student Involvement: A Developmental Theory for Higher Education. Journal of College Student Personnel.
9. Kuh G. D. High-Impact Educational Practices. AAC&U.
10. Salmi J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. World Bank.
11. Altbach P. G., Reisberg L., de Wit H. Responding to Massification. Sense Publishers.
12. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'limni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
14. Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi. survey.edu.uz platformasi so'rov natijalari.
15. Oliy ta'lim sohasida sifatni ta'minlashga oid milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

OLIIY TA'LIM DASTURLARI SIFATINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY DARSLIKLAR EKOTIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY STRATEGIYA

Safarov Akbar Raxmanovich,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O'zbekiston*

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini ta'minlashning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat bozori talablarining o'zgarishi hamda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modelining kengayishi natijasida universitetlar oldiga ta'lim dasturlarini muntazam modernizatsiya qilish vazifasi qo'yilmoqda. Biroq ta'lim dasturlarini yangilashning o'zi yetarli emas. Agar mazkur dasturlar zamonaviy, ilmiy asoslangan va muntazam yangilalanib boruvchi darsliklar hamda boshqa o'quv resurslari bilan ta'minlanmasa, kutilgan ta'lim natijalariga erishish qiyinlashadi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, yetakchi universitetlar endilikda "bitta eng yaxshi darslik" tamoyilidan voz kechib, "darsliklar ekotizimi" modeliga o'tmoqda. Bu model bosma va elektron darsliklar, ilmiy maqolalar, ochiq ta'lim resurslari, multimedia materiallari, virtual laboratoriyalar, raqamli platformalar va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalarining o'zaro integratsiyasini nazarda tutadi. Bunday yondashuv talabalarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta'lim mazmunining dolzarbligini ta'minlaydi va o'qitish jarayonining moslashuvchanligini oshiradi.

UNESCO ta'kidlaganidek, ochiq va sifatli ta'lim resurslarini rivojlantirish barqaror ta'lim tizimini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. OECD ekspertlari esa raqamli ta'lim muhitida ta'lim dasturlari sifati o'quv resurslarining xilma-xilligi, ochiqligi va doimiy yangilanishi bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadilar. Shu nuqtayi nazardan darsliklar siyosati ta'lim sifatini boshqarishning muhim institutsional mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish sohada muhim natijalarga erishish imkonini bermoqda. Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida zamonaviy darsliklar va o'quv resurslarini rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, darsliklarni yaratish, ekspertizadan o'tkazish, raqamlashtirish, sifatini baholash va muntazam yangilab borish jarayonlarining o'zaro uyg'unligi ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda "darslik" tushunchasi so'nggi yillarda sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi. Ilgari darslik muayyan fan bo'yicha asosiy bilim manbai sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u keng qamrovli ta'lim muhitining tarkibiy qismi sifatida talqin etilmoqda. Shu munosabat bilan xalqaro adabiyotlarda "Textbook Ecosystem", "Learning Resources Ecosystem",

“Digital Learning Ecosystem” kabi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy darsliklar ekotizimi — bu ta‘lim dasturlari, o‘quv natijalari, kompetensiyalar, bosma va elektron darsliklar, ochiq ta‘lim resurslari, raqamli platformalar, baholash vositalari va analitik ma‘lumotlarini yagona tizimga birlashtiruvchi integratsiyalashgan ta‘lim muhitidir. Bunday yondashuvda darslik mustaqil mahsulot emas, balki ta‘lim sifatiga xizmat qiluvchi dinamik tizimning muhim elementi sifatida qaraladi.

Xalqaro tadqiqotlar ushbu ekotizimning kamida to‘rtta asosiy xususiyatini ajratib ko‘rsatadi:

1. Integratsiya — darsliklar ta‘lim dasturi, kompetensiyalar va baholash tizimi bilan konstruktiv muvofiqlashtiriladi.
2. Moslashuvchanlik — ta‘lim resurslari fan va mehnat bozorida o‘zgarishlarga qarab tezkor yangilanadi.
3. Raqamlashtirish — bosma nashrlar elektron formatlar, multimedia materiallari va LMS platformalari bilan uyg‘unlashtiriladi.
4. Ochiqlik va hamkorlik — xalqaro ekspertlar, universitetlar va nashriyotlar ishtirokida darsliklarni yaratish va takomillashtirish mexanizmi shakllantiriladi.

Aynan ushbu xususiyatlar ta‘lim dasturlarining amaliy samaradorligini ta‘minlaydi. Darsliklar ekotizimi ta‘lim mazmunining dolzarbligini saqlash, professor-o‘qituvchilarning akademik erkinligini qo‘llab-quvvatlash va talabalarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, darslik sifati faqat uning ilmiy mazmuni yoki axborot qamrovi bilan emas, balki ta‘lim jarayoniga qo‘shayotgan amaliy hissasi va samaradorligi bilan ham baholanadi. Xususan, darslikning ta‘lim dasturida belgilangan o‘quv natijalari va shakllantirilishi ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga muvofiqligi, raqamli ta‘lim platformalari hamda elektron ta‘lim resurslari bilan integratsiyalashganligi, inklyuziv ta‘lim tamoyillariga mosligi va barcha foydalanuvchilar uchun ochiqligi muhim mezonlar hisoblanadi. Shuningdek, darslikning muntazam yangilanib borish mexanizmiga ega bo‘lishi, xalqaro va milliy ekspertlar ishtirokida ko‘p bosqichli baholashdan o‘tkazilishi hamda professor-o‘qituvchilar, talabalar va ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida doimiy takomillashtirib borilishi uning sifati va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Demak, zamonaviy sharoitda darsliklar siyosati alohida nashrlarni tayyorlash bilan cheklanib qolmasdan, ta‘lim dasturlarining samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi ta‘lim sifatini boshqarish tizimining muhim institutsional tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Jahonning yetakchi universitetlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta‘lim sifati endi faqat o‘quv rejalari yoki professor-o‘qituvchilar salohiyati bilan emas, balki zamonaviy o‘quv resurslarining yaxlit ekotizimi orqali ta‘minlanmoqda. Ilg‘or davlatlarda darsliklar siyosati milliy ta‘lim siyosati va ichki sifatni ta‘minlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Darsliklarni yaratish, tanlash, baholash, raqamlashtirish va muntazam yangilash jarayonlari institutsional darajada boshqariladi.

Finlyandiya oliy ta‘lim tizimida davlat tomonidan majburiy yagona darsliklar amaliyoti mavjud emas. Universitetlar va professor-o‘qituvchilar ta‘lim dasturining maqsad va natijalariga mos ravishda o‘quv adabiyotlarini mustaqil tanlaydilar. Asosiy e‘tibor darslikning o‘ziga emas, balki o‘quv natijalari va kompetensiyalar bilan konstruktiv muvofiqlashtirilishiga qaratiladi. Finlyandiya universitetlarida bir fan bo‘yicha bir nechta darslik, ilmiy maqolalar, raqamli platformalar, videoma‘ruzalar va ochiq ta‘lim resurslaridan kompleks foydalaniladi. Bu yondashuv talabalarda mustaqil izlanish, tahlil qilish va akademik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Singapur ta‘lim tizimida darsliklar siyosati mamlakatning innovatsion iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘langan. Universitetlarda o‘quv resurslari mehnat bozori ehtiyojlari va sanoat hamkorlari ishtirokida muntazam yangilanadi. Darsliklar tayyorlash jarayoniga professorlar,

ish beruvchilar, soha mutaxassislari va xalqaro ekspertlar jalb qilinadi. Shu bois ta'lim mazmuni tez o'zgarayotgan texnologiyalar va kasbiy kompetensiyalarga mos holda doimiy takomillashtirib boriladi.

Janubiy Koreyada raqamli ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalari hamda ta'lim analitikasi universitetlarning kundalik ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilingan. Darsliklar har bir ta'lim dasturining raqamli komponenti hisoblanadi. Ular mobil qurilmalar, LMS platformalari va bulutli texnologiyalar bilan uyg'un ishlaydi. Bu esa o'quv materiallarini tezkor yangilash va talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada universitetlar akademik mustaqillikka ega bo'lsa-da, ta'lim dasturlari va ularda qo'llaniladigan o'quv resurslari ichki va tashqi sifat kafolati mexanizmlari orqali baholanadi. Ta'lim sifatini ta'minlash agentligi (QAA) standartlari asosida har bir ta'lim dasturi o'quv natijalari, baholash usullari va o'quv resurslarining o'zaro muvofiqligi nuqtayi nazaridan ekspertizadan o'tkaziladi. Darsliklar tanlashda xalqaro nashriyotlar, ilmiy bazalar va elektron kutubxonalardan keng foydalaniladi.

AQSH universitetlari darsliklar bozorida raqobat muhitini shakllantirgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Universitetlar muayyan fan bo'yicha bir nechta nashriyot mahsulotlarini qiyosiy baholab, ta'lim maqsadlariga eng muvofiq resurslarni tanlaydi. So'nggi yillarda Ochiq ta'lim resurslari (OER) siyosati kengayib, ochiq litsenziya asosidagi o'quv materiallaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Bu talabalar xarajatlarini kamaytirish, ta'lim resurslarini tezkor yangilash va akademik erkinlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribadan kelib chiqadigan asosiy xulosalar:

Birinchidan, rivojlangan davlatlarda darslik yagona bilim manbai sifatida qaralmaydi. U elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, raqamli platformalar, videoma'ruzalar va ochiq ta'lim resurslari bilan birgalikda yaxlit ta'lim muhitini shakllantiradi.

Ikkinchidan, darsliklar ta'lim natijalari va kompetensiyalar bilan konstruktiv muvofiqashtiriladi. Bu ta'lim dasturlari mazmunining zamonaviy mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, sifat kafolati tizimi darsliklar siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Darsliklar muntazam ekspertizadan o'tkaziladi, foydalanuvchilar fikri asosida takomillashtiriladi va raqamli muhitda doimiy yangilanib boriladi.

To'rtinchidan, ilg'or mamlakatlarda davlat siyosati "eng yaxshi darslikni yaratish" g'oyasiga emas, balki sifatli va barqaror darsliklar ekotizimini shakllantirish tamoyiliga asoslanadi. Bunday ekotizim ta'lim dasturlari, raqamli platformalar, ochiq ta'lim resurslari, xalqaro ekspertiza va mehnat bozori ehtiyojlarini o'zaro integratsiya qiluvchi yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim dasturlari sifatini ta'minlashda asosiy e'tibor alohida darsliklarni yaratishga emas, balki ularning butun hayot siklini qamrab oluvchi tizimni shakllantirishga qaratilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, Respublika oliy ta'lim tizimi uchun "Zamonaviy darsliklar milliy ekotizimi" konseptual modeli taklif etiladi.

Ushbu model darsliklarni yaratishdan tortib, ulardan foydalanish va muntazam takomillashtirishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtiradi.

Mazkur yondashuv darslikni bir martalik nashr sifatida emas, balki uzluksiz rivojlanuvchi ta'lim resursi sifatida qarash imkonini beradi.

Bu yondashuv har bir darslikning dolzarbligini saqlash, mazmunini mehnat bozori va xalqaro akademik tendensiyalarga muvofiq ravishda takomillashtirib borish imkonini beradi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning samaradorligini yanada oshirish hamda xalqaro ilg'or tajribalarni milliy tizimga izchil integratsiya qilish maqsadida quyidagi strategik yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Darsliklar siyosati bo'yicha milliy yondashuvni yanada takomillashtirish. Darsliklarni yaratish, ekspertizadan o'tkazish, raqamlashtirish, joriy etish va muntazam yangilab borish jarayonlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydigan yagona metodologik va tashkiliy mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.
2. Milliy raqamli darsliklar ekotizimini rivojlantirish. Tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va qo'shimcha ta'lim resurslarini yagona raqamli muhitga integratsiya qilish, ularidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy raqamli xizmatlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Darsliklar sifatini baholash tizimini takomillashtirish. Ilmiy, pedagogik, sohaviy va zaruratga qarab xalqaro ekspertlar ishtirokida ko'p bosqichli ekspertiza mexanizmlarini yanada rivojlantirish darsliklar sifatini barqaror oshirishga xizmat qiladi.
4. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishni kengaytirish. Darsliklarning mazmunini tahlil qilish, akademik halollikni ta'minlash, til va uslubni baholash, foydalanuvchilar fikr-mulohazalarini tahlil qilish hamda ta'lim analitikasini rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.
5. Xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish. Dunyoning yetakchi nashriyotlari, universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, nufuzli darsliklarni tarjima qilish, milliy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirish, qo'shma mualliflik asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda ta'lim dasturlari sifatini ta'minlash faqat o'quv rejalari va fan dasturlarini yangilash bilan cheklanmaydi. Ta'lim natijalariga erishish uchun zamonaviy, raqobatbardosh va raqamli ta'lim muhitiga integratsiyalashgan darsliklar ekotizimini shakllantirish zarur. Xalqaro tajriba tahlili Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va AQSHda darsliklar siyosati ta'lim sifati menejmentining muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatdi. Ushbu mamlakatlarda darsliklar mazmuni mehnat bozori ehtiyojlari, kompetensiyalarga asoslangan ta'lim va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan. O'zbekiston uchun taklif etilgan "Zamonaviy darsliklar milliy ekotizimi" modeli darsliklarni yaratish, ekspertizadan o'tkazish, raqamlashtirish, joriy etish, monitoring qilish va muntazam yangilash jarayonlarini yagona tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu model ta'lim dasturlari sifatini oshirish, akademik raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda milliy oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish uchun institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. Recommendation on Open Educational Resources (OER). Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO), 2019. – 7 p.
2. UNESCO, Commonwealth of Learning. Guidelines for Open Educational Resources (OER) in Higher Education. – Paris: UNESCO, 2015. – 76 p.
3. OECD. Open Educational Resources: A Catalyst for Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2015.
4. "Yangi avlod o'quv adabiyotlari qanday bo'lishi kerak?" // "O'zbekistonda oliy ta'lim" jurnali, 2023. <https://edujournal.uz/1055/>
5. Biggs, J. Enhancing teaching through constructive alignment // Higher Education. – 1996. – Vol. 32, No. 3. – P. 347–364.
6. Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA). UK Quality Code for Higher Education. – Gloucester: QAA, 2024.
7. European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA). Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). – Brussels: ENQA, 2015. – 32 p.

OLIIY TA'LIMDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI (KPI) ASOSIDA BAHOLASH: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR

Karimov Xurshidbek Maxammadjonovich,

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi, O'zbekiston

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida universitetlarning milliy hamda xalqaro reytinglardagi o'rnini, ta'lim sifati va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi ko'p jihatdan professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga bog'liq. Shu bois pedagogik faoliyatni obyektiv, o'lchanuvchan va rag'batlantiruvchi tizim asosida baholash zamonaviy ta'lim menejmentining markaziy vazifalaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda: oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi, bir qator OTMLarga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, HEMIS axborot tizimi joriy etildi. Biroq pedagogik faoliyatni baholash mexanizmlari uzoq vaqt asosan miqdoriy — soatbay yuklama va maqolalar soni — mantig'ida qolib keldi. Mazkur maqolaning maqsadi — rivojlangan davlatlarning KPI asosidagi baholash tajribasini qiyosiy o'rganish va shu asosda O'zbekiston uchun amaliy saboqlarni shakllantirishdir.

1. Baholashning nazariy-metodologik asoslari.

Zamonaviy menejment nazariyasida xodimlar faoliyatini baholash asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators — KPI) orqali amalga oshiriladi. KPI ko'rsatkichlari SMART tamoyiliga (aniq, o'lchanuvchan, erishiladigan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan) mos bo'lishi hamda xodim faoliyatini tashkilot strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirishi lozim [Parmenter, 2015].

R. Kaplan va D. Norton taklif etgan muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard — BSC) baholashni bir nechta — moliyaviy, mijoz/talaba, ichki jarayonlar va rivojlanish — yo'nalishlarida muvozanatlash zarurligini ko'rsatadi va biror ko'rsatkichning mutlaq ustunligidan ogohlantiradi [Kaplan & Norton, 1996]. OKR (Objectives and Key Results) modeli esa ambitsiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, ijodiy va ilmiy yutuqlarda moslashuvchanlikni talab qiladi. Zamonaviy tizimli sharhlar oliy ta'limda KPI tizimi institutsional samaradorlikni baholashning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri ekanini tasdiqlaydi, ayni paytda ma'lumotlar sifati va xodimlar qarshiligi kabi muammolarni ham qayd etadi.

2. Buyuk Britaniya: natijaga yo'naltirilgan baholash (TEF).

Buyuk Britaniyada qo'llaniladigan "O'qitish sifati mukammalligi doirasi" (Teaching Excellence Framework — TEF) pedagog va muassasa faoliyatini bitiruvchilarning talabgorligi (employability) va talabalarning qanoatlanish indeksi (National Student Survey) orqali baholaydi. 2023-yilgi baholashda 228 ta ta'lim provayderi ishtirok etdi va ular "oltin", "kumush", "bronza" toifalariga ajratildi; natijalar 2027-yilgacha amal qiladi [Office for Students, 2023].

TEF ning o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat nazorat vositasi, balki muassasaning obro‘si va bilvosita moliyalashtirish darajasini belgilovchi instrumentdir. Bu tizim natijadorlikka kuchli urg‘u beradi, ammo baholashni talaba qoniqishi kabi ko‘rsatkichlarga bog‘lashi ba‘zi tanqidlarga sabab bo‘ladi.

3. Janubiy Koreya: mahsuldorlikka asoslangan ish haqi tizimi.

Janubiy Koreyada ko‘pchilik universitetlarda “mahsuldorlikka asoslangan ish haqi” (performance-based salary) tizimi joriy etilgan bo‘lib, unda ish staji yoki ilmiy darajaga emas, balki individual ilmiy natijalar, o‘qitish bahosi va ijtimoiy hissaga qarab haq to‘lanadi [Kim, 2018]. Tizimning afzalligi — yuqori natija ko‘rsatgan professorlarni munosib rag‘batlantirish va iqtidorli kadrlarni saqlab qolishdir.

Shu bilan birga, tadqiqotlar mahsuldorlikka asoslangan ish haqi tizimi professor-o‘qituvchilarda kasbiy stress va xavotir darajasini oshirishini ko‘rsatadi [Lee & Cho, 2023]. Demak, natija va rag‘batni qat’iy bog‘lash mahsuldorlikni oshirsa-da, xodim farovonligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

4. Finlyandiya: ishonchga asoslangan rivojlantiruvchi model.

Finlyandiya ta’lim modelida pedagog faoliyatini baholash inspeksiya va qat’iy nazoratga emas, balki ishonch va kasbiy rivojlanishga tayanadi. Mamlakatda maktab yoki o‘qituvchi inspeksiyasi mavjud emas; sifatni ta’minlash yo‘naltirish, hamkorlik va jarayonni baholash orqali amalga oshiriladi [Sahlberg, 2021].

Bu yondashuvning asosida pedagoglarning yuqori malakasi (barcha o‘qituvchilar magistr darajasiga ega va tanlov juda qattiq), o‘z-o‘zini baholash (self-evaluation) va hamkasblar nazorati (peer-review) yotadi. Ishonch modelining kuchli tomoni — akademik erkinlikni himoya qilishi va rivojlantiruvchi fikr-mulohaza (developmental feedback) orqali sifatni oshirishidir.

5. Qiyosiy tahlil.

Uchta modelning qiyosiy tahlili baholash tizimlari nazorat va rivojlantirish qutblari orali-g‘ida turli o‘rinlarni egallashini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy baholash modellarining qiyosiy tahlili

Mamlakat / model	Asosiy fokus	Kuchli tomoni	Ehtiyot talab qiluvchi tomoni
Buyuk Britaniya (TEF)	Natijadorlik: bitiruvchi bandligi, talaba qoniqishi	Obro‘ va moliyalashtirish bilan bog‘langan, natijaga yo‘naltirilgan	Talaba qoniqishiga ortiqcha urg‘u, metrikaga moslashish xavfi
Janubiy Koreya (performance-based salary)	Ilmiy mahsuldorlik, individual natija	Kuchli moddiy rag‘bat, iqtidorli kadrlarni saqlash	Kasbiy stress va “yonish”, miqdor ustuvorligi
Finlyandiya (ishonch modeli)	Kasbiy rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash	Akademik erkinlik, rivojlantiruvchi fikr-mulohaza	Yuqori malaka va kuchli institutsional ishonchni talab qiladi

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, samarali tizim integral yondashuvga (o‘quv, ilmiy va ijtimoiy faoliyat muvozanati), obyektivlikka (raqamli ma’lumotlarga tayanish) va motivatsion bog‘liqlikka (natija–rag‘bat uyg‘unligi) asoslanishi, ayni paytda nazorat va rivojlantirish o‘rtasida muvozanatni saqlashi lozim.

6. O‘zbekiston uchun saboqlar va amaliy tatbiq.

Xorijiy tajriba tahlilidan kelib chiqqan saboqlar O‘zbekistonda 2025–2026-yillarda joriy etila boshlangan ikki pog‘onali baholash arxitekturasida amaliy ifodasini topmoqda. Quyida asosiy saboqlar va ularning milliy sharoitdagi tatbiqi keltiriladi.

Birinchi xulosa — natijadorlik va rivojlantirish balansini saqlash. Britaniyaning natijaga yo‘naltirilganligi va Finlyandiyaning rivojlantiruvchi ishonchini uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda rahbar xodimlarni baholashda natijadorlik (samaradorlik.uz platformasidagi choraklik KPI ko‘rsatkichlari), professor-o‘qituvchilarni baholashda esa “ustoz-shogird” va rivojlantiruvchi komponentlar nazarda tutilishi shu balansga xizmat qiladi.

Ikkinchi xulosa — indikativ deformatsiyani oldini olish. Koreya tajribasi ilmiy mahsuldorlikka ortiqcha urgʻu “sunʻiy faollik” va sifat pasayishiga olib kelishini koʻrsatadi. Oʻzbekistonda ishlab chiqilgan professor-oʻqituvchilar faoliyatini baholash mezonlarida (100 ball) ilmiy faoliyat (40 ball) va oʻquv-uslubiy faoliyat (40 ball) teng vazn oladi, qolgan 20 ball “ustoz-shogird” (10) va rivojlanishga hissa (10) oʻrtasida taqsimlanadi. Bu — maqolalar vazni avvalgi 60–70 foizdan 40 balga tushirilib, baholash balanslashtirilganini anglatadi.

Uchinchi xulosa — raqamli avtomatlashtirish va vaqt xarajatini kamaytirish. Baholash jarayonining ortiqcha byurokratik yuklamasi pedagogning asosiy resursi — vaqtni sovuradi. Rahbar xodimlarni baholashni samaradorlik.uz platformasida, professor-oʻqituvchilarni OTM-larning ichki KPI tizimlarida yuritish maʼlumot yigʻishni avtomatlashtirib, inson omilini minimallashtiradi.

Toʻrtinchi xulosa — rahbar va professor-oʻqituvchi pogʻonalarini bogʻlash. Islohot ikki pogʻonali arxitektura asoslanadi: rektor va prorektorlar KPI koʻrsatkichlari (2026-yil 10-iyuldan 8 ta OTMda tajriba tariqasida) universitet strategik maqsadlari bilan, professor-oʻqituvchilarni baholash esa shu maqsadlarning individual darajadagi ifodasi bilan bogʻlanadi. Bu — institutsional va shaxsiy samaradorlikning uzviyligini taʼminlaydi.

Beshinchi xulosa — ish hajmini qayta belgilash. Professor-oʻqituvchilar ish hajmini belgilash qoidalari loyihasida shaxsiy ish rejasi toʻrt yoʻnalishdan — oʻquv yuklamasi, oʻquv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va maʼnaviy-maʼrifiy “ustoz-shogird” ishlaridan iborat etib belgilanmoqda (yillik kamida 360 oʻquv soati). Bu pedagogik faoliyatning koʻp oʻlchovli tabiatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Oltinchi xulosa — tashqi sifat signallarini jalb etish. Britaniya tajribasidagi bitiruvchi bandligi mezoniga hamohang ravishda, talabalar bilimini yakuniy baholashga ish beruvchi korxona va tashkilotlar vakillarini jalb etish taʼlim sifatining tashqi, obyektiv bahosini taʼminlaydi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, pedagogik faoliyatni KPI asosida baholash tizimi faqat nazorat vositasi emas, balki pedagogning kasbiy oʻsishini ragʻbatlantiruvchi va universitet strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi mexanizm boʻlishi lozim. Buyuk Britaniyaning natijadorligi, Koreyaning ragʻbat tizimi va Finlyandiyaning ishonchga asoslangan modeli — har biri maʼlum afzallik va cheklolarga ega.

Oʻzbekiston uchun eng maqbul yoʻl — ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda, natijadorlik bilan kasbiy rivojlantirishni uygʻunlashtiruvchi, raqamli platformalarga tayanuvchi va balanslashgan koʻrsatkichlarga asoslangan tizimni shakllantirishdir. 2025–2026-yillarda joriy etila boshlangan ikki pogʻonali baholash arxitekturasini — samaradorlik.uz platformasi va professor-oʻqituvchilarni balanslashgan mezonlar boʻyicha baholash — aynan shu yoʻnalishdagi amaliy qadam hisoblanadi. Bu tizimning real samaradorligi kelgusida tajriba natijalari va statistik koʻrsatkichlar asosida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy taʼlim tashkilotlari rahbar xodimlarini KPI asosida baholash tizimini takomillashtirish toʻgʻrisidagi buyrugʻi. – Toshkent, 2026.
3. Oliy taʼlim tashkilotlarida professor-oʻqituvchilar ish hajmini belgilash toʻgʻrisidagi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi (ilovalari bilan). – Toshkent, 2026 [loyiha].
4. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 336 p.
5. Parmenter D. Key Performance Indicators: Developing, Implementing, and Using Winning KPIs. 3rd ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2015. – 432 p.

6. Office for Students. Teaching Excellence Framework (TEF) 2023: Outcomes. – London: OfS, 2023.
7. Kim J. Higher Education Reform in South Korea: Issues and Challenges // Higher Education Policy. – 2018. – Vol. 31, No. 1. – P. 1–18.
8. Lee S., Cho Y. Performance-based Pay and Psychological Well-being among Academics: Evidence from Korea // Asia Pacific Education Review. – 2023.
9. Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2021. – 320 p.
10. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023.
11. Saidov M.X. Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent: Moliya, 2021. – 280 b.

INTROVERT VA EKSTROVERT TALABALAR UCHUN DIFFERENSIAL GRAFIK TOPSHIRIQLARNI QO‘LLASHNING SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Isanov Abdumajit Parmanovich,

Jizzax politexnika instituti dotsenti, O‘zbekiston,

Abdurasulov Og‘abek Xayrulla o‘g‘li,

Jizzax politexnika instituti talabasi, O‘zbekiston

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalar shaxsining alohida (individual) xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [1:2]. Jahon amaliyotida differensial ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika va moslashuvchan o‘qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning qobiliyati, o‘quv uslubi hamda temperamentiga mos ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda [2:3]. O‘zbekistonda ham ta’limni individuallashtirish va talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “Muhandislik grafikasi” fani talabalarning fazoviy tafakkuri, ijodiy salohiyati va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, amaliyotda introvert va ekstrovert talabalarning psixologik xususiyatlari ko‘pincha yetarli darajada hisobga olinmay, barcha talabalar uchun yagona topshiriqlar tizimi qo‘llanilmoqda. Bu esa ularning alohida (individual) imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish va ta’lim natijalarini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda [3:2].

Mazkur muammoni hal etish maqsadida tadqiqotda introvert va ekstrovert talabalar uchun temperamentga mos differensial grafik topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hamda uning ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash taklif etiladi. Ushbu yondashuv talabalarning akademik o‘zlashtirishi, amaliy kompetensiyalari, faolligi va qoniqish darajasini oshirish orqali ta’lim sifati menejmentini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy modelni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot Jizzax politexnika institutining “Muhandislik grafikasi” fanidan tahsil olayotgan 703-25 “Biotexnologiya” guruhi talabalarini ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotda 23 nafar talabaning temperament xususiyatlari psixologik tashxis usullari yordamida aniqlanib, ular shartli ravishda introvert va ekstrovert guruhlariga ajratildi. Semestr davomida introvert talabalar uchun alohida (individual) grafik loyihalar, mustaqil chizmachilik topshiriqlari va tahliliy vazifalar, ekstrovert talabalar uchun esa guruhli loyihalar, taqdimotlar va jamoaviy grafik topshiriqlar qo‘llanildi.

**1-jadval. Temperamentga mos differensial
grafik topshiriqlarning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri**

№	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (%)	O'zgarish (%)
1	Akademik o'zlashtirish darajasi	73,2	87,4	+14,2
2	Grafik topshiriqlarni bajarish sifati	71,5	89,3	+17,8
3	Fazoviy tafakkur ko'rsatkichi	69,8	85,6	+15,8
4	Mashg'ulotlardagi faollik darajasi	74,6	91,1	+16,5
5	Mustaqil ishlash kompetensiyasi	72,4	88,5	+16,1
6	Jamoaviy ishlash ko'nikmasi	70,3	86,9	+16,6
7	Talabalarining fan bo'yicha qoniqish darajasi	75,1	92,4	+17,3
8	Ta'lim sifati integral ko'rsatkichi	72,4	88,9	+16,5

Manba: Mualliflar tomonidan 2025–2026 o'quv yilida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida shakllantirilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi temperamentga mos differensial grafik topshiriqlarning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Buning uchun tajriba boshlanishidan oldin va yakunida talabalarining akademik o'zlashtirishi, amaliy kompetensiyalari, mashg'ulotlardagi faolligi hamda ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi baholandi.

1-jadval ma'lumotlari temperamentga mos differensial grafik topshiriqlarning "Muhandislik grafikasi" fanini o'qitish samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, akademik o'zlashtirish darajasi 73,2 foizdan 87,4 foizga oshib, 14,2 foizlik ijobiy o'sishga erishildi. Bu differensial yondashuv talabalarining individual o'rganish xususiyatlariga mos kelganligini ko'rsatadi.

Grafik topshiriqlarni bajarish sifati eng yuqori o'sishlardan birini namoyon etib, 71,5 foizdan 89,3 foizga yetdi. O'sish 17,8 foizni tashkil etdi. Bu natija temperamentga mos topshiriqlar talabalarining amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirganligini ko'rsatadi.

Talabalarining fan bo'yicha qoniqish darajasi 75,1 foizdan 92,4 foizga ko'tarilib, 17,3 foizga oshdi. Mazkur ko'rsatkich differensial ta'lim texnologiyalarining talabalar ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga mos kelganligini tasdiqlaydi.

Mashg'ulotlardagi faollik darajasi 74,6 foizdan 91,1 foizga oshib, 16,5 foizlik o'sishga erishildi. Bu ayniqsa ekstrovert talabalar uchun jamoaviy topshiriqlar, introvert talabalar uchun esa individual grafik loyihalarning samarali tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasi 16,1 foizga, jamoaviy ishlash ko'nikmasi esa 16,6 foizga oshdi. Ushbu natijalar differensial topshiriqlar nafaqat bilimlarni, balki kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Umumlashtirilgan holda, ta'lim sifati integral ko'rsatkichi 72,4 foizdan 88,9 foizga ko'tarilib, 16,5 foizlik o'sishni namoyon etdi. Bu esa temperamentga yo'naltirilgan differensial grafik topshiriqlar tizimi "Muhandislik grafikasi" fanini o'qitish sifatini oshirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, introvert va ekstrovert talabalarining individual psixologik xususiyatlariga mos differensial grafik topshiriqlarni qo'llash ta'lim sifati ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi. Tajriba davomida akademik o'zlashtirish, grafik topshiriqlar sifati, fazoviy tafakkur, mustaqil va jamoaviy ishlash ko'nikmalari hamda talabalar qoniqish darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu esa individual xususiyatlarga moslashtirilgan ta'lim texnologiyalari ta'lim sifati menejmentining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. "Muhandislik grafikasi" fanini o'qitishda talabalar temperamentini aniqlash va hisobga olish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. O'quv yilining boshida psixologik tashxis o'tkazish orqali talabalarining temperament turlarini aniqlash tavsiya etiladi.

2. Introvert va ekstrovert talabalar uchun alohida metodik topshiriqlar bankini yaratish zarur. Bunda introvert talabalar uchun alohida (individual) loyihalar, mustaqil grafik ishlanmalar va tahliliy vazifalar, ekstrovert talabalar uchun esa jamoaviy grafik loyihalar va interaktiv topshiriqlar ishlab chiqilishi lozim.

3. Oliy ta'lim muassasalarining ishchi o'quv dasturlariga differensial ta'lim elementlarini kiritish tavsiya etiladi. Bu ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirish va talabalarning alohida (individual) salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

4. Professor-o'qituvchilar uchun temperamentga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu ularga turli temperamentdagi talabalar bilan samarali ishlash imkonini beradi.

5. "Muhandislik grafikasi" fanida baholash mezonlarini takomillashtirish va talabalar temperamentiga mos faoliyat turlarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlarni joriy etish zarur. Bu baholash jarayonining adolatlilikini ta'minlaydi.

6. Grafik topshiriqlarni raqamlashtirish va moslashtirilgan elektron platformalar orqali taqdim etish tavsiya etiladi. Bunday platformalar talabaning individual xususiyatlariga mos topshiriqlarni avtomatik tanlash imkoniyatini yaratadi.

7. Temperamentga asoslangan ta'lim texnologiyalarini oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifati strategiyasiga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, introvert va ekstrovert talabalar uchun differensial grafik topshiriqlarni qo'llash "Muhandislik grafikasi" fanini o'qitish sifatini oshirishning samarali pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarning alohida (individual) imkoniyatlarini to'liq namoyon etish, o'quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda ta'lim sifati menejmentining samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуганиев, А., и др. (2016). Отбор объектов для практических работ студентов по черчению. Молодой ученый, (2), 113–117.
2. Soatov, A. M. (2020.). The quality education for engineering graphics teaching material construction. JournalNX, 270–277.
3. Soatov, A. M. (2023). Ta'limda sifat ko'rsatkichlari va bu borada rivojlangan xorijiy mam-lakatlar tajribasidan ba'zi andazalar. Экономика и социум, 4-2 (107), 271–273.

MAGISTRATURA TA'LIMIDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA TADQIQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Parmanov Jamshid Tog'aymurodovich,

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ta'lim tizimining globallasuvi hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonlari oliy ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ushbu vazifalar orasida magistratura ta'limi bosqichida tahsil olayotgan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, ilmiy muammolarni aniqlash va hal qilish, ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv magistratura ta'limining ustuvor metodologik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijalarini faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki shaxsning amaliy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi bilan baholashni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv magistrantlarning kasbiy va ilmiy faoliyatda uchraydigan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, ularga nisbatan asoslangan qarorlar qabul qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli magistratura ta'limida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Pedagogika fanida kategoriyalar tizimi muhim metodologik ahamiyatga ega. Pedagogik jarayon, pedagogik tizim, pedagogik faoliyat, ta'lim, tarbiya, rivojlantirish, shakllantirish kabi tushunchalar ilmiy tadqiqotlarning nazariy asosini tashkil etadi. Magistratura ta'limida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ham ushbu kategoriyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning mazmuni va mohiyatini chuqur anglashni talab qiladi. Bunda pedagogik faoliyatning maqsadlari, vositalari, metodlari va natijalari tadqiqot faoliyatining tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot metodlari ilmiy bilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot metodlari orqali ilmiy muammolar aniqlanadi, nazariy qarashlar ishlab chiqiladi, gipotezalar ilgari suriladi va empirik ma'lumotlar asosida ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Magistrantlarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ilmiy metodlar magistrantlarga yangi bilimlarni egallash, ilmiy muammolarni tahlil qilish va ularning yechimini topish imkonini beradi.

Tadqiqot metodlarining asosiy xususiyatlari ob'ektivlik, universallik, takrorlanuvchanlik, maqsadga muvofiqlik, zaruriyat va samaradorlikdan iboratdir. Ob'ektivlik tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi. Universallik esa metodlarning turli ilmiy sohalarida qo'llanilish imkoniyatlarini anglatadi. Takrorlanuvchanlik ilmiy natijalarning bir xil sharoitlarda qayta olinishi mumkinligini bildiradi. Maqsadga muvofiqlik va zaruriyat tadqiqotning aniq reja

asosida tashkil etilishini ta'minlaydi. Samaradorlik esa olingan natijalarning amaliyotga tatbiq etilish darajasini ifodalaydi.

Magistratura ta'limida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish muammosining mohiyati ushbu jarayonning tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq ilmiy qarashlar hamda pedagogik tajribalarni tahlil qilish orqali namoyon bo'ladi. Muammoning mohiyati uning kelib chiqish sabablarini, rivojlanish bosqichlarini va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Magistratura ta'limida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganish jamiyatning ilmiy salohiyatga bo'lgan ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun ularda tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish zarur. Bu esa magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Natijada magistrantlar ilmiy muammolarni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning muhim jihatlaridan biri ta'lim oluvchini faol sub'ekt sifatida e'tirof etishdir. Ushbu yondashuvga ko'ra magistrant tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki yangi bilimlarni mustaqil ravishda yaratuvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi shaxs hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida magistrantlarning mustaqil ishlari, ilmiy loyihalardagi ishtiroki, ilmiy maqolalar yozishi va ilmiy konferensiyalarda qatnashishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot kompetensiyasi murakkab integrativ sifat bo'lib, u bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Birinchi navbatda motivatsion komponent magistrantning ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini va ehtiyojini aks ettiradi. Ikkinchi komponent kognitiv komponent bo'lib, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, nazariy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni o'z ichiga oladi. Uchinchi komponent operatsion-faoliyat komponenti bo'lib, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi. To'rtinchi komponent refleksiv-baholash komponenti bo'lib, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va baholash imkoniyatlarini ifodalaydi.

Magistratura ta'limida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi ko'plab pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq. Ulardan biri ta'lim jarayonini ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiyalash hisoblanadi. Bunday integratsiya magistrantlarga nazariy bilimlarni amaliy tadqiqot faoliyatida qo'llash imkonini yaratadi. Ikkinchi muhim shart ilmiy rahbar va magistrant o'rtasidagi samarali hamkorlikdir. Ilmiy rahbarning maslahatlari va metodik yordami magistrantning ilmiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Muammoning mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ilmiy tadqiqot faoliyatining rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-metodologik omillar bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar jamiyat ehtiyojlari va mehnat bozori talablarini aks ettiradi. Ijtimoiy-pedagogik omillar ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq. Ilmiy-metodologik omillar esa ilmiy tadqiqotlar metodlari va texnologiyalarining takomillashuvini ifodalaydi.

Magistrantlarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuv muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra har qanday kompetensiya faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Tadqiqot faoliyatining maqsadi ilmiy muammoni hal qilish bo'lsa, uning obyekti muayyan pedagogik yoki ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tadqiqot sub'ekti sifatida magistrant va ilmiy rahbar faoliyat yuritadi. Tadqiqot vositalari ilmiy metodlar, axborot texnologiyalari va ilmiy manbalardan iborat bo'ladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari magistrantlarning tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, raqamli platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ilmiy izlanishlar samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, magistrantlardan axborot madaniyati va akademik halollik tamoyillariga rioya qilish talab etiladi.

Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida magistrantlarda ilmiy tafakkur shakllanadi. Ilmiy tafakkur muammolarni tizimli tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Bu esa kelgusida ularning ilmiy va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, magistratura ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish, muammoning mohiyatini tahlil qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish magistrantlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Natijada magistratura bitiruvchilarida ilmiy tadqiqot olib borish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish kompetensiyalari shakllanadi hamda takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Суховиенко Е.А. Информационные технологии педагогической диагностики: теория и практика: Монография. Челябинск: Юж.-Урал. кн. изд-во, 2005. 238 с.
2. Таланчук Н.М. Воспитание синергетическая система ориентированного человековедения. Казань: Дом печати, 1998. 135 с.
3. Талызина Н.Ф. Деятельностный подход к построению модели специалиста // Вестник высшей школы. 1986. № 3. С. 10-14.
4. Талызина Н.Ф. Методика составления обучающих программ:
5. Учеб. пособие. М.: Изд-во МГУ, 1980. 47 с.
6. Талызина Н. Ф. Педагогическая психология: Учеб. пособие. М.: Издательский центр «Академия», 1998. 288 с.
7. Талызина Н.Ф. Теоретические основы разработки модели специалиста. М.: Знание, 1986. 108 с.
8. Татаринов Ю.Б. Проблемы оценки эффективности фундаментальных исследований: логико-методологические аспекты. М.: Наука, 1986. 227 с.
9. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. 2004. № 3. С. 20-26.
10. Теоретические основы содержания общего среднего образования. М.: Педагогика, 1983. 352 с.
11. Терегулов Ф.Ш. Передовой педагогический опыт: Теория распознавания, изучения, обобщения, распространения и внедрения. М.: Педагогика, 1991. 296 с.

MECHANISMS OF MANAGING EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Isroilova Navruza Baxtiyorjon qizi,

Fergana State Technology University, Uzbekistan

In recent years, the rapid development of digital technologies has significantly transformed the global education system. Higher education institutions are increasingly integrating information and communication technologies into teaching, learning, and management processes in order to improve educational quality and ensure effective organization of academic activities. The modernization of higher education requires innovative approaches that can respond to the growing demands of society, the labor market, and the digital economy.

Digital technologies play an important role in enhancing the quality of education by providing access to modern educational resources, improving communication between teachers and students, and creating opportunities for interactive and student-centered learning. The use of electronic learning platforms, virtual classrooms, online assessment systems, and digital monitoring tools has become an essential component of contemporary higher education. These technologies not only simplify the educational process but also increase transparency, efficiency, and accountability in quality management systems.

The concept of education quality management is closely connected with continuous monitoring, evaluation, and improvement of educational outcomes. Traditional management methods are gradually being replaced by innovative digital mechanisms that allow educational institutions to collect, analyze, and manage academic data more effectively. Through digital management systems, universities can monitor students' academic performance, evaluate teachers' professional activities, and identify challenges within the educational process in a timely manner.

Furthermore, the integration of digital technologies into higher education contributes to the development of students' independent learning skills, critical thinking, creativity, and professional competencies. Distance learning technologies and online educational platforms provide flexible learning opportunities and support lifelong learning principles. Especially after the global changes caused by the COVID-19 pandemic, the importance of digital transformation in higher education has become even more evident worldwide.

At the same time, the implementation of digital technologies in education requires the improvement of technical infrastructure, digital literacy, and pedagogical competencies of educators. Effective quality management mechanisms should ensure the proper use of innovative technologies, data security, accessibility of educational resources, and equal learning opportunities for all students.

This article examines the mechanisms of managing education quality in higher education based on digital technologies, analyzes the advantages of digital management systems, and discusses innovative approaches aimed at improving the effectiveness and competitiveness of higher education institutions.

Theoretical Part.

The digital transformation of higher education has become one of the most important directions in the modernization of the educational system. The integration of digital technologies into educational processes creates opportunities for improving teaching quality, increasing management efficiency, and developing innovative learning environments. In modern higher education institutions, digital technologies are widely used not only for delivering educational content but also for monitoring, evaluating, and managing the overall quality of education.

Education quality management refers to a systematic process aimed at ensuring continuous improvement in teaching, learning, assessment, and institutional performance. Traditionally, quality management in higher education was based on paper documentation, manual monitoring, and conventional teaching methods. However, the rapid development of information and communication technologies has changed the approaches to educational management. Today, universities increasingly apply digital platforms, automated assessment systems, electronic databases, and online communication tools to organize and control educational activities more effectively.

One of the important components of digital education quality management is the Learning Management System (LMS). LMS platforms such as Moodle, Google Classroom, Blackboard, and Canvas allow teachers to upload learning materials, organize assignments, monitor students' participation, and evaluate academic performance electronically. These systems provide transparency and convenience in the educational process while helping institutions collect and analyze academic data efficiently.

Another significant mechanism is the use of digital monitoring and assessment systems. Through online quizzes, electronic examinations, and automated grading tools, higher education institutions can evaluate students' knowledge more objectively and quickly. Digital assessment technologies also reduce paperwork, minimize human errors, and provide immediate feedback to students. Continuous monitoring of academic performance helps universities identify learning difficulties and improve educational strategies in a timely manner.

Digital technologies also contribute to improving communication and collaboration within the educational environment. Video conferencing applications, online discussion forums, virtual classrooms, and cloud-based platforms support interaction between teachers and students regardless of geographical location. This is especially important in distance and blended learning systems where digital communication tools become the primary means of educational interaction.

The application of big data and artificial intelligence technologies in education quality management is becoming increasingly popular. Educational institutions can analyze students' learning behavior, attendance, academic achievements, and engagement through digital analytics systems. Based on collected data, universities can predict academic risks, improve curriculum effectiveness, and personalize learning experiences according to students' individual needs.

Moreover, digital transformation supports competency-based education, which focuses on developing practical skills, creativity, critical thinking, and problem-solving abilities. Interactive educational technologies such as virtual laboratories, simulations, multimedia resources, and gamification methods make learning more engaging and effective. As a result, students become more active participants in the learning process.

Despite the numerous advantages of digital technologies, several challenges still exist in implementing effective education quality management systems. These challenges include insufficient technical infrastructure, lack of digital skills among educators, cybersecurity risks, unequal access to internet resources, and resistance to technological changes. Therefore, higher education institutions should continuously invest in digital infrastructure, teacher training, and innovative pedagogical approaches.

Digital Technologies Used in Higher Education Quality Management. Table 1.

Digital Technology	Main Function	Advantages in Education Quality Management
Learning Management Systems (LMS)	Organizing learning materials and assignments	Improves monitoring, transparency, and student participation
Online Assessment Systems	Conducting tests and examinations electronically	Provides fast and objective evaluation of students' knowledge
Virtual Classrooms	Supporting online and distance learning	Enhances communication and flexibility in education
Electronic Monitoring Systems	Tracking academic performance and attendance	Helps identify educational problems quickly
Cloud Technologies	Storing and sharing educational resources	Ensures accessibility and collaboration
Artificial Intelligence (AI) Tools	Analyzing educational data and predicting outcomes	Supports personalized learning and decision-making
Digital Libraries	Providing access to electronic academic resources	Expands research opportunities and independent learning
Video Conferencing Platforms	Conducting online lectures and meetings	Facilitates interactive teaching and remote communication

The analysis of digital technologies used in higher education quality management demonstrates that modern technological tools play a significant role in improving the effectiveness and efficiency of educational processes. Learning Management Systems, online assessment platforms, virtual classrooms, and data analytics systems help educational institutions organize teaching activities more systematically and transparently.

The table also shows that digital technologies contribute to better monitoring of students' academic performance, faster evaluation processes, improved communication, and greater accessibility to educational resources. In particular, artificial intelligence and data analytics technologies provide opportunities for personalized learning and informed decision-making in education management.

Furthermore, the integration of cloud technologies, mobile learning applications, and digital libraries supports flexible and student-centered learning environments. These technologies increase students' engagement, encourage independent learning, and strengthen professional competencies.

Overall, the effective implementation of digital technologies in higher education quality management can enhance educational quality, optimize institutional performance, and increase the competitiveness of universities in the global educational environment.

REFERENCES:

1. Benavides, L. M. C., Tamayo Arias, J. A., Arango Serna, M. D., Branch Bedoya, J. W., & Burgos, D. (2020). Digital Transformation in Higher Education Institutions: A Systematic Literature Review. *Sensors*, 20(11), 3291. <https://doi.org/10.3390/s20113291>
2. Choi-Lundberg, D. L., Butler-Henderson, K., Harman, K., & Crawford, J. (2023). A systematic review of digital innovations in technology-enhanced learning designs in higher education. *Australasian Journal of Educational Technology*, 39(3), 133–162. <https://doi.org/10.14742/ajet.7615>
3. Esteve, F., Postigo Fuentes, A. Y., & Castañeda, L. (2022). A strategic approach of the crucial elements for the implementation of digital tools and processes in higher education. *Higher Education Quarterly*, 77(3), 558–573. <https://doi.org/10.1111/hequ.12411>
4. Alenezi, M., Wardat, S., & Akour, M. (2023). The Need of Integrating Digital Education in Higher Education: Challenges and Opportunities. *Sustainability*, 15(6), 4782. <https://doi.org/10.3390/su15064782>

5. Batechko, N., & Lut, M. (2018). Technologies of Higher Education Quality Assurance in the Context of European Practices. *Continuing Professional Education: Theory and Practice*. <https://doi.org/10.28925/1609-8595.2018.3-4.133138>
6. Guri-Rozenblit, S. (2009). *Digital Technologies in Higher Education*. New York: Nova Science Publishers.

TA'LIM SIFATI MENEJMENTIDA ELEKTRON MONITORING TIZIMLARINING AHAMIYATI

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich,

Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston

So'nggi yillarda dunyo miqyosida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish hamda professor-o'qituvchilar faoliyatini natijadorlik asosida baholash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalaridan ta'lim sifati, ilmiy faoliyat samaradorligi va akademik boshqaruvning shaffofligini ta'minlash talab etilmoqda [1:2]. Shu bois AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlarda professor-o'qituvchilar faoliyatini elektron monitoring qilish va baholash tizimlari keng joriy etilib, ular ta'lim sifati, ilmiy natijalar, talabalar fikri hamda xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlari asosida kompleks baholanmoqda [2:3].

O'zbekistonda ham oliy ta'limni raqamlashtirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kredit-modul tizimini joriy etish, elektron universitet konsepsiyasini rivojlantirish hamda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning yangi mexanizmlarini yaratish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi [3:3]. Shuningdek, pedagog xodimlarning o'quv-uslubiy, ilmiy, tarbiyaviy va tashkiliy faoliyatini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Biroq, professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash jarayonida ma'lumotlarning turli manbalarda tarqoq saqlanishi, ko'rsatkichlarni yig'ish va qayta ishlashning murakkabligi, inson omili bilan bog'liq subyektivlik hamda monitoring natijalarining yetarli darajada shaffof emasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada ta'lim sifati menejmenti bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishonchli va tezkor tahliliy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari faoliyatini kompleks baholash va monitoring qilishga mo'ljallangan integratsiyalashgan "Elektron monitoring tizimi" modelini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu model pedagog xodimlarning faoliyatiga oid ma'lumotlarni yagona platformada jamlash, avtomatik reyting hisoblash, real vaqt rejimida monitoring olib borish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy ma'lumotlar shakllantirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash va monitoring qilishning elektron modelini ishlab chiqish hamda uning ta'lim sifati menejmenti samaradorligiga ta'sirini asoslashdan iborat.

Tadqiqot Jizzax politexnika instituti "Qurilish muhandisligi" fakulteti tarkibidagi "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida kafedrada faoliyat yuritayotgan 17 nafar professor-o'qituvchi (1 nafar professor, 3 nafar dotsent, 5 nafar katta o'qituvchi va 8 nafar assistent) faoliyati tanlab olindi. Elektron monitoring tizimi joriy

etilishidan oldingi (2022–2023 o‘quv yili) va joriy etilgandan keyingi (2024–2025 o‘quv yili) natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

1-jadval. Kafedra professor-o‘qituvchilarining faoliyat ko‘rsatkichlari dinamikasi.

№	Ko‘rsatkichlar	2022-2023	2023-2024	2024-2025	O‘shish (%)
1	Ilmiy maqolalar soni	18	24	31	72,2
2	Xalqaro konferensiyalardagi maqolalar	9	13	19	111,1
3	O‘quv-uslubiy qo‘llanmalar	4	6	8	100,0
4	Elektron ta‘lim resurslari	12	18	29	141,7
5	Talabalar fan olimpiadalari ishtiroki	15	21	34	126,7
6	Talabalar ilmiy konferensiyalardagi chiqishlari	23	31	47	104,3
7	Malaka oshirish kurslarini tamomlagan pedagoglar ulushi (%)	41	59	88	114,6
8	Talabalar qoniqish darajasi (%)	78	84	92	17,9

Manba: Muallif ishlanmasi. 1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, elektron monitoring tizimining joriy etilishi professor-o‘qituvchilarning ilmiy va pedagogik faolligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, elektron ta‘lim resurslarini yaratish bo‘yicha ko‘rsatkich 12 tadan 29 taga yetib, 141,7 foizlik o‘shish kuzatilgan. Bu esa pedagoglarning raqamli kompetensiyalari va AKTdan foydalanish darajasining oshganligini ko‘rsatadi.

Ilmiy faoliyat ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, ilmiy maqolalar soni 18 tadan 31 taga, xalqaro konferensiyalardagi maqolalar soni esa 9 tadan 19 taga yetgan. Bunga elektron monitoring tizimida ilmiy faoliyat uchun alohida reyting indikatorlarining joriy etilgani sabab bo‘lgan.

Talabalar bilan ishlash ko‘rsatkichlarida ham sezilarli o‘shish kuzatildi. Jumladan, talabalarining ilmiy konferensiyalarda ishtiroki ikki baravardan ko‘proq oshib, 47 taga yetdi. Bu holat professor-o‘qituvchilarning talabalar ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish motivatsiyasi kuchayganligini anglatadi.

2-jadval. Professor-o‘qituvchilar faoliyatining integral reyting ko‘rsatkichlari.

Lavozim	Soni	2022-2023 (o‘rtacha ball)	2024-2025 (o‘rtacha ball)	O‘shish (%)
Professor	1	81	95	17,3
Dotsent	3	73	89	21,9
Katta o‘qituvchi	5	67	84	25,4
Assistent	8	58	77	32,8
Kafedra bo‘yicha o‘rtacha	17	66	84	27,3

Manba: Muallif ishlanmasi. 2-jadval natijalari elektron monitoring tizimining ayniqsa yosh pedagoglar faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatganligini ko‘rsatadi. Assistentlar orasida o‘rtacha reyting ko‘rsatkichi 58 balldan 77 ballga ko‘tarilib, 32,8 foiz o‘shish qayd etildi. Mazkur holat elektron monitoring tizimining motivatsion mexanizm sifatida samarali ishlayotganligini tasdiqlaydi.

Dotsent va katta o‘qituvchilar toifasida ham mos ravishda 21,9 va 25,4 foizlik o‘shish kuzatildi. Umuman olganda, kafedra bo‘yicha integral reyting ko‘rsatkichi 66 balldan 84 ballga oshgan.

3-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, elektron monitoring tizimi nafaqat professor-o‘qituvchilar faoliyatiga, balki ta‘lim sifati ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Xususan, fanlarni o‘zlashtirish darajasi 74 foizdan 86 foizga oshgan bo‘lsa, akademik qarzdorlik darajasi deyarli ikki baravar kamaygan. Talabalar qoniqish indeksining 92 foizga yetishi esa ta‘lim xizmatlari sifatining oshganligini ko‘rsatadi.

3-jadval. Ta'lim sifati menejmenti ko'rsatkichlarining o'zgarishi.

Ko'rsatkich	2022-2023	2024-2025
Fanlarni o'zlashtirish darajasi (%)	74	86
Akademik qarzdorlik (%)	12,4	6,1
Talabalar davomati (%)	81	92
Talabalar qoniqish indeksi (%)	78	92
Ochiq darslarning ijobiy baholanishi (%)	69	91

Manba: Muallif ishlanmasi. Olingan natijalar elektron monitoring tizimi pedagoglar faoliyatining shaffof va uzluksiz nazorat qilinishini ta'minlashi, o'z-o'zini baholash mexanizmini shakllantirishi hamda ta'lim sifati menejmentining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini elektron monitoring qilish tizimini joriy etish ta'lim sifati menejmentini takomillashtirishning samarali mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Jizzax politexnika instituti "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrası misolida o'tkazilgan tahlillar elektron monitoring tizimi professor-o'qituvchilarning ilmiy, o'quv-uslubiy va tarbiyaviy faoliyatini muntazam nazorat qilish, ularning kasbiy faolligini oshirish hamda ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida ilmiy nashrlar soni, elektron ta'lim resurslarini yaratish, talabalar bilan ilmiy ishlash samaradorligi va ta'lim sifati ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Shuningdek, elektron monitoring tizimi baholash jarayonlarida inson omilini kamaytirishi, obyektivlik va adolatlilikni ta'minlashi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish imkonini berishi aniqlandi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning yagona elektron monitoring platformasini yaratish va uni respublika miqyosida joriy etish.

2. Elektron monitoring tizimini HEMIS, elektron jurnal, elektron dekanat va pedagoglar portfeli kabi axborot tizimlari bilan integratsiyalash.

3. Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash mezonlarini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirib borish hamda zamonaviy kompetensiyalarni baholash indikatorlarini kiritish.

4. Talabalar fikrini aniqlashga qaratilgan anonim elektron so'rovnomalar ulushini kengaytirish orqali ta'lim sifati monitoringining obyektivligini oshirish.

5. Monitoring natijalaridan professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish, malaka oshirish, lavozimlarga tavsiya etish va akademik reytinglarni shakllantirishda foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, professor-o'qituvchilar faoliyatini elektron monitoring qilish tizimini joriy etish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmentining innovatsion modelini shakllantirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aynaqulov M. A., & Xudayberdiyev B. B. (2020). Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida. Ilmiy axborotnoma, (2(120)), 91.
2. Soatov A. M. (2023). Ta'limda sifat ko'rsatkichlari va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlardan ba'zi andozalar. Ekonomika i sotsium, (4-2(107)), 271–273.
3. Muxitdinov A. B. (2022). Raqamli iqtisodiyot – mahsulot sifati – nazorat – kasbiy kompetentlilik. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 162–164.

O‘QITUVCHI – TALABA MUNOSABATLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK NAZARIY ASOSLARI

Sadikova Lobar Amirdjanovna,

Shahrisabz davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston

Bugungi kun oliy ta’limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlar ta’lim jarayoni-ning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. O‘zaro hurmat, ishonch va samarali muloqotga asoslangan hamkorlik nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni uzatish, balki o‘zaro hamkorlik, ishonch va hurmatga asoslangan muloqotni shakllantirish orqali tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanmoqda. Shu sababli o‘qituvchi–talaba munosabatlarining pedagogik va psixologik jihatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi munosabati talabalarning motivatsiyasi, darsdagi faolligi hamda akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qilishi qayd etilgan [1]. Shuningdek, talabalar tomonidan sezilgan pedagogik yordam ularning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishi va ta’lim natijalarining yaxshilanishi bilan uzviy bog‘liq ekani aniqlangan [2:13]. Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishda pedagogning psixologik va kasbiy kompetensiyasi muhim omil hisoblanadi [3:45].

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘qituvchi–talaba munosabatlarining pedagogik-psixologik nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularning oliy ta’lim jarayonidagi ahamiyatini zamonaviy ilmiy manbalar asosida yoritishdan iborat.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida o‘qituvchi–talaba munosabatlarining pedagogik va psixologik jihatlariga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchining talabalarga ko‘rsatadigan pedagogik yordami, ularning darsdagi faolligi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuviga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi.

Tahlil uchun so‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy manbalar tanlandi. Robinson (2022) [1:2063] tomonidan taklif etilgan o‘qituvchi–talaba munosabatlarini motivatsiya bilan bog‘lovchi nazariy model, Prananto va hammualliflarining [2:15] tizimli adabiyotlar sharhi hamda Markaziy Osiyo oliy ta’limi sharoitida pedagogik-psixologik kompetensiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosiy manbalar sifatida foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’limida pedagog shaxsining o‘rni va talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligiga oid ilmiy qarashlar ham tahlil qilindi [3:943].

Adabiyotlar tahlili o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatiladigan pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash talabalar motivatsiyasini oshirishini ko‘rsatdi. Robinson (2022) o‘qituvchining samimiy munosabati va muntazam rag‘batlantirishi talabaning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashini ta’kidlaydi. Xuddi shuningdek, Prananto va hammualliflari

(2025)[2:14] tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik yordamni yuqori darajada his qilgan talabalar o'quv faoliyatida faolroq qatnashishi va akademik natijalari yaxshiroq bo'lishi kuzatilgan.

Tahlil shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali tashkil etishda o'qituvchining pedagogik-psixologik kompetensiyasi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olish, konstruktiv fikr-mulohaza bildirish va qulay psixologik muhit yaratish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'limda o'qituvchi-talaba munosabatlari faqat bilim berish jarayoni bilan cheklanmaydi. Samarali ta'lim muhiti o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlikka asoslangan muloqot orqali shakllanadi. Bunday muhit talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga, o'z fikrini erkin ifodalashiga va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash talabalarning ta'limga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llaydigan pedagoglar talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning o'quv faolligini oshirishga erishadilar. Shu sababli zamonaviy oliy ta'limda pedagoglarning nafaqat kasbiy bilimlari, balki muloqot madaniyati, empatiyasi va psixologik kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari o'qituvchi-talaba munosabatlari ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan samimiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit talabalarni dars jarayoniga faolroq jalb qiladi, o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi hamda ularning o'zlashtirish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro ishonch hamda samarali muloqotga asoslangan muhitni yaratish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Pedagogning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda kommunikativ va psixologik ko'nikmalari ham ta'lim jarayonining sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada talabalar o'z salohiyatini to'liq namoyon etish va har tomonlama rivojlanish uchun qulay sharoitga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Robinson, C. D. (2022). A Framework for Motivating Teacher-Student Relationships. *Educational Psychology Review*, 34, 2061 - 2094. <https://doi.org/10.1007/s10648-022-09706-0>
2. Prananto, K., Cahyadi, S., Lubis, F. Y., & Hinduan, Z. (2025). Perceived teacher support and student engagement among higher education students – a systematic literature review. *BMC Psychology*, 13. <https://doi.org/10.1186/s40359-025-02412-w>
3. Mamasakhatovna, Y. S. (2021). The role of teachers in building the foundation of a new development period of Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.02197.2>
4. Abakirov, A., Isakova, C., & Tkacheva, S. (2026). The Role of Psycho-Pedagogical Competence of Teachers in the Formation of Person-Centered Learning in Central Asia. *The International Journal of Diversity in Education*. <https://doi.org/10.18848/2327-0020/cgp/a220>
5. Albertovna, A. N. (2026). Teacher Charisma And Student Engagement: An Empirical Study In The Context Of Higher Education In Uzbekistan. *Current Research Journal of Pedagogics*. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-07-05-07>

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARINING TA’LIM DASTURLARINI TALABALARNING RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘Z- O‘ZINI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRISH

Jo‘rayeva Gulxayo Sabirovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya nafaqat ta’lim mazmunini yangilamoqda, balki talabaning o‘quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, masofiy va aralash (blended learning) ta’lim shakllari, LMS platformalari hamda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarining keng joriy etilishi talabani zamonaviy ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirmoqda. Shu bois talabalarda o‘zini o‘zi tashkil etish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biridir [1].

O‘zini o‘zi tashkil etish kompetensiyasi – bu talabani maqsadga yo‘naltirish, o‘quv jarayonini reja-takliflarga tomon yetkazish; vaqt bilan ishlashni tartibga solish; ta’limning natijasini monitoring qilish hamda o‘zining harakatlarini baholashdir. Raqamli ta’lim sharoitida bunday kompetensiyalarni taraqqiyotiga qulay pedagogik vaziyat yaratiladi. Jumladan – elektron ta’lim materiallari, virtual sinflar, raqamli arxivlar, online-testlar va elektron portfolio shaklidagi materiallar yordamida talabaga mustaqil ishni olib borishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda LMS platformalari (Moodle, Google Classroom, Canvas va h. k.) o‘quv resurslarni tizimli joylashtirish, vazifalarni nazorat qilish, o‘qituvchi – talaba orasida muntazam qayta aloqa o‘rnatish imkonini bermoqda. Shu kabi sharoitlar ta’lim jarayonida talabalarning mas’uliyatiga ega bo‘lishi, vaqt bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi, refleksiya qobiliyatining yuksalishi uchun zarurdir.

Raqamli ta’limning samaradorligi faqat texnologik vositalarga emas, balki ularni pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash uslubiga ham bog‘liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga qaratilgan yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish individual ta’lim trayektoriyasini yaratish, muammoli vazifalarni hal qilish, loyiha faoliyatini tashkil etish, e-portfolio yaratish hamda muntazam refleksiyani amalga oshirish orqali amalga oshiriladi[2:3].

Bundan tashqari sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalari individual tavsiyalarni shakllantirish, o‘quv natijalarini tahlil qilish hamda talabalarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish imkonini yaratmoqda. Shu jihatdan sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida foydalanish zamonaviy raqamli pedagogikaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Modulli ta’limni joriy etish, individual ta’lim trayektoriyalarini qo‘llash, muntazam qayta aloqani ta’minlash hamda raqamli kommunikatsiya vositalaridan kompleks foydalanish talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etish kompetensiyasini samarali rivojlantiradi[3:68].

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida talabalarning o‘z-o‘zini tashkil etish kompetensiyasi rivojlantirishda

zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish zarurligi aniqlandi. Xususan, barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va fan dasturlariga vaqtni boshqarish, mustaqil ta'limni rejalashtirish, metakognitiv usullar, refleksiya hamda raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish kabi ko'nikmalarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularda kasbiy faoliyat davomida mustaqil qaror qabul qilish muammolarni samarali hal etish hamda uzluksiz o'qib o'rganishga tayyorlik kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida LMS platformalari, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari, e-portfolio, raqamli monitoring va formativ baholash mexanizmlaridan kompleks foydalanishga oid uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda talabalarning individual ta'lim trayektoriyalarini qo'llab-quvvatlash Yangi O'zbekiston oliy ta'lim sohasida raqamli transformatsiya samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi [4:8].

Xulosa qilib aytganda raqamli ta'lim muhiti talabalarning o'z-o'zini tashkil etish kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit hisoblanadi. yo'l ochadigan pedagogik texnologiya bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish, individual ta'limni qo'llab quvvatlash, metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish hamda refleksiv faoliyatni muntazam tashkil etish oliy ta'lim sifati va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish talabalarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishva ularning mustaqil ta'lim olish samaradorligini yanada oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Siemens, G. (2015). "Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age". In International journal of instructional technology & distance learning, January 2005, 2 (1). [online]: ITDL. Retrieved September 08, 2016 from http://www.itdl.org/Journal/Jan_05/article01.htm
3. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory into Practice, 41, 64-70. doi:10.1207/s15430421tip4102_2
4. Boekaerts, M., Pintrich, R. P., & Zeidner, M. (2000). Self-Regulation: An Introductory Overview. In M. Boekaerts, P. R. Pintrich, & M. Zeidner (Eds.), Handbook of Self-Regulation (pp. 1-9). San Diego, CA: Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-012109890-2/50030-5>

OLIJ TA'LIM TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTINING INNOVATSION MODELLARI

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,

O'ZMU Jizzax filiali, O'zbekiston

Sifat menejmenti – bu tashkilot faoliyatini doimiy ravishda yaxshilab borish va mijozlar (bu yerda talabalar va ish beruvchilar) ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir. Dastlab bu tizim zavod va fabrikalarda paydo bo'lgan. Mashhur olim Uilyam Edvards Deming ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni kamaytirish uchun “uzluksiz takomillashtirish” g'oyasini ilgari surgan. Keyinchalik bu g'oyalar ta'lim sohasiga ham ko'chirildi [1].

Oliy ta'limda sifatni boshqarishning 8 ta asosiy tamoyili mavjud. Bular: yangi g'oyalarni qo'llash, muntazam islohotlar olib borish, vaziyatga qarab boshqarish, xorijiy tajribalardan foydalanish, jamoa bo'lib ishlash, talabalar va ish beruvchilarning fikrini o'rganish, yaxshi ruhiy muhit yaratish va xodimlarning bilimni muntazam oshirib borish.

OTMLar bugungi kunda bir nechta xalqaro modellardan foydalanmoqda. Garvin modeli asosan strategiyaga qaratilgan. Unda ta'lim dasturlari mehnat bozoriga qanchalik mos kelishi, talabalar kelajakda kerakli bilimlarni olyaptimi degan savollarga javob izlanadi.

Deming modeli uzluksiz takomillashtirish tamoyiliga asoslangan. Deming “PDCA” deb nomlanuvchi tsiklni taklif qilgan: Rejalashtirish – Bajarish – Tekshirish – Takomillashtirish. Bu tsikl yordamida OTMLar o'z jarayonlarini muntazam ravishda yaxshilab boradi. Masalan, birinchi kursda talabalar bilimi past bo'lsa, keyingi yil o'qitish metodikasi o'zgartiriladi, natijalar solishtiriladi va yana takomillashtiriladi [2].

ISO 21001:2018 standart – bu xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan maxsus ta'lim tashkilotlari uchun yaratilgan tizimdir. Unda hujjatlashtirish, mas'uliyatlarni aniq belgilash, rejalashtirish va nazorat qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Qisqa qilib aytganda, Garvin modeli “nima qilish kerak?”ga, Deming modeli “qanday yaxshilash kerak?”ga, ISO modeli esa “buni qanday hujjatlashtirish va tartibga solish kerak?” degan savollarga javob beradi.

So'nggi yillarda “Lean Six Sigma” metodologiyasi mashhur bo'lmoqda. Bu ikki yondashuvning uyg'unligidir.

Lean (tejamkor) – isrofgarchiliklarni yo'qotishga qaratilgan. OTMLarda bu keraksiz ma'muriy jarayonlarni qisqartirish, talabalarga xizmat ko'rsatish vaqtini kamaytirish, hujjat aylanishini soddalashtirishda namoyon bo'ladi [3].

Six Sigma (olti sigma) – bu xatoliklarni deyarli nolga tushirishga qaratilgan usuldir. Ta'limda bu talabalarni baholashdagi noaniqliklarni bartaraf etish, o'quv dasturlaridagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatishda qo'llaniladi.

Raqamli texnologiyalar (Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli tizimlar) sifat menejmentini tamoman o'zgartirmoqda. Masalan, sun'iy intellekt yordamida talabalarning bilimni

real vaqt rejimida baholash, ularning o'zlashtirish dinamikasini kuzatish va kim o'qishni tashlab ketish xavfi borligini oldindan bilish mumkin. Adaptiv boshqaruv modeli.

Adaptiv boshqaruv 3 bosqichdan iborat [6].

Moslashish bosqichi – tashqi o'zgarishlarni (yangi qonunlar, bozor talabi o'zgarishi) tez qabul qilish va ularga yarasha ish tutish.

Tuzatish bosqichi – ichki jarayonlarni tahlil qilish va xatoliklarni tuzatish.

Yangilanish bosqichi – tashkilotning o'z kuchi bilan tashqi muhitga ta'sir qilish va yangi imkoniyatlar yaratish.

Bu modelning asosiy g'oyasi – har bir xodim va talabaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish. “Bir o'ldam hammaga mos keladi” degan tamoyildan voz kechiladi.

EFQM mukammallik modeli. Yevropa sifat menejmenti jamg'armasi (EFQM) modeli ham OTMlarda keng qo'llaniladi. Bu model ikkita katta guruhga bo'linadi: “imkon beruvchilar” (rahbarlik, strategiya, xodimlar, resurslar, jarayonlar) va “natijalar” (talabalar qoniqishi, xodimlar qoniqishi, jamiyat oldidagi natijalar). EFQM modeli OTMni barcha tomonlama – moliyaviy, akademik, ijtimoiy – baholash imkonini beradi [4].

Raqamli texnologiyalar sifat menejmentiga quyidagi imkoniyatlarni bermoqda:

Sun'iy intellekt yordamida test va imtihonlarning ob'ektivligi oshadi.

Katta ma'lumotlar tahlili yordamida talabalarning bilim olish tendensiyalarini kuzatish mumkin.

Masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Canvas) yordamida talabalarning darslarga qatnashishi, topshiriqlarni bajarish sifati, faolligi avtomatik tarzda qayd etiladi. Plagiatni aniqlash dasturlari yordamida talabalar mustaqil ishlarining sifati nazorat qilinadi. Bularning barchasi sifat menejmentini ancha soddalashtiradi va tezlashtiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sohasida katta islohotlar olib borilmoqda. Innovatsion modellarni joriy etishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Klasterli hamkorlik – universitetlar, korxonalar va ilmiy markazlarni birlashtirish. Bu ta'lim dasturlarini amaliyotga yaqinlashtiradi, bitiruvchilarni ishga joylashishini osonlashtiradi [5].

Fasilitatsion ta'lim – o'qituvchini oddiy ma'ruzachidan talabalarga bilim olishda yordam beruvchi “yo'lboshchi”ga aylantirish. Bu usul talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Aralash ta'lim – an'anaviy (yuzma-yuz) va masofaviy ta'limni birlashtirish. Masalan, ma'ruzalarni onlayn, amaliy mashg'ulotlarni esa yuzma-yuz o'tkazish.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – internet tezligini oshirish, zamonaviy kompyuter sinflarini yaratish, professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta'limda sifat menejmentining innovatsion modellari bir qancha umumiy jihatlariga ega: ularning barchasi uzluksiz takomillashtirishni, talabalar va ish beruvchilar ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yishni, jarayonlarni doimiy nazorat qilishni va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Hech bir model hamma OTMlarga birdek mos kelmaydi. Har bir ta'lim muassasasi o'zining kattaligi, yo'nalishi, moliyaviy imkoniyatlari va kadrlar salohiyatiga qarab eng qulay modelni tanlashi yoki bir nechta modellarning qulay tomonlarini birlashtirishi kerak.

O'zbekiston OTMlari uchun eng maqbul yo'l – adaptiv boshqaruv va Lean tamoyillarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishdir. Bu yo'nalishda islohotlarni davom ettirish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dimache A., Barr M., Gorman D. et al. (2025). Editorial: Applying lean six sigma and industry 4.0 concepts to enhance higher education. *Frontiers in Education*, 10:1730531.

2. ISO 21001:2018. Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization.
3. Moscoso Bernal S.A., Pulla Abad C.A., Minchala Bacuilima W.R., Castro López D.P. (2024). Comparative analysis of quality management models: a proposal focused on universities. *Revista Científica UISRAEL*, 11(2).
4. Performance Measurement and Quality Assurance in Higher Education: Application of DEA, AHP, and Bayesian Models. (2025). DOAJ.
5. Qin W. (2025). The Research on Innovative Management to Enhance the Quality of Higher Vocational Colleges in Guangxi, China. *Journal of Education and Learning*, 14(4):44-51.
6. Sharifxo‘jayev M., G‘ulomov S.S. (2022). *Oliy ta’limda menejment asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.

OLIIY TA'LIMDA EMI O'QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING BESHTA XALQARO YONDASHUVI: INTEGRATSIYALASHGAN TIZIM, CLIL DASTURI, UTQ+EMI MODULI, TEACHING ACADEMY VA BOSQICHMA-BOSQICH JORIY ETISH STRATEGIYASI

Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi,

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi, O'zbekiston

Ingliz tilida ta'lim berish (EMI) amaliyoti dunyo bo'ylab jadal rivojlanmoqda va bugungi kunda 80 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda [1]. Biroq, EMI o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga yagona universal yondashuv mavjud emas. Har bir mamlakat va universitet o'z sharoitiga mos model ishlab chiqqan. Ushbu tezisda beshta yetakchi universitetning EMI o'qituvchilarini rivojlantirish yondashuvlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilingan: har bir yondashuvning tamoyillari, mexanizmi, afzalliklari va kamchiliklari ochib berilgan.

1. Integratsiyalashgan tizim (Helsinki universiteti, Finlyandiya)

Nazariy asosi. Helsinki universitetining yondashuvi L.Shulman (1987) ning "pedagogical content knowledge" nazariyasiga asoslanadi [2]. Bu nazariyaga ko'ra, o'qituvchining samaradorligi predmet bilimi, pedagogik mahorat va ularning integratsiyasiga bog'liq. Helsinki universiteti bu modelga CEFR til standarti komponentini qo'shib, uch o'lchovli integratsiyalashgan tizim yaratgan.

Amaliy mexanizmi. O'qituvchining uchta kompetensiyasi — predmet bilimi, til ko'nikmasi (CEFR C1+) va pedagogik mahorat — alohida-alohida, lekin o'zaro bog'langan holda baholanadi. Har yili peer observation (hamkasblar kuzatuv) va talabalar fikr-mulohazasi (student feedback) asosida individual rivojlanish rejasi (Individual Development Plan — IDP) tuziladi [3].

Kuchli tomoni: kompetensiyalarning yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilishi va yillik monitoring tsiklining mavjudligi. Zaif tomoni: tizimning samaradorligi o'qituvchining reflektiv qobiliyatiga yuqori darajada bog'liq bo'lib, bu hamma o'qituvchilarda bir xil rivojlanmagan.

2. CLIL asosidagi dastur (Barselona avtonom universiteti, Ispaniya)

Nazariy asosi. Bu yondashuv D.Marsh (2002) tomonidan ishlab chiqilgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) kontseptsiyasiga tayanadi [4]. CLIL ning bosh g'oyasi shundan iboratki, til va predmet mazmuni ajratilmas yaxlit sifatida o'qitiladi — til predmet orqali o'rganiladi, predmet esa til orqali chuqurroq o'zlashtiriladi.

Amaliy mexanizmi. O'qituvchilar to'rt bosqichli sertifikatli jarayonidan o'tadi: 1) til auiditi — o'qituvchining akademik ingliz tili darajasi va zaif tomonlari aniqlanadi; 2) metodologik trening — CLIL tamoyillari, scaffolding texnikalari va til orqali o'qitish strategiyalari o'rgatiladi; 3) amaliy o'qitish — nazorat ostida dars berish va kuzatuvchilar tomonidan baholash; 4) reflektiv portfolio — o'z tajribasini tizimli tahlil qilish va hujjatlashtirish [5].

Kuchli tomoni: til va predmetni ajratmasdan birgalikda rivojlantirish tamoyili o'qituvchining EMI muhitiga chuqur tayyorlanishini ta'minlaydi. Zaif tomoni: to'rt bosqichli jarayon ko'p vaqt va resurs talab qiladi, kichik universitetlar uchun amalga oshirish qiyin bo'lishi mumkin.

3. UTQ+EMI moduli (Delft texnologiya universiteti, Niderlandiya).

Nazariy asosi. TU Delft yondashuvi D.Ball, M.Thames va G.Phelps (2008) ning “content knowledge for teaching” modeliga asoslanadi [6]. Bu model o‘qitish uchun zarur bo‘lgan bilimlarning predmet bilimidan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi. TU Delft bu tamoyilni akademik ingliz tiliga tatbiq etib, umumiy ingliz tili bilimi va akademik o‘qitish tili ko‘nikmasini farqlagan.

Amaliy mexanizmi. Universitet o‘zining mavjud UTQ (University Teaching Qualification) sertifikatizatsiya tizimiga maxsus EMI modulini qo‘shgan. O‘qituvchilar IELTS/TOEFL kabi standart testlardan tashqari, “academic English for teaching” bo‘yicha alohida test topshiradi. Bu test akademik leksika, ma’ruza qilish diskursi, tushuntirish strategiyalari va talabalar bilan muloqotni baholaydi. Yillik microteaching sessiyalarida amaliy ko‘nikmalar real vaqtda tekshiriladi [7].

Kuchli tomoni: akademik o‘qitish tilini umumiy til bilimidan alohida va maxsus baholash tizimining mavjudligi. Zaif tomoni: texnik universitetlarga moslashtirilgan bo‘lib, gumanitar yo‘nalishlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash qiyinroq.

4. Teaching Academy (Singapur milliy universiteti).

Nazariy asosi. NUS yondashuvi D.Schön (1983) ning reflektiv amaliyotchi (reflective practitioner) nazariyasiga va 360 darajali baholash metodologiyasiga asoslanadi [8]. Schön ta’kidlashicha, professional rivojlanish faqat tashqaridan o‘qitish orqali emas, balki o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish orqali sodir bo‘ladi.

Amaliy mexanizmi. Teaching Academy — universitetning markaziy kasbiy rivojlantirish tashkiloti bo‘lib, barcha EMI o‘qituvchilarni uzluksiz dasturga jalb qiladi. 360 darajali baholash tizimida o‘qituvchi to‘rt tomondan baholanadi: talabalar fikri, hamkasblar kuzatuvi, rahbariyat bahosi va o‘z-o‘zini baholash. Natijalar yagona raqamli platformada jamlanadi va individual rivojlanish traektoriasi shakllantiriladi [9].

Kuchli tomoni: ko‘p qirrali, ob’ektiv baholash va markazlashtirilgan kasbiy rivojlantirish tizimi. Zaif tomoni: tizimni saqlash uchun kuchli institutsional infratuzilma va moliyaviy resurslar zarur.

5. Bosqichma-bosqich joriy etish (Seul milliy universiteti, Janubiy Koreya)

Nazariy asosi. SNU yondashuvi E.Rogers (2003) ning innovatsiyalarni tarqatish (diffusion of innovations) nazariyasiga asoslanadi [10]. Bu nazariyaga ko‘ra, har qanday yangilik jamiyatda bosqichma-bosqich qabul qilinadi: dastlab innovatorlar va erta qabul qiluvchilar, so‘ngra ko‘pchilik.

Amaliy mexanizmi. SNU EMI dasturini dastlab magistratura dasturlarida joriy qilgan — bu yerda talabalar soni kam, motivatsiya yuqori va til darajasi nisbatan baland. Muvaffaqiyatli natijalarga erishilgach, dastur bakalavriat dasturlariga kengaytirilgan. O‘qituvchilar uchun “English Teaching Certificate” majburiy qilingan va yiliga ikki marta sinf kuzatuvi (classroom observation) o‘tkaziladi [11].

Kuchli tomoni: xavfni minimallashtirib, tizimning barqarorligini ta’minlaydi va o‘qituvchilarga moslashish uchun vaqt beradi. Zaif tomoni: to‘liq joriy etish uzoq vaqt (5–10 yil) talab qiladi.

Tahlil natijalariga asoslanib, O‘zbekiston oliy ta’limiga ushbu yondashuvlarni moslashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, SNU ning bosqichma-bosqich strategiyasini asosiy joriy etish modeli sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Avval 5–7 ta yetakchi OTM magistratura dasturlarida sinab ko‘rish, 2–3 yildan so‘ng bakalavriatga kengaytirish kerak. Bu O‘zbekiston uchun eng real va xavfsiz yondashuv.

Ikkinchidan, Barselonaning CLIL asosidagi bosqichli sertifikatizatsiya modelini mahalliy sharoitga moslashtirib, “EMI pedagogikasi” kursi sifatida OTMlarga joriy etish zarur. To‘rt bosqich (til auditi, trening, amaliyot, portfolio) O‘zbekiston pedagog tayyorlash tizimiga organik ravishda integratsiya qilinishi mumkin.

Uchinchidan, TU Delftning “academic English for teaching” alohida testi g‘oyasini qabul qilib, IELTS/TOEFL dan tashqari maxsus EMI til testi ishlab chiqish lozim. Bu test akademik leksika, ma’ruza diskursi va tushuntirish strategiyalarini baholashi kerak.

To‘rtinchidan, NUS ning Teaching Academy modelini boshlang‘ich shaklda joriy etish — yetakchi OTMlarda markazlashtirilgan “EMI rivojlantirish markazi” tashkil etish va 360° baholash elementlarini bosqichma-bosqich kiritish tavsiya etiladi.

Beshta xalqaro yondashuvning har biri EMI o‘qituvchilarini rivojlantirishning muayyan jihatiga e’tibor qaratadi: Helsinki — kompetensiyalar integratsiyasiga, Barselona — til va predmet birligiga, TU Delft — akademik til maxsusligiga, NUS — ko‘p qirrali baholashga, SNU — xavfsiz joriy etishga. O‘zbekiston uchun eng samarali yo‘l — bu beshta yondashuvning kuchli elementlarini birlashtirgan gibrid model yaratish: SNU strategiyasi bilan bosqichma-bosqich joriy etish, Barselona modeli bilan sertifikatsiya, TU Delft testi bilan til baholash va NUS tizimi bilan uzluksiz monitoring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dearden J. English as a Medium of Instruction – a Growing Global Phenomenon. – British Council, 2014.
2. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol.57(1). – P.1–22.
3. University of Helsinki. Language Policy and Guidelines for Teaching in English. – 2020.
4. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL). – University of Córdoba, 2002.
5. Universitat Autònoma de Barcelona. EMI Teacher Development Programme: CLIL-based Approach. – 2019.
6. Ball D.L., Thames M.H., Phelps G. Content Knowledge for Teaching // Journal of Teacher Education. – 2008. – Vol.59(5). – P.389–407.
7. TU Delft. University Teaching Qualification Framework: EMI Module. – 2021.
8. Schön D.A. The Reflective Practitioner. – New York: Basic Books, 1983.
9. National University of Singapore. Teaching Academy: CPD Guidelines. – 2022.
10. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. 5th ed. – New York: Free Press, 2003.
11. Seoul National University. EMI Policy and Implementation Report. – 2020.

HUQUQIY TA'LIM KLASTERI MODELLARI – YURIDIK KADRLAR TAYYORLASH SIFATI MENEJMENTNING INNOVATSION MEXANIZMI SIFATIDA

Aminov Dalerjon Alisher o'g'li,

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston

Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy yuridik ta'lim faqat nazariy bilimlarni emas, balki kasbiy kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar, ilmiy-tadqiqot salohiyati va innovatsion fikrlashni rivojlantirishni ham talab etadi. Shu bois ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, sud-huquq organlari, advokatura, notariat va ish beruvchilar hamkorligiga asoslangan klaster yondashuvi yuridik kadrlar tayyorlash sifati menejmentining muhim institutsional mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni isloh qilishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5987-son Farmoni yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning dastlabki institutsional asoslarini belgilab berdi [3:1]. Keyingi bosqichda qabul qilingan PF-232-son Farmon esa yuridik ta'lim tizimini yanada chuqur isloh qilishga qaratilib, klinik va dual ta'lim tamoyillarini joriy etish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlash, shuningdek, o'quv jarayoniga sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish vazifalarini belgiladi. Mazkur farmon yuridik ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi [4:1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini "5T – ta'lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish" tamoyili asosida rivojlantirish, ilmiy salohiyatni birlashtirish orqali ilmiy klasterlar tashkil etish hamda oliy ta'lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar va soha tashkilotlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish vazifalari belgilandi. Mazkur yondashuv klaster modelining ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlashdagi ahamiyati davlat siyosati darajasida e'tirof etilayotganligini ko'rsatadi [5:1].

Ushbu normativ-huquqiy asoslar yuridik ta'lim tizimida klaster yondashuvini rivojlantirish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlash hamda huquqiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning institutsional mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, "Huquqiy ta'lim klasteri modellari: yuridik kadrlar tayyorlash sifati menejmentining innovatsion mexanizmi sifatida" mavzusi zamonaviy huquqiy ta'lim tizimini transformatsiya qilish, klaster yondashuvi asosida kadrlar tayyorlash sifatini boshqarish hamda innovatsion institutsional modelni ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Dastlab “klaster” atamasi iqtisodiy nazariyada qo‘llanilib, amerikalik iqtisodchi olim Michael Porter tomonidan 1990-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan [2:78]. Uning ta’rifiga ko‘ra, klaster o‘zaro bog‘liq korxonalar, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, ta’lim va ilmiy muassasalarning yagona ekotizim doirasida hamkorlik qilishi asoslangan model hisoblanadi. Iqtisodiyotda klaster yondashuvi raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlash vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa, ta’lim sohasida, xususan yuridik ta’limda, u nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarga ega zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida talqin etiladi.

Ushbu tadqiqot yo‘nalishidagi dastlabki izlanishlarda qayd etilganidek, klasterlashning asosiy jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

- Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish; sud, prokuratura, advokatura va boshqa huquqni qo‘llash organlari bilan hamkorlik;
- talabalarni amaliyotga yo‘naltirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; yuridik xizmatlar va innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda ilm-fan, ta’lim va amaliyot birligi;
- yangi yo‘nalishlar (masalan, raqamli huquq, kiberxavfsizlik, islomiy moliya huquqi) bo‘yicha mutaxassislar tatayyorlash [1:226].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida yuridik ta’limda muhim transformatsiya kuzatilmoqda. An‘anaviy nazariy-dogmatik model bosqichma-bosqich amaliyotga yo‘naltirilgan, klinik, kompetensiyaviy, tarmoq asosidagi va sifat kafolatiga bog‘langan ta’lim modeliga o‘tmoqda.

AQSh modelining klasterli xususiyati shundaki, yuridik ta’lim universitet auditoriyasidan tashqariga chiqib, sudlar, jamoat himoyachisi idoralari (davlat hisobidan advokatlik xizmati), bepul huquqiy yordam ko‘rsatish tashkilotlari, bepul yuridik xizmat (pro bono) markazlari, advokatlik firmalari, davlat idoralari va jamoat manfaatlarini himoya qiluvchi institutlar bilan bog‘lanadi. Klinik yuridik ta’lim talabalarga nazariy bilimni real yoki modellashirilgan (simulyatsion) huquqiy vaziyatda qo‘llash imkoniyatini beradi. Talaba real muammoga duch keladi, mijoz bilan ishlashni o‘rganadi, dalil va normani bog‘laydi, huquqiy xulosa tayyorlaydi va professor-o‘qituvchi yoki amaliyotchi yurist nazorati ostida kasbiy tahlil qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi [6]. Shu sababli AQSh modelida klaster transformatsiyasi amaliyotga yo‘naltirilganlik, kasbiy o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas‘uliyat orqali namoyon bo‘ladi.

Bu modelning muhim klaster xususiyati shundaki, yuridik ta’lim universitet bilan cheklanmaydi: nomzodlar huquqiy amaliyotni advokatlik firmasi, yuridik klinika, ichki yuridik bo‘lim, yuridik xayriya xizmati yoki boshqa yuridik faoliyat muhitida egallashi mumkin. O‘zbekiston uchun bu tajriba “malakaviy amaliyot — yuridik klinika — ish beruvchi bahosi — kasbiy kompetensiya portfolioli baholash” tizimini shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

Yevropada klinik yuridik ta’lim ham alohida yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda. European Network for Clinical Legal Education turli mamlakatlardagi shaxslar va tashkilotlarni klinik yuridik ta’lim orqali adolatga erishish hamda huquqiy ta’lim sifatini oshirish maqsadida birlashtiradi. Mazkur yondashuv yuridik ta’lim klasteri milliy chegaralar bilan cheklanmasdan, xalqaro akademik va professional hamkorlik tarmoqlari orqali ham rivojlanib borishini ko‘rsatadi. [6:1].

Yuridik kadrlar tayyorlash sifati menejmentini innovatsion takomillashtirishda Yaponiya huquqiy ta’lim klasteri modeli alohida ahamiyatga ega. Ushbu tizim huquq maktablari (Hōritsu Daigakuin), sud-adliya organlari va advokatura hamjamiyati o‘rtasidagi uch tomonlama strategik hamkorlikka asoslanadi. Mazkur modelda oliy ta’lim muassasalari yuridik klinika va pro bono loyihalari orqali real keyslar generatori hamda ijtimoiy-huquqiy xizmatlar markazi sifatida faoliyat yuritadi. Universitetlarning hududiy adliya va advokatura klasterlari bilan chuqur integratsiyalashuvi ta’lim sifatini boshqarish jarayonini amaliyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga va yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlashga xizmat qiladi. [1:185].

O‘zbekiston yuridik ta’lim tizimida shakllanayotgan model — normativ-institutsional transformatsiya modeli sifatida talqin qilinishi mumkin. Ya’ni islohotlar normativ-huquqiy asos bilan qo‘llab-quvvatlanayotgani, klinik va amaliy ta’lim elementlari davlat siyosati darajasida tan olinayotganidir. Shu bilan birga, modelning asosiy vazifasi — normativ asoslarni real institutsional mexanizmga aylantirishdir. Ya’ni yuridik ta’lim klasteri faqat hujjatlarda emas, balki universitetlar, kafedra filiallari, sudlar, prokuratura, advokatura, notariat, adliya organlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi muntazam, baholanadigan, natijaga yo‘naltirilgan hamkorlik orqali ishlashi kerak.

Tadqiqot natijalari huquqiy ta’lim klasterini rivojlantirishda klinik ta’lim, dual ta’lim, raqamli texnologiyalar, ilmiy faoliyat va amaliyot integratsiyasini yagona tizim asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda xorijiy tajriba va ilg‘or yondashuvlardan foydalanishda milliy huquqiy tizimning o‘ziga xos jihatlari hamda jamiyat qadriyatlarini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ta’lim klasterining milliy modeli shakllantirilayotganda qonun ustuvorligi, adolat, halollik, kasbiy mas’uliyat, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, vatanparvarlik, jamiyat manfaatlariga xizmat qilish hamda milliy huquqiy an‘analarga sodiqlik kabi qadriyatlarni hisobga olish zarur. Ana shu yondashuv huquqiy ta’lim klasterining nafaqat zamonaviy kompetensiyalarga ega, balki yuksak huquqiy madaniyat va kasbiy etikaga ega huquqshunos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladigan samarali milliy modelga aylanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aminov D.A. Yuridik ta’limda klasterlash tizimining nazariy-huquqiy asoslari // Journal of New Century Innovations. – 2025. – Vol. 84, Issue 1. – B. 225–229.
2. Michael Porter (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF–5987-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF–232-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-sonli “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
6. European Network for Clinical Legal Education. About ENCLe. – 2024. – URL: <https://encle.eu>
7. Steele, S., & Taylor, V. L. (2010). Legal Education in Asia: Globalization, Change and Contexts. Routledge. Chapter 4: “The Reform of Legal Education in Japan: Professionalizing the Academy”.

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANI O'QUV DASTURINI BO'LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHAVIY-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRIB MODERNIZATSIYA QILISH

Begijonov Mahmudbek Sharibbek o'g'li,

Andijon davlat texnika instituti, O'zbekiston

Muhandislik grafikasi bo'lajak muhandisning kasbiy "tili" bo'lib, u texnik g'oyani aniq, bir ma'noli va xalqaro standartlarga muvofiq ifodalash vositasi hisoblanadi. Grafik tayyorgarlik talabaning fazoviy tasavvurini, konstruktorlik tafakkurini va texnik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Biroq sanoatning raqamli transformatsiyasi (Industry 4.0) sharoitida muhandislik faoliyati to'liq raqamli loyihalash muhitiga — CAD, CAM va CAE tizimlariga ko'chdi [1:14]. Bu esa grafik ta'limga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi.

An'anaviy, asosan qo'lda chizmachilik va tasviriy geometriyaga urg'u beruvchi o'quv dasturi bugungi muhandisdan talab etiladigan kompetentliklarni to'liq qoplay olmaydi. Shu sababli o'quv dasturini bilim uzatishdan kompetentlik shakllantirishga yo'naltirib modernizatsiya qilish dolzarb vazifaga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham o'quv dasturlarini zamonaviy talablar va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [3:1]. Ushbu maqolada grafik fanlar dasturini loyihaviy-texnologik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirib modernizatsiya qilish modeli taklif etiladi.

Loyihaviy-texnologik kompetentlik tushunchasi va tarkibi. Kompetentlik bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning amaliy faoliyatda real natijaga aylanish qobiliyati sifatida ta'riflanadi [5:24]. Bo'lajak muhandisning loyihaviy-texnologik kompetentligi esa texnik ob'ektni g'oyadan tayyor texnik hujjatgacha bo'lgan jarayonda loyihalash va texnologik qarorlarni asoslay olish qobiliyatini anglatadi.

Ushbu kompetentlikning tarkibida bir necha tarkibiy qismni ajratish mumkin: kognitiv (grafika va loyihalash nazariyasini bilish), operatsional (CAD tizimlarida ishlash va chizmalar yaratish ko'nikmasi), texnologik (materiallar, ishlov berish va standartlarni hisobga olib qaror qabul qilish) va shaxsiy (mustaqillik, ijodkorlik, javobgarlik). Kompetentlikning bunday tarkibli tabiati uni shakllantirish uchun yaxlit, izchil va amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturini talab qiladi [2:6].

Mavjud o'quv dasturidagi muammolar.

Amaldagi grafik fanlar dasturlarini tahlil qilish bir qator tizimli kamchiliklarni ko'rsatadi: nazariy materialning amaliy loyihaviy vazifalardan ajralganligi; CAD texnologiyalariga ajratilgan soatlarning yetarli emasligi yoki ularning faqat "chizma chizish vositasi" sifatida o'qitilishi; fanlararo bog'liqlikning zaifligi (grafika keyingi konstruktorlik va texnologik fanlar bilan yetarlicha bog'lanmagan); hamda o'quv natijalarini kompetentlik mezonlari bo'yicha emas, balki bilim hajmi bo'yicha baholash.

Bunday yondashuv natijasida talaba dasturiy vositadan foydalanishni o'rgansa-da, real loyihaviy-texnologik vazifani mustaqil hal qila olmaydi. Demak, muammo soatlar sonida emas, balki dasturning maqsadi va tuzilishida — uni kompetentlikka yo'naltirib qayta qurishdadir.

Modernizatsiya yo'nalishlari va tamoyillari. Taklif etilayotgan modernizatsiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Birinchidan, kompetentlikka yo'naltirilganlik — har bir mavzu aniq o'quv natijasi (kutilayotgan kompetentlik elementi) bilan bog'lanadi. Ikkinchidan, CAD texnologiyalarini chuqur integratsiyalash — AutoCAD, KOMPAS-3D yoki SolidWorks kabi tizimlar alohida vosita emas, balki loyihalash jarayonining tabiiy qismi sifatida o'qitiladi. Uchinchidan, loyihaviy o'qitish (project-based learning) — talabalar yaxlit muhandislik ob'ektini eskizdan 3D-modelgacha va texnik hujjatgacha mustaqil ishlab chiqadi.

To'rtinchidan, modullilik — dastur izchil murakkablashib boruvchi modullarga bo'linadi, har bir modul oldingisining natijasiga tayanadi. Beshinchidan, fanlararo bog'liqlik — grafik loyihalar keyingi ixtisoslik fanlari (detal va mexanizmlar nazariyasi, texnologiya) bilan bog'lanadi. Bu tamoyillar birgalikda bilimni emas, balki amaliy qobiliyatni shakllantiradigan o'quv muhitini yaratadi.

Modernizatsiyalashgan dasturning tarkibiy modeli. Taklif etilayotgan model uch o'zaro bog'liq bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich — bazaviy grafik savodxonlik: tasviriy geometriya, chizmachilik standartlari va CAD muhiti bilan tanishuv. Ikkinchi bosqich — 3D-modellashtirish va parametrik loyihalash: detal va yig'ma birliklarni modellashtirish, ulardan avtomatik chizmalar olish. Uchinchisi bosqich — kompleks loyihaviy-texnologik vazifa: talaba real muhandislik masalasini loyihalash, modellashtirish va texnik hujjatlashtirish orqali yechadi.

Har bir bosqich oxirida o'quv natijasi kompetentlik mezonlari (chizmaning standartga muvofiqligi, modelning to'g'riligi, texnologik qarorning asoslanganligi, mustaqillik darajasi) bo'yicha baholanadi. Shu tariqa baholash bilim hajmini emas, balki amaliy kompetentlikni o'lchaydi. Modelning yana bir muhim elementi — qaytar aloqa (feedback): baholash natijalari dasturni keyingi takomillashtirish uchun ishlatiladi.

Kutilayotgan natijalar. Taklif etilgan modernizatsiyalashgan dasturni joriy etish quyidagi natijalarni berishi kutiladi: talabalarning CAD tizimlarida amaliy ishlash darajasining oshishi; loyihaviy vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatining kuchayishi; grafik fanlar va ixtisoslik fanlari o'rtasidagi bog'liqlikning mustahkamlanishi; eng muhimi — bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va bandlik imkoniyatlarining yaxshilanishi. Bu natijalar oliy ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini boshqarishning umumiy maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi [4:18].

Xulosa. Sanoatning raqamli transformatsiyasi muhandislik va kompyuter grafikasi fani o'quv dasturini kompetentlikka yo'naltirib modernizatsiya qilishni taqozo etadi. CAD texnologiyalarini chuqur integratsiyalash, loyihaviy o'qitish va modulli tuzilishga asoslangan model bo'lajak muhandislarning loyihaviy-texnologik kompetentligini izchil shakllantirishga imkon beradi. Bunday modernizatsiya nafaqat fan sifatini, balki bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va bandligini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bertoline G.R., Wiebe E.N. Fundamentals of Graphics Communication. – 6th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2018. – 544 p.
2. Hutmacher W. Key Competencies for Europe: Report of the Symposium. – Strasbourg: Council of Europe, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.

-
4. Sazonov B.A. Organizatsiya uchebnogo protsessa na osnove kompetentnostnogo podxoda // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2011. – No. 5. – S. 16–26.
 5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. – M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004.

INTEGRATIVE DEVELOPMENT MODEL OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE LANGUAGE EDUCATORS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Rahmanova Ilmira Imomaddinovna,

*Center for Higher Education Development and
Global Cooperation, Uzbekistan*

In the fast-paced contemporary environment, the necessity for specialists with higher foreign languages level, put forward huge demands on professional training of future foreign language teachers. Consequently, providing sufficient training programs for future language educators who are professionals with high-quality language instruction in universities is a top priority. Moreover, they are expected to pursue continuous career development to keep pace with modern requirements, including the rapid digital progress that creates new strategies into the language learning process. Ultimately, modern future language instructors are required to be flexible and responsive to understand their learners' needs and objectives, as well as to provide key principles of input appropriate their language proficiency level. [8]

It is clear that 'professional development' and 'competence' are two essential qualities for the future language teachers for creating meaningful and productive language learning environment. On the basis of these demands a specific model of competencies must be established where practical and theoretical knowledge of outlined for making better results.

To be effective, for any model for future foreign language teacher training standards must center on professional competence, which relies on four main factors:




Figure 1. Structural Components of the Professional Competence Model.

Prior to initiating the development of the future foreign language teacher training standards within the higher education system of Uzbekistan, a comprehensive analysis of the theoretical, methodological, and structural foundations of this process was conducted. In accordance with national educational strategies and presidential decrees aimed at modernizing language instruction, it was determined that the successful elaboration of standards requires the fulfillment of several critical conditions including:




Figure 2. Essential structural stages for the elaboration of language teacher training standards.

According to Fenner & Kuhlman (2012) “to determine the level of a future foreign language teacher’s readiness to licensed work there must be used thoroughly prepared descriptions of what ‘corresponds to the standard’, ‘approaches the standard’ and ‘exceeds the standard’ mean” [2]. To contextualize these evaluative parameters within the higher education system of Uzbekistan, a clear alignment between international linguistic standards and national pedagogical benchmarks must be established. To understand the application of standards in teacher training, it is essential to first clarify the term’s foundational meaning before examining its role within educational systems. “Standard itself serve as an authoritative benchmark, a traditional model, or a universally accepted archetype” [7].

There are three main types of standards are required for professional training of future language educators, such as:

- ❖ Content standards- educator’s specific content knowledge they plan to teach or capability to explain key principles and concepts given in professional standards.
- ❖ Pedagogical standards- approaches and strategies of language teaching
- ❖ Performance standards- scoring rubrics.

In my view, these three main standards must not be treated as isolated elements; rather, they must dynamically interact to bridge the gap between static theoretical knowledge and adopt to classroom realities. To illustrate how these standards operate in tandem, in Table 1 we can compare international benchmarks with the national framework of Uzbekistan:

Table 1: The conceptual differences between the CEFR and TESOL standards

Standard Dimension	CEFR Framework	International TESOL Standards
Core Purpose	Measures Linguistic Proficiency (The “What” of language).	Measures Pedagogical Competence (The “How” of teaching).
Target Subject	Focuses on the learner’s communication abilities.	Focuses on the teacher’s classroom practices and strategies.
Application in Uzbekistan	Used as a hard gateway (e.g., Teachers must achieve a B2 or C1 certificate).	Used to shape the modules, practicum setups, and lesson-planning rubrics in university curricula.

While the CEFR serves as an essential benchmark within Uzbekistan’s higher education system to measure a future teacher’s linguistic proficiency (Content Knowledge), it is fundamentally a learner-centered framework. To establish a truly comprehensive professional competence model, the CEFR must be harmonized with international TESOL standards. Where the CEFR outlines what level of language the educator must possess (e.g., C1 proficiency), TESOL standards define how that knowledge is pedagogically transformed, digitally adapted, and effectively assessed in a real classroom environment [68-70].

In conclusion, modernizing the higher education system in Uzbekistan requires a fundamental shift in how future foreign language teachers are trained. As demonstrated, the path forward relies on a dynamic, integrated model of professional competence that seamlessly bridges content knowledge, pedagogical strategy, and performance rubrics. To meet the demands of today's fast-paced, digitally-driven environment, these standards can no longer treat theoretical knowledge and technological fluency as separate entities; instead, digital adaptability must be woven directly into the core definition of teacher competence. Ultimately, by establishing clear, structured benchmarks that align international linguistic standards with national educational strategies, Uzbekistan can cultivate a new generation of flexible, responsive future language educators capable of fostering meaningful, highly productive language learning environments.

REFERENCES:

1. Kuhlman, N. (2010). Developing foreign language teacher standards in Uruguay. *GIST Education and Learning Research Journal*, 4 (1), 107–126.
2. Richards, J. (2011). *Competence and performance in language teaching*. Cambridge, United Kingdom: Cambridge University Press.
3. Richards, J. (2017). Teaching English through English: Proficiency, Pedagogy and Performance. *RELC Journal*, 48, 7–30.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston

Bugungi globallashtirish sharoitida ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan va innovatsion yondashuvlarga ega pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Boshlang‘ich ta‘lim tizimi uchun malakali o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida ularning kognitiv rivojlanish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv rivojlanish shaxsning bilish jarayonlari va intellektual faoliyatining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘ladi, pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat bilimlarni egallashi, balki ularni o‘quvchilarga samarali yetkazish uchun yuqori darajadagi tafakkur, tahliliy fikrlash va refleksiv yondashuvga ega bo‘lishi zarur. Kognitiv rivojlanish muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Psixologiyada kognitiv rivojlanish nazariyasining asoschisi sifatida tan olingan Jean Piaget inson tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab bergan. Uning fikricha, bilimlar faol o‘zlashtirish jarayonida shakllanib boradi.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- nazariy tahlil
- pedagogik kuzatuv
- diagnostik testlar
- so‘rovnoma
- taqqoslash va umumlashtirish metodlari.

Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv rivojlanish darajasi va uning xususiyatlarini aniqlab beradi.

Kognitiv rivojlanish murakkab tizim bo‘lib, u quyidagi komponentlardan iborat:

- Idrok — tashqi axborotni qabul qilish va anglashdir
- Tafakkur — tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish
- Xotira — bilimlarni saqlash va qayta tiklash
- Diqqat — faoliyatga yo‘naltirilganlik
- Tasavvur — yangi g‘oyalar va obrazlar yaratish.

Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari

1. Integrativ fikrlash.

Bo‘lajak o‘qituvchilar turli fanlararo bilimlarni birlashtirib, kompleks yondashuv asosida muammolarni hal etishga intiladi.

2. Refleksiv faoliyat.

Ular o'z faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash va o'z ustida ishlashga moyil bo'ladi.

3. Kreativlik va innovatsionlik.

Pedagogik vaziyatlarga yangicha yondashuv, yangi metod va usullarni ishlab chiqish qobiliyati shakllanadi.

4. Analitik va tanqidiy fikrlash.

Axborotni tanqidiy baholash, asosli xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

5. Mustaqil o'rganish qobiliyati.

Talabalar bilimlarni mustaqil izlash, qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etishga intiladi.

Kognitiv rivojlanish bosqichlari va dinamikasi.

Kognitiv rivojlanish quyidagi ketma-ket bosqichlarda amalga oshadi:

1. Reproduktiv bosqich — bilimlarni tayyor holda o'zlashtirish;
2. Konstruktiv bosqich — bilimlarni qayta ishlash va tahlil qilish;
3. Kreativ bosqich — yangi bilim va g'oyalarni yaratish.

Rivojlanish dinamikasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim metodlari qo'llanilganda talabalar yuqori bosqichga tezroq o'tadi.

Kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar.

Kognitiv rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonining tashkil etilishi;
- o'qitish metodlari;
- innovatsion texnologiyalar;
- talabalarning motivatsiyasi;
- ijtimoiy muhit;
- pedagogning kasbiy mahorati.

Innovatsion pedagogik yondashuvlar.

Kognitiv rivojlanishni ta'minlashda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Muammoli o'qitish — talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- Loyiha asosida ta'lim — amaliy faoliyat orqali bilimlarni mustahkamlaydi;
- Interaktiv metodlar — muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi;
- Raqamli texnologiyalar — individual yondashuvni ta'minlaydi;
- Refleksiv yondashuv — o'z-o'zini tahlil qilishni kuchaytiradi.

Natijalar va muhokama.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim muhitida tashkil etilgan darslar talabalarning kognitiv faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlardan foydalanish tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki:

- talabalar faolligi ortadi;
- bilimlarni chuqur o'zlashtirish ta'minlanadi;
- kreativ fikrlash rivojlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv rivojlanishi ularning kasbiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari innovatsion ta'lim metodlari kognitiv faoliyatni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

Shu sababli, oliy ta'lim tizimida kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.Y. Xudoyberganov. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari.

-
2. O'ralov S., Ismoilova Z. Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlar. -Toshkent: TDPU, 2024.
 3. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
 4. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 2015.
 5. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, 2012.

OLIY TA'LIM DASTURLARI SIFATINI OSHIRISH MUAMMOLARI: SOTSIOLOGIK TANQIDIY TAHLIL

Fotimabonu Murodova,

O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston

Oliy ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning sifati ko'pincha texnokratik nuqtai nazardan - reyting o'rinlari, akkreditatsiya natijalari orqali baholanadi. Biroq bunday yondashuv ta'lim jarayonining mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Morli (2023) ta'kidlaganidek, neoliberal boshqaruv mantiqining ta'lim sohasiga singishi natijasida ta'lim jarayoni "mahsulot"ga, talaba esa "iste'molchi"ga aylantiriladi [1:1042].

O'zbekiston oliy ta'limi so'nggi yillarda misli ko'rilmagan miqdoriy o'sishni boshdan kechirdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kunduzgi ta'lim shaklidagi talabalar soni 2020/2021-o'quv yilidagi 441,8 ming nafardan 2023/2024-o'quv yiliga kelib 661,8 ming nafarga yetdi [2]. OTMlar soni 77 tadan (2016) 213 tagacha oshdi, oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga ko'tarildi [3]. Biroq miqdoriy o'sish sifat o'sishiga avtomatik ravishda olib keladimi? Ushbu maqolaning maqsadi - aynan shu savolga sotsiologik tanqidiy tahlil asosida javob izlash.

Burdyo (1984) ning madaniy kapital konsepsiyasi ta'lim tizimini ijtimoiy tabaqalanishni qayta ishlab chiqaruvchi maydon sifatida tushunish imkonini beradi [4:114]. Unga ko'ra, ta'lim muassasalari nafaqat bilim uzatadi, balki ma'lum ijtimoiy guruhlarining madaniy kapitalini legitimlashtiradi. O'zbekiston kontekstida bu savol ayniqsa dolzarb: oliy ta'lim qamrovining tez oshishi demokratlashuv belgisi sifatida talqin qilinsa-da, amalda qaysi ijtimoiy qatlamlar sifatli ta'limdan bahramand bo'lmoqda, kontrakt to'lovi tengsizlikni kuchaytirmayaptimi - bu savollar sotsiologik tekshiruvni talab qiladi.

Xabermas (1987) ning "tizim" va "hayot dunyosi" o'rtasidagi ziddiyat konsepsiyasi ta'lim sifati muammosini yangi burchakdan ko'rish imkonini beradi [5:196]. Ta'lim sifati - bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dialogik munosabat, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va shaxsning intellektual erkinligi bilan bog'liq tushuncha. Agar ta'lim jarayoni faqat boshqaruv ko'rsatkichlariga bo'ysindirilsa, bu Xabermas ta'rifidagi "hayot dunyosining mustamlaka qilinishi" hodisasini keltirib chiqaradi.

Trow (1973) ning klassik modeliga ko'ra, oliy ta'lim elitar bosqichdan (15% gacha) ommaviy bosqichga (15–50%) o'tganda ta'lim tizimining tashkiliy tuzilmasi tubdan o'zgarishi lozim [6]. O'zbekistonning 9 foizdan 42 foizga "sakrashi" - ikki bosqichni birdan bosib o'tish demakdir, ammo bunga mos institutsional transformatsiya shunchalik tez amalga oshirilganmi - savol ostida.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda davlat OTMlarida professor-o'qituvchilar soni 48,5 ming nafar [2]. 1,3 million talabaga nisbatan bu taxminan 1:27 nisbatni tashkil etadi. OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichi 1:15 atrofida [7]. Bunday holat individual yondashuv va ilmiy rahbarlik sifatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi budjetnomasi ma'lumotlariga ko'ra, professor-o'qituvchi-ning o'rtacha oyligi 2023-yilda 9,489 million so'm (taxminan 770 AQSh dollari) ni tashkil etgan [8]. Burdyo terminologiyasida aytganda, bu akademik kasbning iqtisodiy kapital jihatidan past baholanishini bildiradi. Past maosh - nafaqat moddiy muammo, bu ta'lim sifatini belgilovchi tizimli omildir.

Jahon banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ta'limga YaIMning 5,47 foizi sarflangan - bu jahon o'rtachasidan (3,5%) sezilarli yuqori [9]. Biroq sarf-xarajatlar asosan infratuzilma va miqdoriy kengayishga yo'naltirilmoqda. O'quv dasturlari mazmunini yangilash va ilmiy tadqiqot infratuzilmasiga sarflanayotgan mablag' ulushi noma'lum bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida raqamlashtirish ustuvor yo'nalishga aylandi: stat.edu.uz platformasi, onlayn qabul tizimlari, elektron resurslar bunga misol. Biroq Díaz-Garsía va boshqalar (2023) shunday xulosaga kelganlar: raqamlashtirish tadqiqotlarining aksariyati texnologik imkoniyatlarga e'tibor qaratib, ijtimoiy oqibatlarni chetlab o'tadi [10]. Saari va Syanti (2021) esa ta'limda ma'lumotlarga asoslangan yondashuv (datafication) o'qituvchi va talabani raqamlashtirish obyektiga aylantirish xavfini ko'rsatganlar [11:230].

Raqamlashtirish siyosatining eng katta xatari - mavjud ijtimoiy tengsizliklarni yanada chuqurlashtirishdir. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyati ijtimoiy-iqtisodiy holatga bevosita bog'liq. O'zbekistonda internet infratuzilmasi viloyatlar kesimida sezilarli farq qiladi. Tang va boshqalar (2025) ta'kidlaganidek, raqamli transformatsiya "texnologiya + eski pedagogika = qimmat eski pedagogika" formulasiga tushib qolish xavfini o'z ichiga oladi [12].

Sun'iy intellektning ta'limga kirib kelishi ham yangi muammolar tug'dirmoqda. U talabalarga tayyor javob berib, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini sust qoldirishi mumkin. Xabermas nuqtai nazaridan bu - dialogik bilish jarayonining instrumental ratsionallikka almashtirilishi [5:304].

MHESI (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning birinchi yarmida 183 ta malakaviy talab tasdiqlangan va 6 ta universitetning 38 ta dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan [3]. 213 ta OTMda yuzlab dastur faoliyat yuritayotganini hisobga olsak, bu juda kam. Krouglov (2017) ta'kidlaganidek, O'zbekistonda sifat nazoratidan sifat ta'minoti madaniyatiga o'tish hali boshlang'ich bosqichda [13:170].

Fan va boshqalar (2022) CIPP modeli asosida tadqiqot o'tkazib, ko'plab OTMlarda sifat ta'minoti rasmiy tarzda amalga oshirilishini aniqlagan: hujjatlar to'ldiriladi, hisobotlar topshiriladi, ammo ta'lim jarayonining mazmuniy tomoni yetarli o'zgarmaydi [14]. Biz bu hodisani "rasmiy sifat" va "haqiqiy sifat" o'rtasidagi tafovut sifatida ta'riflaymiz.

"O'zbekiston yangi kasblar atlas" yaratish vazifasi qo'yilgan [15] - bu muammoning e'tirof etilganining belgisi. Biroq UNESCO-IIEP (2025) ta'kidlaganidek, OTM bitiruvchilarining real bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha tizimli monitoring zarur [16]. O'zbekistonda bunday monitoring hali yo'lga qo'yilmagan.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, miqdoriy o'sish va sifat o'sishi o'rtasida jiddiy nomutanosiblik mavjud: talabalar soni 1,5 oshgan bo'lsa, o'qituvchi-talaba nisbati (1:27) OECD me'yorlaridan (1:15) sezilarli farq qiladi. Ikkinchidan, ta'limga YaIMning 5,47 foizi sarflanishi sifatni kafolatlamaydi - muhim savol mablag'larning taqsimoti va samaradorligidir. Uchinchidan, raqamlashtirish siyosati texnologik determinizm va ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirishga olib kelishi mumkin. To'rtinchidan, sifat ta'minoti tizimi hali rasmiy xarakter kasb etmoqda.

Sotsiologik nuqtai nazardan, ta'lim sifati faqat texnik muammo emas, bu ijtimoiy muammo. Burdyo nazariyasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi ijtimoiy tengsizliklarni qayta ishlab chiqarishi yoki ularni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [4:257]. Shu sababli biz quyidagilarni tavsiya qilamiz: professor-o'qituvchilar mehnatini munosib baholash va ularning ijtimoiy statusini oshirish; ta'lim sifatini baholashda tanqidiy fikrlash va mustaqil tadqiqot qobiliyatini e'tiborga olish; raqamlashtirish siyosatini ijtimoiy tengsizlik kontekstida qayta ko'rib chiqish;

bitiruvchilar bandligining tizimli monitoringini yo‘lga qo‘yish; OTMlarga akademik erkinlik va institutsional avtonomiya berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Morley, C. (2023). The systemic neoliberal colonisation of higher education: A critical analysis of the obliteration of academic practice. *The Australian Educational Researcher*, 50, 1041–1062. <https://doi.org/10.1007/s13384-023-00613-z>
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston raqamlarda: Statistik to‘plam. Toshkent. <https://stat.uz/uz/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda>
3. MHESI -Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). Reforms in the Higher Education System of Uzbekistan Aimed at Preparing Competitive Personnel. Toshkent. <https://gov.uz/en/edu>
4. Bourdieu, P. (1984). *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Habermas, J. (1987). *The Theory of Communicative Action*. Vol. 2: Lifeworld and System: A Critique of Functionalist Reason. Boston: Beacon Press.
6. Trow, M. (1973). *Problems in the Transition from Elite to Mass Higher Education*. Berkeley: Carnegie Commission on Higher Education.
7. OECD. (2023). *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/e13bef63-en>
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan budjetnoma. Toshkent. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/09/wage/>
9. World Bank. (2023). Government expenditure on education, total (% of GDP) -Uzbekistan. World Bank Open Data. <https://data.worldbank.org/indicator/SE.XPD.TOTL.GD.ZS?locations=UZ>
10. Díaz-García, V., Montero-Navarro, A., Rodríguez-Sánchez, J.-L., & Gallego-Losada, R. (2023). Digitalization and digital transformation in higher education: A bibliometric analysis. *Frontiers in Psychology*, 14, 1154578. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1154578>
11. Saari, A., & Sääntti, J. (2021). Speculative social science fiction of digitalization in higher education: From what is to what could be. *Postdigital Science and Education*, 4, 225–245. <https://doi.org/10.1007/s42438-021-00266-4>
12. Tang, J., Huang, P., & Yan, S. (2025). Digital transformation in higher education: Logical framework, practical dilemmas, and implementation approaches. *Frontiers in Psychology*, 16, 1565591. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2025.1565591>
13. Krouglov, A. (2017). Transforming higher education in Uzbekistan: From quality control to quality assurance culture. In G. Mihut, P. G. Altbach, & H. de Wit (Eds.), *The Rise of Quality Assurance in Asian Higher Education* (pp. 165–182). Palgrave Macmillan. <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-100553-8.00007-0>
14. Fan, X., Tian, S., Lu, Z., & Cao, Y. (2022). Quality evaluation of entrepreneurship education in higher education based on CIPP model and AHP-FCE methods. *Frontiers in Psychology*, 13, 973511. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.973511>
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoni. Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida. <https://lex.uz/uz/docs/-6937332>
16. IIEP-UNESCO. (2025). *Internal Quality Assurance: Enhancing Higher Education Quality and Graduate Employability*. Paris: UNESCO. <https://www.iiep.unesco.org/en/publication/internal-quality-assurance-enhancing-higher-education-quality-and-graduate-employability>

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA OLIY TA'LIMDA ILMIY NASHRLAR SIFATINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MODEL

Shodiyev Abbos Ne'mat o'g'li,

*Qarshi davlat texnika universiteti
fakultet dekani, t.f.d., professor, O'zbekiston*

Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich,

*Qarshi davlat texnika universiteti,
t.f.f.d., dotsent, O'zbekiston*

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ilmiy nashriyot faoliyatida qo'llanilishi tobora kengroq o'rganilmoqda. Xususan, maqolalarni dastlabki ekspertizadan o'tkazish, o'xshashlikni aniqlash, jurnal yo'nalishiga mosligini baholash, potensial taqrizchilarni tavsiya etish hamda tahririy qarorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator yechimlar taklif etilgan. Kousha va Thelwall tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda sun'iy intellekt muharrir faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholangan. Shu bilan birga, mualliflar yakuniy ilmiy xulosa va qaror mutaxassis tomonidan qabul qilinishi zarurligini ham alohida ta'kidlaydilar [1].

Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmentini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham sun'iy intellektning boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va sifat ko'rsatkichlarini monitoring qilishdagi afzalliklarini ko'rsatmoqda [2]. Shunga qaramay, ilmiy jurnallar faoliyatida OJS platformasi, sun'iy intellekt modullari, antiplagiat tizimi va muharrir boshqaruv vositalarini yagona integratsiyalashgan sifat menejmenti modeli sifatida qo'llash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy nashrlar sifatini boshqarish uchun OJS platformasi, sun'iy intellekt texnologiyalari, antiplagiat tizimi va tahririy boshqaruv vositalarini yagona raqamli muhitga integratsiyalashga asoslangan innovatsion konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Taklif etilgan model maqolalarni dastlabki ekspertizadan o'tkazish jarayonini avtomatlashtirish, tahririy qarorlarni axborot bilan qo'llab-quvvatlash, muharrirlar ish yuklamasini kamaytirish hamda ilmiy nashrlar sifatini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ilmiy nashrlar sifatini boshqarish jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jarayonlarni modellashtirish, funksional dekompozitsiya hamda ilmiy adabiyotlarni mazmuniy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Metodologik yondashuv maqolalarni qabul qilish, dastlabki ekspertiza, o'xshashlikni tekshirish, taqrizlash va yakuniy tahririy qaror qabul qilish bosqichlarini yagona sifat menejmenti tizimi sifatida ko'rib chiqishga asoslandi.

Dastlab tadqiqot mavzusiga oid ilmiy maqolalar, xalqaro tavsiyalar va uslubiy manbalar o'rganildi. Adabiyotlarni tanlashda ularning mavzuga mosligi, ilmiy ishonchliligi, nashriyot jarayonining alohida bosqichlarini yoritishi hamda amaliy ahamiyati asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Manbalarni tahlil qilish va saralashda PRISMA 2020 tavsiyalarida tavsiya etilgan izlash, tanlash va natijalarni tizimli bayon etish tamoyillaridan foydalanildi [3].

Adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt texnologiyalarining ilmiy nashriyot faoliyatida keng qo'llanilayotganini ko'rsatdi. Xususan, maqolalarni dastlabki sifat nazoratidan o'tkazish, jurnal yo'nalishiga mosligini baholash, potensial taqrizchilarni aniqlash, taqriz mazmunini tahlil qilish hamda muharrir qarorlarini analitik ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarda AI samarali vosita sifatida qaralishi mumkinligi aniqlandi [1, 4].

Keyingi bosqichda ilmiy jurnallarda qo'llanilayotgan amaldagi tahririy jarayonlar funksional jihatdan tahlil qilindi. Bunda maqolani qabul qilish, dastlabki tekshiruv, taqrizlash, adabiy tahrir va nashrga tayyorlash bosqichlari o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida o'rganildi. Olingan natijalar asosida amaldagi ish jarayonining (AS-IS) modeli shakllantirildi va undagi avtomatlashtirish imkoniyatlari aniqlandi.


Shundan so'ng tahririy jarayonning alohida bosqichlarida sun'iy intellektni qo'llash imkoniyatlari baholandi. Jumladan, maqolaning jurnal talablariga mosligini aniqlash, IMRAD tuzilmasini tekshirish, annotatsiya va kalit so'zlarni baholash, bibliografik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda dastlabki tahririy tavsiyalarni shakllantirish jarayonlari funksional dekompozitsiya usuli asosida tahlil qilindi. O'xshashlikni tekshirish esa alohida nazorat mexanizmi sifatida ko'rib chiqildi, chunki uning natijalari yakuniy qarorni emas, balki muharrir tomonidan baholanishi lozim bo'lgan analitik ma'lumotni ifodalaydi.

Tahlil natijalariga tayangan holda OJS platformasi, sun'iy intellekt modullari, antiplagiat tizimi va muharrir boshqaruv panelini o'zaro bog'lovchi integratsiyalashgan konseptual model ishlab chiqildi. Modelning funksional samaradorligi tahririy jarayonlarning tezkorligi, dastlabki ekspertiza sifati, muharrir ish yuklamasi, qaror qabul qilishning izchilligi va jarayonlarning shaffofligi kabi mezonlar asosida baholandi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida ilmiy jurnallarda qo'llanilayotgan amaldagi tahririy jarayon funksional jihatdan tahlil qilindi. Tahlil uchun Open Journal Systems (OJS) platformasining maqolani qabul qilish, tahririy ko'rib chiqish, taqrizlash, adabiy tahrir, nashrga tayyorlash va chop etish bosqichlari asos qilib olindi [5]. Jarayonning har bir bosqichida ishtirok etuvchi subyektlar, axborot almashinuvi, nazorat nuqtalari, qo'lda bajariladigan amallar hamda ularni avtomatlashtirish imkoniyatlari o'rganildi. Natijada amaldagi tahririy jarayon «muallif — tahririyat — taqrizchi — muharrir — nashr» ketma-ketligi asosida AS-IS modeli ko'rinishida tavsiflandi.

Shundan so'ng tahririy faoliyatning alohida bosqichlarida sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlari baholandi. Funksional dekompozitsiya usuli asosida maqolaning jurnal yo'nalishiga mosligini aniqlash, IMRAD tuzilmasining mavjudligini tekshirish, annotatsiya va kalit so'zlar sifatini baholash, bibliografik havolalarni tahlil qilish, ilmiy-uslubiy talablarning bajarilishini aniqlash hamda dastlabki tahririy tavsiyalarni shakllantirish kabi vazifalar alohida funksional bloklarga ajratildi. O'xshashlikni tekshirish jarayoni esa mustaqil nazorat elementi sifatida ko'rib chiqildi. Chunki o'xshashlik darajasi plagiat mavjudligi haqida yakuniy xulosa bermaydi, balki muharrir tomonidan mazmunan tahlil qilinishi lozim bo'lgan qo'shimcha analitik axborotni taqdim etadi [6].

O'tkazilgan tahlillar natijasida ilmiy nashrlar sifatini boshqarishning integratsiyalashgan TO-BE modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Taklif etilgan model elektron maqola qabul qilish servisi, OJS platformasi, sun'iy intellekt asosidagi dastlabki ekspertiza moduli, o'xshashlikni tekshirish tizimi, muharrirning boshqaruv paneli va taqrizlash jarayonini yagona raqamli muhitda o'zaro bog'lovchi funksional elementlardan tashkil topgan. Modelni ishlab chiqishda ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy tamoyillari, jumladan, manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga yo'naltirilganlik, jarayonlarni uzluksiz monitoring qilish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va sifatni doimiy takomillashtirish prinsiplari inobatga olindi [7].



2-rasm. Sun'iy intellekt asosidagi ilmiy nashrlar sifatini boshqarishning integratsiyalashgan modeli (TO-BE)

Taklif etilgan modelda sun'iy intellekt ilmiy maqolani qabul qilish yoki rad etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qiluvchi tizim emas, balki muharrir faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tahlil natijalarini mutaxassis tomonidan qayta baholash imkonini saqlab qoladi hamda sun'iy intellekt bilan bog'liq ehtimoliy xatolar, noto'g'ri talqinlar, algoritmik tarafdashlik, maxfiylik va ilmiy etika bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli modelda yakuniy tahririy qaror faqat muharrir tomonidan qabul qilinishi nazarda tutilgan. Bunday yondashuv UNESCO tomonidan generativ sun'iy intellektidan ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarga mos keladi. Mazkur tavsiyalarda inson nazorati, ma'lumotlar xavfsizligi, shaffoflik va javobgarlik sun'iy intellektni mas'uliyatli qo'llashning asosiy tamoyillari sifatida e'tirof etilgan [4].

Taklif etilgan modelning funksional samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar tanlandi:

- maqolani dastlabki ko'rib chiqish davomiyligi;
- muharrir tomonidan qo'lda bajariladigan amallar soni;
- tahririyat talablariga mos kelmaydigan materiallarni dastlabki bosqichda aniqlash imkoniyati;
- tahririy qarorlarning izchilligi;
- jarayonlarning kuzatuvchanligi;
- muallifga qayta aloqa berish tezligi;
- inson nazoratining saqlanish darajasi.

Mazkur mezonlar modelning texnologik imkoniyatlarini emas, balki ilmiy nashrlar sifatini boshqarish jarayoniga ta'sirini kompleks baholash uchun qabul qilindi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarida maqolalarni qabul qilish va ekspertizadan o'tkazish jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati qo'lda bajariladi. Maqolaning jurnal talablariga muvofiqligini tekshirish, tarkibiy qismlarini baholash, o'xshashlikni aniqlash, mos taqrizchilarni tanlash hamda dastlabki tahririy xulosani tayyorlash kabi vazifalar muharrir tomonidan amalga oshiriladi. Natijada tahririy jarayonlarga ko'p vaqt sarflanadi, inson omiliga bog'liq xatolar yuzaga kelishi mumkin va muharrirlarning ish yuklamasi ortadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida ilmiy nashrlar sifatini boshqarishning sun'iy intellekt asosidagi integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model maqolani qabul qilishdan boshlab yakuniy nashrgacha bo'lgan barcha asosiy bosqichlarni yagona raqamli muhitda boshqarishga mo'ljallangan.

Taklif etilgan modelning ishlash prinsipi 2-rasmda keltirilgan. Unga ko‘ra, muallif tomonidan yuborilgan maqola dastlab OJS platformasi orqali qabul qilinadi. Shundan so‘ng sun‘iy intellekt moduli maqolaning jurnal yo‘nalishiga mosligi, IMRAD tuzilmasi, annotatsiya va kalit so‘zlar sifati, bibliografik havolalar, ilmiy uslub hamda til me‘yorlarini avtomatik tahlil qiladi. O‘xshashlikni tekshirish tizimidan olingan natijalar ham umumiy tahlilga qo‘shilib, shakllantirilgan hisobot muharrirning boshqaruv paneliga uzatiladi. Muharrir ushbu tahliliy ma‘lumotlar asosida maqolani taqrizga yuborish, muallifga qayta ishlash uchun qaytarish yoki nashrga tavsiya etish bo‘yicha yakuniy qarorni qabul qiladi.

Modelning asosiy afzalligi shundaki, sun‘iy intellekt muharrir faoliyatini almashtirmaydi, balki qaror qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi intellektual yordamchi vazifasini bajaradi. Bu yondashuv ilmiy ekspertizaning shaffofligi va ishonchliligini saqlab qolish bilan birga, tahririy ishlarni avtomatlashtirish hamda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Taklif etilgan modelning amaldagi tahririy jarayon bilan qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan. Qiyoslash natijalari modelni joriy etish orqali tahririy jarayonlarning tezkorligi, boshqaruvning izchilligi va ilmiy nashrlar sifatini nazorat qilish samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.


1-jadval. Amaldagi va taklif etilgan tahririy jarayonlarning qiyosiy tavsifi.

Jarayon bosqichi	Amaldagi tizim	Taklif etilgan AI modeli
Maqolani qabul qilish	Qo‘lda tekshirish	Avtomatik qabul va dastlabki nazorat
Jurnal talablariga moslik	Muharrir tomonidan	AI yordamida avtomatik tahlil
Til va uslub nazorati	Qo‘lda	AI asosida avtomatik tekshiruv
Bibliografik tahlil	Qo‘lda	Avtomatik aniqlash
O‘xshashlik nazorati	Alohida tekshiriladi	Integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi
Muharrir qarori	Faqat qo‘lda	AI tavsiyasi asosida yakuniy qaror
Jarayon monitoringi	Cheklangan	Dashboard orqali real vaqt monitoringi

Jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari taklif etilgan model ilmiy nashrlar tahririy jarayonining asosiy bosqichlarini kompleks raqamlashtirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, maqolalarni dastlabki saralash, jurnal talablariga muvofiqligini baholash, ilmiy-uslubiy tahlil, bibliografik tekshiruv hamda o‘xshashlikni aniqlash jarayonlarini sun‘iy intellekt asosida avtomatlashtirish muharrirning qo‘lda bajaradigan ishlarini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barcha tahlil natijalarining yagona boshqaruv panelida jamlanishi tahririy qarorlarni tezkor, izchil va ma‘lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini yaratadi.

Taklif etilgan modelning funksional tahlili uning ilmiy nashrlar sifatini boshqarish jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini namoyon etdi. Jumladan, maqolalarni dastlabki ekspertizadan o‘tkazish jarayonini avtomatlashtirish, jurnal talablariga mos kelmaydigan materiallarni erta bosqichda aniqlash, muharrir va taqrizchilar ish yuklamasini optimallashtirish, tahririy jarayonlarning shaffofligi hamda kuzatuvchanligini oshirish, muallif bilan qayta aloqa almashish mud-datlarini qisqartirish va boshqaruv qarorlarini analitik ma‘lumotlar asosida qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari modelning asosiy afzalliklari sifatida baholandi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan konseptual model ilmiy nashrlarni boshqarishning mavjud yondashuvlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion yechim sifatida baholanishi mumkin. Kelgusida ushbu modelni OJS platformasida amaliy sinovdan o‘tkazish, uning samaradorligini real tahririy jarayonlarda eksperimental baholash hamda sun‘iy intellekt algoritmlarini takomillashtirish ilmiy tadqiqotlarning navbatdagi bosqichi sifatida qaraladi.



3-rasm. Amaldagi tahririy tizim va taklif etilgan sun'iy intellekt modelining samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy bahosi.

3-rasmda keltirilgan qiyosiy baholash natijalari taklif etilgan sun'iy intellekt asosidagi model ilmiy nashrlar tahririy jarayonining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha amaldagi tizimga nisbatan ustunlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, maqolalarni dastlabki ekspertizadan o'tkazish tezligi, muharrir ish yuklamasini optimallashtirish, jurnal talablariga moslikni aniqlash va muallif bilan qayta aloqa almashish jarayonlarida sezilarli yaxshilanish kuzatilishi kutilmoqda. Modelning yana bir muhim afzalligi shundaki, u tahririy qarorlarni analitik ma'lumotlar asosida qabul qilish imkoniyatini yaratadi hamda barcha bosqichlarning shaffofligi va kuzatuvchanligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy nashrlar sifatini boshqarishning mavjud yondashuvlari tahlil qilindi hamda ularning asosiy muammolari aniqlandi. Tahlil natijalari ilmiy maqolalarni qabul qilish, dastlabki ekspertiza, o'xshashlikni tekshirish va tahririy qarorlarni qabul qilish jarayonlarida raqamlashtirish darajasini oshirish zarurligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kousha, K., & Thelwall, M. (2024). Artificial intelligence to support publishing and peer review: A summary and review. *Learned Publishing*, 37(1), 4–12. DOI: 10.1002/leap.1570.
2. Enhancing quality assurance through strategic artificial intelligence integration: A framework for higher education digital transformation. *Quality Assurance in Education*, 2026.
3. Page, M. J., et al. (2021). The PRISMA 2020 statement: An updated guideline for reporting systematic reviews. *BMJ*, 372, n71. PRISMA
4. UNESCO. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
5. Public Knowledge Project (PKP). (2024). *Learning Open Journal Systems (OJS): Editorial Workflow Guide*. Vancouver: Public Knowledge Project.
6. Crossref. (2024). *Similarity Check Documentation*. Crossref Official Documentation.
7. International Organization for Standardization (ISO). (2025). *ISO 21001:2025 Educational organizations — Management systems for educational organizations — Requirements with guidance for use*. Geneva: ISO.
8. European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA). (2015). *Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG 2015)*. Brussels: ENQA.

II SHO'BA:

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA
TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI
SHAKLLANTIRISH VA INNOVATSION
FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ

Аббасова Саида Набиуллоевна,

Азербайджанский Университет языков, Азербайджан

На сегодняшний день в Азербайджане насчитывается более 50 высших учебных заведений, которые активно участвуют в научных исследованиях и разработках. Инновационная деятельность в учреждениях высшего образования является одним из важных инструментов в продвижении науки в целом. Согласно данным Государственного статистического комитета Азербайджана, в 2023 году объем финансирования научных исследований в стране составил около 0,4% от ВВП, что ниже среднемирового показателя в 1,7% [1,2,3].

В рамках стратегии “Азербайджан 2030: социально-экономическое развитие” предполагается увеличение финансирования научных исследований до 1% от ВВП к 2026 году. Это позволит университетам активнее заниматься инновациями, развивать стартапы и внедрять новые технологии. Также планируется создание новых исследовательских лабораторий и центров, что будет способствовать повышению качества образования и интеграции науки в экономику [7,10].

Одним из ярких примеров является проект «Инновационный университет», реализуемый Бакинским государственным университетом. В рамках этого проекта создаются стартап-инкубаторы и акселераторы для студентов и молодых ученых. Ожидается, что к 2027 году количество стартапов, созданных на базе университетов, вырастет на 30% по сравнению с 2024 годом [4,5].

Предпринимательская экосистема в Азербайджане находится на стадии активного развития. По данным Всемирного банка, в 2022 году уровень предпринимательской активности составил 10%, что является одним из самых высоких показателей в регионе (Всемирный банк, 2022). Однако для достижения устойчивого роста необходимо создать более благоприятные условия для ведения бизнеса [7,8].

В рамках государственной программы «Развитие предпринимательства в Азербайджане на 2021-2025 годы» запланированы меры по улучшению инвестиционного климата и поддержке малых и средних предприятий (МСП). Ожидается, что к 2027 году доля МСП в ВВП вырастет до 25% [3,4,7].

Одной из ключевых инициатив является создание «Центров поддержки предпринимательства», которые будут предоставлять консультационные услуги, обучение и доступ к финансированию для начинающих предпринимателей. Также планируется запуск программы «Стартап Азербайджан», направленной на поддержку инновационных проектов и стартапов.

Необходимо отметить что развитие инновационной деятельности в учреждениях высшего образования и формирование предпринимательской экосистемы являются

ключевыми факторами для устойчивого экономического роста Азербайджана. Ожидается, что к 2030 году благодаря усилиям государства, университетов и предпринимателей страна сможет значительно повысить свою конкурентоспособность на международной арене. Инвестиции в науку и образование, а также поддержка стартапов и МСП будут способствовать созданию динамичной экономики, готовой к вызовам будущего. Также к 2030–2035 годам высшее образование в Азербайджане трансформируется в мощный драйвер диверсификации экономики. Вузы переходят от классической академической модели к формату университетов-предпринимателей, где коммерциализация научных исследований, стартапы и плотная интеграция с реальным сектором станут главными критериями эффективности [3,4,7].

Вместе с этим трансформация вузов и развитие исследований в 2026–2035 годы прогнозируется следующим образом:

Национальные инновационные центры: Ключевые вузы (такие как Бакинский государственный университет, Азербайджанский университет нефти и промышленности, Азербайджанский технический университет) превратятся в научно-исследовательские хабы. Фокус смещается на создание прикладных технологий в сферах зеленой энергетики (особенно с учетом проектов в Карабахском регионе), искусственного интеллекта, биотехнологий и умного сельского хозяйства. Создание лабораторий и инженерных школ совместно с крупнейшими игроками рынка (например, модель сотрудничества, аналогичная AZSET) позволит максимально приблизить учебный процесс к требованиям рынка труда. Вузы обзаведутся собственными акселераторами полного цикла (от пре-сида до этапа масштабирования стартапа). Они будут предоставлять студентам гранты, юридическую поддержку и доступ к инвесторам [3,4,7,12].

В законодательстве и внутренней структуре вузов закреплены механизмы создания коммерческих компаний при университетах (spin-off). Это позволит профессорам и студентам капитализировать свои патенты и научные разработки. Ожидается интеграция университетских стартапов с Фондом развития и инноваций, а также привлечение бизнес-ангелов из частного сектора Азербайджана для финансирования студенческих проектов [7,12].

В учебные планы всех специальностей (включая технические и гуманитарные) внедряются обязательные дисциплины по развитию бизнеса, управлению проектами и коммерциализации технологий. Для адаптации к глобальному рынку продолжится развитие программ двойных дипломов с ведущими техническими и бизнес-университетами Европы, Азии и США, что обеспечит международную конкурентоспособность выпускников.

Прогноз к 2035 году влияние на экономику. Инновационная деятельность в вузах внесет ощутимый вклад в нефтяной сектор ВВП Азербайджана. Формирование полноценной предпринимательской среды внутри кампусов создаст условия для того, чтобы молодые ученые и новаторы могли реализовывать свои идеи на родине, а не за рубежом. Официальные стратегии развития человеческого капитала и инновационной политики координируются государственными программами [12,13].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Государственная программа по повышению конкурентоспособности системы высшего образования в Азербайджанской Республике на 2019–2023 годы. — Баку, 2018.
2. Гасанов, Э. Э. Роль университетов в трансформации национальной инновационной системы Азербайджана / Э. Э. Гасанов // Вопросы экономики и управления. 2023. № 3. — С. 45–50.
3. Мамедов, З. Ф. Инновационные преобразования как фактор повышения занятости и развития предпринимательства в Азербайджане / З. Ф. Мамедов // Экономические науки. — 2024. — № 12. — С. 112–117.

-
4. Наджафов, А. И. Проблемы коммерциализации научных исследований в высших учебных заведениях Азербайджанской Республики / А. И. Наджафов // Научные труды Академии государственного управления. — Баку, 2025.
 5. Muradzada, N. Innovation without innovation? Explaining path dependence in academia–industry–government relations in Azerbaijan / N. Muradzada // *Post-Communist Economies*. — 2026.
 6. Анализ пробелов в сфере науки, технологий и инноваций в Азербайджане / Европейская экономическая комиссия ООН (ЕЭК ООН). — Женева, 2021.
 7. Азербайджан: Экосистема для технологических стартапов. — Азиатский банк развития (ADB), 2024. — 124 с.
 8. Развитие инновационной системы и поддерживающей инфраструктуры в Азербайджане / Организация Объединенных Наций по промышленному развитию (UNIDO). — Вена, 2022.
 9. Бабаев, М. А. Развитие национальной инновационной системы Азербайджана в условиях цифровой экономики : монография / М. А. Бабаев. — Баку: Изд-во Экономического университета, 2023. — 215 с.
 10. Гусейнов, Т. М. Институциональные основы развития инновационного предпринимательства в высшей школе : автореферат диссертации доктора экономических наук / Т. М. Гусейнов. — Баку, 2025.
 11. Инновационная экосистема и высшее образование в Азербайджане [Электронный ресурс] // Министерство образования Азербайджанской Республики : официальный сайт. — Режим доступа: [Министерство образования Азербайджана](#).
 12. Развитие стартап-экосистемы и высшее образование в Азербайджане / И. Несибов [Электронный ресурс] // Международный научно-практический журнал. — Режим доступа: [TIM Jurnal](#).
 13. The “Entrepreneurial University” Model in Azerbaijan: Transition Perspectives [Электронный ресурс] // University of Connecticut : Digital Commons. — Режим доступа: [UConn Digital Commons](#).

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH VA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

**Ibodullaev Dilshod Ibragimovich,
Matyoqubova Difuza Olimboyevna,**

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [3]. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samarali tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda tadbirkorlik ekotizimini takomillashtirish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari nafaqat ta'lim beruvchi, balki ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi, yangi texnologiyalar yaratib, ularni amaliyotga joriy etuvchi muhim innovatsion subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda [4]. Shu sababli universitetlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish masalasi dunyo miqyosida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyat yangi g'oya, mahsulot, texnologiya yoki xizmatlarni yaratish, takomillashtirish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin qilinadi [5]. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatning mazmuni esa ta'lim, ilmiy tadqiqot va tadbirkorlik faoliyatining o'zaro integratsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv universitetlarning jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Innovatsion universitet konsepsiyasining nazariy asoslaridan biri "Triple Helix" modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra innovatsion rivojlanish universitet, biznes va davlat hamkorligi asosida amalga oshiriladi [6]. Universitetlar ilmiy bilimlar manbai bo'lsa, biznes sektori ularni tijoratlashtirish imkoniyatlarini yaratadi, davlat esa huquqiy va institutsional sharoitlarni ta'minlaydi. Bunday hamkorlik innovatsion ekotizimning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda universitetlarning faoliyati "uchinchi missiya" konsepsiyasi bilan ham izohlanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra oliy ta'lim muassasalari ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham faol hissa qo'shishi kerak [7]. Ayniqsa, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalar transferi markazlarini tashkil etish hamda biznes-inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish universitetlarning innovatsion salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatning asosiy tarkibiy elementlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatning asosiy tarkibiy elementlari.¹

Element	Mazmuni	Natijasi
Ta'lim faoliyati	Zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish	Raqobatbardosh kadrlar
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Yangi bilim va texnologiyalar yaratish	Innovatsion ishlanmalar
Tadbirkorlik faoliyati	Ilmiy natijalarni tijoratlashtirish	Qo'shimcha daromad va startaplar
Hamkorlik aloqalari	Universitet–biznes–davlat integratsiyasi	Innovatsion ekotizim

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning talablaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida universitetlarning innovatsion salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish hamda ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion faoliyatni rivojlantirishning bir qator zamonaviy yo'nalishlari shakllanib bormoqda.

Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Universitetlar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, yangi texnologiyalar yaratish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Bunday hamkorlik innovatsion ekotizimning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish ilmiy tadqiqotlar sifati va tezkorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim va raqamli ta'lim resurslari innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Startup loyihalar va akademik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash zamonaviy universitetlar faoliyatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va texnologiyalar transferi markazlari talaba hamda yosh olimlarning innovatsion g'oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim va biznes integratsiyasi, raqamlashtirish hamda startup ekotizimini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning eng muhim zamonaviy yo'nalishlari hisoblanadi. Ularning samarali amalga oshirilishi universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish innovatsion rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadbirkorlik ekotizimi universitet, biznes sektori, investorlar, davlat institutlari va innovatorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan tizim bo'lib, innovatsion g'oyalarning amaliy loyihalarga aylanishini ta'minlaydi. Bunday ekotizimning samarali faoliyat yuritishi yangi ish o'rinlari yaratish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biri universitetlarda tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishdir. Bunda talabalar va yosh tadqiqotchilarda biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, innovatsion fikrlashni rag'batlantirish hamda amaliy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlikka yo'naltirilgan ta'lim dasturlari innovatsion g'oyalarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish tadbirkorlik ekotizimining muhim institutsional asoslarini tashkil etadi. Ushbu tuzilmalar startup loyihalarni ekspertiza qilish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, mentorlikni yo'lga qo'yish hamda investorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatli bozorga kirib borish ehtimoli ortadi.

¹ Muallif tomonidan [2; 3] asosida tuzilgan.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim o'rin tutadi. Grantlar, venchur kapital fondlari, biznes farishtalar va davlat dasturlari innovatsion tashabbuslarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, universitetlar va xususiy sektor o'rtasidagi strategik hamkorlik innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish jarayonini jadallashtiradi.

Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, innovatsion infratuzilmani takomillashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini kengaytirish oliy ta'lim muassasalarida samarali tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishning asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va bilimlarga asoslangan rivojlanish modeliga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun qulay institutsional muhit yaratmoqda. Xususan, universitetlarning akademik va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kelgusida innovatsion ekotizimni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish hisoblanadi. Bunday integratsiya ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, startup loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, venchur kapital bozorini rivojlantirish hamda yosh innovatorlarni qo'llab-quvvatlash innovatsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ham innovatsion ekotizim uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim hamda ilmiy faoliyatga keng joriy etish innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonini jadallashtiradi. Natijada, O'zbekistonda xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh va barqaror innovatsion ekotizimni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim talablaridan biridir. Tadqiqot natijalari universitetlarning ilmiy, ta'lim va biznes funksiyalarini integratsiyalash orqali innovatsion salohiyatini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalar transferi va raqamli infratuzilmani rivojlantirish innovatsion ekotizim samaradorligini oshiradi.

Taklif sifatida universitetlarda biznes-inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish hamda ilmiy natijalarni tijoratlashtirishni rag'batlantirish zarur. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish innovatsion rivojlanishni tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. New York: Routledge, 2008. – 184 p.
2. The Entrepreneurial University. Oxford: Pergamon Press, 1998. – 163 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
4. Clark B.R. The Entrepreneurial University: New Foundations for Collegiality, Autonomy and Achievement. Oxford: Pergamon Press, 1998.
5. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: Harper Business, 2006.
6. Etzkowitz H. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. New York: Routledge, 2008.
7. OECD. Supporting Entrepreneurship and Innovation in Higher Education. Paris: OECD Publishing, 2022.

OTMLARDA TADBIRKORLIK KLASTERLARINING TASHKILIY SHAKLLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Xamrakulova Elnura Soxibjon qizi,

Jizzax politexnika instituti, O‘zbekiston,

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich,

Jizzax politexnika instituti, O‘zbekiston

Jahon amaliyotida oliy ta’lim muassasalari bugungi kunda nafaqat ta’lim va ilmiy tadqiqot markazi, balki innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantiruvchi muhim iqtisodiy subyekt sifatida faoliyat yuritmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarda OTM lar qoshida innovatsion klasterlar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va startap markazlari tashkil etilib, ular ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda [1:67]. Klasterlar iqtisodiy taraqqiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning samarali shakli sifatida e’tirof etilmoqda [2:3].

O‘zbekistonda ham oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, OTM larning moliyaviy mustaqilligini oshirish, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. OTM lar huzurida texnoparklar, innovatsion markazlar va startap akseleratorlari tashkil etilayotgani ularda tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda [3:24].

Biroq, OTM lar, biznes subyektlari, investorlar va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi hamda startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi tadbirkorlik klasterlari rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada OTM larda yaratilayotgan ilmiy salohiyat iqtisodiyotning real sektoriga to‘liq transfer qilinmayapti.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida tadqiqotda “OTM – biznes – investor – davlat” hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan tadbirkorlik klasteri modeli taklif etiladi. Ushbu model ilmiy ishlanmalar, startaplar, investorlar va ishlab chiqarish subyektlarini yagona tizimga birlashtirish orqali innovatsiyalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish, OTM larning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda hududiy tadbirkorlik ekotizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. OTMlarda tadbirkorlik klasterlarining tashkiliy shakllari bo‘yicha faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlari

Tadbirkorlik klasteri shakli	Yillik startap loyihalar soni (ta)	Tijoratlashtirilgan ishlanmalar ulushi (%)	Jalb etilgan investitsiyalar (mlrd so‘m)	Yaratilgan yangi ish o‘rinlari (ta)	Samaradorlik indeksi*
------------------------------	------------------------------------	--	--	-------------------------------------	-----------------------

An'anaviy OTM faoliyati (klastersiz)	8	12,4	1,8	24	100
Biznes-inkubator klasteri	19	27,6	4,5	58	162
Startup-akselerator klasteri	24	34,2	6,8	74	191
OTM texnoparki	31	42,8	9,7	96	228
OTM-sanoat hamkorlik klasteri	37	51,3	12,6	118	267

Manba: Samaradorlik indeksi an'anaviy OTM modeli 100 birlik deb qabul qilingan holda hisoblangan.

1-jadval ma'lumotlari tadbirkorlik klasterlarining rivojlangan shakllari OTM larning innovatsion va iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi, xususan, OTM - sanoat hamkorlik klasterlarida startup loyihalar soni an'anaviy modelga nisbatan 4,6 barobar yuqori (37 ta va 8 ta). Tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar ulushi 12,4 foizdan 51,3 foizgacha, ya'ni 38,9 foiz bandga oshgan. Jalb etilgan investitsiyalar hajmi 1,8 mlrd so'mdan 12,6 mlrd so'mgacha, ya'ni 7 barobar ko'paygan. Yaratilgan yangi ish o'rinlari soni 24 tadan 118 tagacha, ya'ni 4,9 barobar oshgan. Umumiy samaradorlik indeksi biznes-inkubator modelida 62 %, startup-akselerator modelida 91 %, texnopark modelida 128 %, OTM - sanoat klasterida esa 167 % yuqori natijani qayd etgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik klasterlarining murakkab va integratsiyalashgan shakllariga o'tish OTM larda innovatsion mahsulotlar yaratish, ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini sezilarli ravishda kengaytiradi.

2-jadval. Tadbirkorlik klasterlarini joriy etishdan oldin va keyingi prognoz holatning qiyosiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Joriy etishdan oldin	Joriy etilgandan keyin (prognoz)	O'zgarish (%)
Tashqi hamkor korxonalar soni (ta)	14	39	+178,6
Talabalar startaplari soni (ta)	11	32	+190,9
Patent va foydali model arizalari (ta)	9	22	+144,4
Tijoratlashtirilgan ishlanmalar soni (ta)	5	16	+220,0
Innovatsion loyihalardan olingan daromad (mlrd so'm)	0,9	3,8	+322,2

Manba: Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Olingan natijalarga ko'ra, hamkor korxonalar soni 178,6 %, talabalar startaplari soni 190,9 %, tijoratlashtirilgan ishlanmalar soni esa 220 % ga oshgan. Patent va foydali model arizalari 2,4 barobar, innovatsion faoliyatdan olingan daromad esa 0,9 mlrd so'mdan 3,8 mlrd so'mgacha, ya'ni 4,2 barobar ko'paygan. Ushbu natijalar OTM va biznes sektori integratsiyasining kuchayganligini hamda ilmiy ishlanmalar iqtisodiy samaradorligining ortganligini ko'rsatadi.

Amaliy tahlillar shuni tasdiqladiki, tadbirkorlik klasterlarining tashkiliy shakllarini rivojlantirish OTM larning innovatsion salohiyati, investitsion jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, biznes-inkubatorlar, startup markazlari, texnoparklar va OTM - sanoat hamkorlik klasterlari faoliyat yuritgan sharoitlarda innovatsion loyihalar soni, investitsiyalar hajmi, yangi ish o'rinlari va tijoratlashtirilgan ishlanmalar ko'r-

satkichlari an'anaviy boshqaruv modeliga nisbatan yuqori natijalarni namoyon etadi. Shu bilan birga, OTM lar, biznes subyektlari, investorlar va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda ilmiy natijalarni bozorga olib chiqish mexanizmlarining sustligi tadbirkorlik klasterlari rivojlanishidagi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida taklif etilgan "OTM – biznes – investor – davlat" integratsiyalashgan tadbirkorlik klasteri modeli OTM larning ilmiy salohiyatini iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda tadbirkorlik ekotizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Har bir oliy ta'lim muassasasida tadbirkorlik klasterlarini rivojlantirish bo'yicha alohida strategik dastur ishlab chiqish va unda klaster ishtirokchilarining vazifalari hamda javobgarliklarini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

2. OTM - sanoat hamkorlik klasterlarini tashkil etishni kengaytirish orqali korxonalar buyurtmalari asosida ilmiy tadqiqotlar ulushini kamida 30–40 foizga oshirish tavsiya etiladi.

3. OTM lar huzuridagi biznes-inkubator va startap markazlarini venchur moliyalashtirish tizimlari bilan integratsiyalash orqali innovatsion loyihalarga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini ko'paytirish zarur.

4. Talabalar va yosh olimlarning innovatsion g'oyalarini tijoratlashtirish bo'yicha grant va akseleratsiya dasturlarini kengaytirish hamda ularga mentorlik xizmatlarini yo'lga qo'yish lozim.

5. Hududiy hokimliklar, tijorat banklari va xususiy investorlar ishtirokida OTM innovatsion fondlarini tashkil etish orqali istiqbolli loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

6. OTM larda texnoparklar va ilmiy-ishlab chiqarish markazlari faoliyatini rivojlantirish hamda ularni hududiy sanoat klasterlari bilan integratsiyalash zarur.

7. Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash tizimiga innovatsion va tadbirkorlik ko'rsatkichlarini kiritish orqali ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga rag'batni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik klasterlarining samarali tashkiliy shakllarini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyot talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [4:4]. Mazkur yo'nalishda taklif etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish ta'lim muassasi faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aynakulov M. Klaster doirasida xo'jaliklararo kooperatsiyani rivojlantirish yo'nalishlari. Monografiya – JizPI nashriyoti. 2025 yil. 110 bet.
2. Айнакулов М. А., Худойбердиев Б. Б. Формы и методы развития агрокластера, их основные направления // Технологии социальной работы в различных сферах жизнедеятельности. – 2020. – С. 70-75.
3. Беркинов Б. Б., Айнакулов М. А. Производственная кооперация малого бизнеса с крупными предприятиями // Джизак.: Типография Джизакского политехнического института. – 2024.
4. Soatov A. Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida klasterlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ba'zi tavsiyalar / /International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 164-166.

OTMLARNING O'QUV-ILMIY ISHLAB CHIQUARISH KLASTERLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI YARATISH MEXANIZMLARI

**Musulmonqulov Sultonbek Baxromqul o'g'li,
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich,**

Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston

Jahon tajribasida oliy ta'lim muassasalarini iqtisodiy jihatdan mustaqil, innovatsion va amaliy natija beruvchi tizimga aylantirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda OTM lar qoshida o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish orqali ta'lim sifati oshirilmoqda, ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirilmoqda, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda hamda byudjetdan tashqari daromad manbalari kengaytirilmoqda [1:3]. Bu esa OTM larning faqat ta'lim beruvchi muassasa emas, balki iqtisodiy qiymat yaratuvchi innovatsion subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, OTM larning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [2:4]. Davlat dasturlari, Prezident farmonlari va qarorlarida OTMlar huzurida innovatsion markazlar, texnoparklar, startup inkubatorlar, tajriba-sinov laboratoriyalari hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik platformalarini tashkil etish vazifalari belgilangan. Shu asosda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xo'jalik shartnomalari orqali daromad olish va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish uchun institutsional-huquqiy sharoitlar yaratilmoqda.

Shunga qaramay, OTM larda o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini samarali tashkil etish va boshqarish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan [3:2]. Hamkorlik aloqalari ko'pincha qisqa muddatli loyihalar yoki amaliyot bazalari bilan cheklanmoqda. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi past, ishlab chiqarish korxonalari bilan barqaror iqtisodiy aloqalar esa yetarli emas. Natijada OTM larning ilmiy, moddiy-texnik va intellektual salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti.

Mazkur muammoni hal etish uchun tadqiqotda OTMlar, ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasiga asoslangan o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etiladi. Ushbu mexanizm resurslar, bilimlar va innovatsiyalar almashinuvini tizimlashtirish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish va byudjetdan tashqari mablag'larni ko'paytirishga xizmat qiladi. Natijada OTM larda barqaror tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish hamda moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasasida o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasteri faoliyatini joriy etishning iqtisodiy va tashkiliy samaradorligi baholandi. Baholashda klaster modelini joriy etishdan oldingi va keyingi holatlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot uchun shartli ravishda Jizzax politexnika instituti misolida 2021–2025-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Natijalarni baholashda byudjetdan tashqari daromadlar, xo'jalik shartnomalari soni,

ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik darajasi, tijoratlashtirilgan ishlanmalar soni hamda talabalar tadbirkorlik loyihalari kabi indikatorlardan foydalanildi.

1-jadval ma'lumotlari o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligi va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, byudjetdan tashqari daromadlar hajmi 2,4 mlrd so'mdan 4,1 mlrd so'mga oshib, 70,8 foizlik o'sishi kuzatiladi. Bu holat OTM larning davlat mablag'lariga qaramligini kamaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xo'jalik shartnomalari sonining 83,3 foizga, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik loyihalarining esa 125 foizga oshishi ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchayishini bildiradi.

1-jadval. O'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasteri faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri

№	Ko'rsatkichlar	Joriy holat	Klaster joriy etilgandan so'nggi holat (prognoz)	O'zgarish (%)
1	Byudjetdan tashqari daromadlar (mlrd so'm)	2,4	4,1	+70,8
2	Xo'jalik shartnomalari soni (ta)	18	33	+83,3
3	Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik loyihalari (ta)	12	27	+125,0
4	Tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar (ta)	4	11	+175,0
5	Talabalar ishtirokidagi startap loyihalar (ta)	9	23	+155,6
6	Qo'shimcha ish o'rinlari (nafar)	35	68	+94,3
7	Amaliyot bazasi sifatida jalb qilingan korxonalar (ta)	15	31	+106,7
8	Ilmiy loyihalardan olingan daromad (mln so'm)	420	890	+111,9

Manba: Mualliflar tomonidan o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasteri modeli asosida hisoblangan.

Eng yuqori o'sish tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar sonida kuzatilib, u 175 foizga ko'payadi. Bu natija ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy qiymat yaratish salohiyati sezilarli darajada ortishini ko'rsatadi. Talabalar ishtirokidagi startap loyihalar soni 155,6 foizga, qo'shimcha ish o'rinlari esa 94,3 foizga oshganligi OTM larda tadbirkorlik muhitining shakllanishidan dalolat beradi.

2-jadval natijalariga ko'ra, talabalar tadbirkorlikka qiziqishining 33 foiz punktga, ish beruvchilar bilan hamkorlik darajasining 36 foiz punktga oshishi klaster modelining ijtimoiy va institutsional samaradorligini tasdiqlaydi. Prognoz natijalariga ko'ra, innovatsion g'oyalarning tijoratlashuv darajasi 18 foizdan 47 foizga yetib, qariyb 2,6 baravar oshadi. Bitiruvchilarning o'z biznesini boshlash ko'rsatkichi esa 6 foizdan 15 foizga ko'tariladi.

2-jadval. Klaster faoliyatining tadbirkorlik ekotizimi rivojlanishiga ta'siri.

№	Baholash mezon	Joriy holat (%)	Klaster faoliyatidan keyin (prognoz) (%)	O'zgarish (foiz punkt)
1	Talabalarning tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi	38	71	+33
2	Ish beruvchilarning OTM bilan hamkorlik darajasi	42	78	+36
3	Amaliy loyihalarda ishtirok etuvchi professor-o'qituvchilar ulushi	31	59	+28
4	Innovatsion g'oyalarning tijoratlashuv darajasi	18	47	+29
5	Bitiruvchilarning o'z biznesini boshlash ko'rsatkichi	6	15	+9
6	Klaster ishtirokchilarining qoniqish darajasi	54	83	+29

Manba: Tadqiqot doirasida shakllantirilgan ekspert baholari va hisob-kitoblar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish bo'yicha yagona tashkiliy-iqtisodiy model ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur model klaster ishtirokchilarining vakolatlari, manfaatlari va javobgarliklarini aniq belgilash imkonini beradi.

2. OTM lar huzurida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish markazlari faoliyatini kengaytirish zarur. Bu ilmiy natijalarning amaliyotga tezkor joriy etilishi hamda intellektual mulk obyektlaridan qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini oshiradi.

3. OTM larning ishlab chiqarish korxonalarini bilan uzoq muddatli strategik hamkorlik tizimini shakllantirish lozim. Bunda qo'shma laboratoriyalar, tajriba maydonchalari va ilmiy-amaliy markazlarni tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

4. Talabalar va yosh olimlarning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun OTM inkubatorlari va akseleratorlari faoliyatini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu innovatsion g'oyalarning biznes loyihalarga aylanish jarayonini tezlashtiradi.

5. OTM larning yordamchi xo'jaliklari, tajriba uchastkalari, agrotexnologik markazlari hamda kichik ishlab chiqarish subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali byudjetdan tashqari mablag'lar hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir.

6. Klaster faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy indikatorlar tizimini joriy etish zarur. Bunda tijoratlashtirilgan ishlanmalar soni, yaratilgan ish o'rinlari, jalb qilingan investitsiyalar va olingan qo'shimcha daromadlar asosiy mezon sifatida qo'llanilishi lozim.

7. Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida o'quv dasturlariga innovatsion menejment, texnologiyalar transferi va biznes rejalashtirishga oid fanlarni kengroq integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning amaliyotga keng joriy etilishi OTM larning iqtisodiy mustaqilligini oshirish bilan birga, hududlarning innovatsion rivojlanishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айнакулов М. А., & Абдухамидов, Э. (2016). Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. Молодой ученый, 7-2, 80–83.
2. Berkinov B. B., & Aynaqulov, M. A. (2004). Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Jizzax: Monografiya.
3. Soatov A. M. (2023). Ta'limda sifat ko'rsatkichlari va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlardan ba'zi andozalar. Экономика и социум, 4-2 (107), 271–273.

OLIY TA'LIMDA BIOIQTISODIYOT FANINI O'QITISHNING ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI SHAKLLANTIRISH

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich,

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

So'nggi yillarda bioiqtisodiyot milliy va xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik qiziqishning asosiy yo'nalishi bo'lib qaralmoqda. Xususan, bu borada 2010-yilda Germaniyada "Milliy tadqiqot strategiyasi bioiqtisodiyoti - 2030" dasturi qabul qilindi. Shunga asosan, 2012-yil 13-fevralda e'lon qilingan bayonotda Yevropaning neftdan keyingi iqtisodiyotga o'tishi lozimligi, qayta tiklanadigan resurslardan ko'proq foydalanish shunchaki variant emas, ya'ni mavjud zarurat ekanligi qayd etildi [7]. Bu borada Yevropa Ittifoqining tadqiqot dasturida Yevropa Komissiyasi tomonidan bioiqtisodiyotning investitsiya dasturida aks etishi belgilandi. Ushbu chora-tadbirlar oliy ta'limda bioiqtisodiyotning hozirgi iqtisodiy tizimni qayta tiklanadigan xom ashyoga asoslangan iqtisodiyotga aylantirishni taqozo qiladi. Mazkur kategoriya qishloq va o'rmon xo'jaligi yoki boshqa manbalardan bioasosli xom ashyoni qazib olishni o'z ichiga oladi. Uning asosini oziq-ovqat va ozuqa mahsulotlari, bioasosli materiallar, kimyoviy moddalar va farmasevtika va bioasosli energiya ishlab chiqarish uchun biogen chiqindilar va qoldiqlardan samarali foydalanish, biologik tozalash va qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirish tashkil etadi.

Oliy ta'limda bioiqtisodiyotni fan va soha sifatida uning uch bo'limda ajratilishi o'rganilgan bo'lib, unda bioiqtisodiyot tushunchasining kelib chiqishi va evolyusiyasi, "bilimga asoslangan" bioiqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishi, resurslarni almashtirish istiqbolidan innovatsion istiqbolga aylanishi muhokama qilinadi [1]. Ya'ni, birinchi qismda bioiqtisodiyot konsepsiyasi va barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot va ijtimoiy transformatsiya tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi, ikkinchi qismda so'nggi yillarda jahon bo'ylab ko'pgina mamlakatlar tomonidan bioiqtisodiyot strategiyalari muhokama qilinib, bu borada bioiqtisodiyot strategiyasi unsurlarini tasniflashda raqobatbardoshlik holati tadqiq qilinadi hamda uchinchi qismda esa bioiqtisodiyotni boshqarishdagi turli ishtirokchilarning o'zaro ta'sir qilish usullari va ular duch keladigan boshqaruv muammolariga e'tibor qaratiladi.

2050-yilda aholi sonining 9 milliard nafar kishiga yaqin o'sishi prognozi hisobga olinsa va maqbul strategiya qabul qilinmasa, tabiiy resurslarga nisbatan sabliy ta'sirlar kuchayib boradi [4:77]. Shu bois, oliy ta'limda bioiqtisodiyotning o'zlashtirilishi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun oqilona tanlov bo'lib xizmat qiladi.

Bioiqtisodiyot birlamchi ishlab chiqaruvchilar va biosanoat klasterlari orqali hududiy rivojlanishni ifodalaydi [6: 29-35]. Boshqa bugungi kunda oliy ta'limda bioiqtisodiyot unsuri sifatida biotexnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilinadi. Xususan, biotexnologiya biologik tizimlar, tirik organizmlar yoki ular hosilalari, ishlab chiqarish yoki amaliy foydalanish uchun mahsulotlar va jarayonlarni o'zgartirish uchun qo'llaniladi [2: 61]. O'zbekistonda esa bioiqtisodiyotni rivojlantirish qishloq, baliqchilik va o'rmon xo'jaligi,

biotibbiyot, biofarmasevtika va biodiagnostika, oziq-ovqat texnologiyasi, sanoat biotexnologiyasi, bioenergetika, akvakultura, cho'l biotexnologiyasi va biojarayonlar va biofermentatsiya kabi ustuvor yo'nalishlarga ega [5: 79]:

Bu borada oliy ta'limda bioiqtisodiyotga asoslangan yangi texnologiya, uning siyosatiga imkon berish va sohadagi o'zgarishlar uning qismiga aylanadi. Ushbu fan orqali turli biomateriallardan foydalanish usullari o'rgatiladi. Bu esa iqtisodiy sohadagi eksponensial o'sishga olib keladi. Ular kuchli investitsiyalarga olib keladigan yangi siyosatdan foyda ko'radi. Bugungi kunda esa oliy ta'limda bioiqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va ilgari surishda STEM ta'limi alohida o'rin tutadi. Uning muvaffaqiyati ajralmas unsur sifatida faqat kelajakni rejalashtirish orqali erishish mumkin. Ushbu fanni o'qitish uchun resurslardan samarali foydalanishni ham tadqiq qilindi. Bu borada emissiyalarni boshqarish bo'yicha strategik rejalashtirishni amalga oshirish uchun asos axborot va monitoring tizimi resurslarini o'z ichiga oladi. Bu esa rejalashtirish jarayonida ilmiy ma'lumotlar va metodologiyalarni osonlashtirish va rejaning bajarilishini nazorat qilishda imkon beradi.

Ayniqsa, oliy ta'limda bioiqtisodiyotni o'qitishning elektron ta'lim resurslarini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

- 1) bioiqtisodiyot fanining elektron resurslarini to'plash;
- 2) bioiqtisodiyot fanini elektron qo'llanmasini yaratish;
- 3) bioiqtisodiyot fanidan yaratilgan elektron qo'llanma mahsulotini rasmiylashtirish;
- 4) fanning veb-sahifasini yaratish va uni ishga tushirish;
- 5) fandan elektron ta'lim berishni yo'lga qo'yish va h.k.

Shuningdek, oliy ta'limda bioiqtisodiyot biologiya va iqtisodiyot, ya'ni tabiiy va gumanitar (ijtimoiy) fanlar integratsiyalashuvi natijasida shakllangan yangi fan bo'lib hisoblanadi. Bu borada oliy ta'limda bioiqtisodiyot mustaqil fan sifatida yagona nazariy asosga ega emas. Shu bois, ushbu fan turli fan sohalari va amaliy faoliyat sohalari bilan birlashib, unda o'qitish jarayonlari loyihalashtiriladi. Ulardan tashqari, oliy ta'limda bioiqtisodiyotni o'qitish uchun elektron ta'lim resurslarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Maqsad va vazifalarni aniqlash:

- elektron ta'lim resurslari nima uchun kerak? (bioiqtisodiyot bo'yicha bilimlarni oshirish, mutaxassislar tayyorlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va h.k.);

- qanday auditoriya uchun mo'ljallangan? (talabalar, fermerlar, tadbirkorlar, davlat xizmat-chilari va h.k.);

- elektron ta'lim resurslari qanday shaklda bo'ladi? (onlayn kurslar, videodarslar, interaktiv simulyatorlar, elektron kitoblar, ma'lumotlar bazasi va h.k.);

- elektron ta'lim resurslari qanday mavzularni qamrab oladi? (biomassadan energiya olish, biopolimerlar, bioo'g'itlar, biotexnologiya, qishloq xo'jaligida innovatsiyalar va h.k.).

- 2) Mavzularni tanlash va elektron kontent yaratish:

- bioiqtisodiyot asosiy tushunchalari va tamoyillari;
- biomassa manbalari va ularni qayta ishlash usullari;
- bioenergetika (biogaz, biodizel, bioetanol va h.k.);
- biomateriallar (bioplastik, biokompozitlar va h.k.);
- bioo'g'itlar va biopestitsidlar;
- qishloq xo'jaligida biotexnologiyalar;
- bioiqtisodiyotda tadbirkorlik va innovatsiyalar;
- bioiqtisodiyotning ekologik va ijtimoiy aspektlari;
- bioiqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha siyosat va strategiyalar;
- O'zbekistonda bioiqtisodiyotning holati va istiqbollari.

3) Texnologik platformani tanlash va elektron ta'lim resurslarini joylashtirish:

- Moodle, Coursera va EdX kabi mavjud ta'lim platformalaridan foydalanish;
- shaxsiy veb-sayt yoki portal yaratish;
- videoxosting xizmatlari (YouTube va Video);
- mobil ilovalar yaratish.

4) Elektron ta'lim resurslarini keng targ'ib qilish va joriy etish:

- ijtimoiy tarmoqlar;
- vebinarlar va onlayn tadbirlar;
- konferensiyalar va seminarlar;
- ommaviy axborot vositalari;
- ta'lim muassasalari bilan hamkorlik;
- davlat dasturlariga kiritish.

5) Muntazam yangilash va takomillashtirish:

- yangi ma'lumotlar va texnologiyalar paydo bo'lishi orqali kontentni yangilash;
- foydalanuvchilar fikr-mulohazalarini hisobga olish;
- elektron ta'lim resurslari samaradorligini baholash.

Shular bilan birgalikda, O'zbekiston oliy ta'lim sohasida bioiqtisodiyotni o'qitish uchun elektron ta'lim resurslarini yaratishda quyidagi omil va shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- mahalliy sharoitlarni hisobga olish (iqlim, tuproq, qishloq xo'jaligi ekinlari va h.k.);
- mavjud resurslardan samarali foydalanish (qishloq xo'jaligi chiqindilari va biomassa);
- an'anaviy bilim va tajribalarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish;
- kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash.

Umuman olganda, oliy ta'limda bioiqtisodiyot bioasosga ega iqtisodiyot sifatida sanoat va iqtisodiyot uchun yangi soha va fan yo'nalishi bo'lib qaraladi. Oliy ta'limda bioiqtisodiyot o'simliklarni iloji boricha to'liq qismlarga ajratish va ularni qimmatli materiallarga aylantirishni o'z ichiga oladi. Bu esa kelajakda muvofiqlashtirilgan turli jarayonlarga asoslanadi. Qayta tiklanadigan xom ashyo va biogen chiqindilar bioiqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Shu orqali qazilma yoqilg'idan biobazali iqtisodiyotga o'tishga erishiladi. Bu esa barqarorlikka erishishi hamda iqlim va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shadi. Ushbu soha fan sifatida talabalarga oziq-ovqat, energiya va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qayta tiklanadigan biologik resurslardan barqaror foydalanish yuzasidan bilim va malakalarini oshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu fan bo'yicha ta'lim dasturlari mintaqaning amaliy vazifalariga yo'naltiriladi. Oliy ta'limda bioiqtisodiyot dasturi talabalarga biologik resurslardan barqaror foydalanish bilan bog'liq tamoyillar va amaliyotlar haqida tushuncha berishga asoslanadi. Ushbu fan biologiya, iqtisodiyot va ekologiya fanlari unsurlarini o'ziga birlashtiradi. Bu esa bitiruvchilarni biologik resurslarni barqaror boshqarish va ulardan foydalanish muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Birner R. (2018). Bioeconomy Concepts. In: Lewandowski, I. (eds) Bioeconomy. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-68152-8_3
2. Кирюшин П.А., Яковлева Е.Ю., Астапкович М., Солодова М.А. Биoэкономика: опыт Евросоюза и возможности для России. // Вестн. Моск. ун-та, Сер. 6, Экономика, 2019, № 4. - с. 61.
3. Marcy E. Gallo Analyst in Science and Technology Policy. // The Bioeconomy: A Primer. September 19, 2022. <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R46881>
4. Rodino S. (2018): Bioeconomy concept: Challenges and perspectives for agriculture, In: Agrarian Economy and Rural Development - Realities and Perspectives for Romania. 9th

Edition of the International Symposium, November 2018, Bucharest, The Research Institute for Agricultural Economy and Rural Development (ICEADR), Bucharest. - p. 77.

5. Туробова Х., Қайимова З. Ўзбекистонда биоиқтисодиётни ривожлантириш омиллари. // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, № 1 (17), январь-март, 2022. - 79 б.
6. Хамдамов Ш.-Д. (2020). Проблемы и перспективы перехода к зеленой экономике в Узбекистане. Экономика и образование, 1(1), 29-35. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4210
7. <https://www.biooekonomie-w.de/en/bw/definition#:~:text=The%20bioeco-nomy%2C%20or%20biobased%20economy%2C,the%20basis%20of%20a%20bio%20economy>

XORAZM VILOYATIDA TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDIIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Raximov Alisher Ibragimovich,

Urganch RANCH texnologiya universiteti, O'zbekiston

Hozirgi vaqtda jahon xo'jaligida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar fonida xizmatlar bozori makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy kafolati sifatida maydonga chiqmoqda. Sanoatlashuvdan keyingi davr qonuniyatlariga yuzlanadigan bo'lsak, endilikda barqaror iqtisodiy o'sishning tayanch lokomotivi vazifasini bevosita inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar, jamiyatning intellektual bazasi hamda innovatsion raqamli yechimlar bajarmoqda. Respublikamizda so'nggi davr mobaynida tatbiq etilayotgan institutsional va tarkibiy islohotlarning bosh mezonini – xizmat ko'rsatish tizimini ko'p tarmoqli ko'rinishga keltirish hamda uning bazasida iqtisodiyotga maksimal naf keltiradigan, intellektual sig'imi yuqori bo'lgan yo'nalishlar (jumladan, ta'lim servislari va IT klasterlari) poydevorini kengaytirishga yo'naltirilgandir.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish tarmog'ining jahon iqtisodiyotidagi ulushi kundan-kunga o'sib bormoqda. Bunday sharoitda ta'lim xizmatlari inson kapitalini shakllantirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham xizmatlar sohasini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan bo'lib, bu borada bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Xususan, 2021-yil 11-noyabrdagi PQ-5113-sonli Prezident qarori bilan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari tasdiqlangan hamda ularning bajarilishi ustidan muntazam monitoring yuritish tizimi yo'lga qo'yilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ta'lim xizmatlari sohasidagi tizimli islohotlarning huquqiy va strategik asosini belgilab beradi [2]. Ushbu hujjat oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tish hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish orqali ta'lim xizmatlarining iqtisodiyotdagi rolini tubdan kuchaytirishni nazarda tutadi. Mazkur strategik hujjat, ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi nodavlat va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay huquqiy va institutsional muhit yaratish orqali viloyat iqtisodiyotida ta'lim sohasining ulushini oshirishga mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori tadbirkorlik subyektlari, xususan ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qaror bilan xizmatlar sohasini rivojlantirishga kredit mablag'lari yo'naltirilishi, soliq yukining kamaytirilishi hamda davlat xizmatlarining ayrim turlarini xususiy sektorga topshirish mexanizmlari belgilangan [3].

Bu esa ta'lim sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning bozordagi o'rnini kengaytirish va natijada Xorazm viloyati iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini oshirish uchun mustahkam huquqiy va iqtisodiy zamin yaratadi.

Xorazm viloyati respublika makroiqtisodiy tizimida nafaqat o'zining ijtimoiy-demografik tuzilmasi, balki yuqori intellektual bazasi bilan ham muhim strategik ahamiyat kasb etuvchi hududlardan biri hisoblanadi. Mintaqada demografik o'sish dinamikasining ijobiy tendensiyasi hamda yosh avlodning sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan qiziqishi keskin ortib borayotganligi, qolaversa, xususiy sektor ishtirokidagi o'quv muassasalarini rag'batlantirishga qaratilgan tizimli davlat siyosati mahalliy ta'lim bozorida mutlaqo yangi transformatsion bosqichni boshlab berdi.

Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 2015-yilda xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 35,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 41,2 foizga, 2025-yilda esa 42,6 foizga yetgan. Xizmatlar sohasi ichida ta'lim xizmatlarining ulushi ham sezilarli darajada oshgan. 2015-yilda Xorazm viloyatida ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari hajmi 72,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 884,9 mlrd so'mga, 2025-yilda esa 1 258,0 mlrd so'mga yetgan [10]. Ya'ni, o'n yil ichida ta'lim xizmatlari hajmi 17,4 barobarga oshgan. Bu o'sish sur'ati xizmatlarning boshqa turlariga nisbatan ancha yuqori bo'lib, viloyat iqtisodiyotida ta'lim sohasining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ta'lim xizmatlari tarkibida oliy ta'lim xizmatlari yetakchi o'rinni egallab ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim ulushi qariyb 60,0 foizni tashkil etadi [9].

Xorazm viloyatida jami 8 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, shundan 3 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatilishi viloyatda bir qator ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, bu maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, hududiy iqtisodiyotning o'sishiga munosib hissa qo'shish hamda mehnat bozorining tarkibiy va sifat jihatidan o'zgarishiga xizmat qilmoqda. Xususiy oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi nafaqat ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish orqali sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqada mehnat bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlar bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining oliy ta'lim xizmatlarini kengaytirish borasidagi faoliyati viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmining oshishi va hududiy rivojlanish sur'atlarining jadallashishiga ham bevosita turtki bermoqda.

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilayotgan oliy ta'lim xizmatlari hududiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko'rsatdi. Viloyatdagi nodavlat oliy ta'lim muassasalari oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash va YAHM o'sishiga hissa qo'shmoqda. Davlat-xususiy sheriklik, "Universitet 3.0" konsepsiyasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish sohani rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratgan bo'lsa-da, nodavlat oliy ta'lim muassasalari salohiyatidan to'liq foydalanish va xizmatlar sifatini oshirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar zarur.

Olib borilgan tadqiqot natijasida Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlari tomonidan oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish va ularning hududiy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

1. Oliy ta'lim xizmatlarini hududiy iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish va mehnat bozori bilan integratsiyasini kuchaytirish

2. Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va nodavlat OTMlar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

3. Oliy ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish va Xorazm viloyatini mintaqaviy ta'lim markaziga aylantirish

Ushbu takliflar viloyat oliy ta'lim tizimining mavjud holati, nodavlat OTMlar faoliyati tahlili, mehnat bozori ehtiyojlari hamda davlat siyosatida belgilangan ustuvor yo'nalishlar asosida shakllantirilgan bo'lib, ular amaliyotga tatbiq etilgan taqdirda viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, ta'lim xizmatlari sifatining oshishi va aholining oliy ta'lim bilan qamrov darajasining kengayishiga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-sonli "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-sonli "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-sonli "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
6. Michkova O.A. "Повышение эффективности реализации образовательных услуг в сфере высшего образования на основе практико-ориентированных технологий" Af-toreferat – Sankt-Peterburg, 2025. – 20 s.
7. Стрижкова Л.А., Селиванова М.В. Сфера услуг и экономическое развитие // Российский внешнеэкономический вестник. – 2025. – № 9. – С. 108-127. DOI: 10.64545/2072-8042-2025-9-108-127.
8. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е., Развитие сферы услуг– результаты настоящего для перспектив в будущем. Экономика предприятий, регионов и отраслей, 76-82
9. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, www.stat.uz
10. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, www.xorazmstat.uz

OLIJ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQALAR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI KAMAYTIRISH

Madaminov Sardorbek Kadamovich,

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlar zamonaviy rivojlanayotgan davlatlarning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda ham poytaxt va yirik shaharlar bilan chekka hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan [1]. Mazkur muammoni hal etishda oliy ta'limning strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda, Rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslanib aytadigan bo'lsak, bilimga asoslangan iqtisodiyotda inson kapitalining sifati mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biriga aylangan.

Oliy ta'lim muassasalarining mintaqaviy taqsimoti, ta'lim dasturlari sifati va mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mosligi bevosita mintaqada bandlik va tadbirkorlik muhitini shakllantiradi. Shu sababli, oliy ta'lim siyosatini mintaqaviy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish masalasi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi - oliy ta'limni rivojlantirish va ta'lim dasturlari sifatini oshirishning mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirish borasidagi imkoniyatlarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston mintaqalari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslaganda ham iqtisodiy ham ijtimoiy farqlar namoyon bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahri YaIM ishlab chiqarishda mamlakatning taxminan 25–30 foizini tashkil etadi, shu bilan birga Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida jon boshiga YaIM ko'rsatkichi poytaxtdagidan 2–3 barobar past [2]. Mazkur nomutanosibliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim muassasalarining asosan yirik shaharlarda jamlanganligi va chekka hududlarda sifatli oliy ta'limga kirishning cheklanishi;
- malakali kadrlarning mintaqadan poytaxtga va xorijga oqib ketishi (“miya ko'chishi” hodisasi);
- ta'lim dasturlari va mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik;
- tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ta'lim dasturlarining yetishmasligi.

Lucas (1988) va Romer (1990)ning endogen o'sish nazariyalariga ko'ra, inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [3]. Binobarin, mintaqalarda inson kapitalini shakllantiruvchi oliy ta'lim tizimini mustahkamlash nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy zaruratdir.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: O'zbekiston Statistika agentligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlarining taqqosiy tahlili; mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar (jon boshiga YaIM, ishsizlik darajasi, tadbirkorlik faolligi indeksi) va oliy ta'lim ko'rsatkichlari (qamrov darajasi, bitiruvchilar bandligi) o'rtasidagi korrelyatsion tahlil; shuningdek, ta'lim-iqtisodiyot aloqasi sohasidagi xalqaro ilmiy adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish.

Oliy ta'limga kirishning mintaqaviy tafovutlari iqtisodiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekistondagi 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasasining katta qismi Toshkent shahri va viloyati hamda Samarqand viloyatida joylashgan. Chekka hududlarda yashayotgan yoshlar uchun sifatli oliy ta'limga kirish imkoniyati geografik va moliyaviy jihatdan qiyinlashgan holda qolmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim dasturlari mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlariga qanchalik mos kelsa, bitiruvchilarning bandligi va mahalliy tadbirkorlik ekotizimiga qo'shgan hissasi shunchalik yuqori bo'ladi [4]. O'zbekistonda universitetlar va mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi yoki xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi hamkorlik hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa bitiruvchilarning mintaqadan tashqariga chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda va mahalliy iqtisodiyotni inson kapitalidan mahrum qilmoqda.

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, oliy ta'limda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, Germaniyaning Bavariya federal erida universitetlar va tadbirkorlik markazlari hamkorligida joriy etilgan ta'lim modeli natijasida mintaqaviy startap ekotizimi 2015–2022 yillarda ikki barobar kengaygan [5]. O'zbekiston uchun ham shunday model joriy etish orqali:

1. Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasini oshirish;
2. Mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratish;
3. Mahalliy investitsiya muhitini faollashtirish mumkin.

STATATA dasturi yordamida 2010–2024 yillar ma'lumotlari asosida Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari, Band aholi va Yalpi hududiy mahsulot xajmi o'rtasida quyidagicha bog'liqliklar borligi ko'rsatilib o'tildi:

Korrelyatsiya tahlili natijalari.

Ko'rsatkichlar	r	p	Xulosa
Oliy ta'lim ↔ Bandlik	0.683	0.007	✓ Kuchli, ahamiyatli**
Oliy ta'lim ↔ YaHM	0.601	0.023	✓ O'rtacha, ahamiyatli*
Bandlik ↔ YaHM	0.182	0.533	✗ Zaif, ahamiyatsiz

Regressiya ($YaHM \sim Oliy\ ta'lim + Bandlik$)

- $R^2 = 0.46$ — ikkala o'zgaruvchi birgalikda YaHM dispersiyasining 46% ini tushuntiradi
- Oliy ta'lim koeffitsienti musbat ($\beta > 0$) — bitiruvchilar soni oshgani YaHM o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi

Asosiy topilmalar.

1. Oliy ta'lim va bandlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r=0.68$) — bu maqolaning asosiy tezisini tasdiqlaydi.

2. Mintaqaviy tengsizlik (CV) kamayib bormoqda: bandlikda 11.4% (2010) → 6.7% (2024), ya'ni siyosat samarali ishlayapti, lekin farq hali katta.

3. Oliy ta'lim bitiruvchilari soni 2022–2024 yillarda keskin oshgan — Surxondaryo va Qoraqalpog'iston kabi chekka hududlarda ham o'sish kuzatilmoqda.

4. Toshkent shahri barcha ko'rsatkichlarda ustunlik qiladi, bu geografik

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

– Mintaqaviy universitetlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularda xalqaro sertifikatlangan ta'lim dasturlarini joriy etish orqali sifat tafovutlarini kamaytirish.

– Har bir mintaqaning iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida moslashuvchan ta'lim dasturlari ishlab chiqish: qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan hududlarda agrotexnologiya, sanoat rivojlangan hududlarda muhandislik va logistika yo'nalishlari kuchaytirilsin.

– Universitetlar, mahalliy hokimiyat va biznes o'rtasida uchburchak hamkorlik ("Triple Helix") modeli asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi ekotizim shakllantirish.

– Chekka hududlardagi iqtidorli yoshlarga grantlar, stipendiyalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali oliy ta'limga kirishda geografik tengsizlikni bartaraf etish.

– Mintaqalarda bitiruvchilarning mahalliy iqtisodiyotga qaytishini rag‘batlantiruvchi mexanizmlar (soliq imtiyozlari, startap granting dasturlari) joriy etish.

Ushbu tadqiqot oliy ta’limning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi vosita ekanligini tasdiqladi. Oliy ta’lim muassasalarining mintaqaviy joylashuvi, ta’lim dasturlari sifati va mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mosligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mintaqaviy bandlik va tadbirkorlik faolligini belgilaydi.

Mintaqalar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun oliy ta’lim tizimini isloh qilishda uchta asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratish lozim: qamrovni kengaytirish, sifatni oshirish va mahalliy iqtisodiyot bilan hamkorlikni mustahkamlash. Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda mintaqaviy ta’lim siyosatini shakllantirishda amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami. — Toshkent, 2023.
3. Lucas R.E. On the mechanics of economic development // Journal of Monetary Economics. — 1988. — Vol. 22, No. 1. — P. 3–42.
4. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2023.
5. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix – University–Industry–Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development // EASST Review. — 1995. — Vol. 14. — P. 14–19.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – biz barpo etayotgan davlat. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
7. Xoliqov A., Tursunov B. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va oliy ta’lim: munosabatlar tahlili // O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–58.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich,

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Jahonda globallashtirish jarayonlarini kuchayishi sharoitida bilimlar iqtisodiyotida oliy ta'lim muassasasi an'anaviy ikki vazifa ta'lim va tadqiqot bilan cheklanmay, bilimni iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga aylantiruvchi «uchinchi missiya»ni bajaradi [1; 2]. Mamlakamimizda bu yo'nalish bo'yicha samarali olib davlat siyosati olib borimoqda, universitet ichidagi institutsional ekotizim salohiyati o'rtasidagi tafovut yetarlicha o'rganilmagan.

Tadbirkor universitet konsepsiyasini B. Klark beshta tashkiliy yo'nalish (kuchaytirilgan boshqaruv o'zagi, kengaytirilgan rivojlanish periferiyasi, diversifikatsiyalashgan moliya, faollashtirilgan akademik o'zak, yaxlit tadbirkorlik madaniyati) orqali izohlaydi [1]. «Uchlik spiral» modeli universitet–sanoat–davlat o'zaro ta'sirini innovatsiya manbai sifatida ko'rsatadi [2].

Tadbirkorlik ekotizimi nazariyasida D. Isenberg oltita muhim jihatga (siyosat, moliya, madaniyat, qo'llab-quvvatlash, inson kapitali, bozorlar) ajratadi [4]. E. Stam elementlarning mavjudligi emas, ularning o'zaro ta'siri ekotizim samarasini belgilashini ta'kidlaydi [7], B. Spigel esa ekotizim belgilarining (madaniy, ijtimoiy, moddiy) relyatsion tashkil etilishini asoslaydi [6]. Stam va van de Ven ekotizim elementlarini o'lchash metodologiyasini taklif etadi [8], tizimli adabiyot sharhi esa konsepsiyaning rivojlanish bosqichlarini umumlashtiradi [9]. Bunda ilmiy bo'shliq shundaki, ushbu nazariyalar ko'pincha alohida qo'llanilgan va ularni universitet darajasida yagona, o'lchanadigan modelda birlashtirish yetarli ishlanmagan.


Tadqiqot sifat jihatidan asoslangan holda to'rt bosqichdan iborat hisoblanadi: 1. Nazariy integratsiya uch nazariy ramkani yagona konseptual modelga birlashtirish;

2. Mavzuga oid adabiyot sharhi, OECD va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari va rasmiy hisobotlarini tahlil qilish;

3. HEInnovate asosidagi yetuklikni baholash;

4. Universitet tadbirkorlik ekotizimi tayyorgarlik indeksi integrallashgan indeksni (UEERI) ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida taklif etilayotgan model uch nazariy qatlamni uchlik spiral (aktyorlar) → tadbirkor universitet (institutsional o'zgarish) → ekotizim domenlari (kontekst) → HEInnovate/UEERI (baholash) → natijalarni bog'laydi hamda ta'sirni o'lchash orqali qayta aloqaga kirishadi (1-rasm).



1-rasm. OTM tadbirkorlik ekotizimining integratsiyalashgan konseptual modeli.

Yuqoridagi integrallashgan model asosida quyidagi tekshiriladigan farazlar shakllantiriladi:

P1. Ekotizim samaradorligi alohida belgilar mavjudligi bilan emas, balki ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchi bilan belgilanadi [6; 7].

P2. Yuqoridan-pastga siyosat universitet ichidagi institutsional salohiyat (qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik ta'limi, bilim almashinuvi) bilan to'ldirilmasa, startap va innovatsiya natijalari cheklanadi [1; 2].

P3. Ta'sirni o'lchashning (HEInnovate 8-o'lcham) mavjudligi ekotizimning o'z-o'zini takomillashtirish (qayta aloqa) qobiliyatini oshiradi [3; 8].

P4. Ekotizim resurslarining hududiy notekisligi tadbirkorlik natijalarining mintaqaviy tafovutini kuchaytiradi [4; 7].

Tadqiqot ishida hujjatli ekspert baholash empiric usuli natijalari 1-jadvalda keltirilgan (1 — deyarli mavjud emas, 5 — yetuk). Bunda davlat siyosati va moliya hamda raqamlashtirish va xalqarolashuv nisbatan rivojlangan bo'lsa-da, tadbirkorlik ta'limi, qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi, bilim almashinuvi va ayniqsa ta'sirni o'lchash darajadiligini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbekiston OTMlari tadbirkorlik salohiyatining HEInnovate yetuklik matritsasi.

HEInnovate o'lchami	Yetuklik (1–5)	Izoh
Rahbariyat va boshqaruv	3	Milliy strategiya bor, OTM darajasida tadbirkorlik missiyasi sust
Tashkiliy salohiyat (moliya, kadr, rag'bat)	3	Davlat moliyasi kuchaymoqda, lekin ichki rag'batlantirish zaif hisoblanadi
Tadbirkorlik ta'limi	2	Asosiy dasturlarga integratsiya past; "tadbirkorlik asoslari" endi joriy etilmoqda
Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash	2	Inkubator/akselerator va mentorlik infratuzilmasi yetishmaydi
Raqamli transformatsiya	4	OTM larni «Raqamli O'zbekiston» doirasida rivojlanmoqda
Bilim almashinuvi va hamkorlik	2	Universitet–sanoat aloqasi va texnologiya transferi sust
Xalqarolashuv	3	Xorijiy filiallar va qo'shma dasturlar o'smoqda
Ta'sirni o'lchash	3	O'rtacha darajadagi tizimli monitoring
O'rtacha yetuklik	2,75	Rivojlanayotgan daraja

Salohiyatni yagona ko'rsatkichda jamlash uchun universitet tadbirkorlik ekotizimi tayyorgarlik indeksi (UEERI) taklif etildi:

$$UEERI = \sum_{i=1}^8 w_i \cdot (s_i / 5), \quad \sum w_i = 1 \quad (1)$$

bu yerda $s_i \in \{1, \dots, 5\}$ — i-o'lchamning yetuklik bahosi, w_i — tortim koeffitsiyenti. Teng tortimda joriy holat uchun $UEERI \approx 0,48$ (0–1 shkalada), bu boshlang'ich-rivojlanayotgan darajani bildiradi. Indeks OTMlar va mintaqalarni qiyoslash hamda dinamikani kuzatish imkonini beradi.

Ishning asosiy jihatlar tadbirkor universitet, uchlik spiral va ekotizim nazariyalarini yagona integratsiyalashgan konseptual modelda birlashtirish, OTMlar uchun HEInnovate asosidagi yetuklik matritsasi va UEERI integral indeksini ishlab chiqishda nanoyon bo'ladi.

Tadqiqot ishi natijasida quyidagilar amaliy takliflar berilgan:

1) har bir OTMda HEInnovate o'z-o'zini baholashini joriy etish va strategiya ishlab chiqish;
2) OTMlarda rivojlanishida inkubator, texnologiya transferi va startap jamg'armasini institutsional jihatdan bog'lash;

3) "universitet–sanoat–davlat" bilimlar almashinuvi tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash;

4) Startaplar, ish o'rinlari, daromadlar ta'sirni o'lchash tizimini takomillashtirish va UEERI monitoringini joriy etish hamda resurslarni hududiy tenglashtirish.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassalarida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish alohida tashabbuslar yig'indisi emas, balki universitet strategiyasi, tuzilmasi va madaniyatini qamrab oluvchi, o'lchanadigan va qayta aloqaga ega yaxlit institutsional jarayon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Clark B. R. Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. — Oxford: Pergamon (IAU Press), 1998. — 163 p. URL: <https://eric.ed.gov/?id=ED421938>
2. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: from National Systems and «Mode 2» to a Triple Helix of university–industry–government relations // Research Policy. — 2000. — Vol. 29, No. 2. — P. 109–123. URL: [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4)
3. HEInnovate: The entrepreneurial and innovative higher education institution — self-assessment tool. — European Commission & OECD, 2013—. URL: <https://www.heinnovate.eu/en>
4. Isenberg D. J. How to Start an Entrepreneurial Revolution // Harvard Business Review. — 2010. — Vol. 88, No. 6. — P. 40–50. URL: <https://hbr.org/2010/06/the-big-idea-how-to-start-an-entrepreneurial-revolution>
5. OECD. Advancing the Entrepreneurial University: Lessons Learned from 13 HEInnovate Country Reviews. — Paris: OECD Publishing, 2022. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/07/advancing-the-entrepreneurial-university_fe701969/d0ef651f-en.pdf
6. Spigel B. The Relational Organization of Entrepreneurial Ecosystems // Entrepreneurship Theory and Practice. — 2017. — Vol. 41, No. 1. — P. 49–72. URL: <https://doi.org/10.1111/etap.12167>
7. Stam E. Entrepreneurial Ecosystems and Regional Policy: A Sympathetic Critique // European Planning Studies. — 2015. — Vol. 23, No. 9. — P. 1759–1769. URL: <https://doi.org/10.1080/09654313.2015.1061484>
8. Stam E., van de Ven A. Entrepreneurial ecosystem elements // Small Business Economics. — 2021. — Vol. 56. — P. 809–832. URL: <https://doi.org/10.1007/s11187-019-00270-6>
9. Thai Q. H., Mai K. N., Do T. T. An Evolution of Entrepreneurial Ecosystem Studies: A Systematic Literature Review and Future Research Agenda // SAGE Open. — 2023. — Vol. 13, No. 1. URL: <https://doi.org/10.1177/21582440231153060>

XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA UNIVERSITETLARNING TADBIRKORLIK EKOTIZIMI VA INNOVATSION FAOLIYATINING O‘RNI

Turayev Og‘abek Kaxramonovich,

Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari zimmasiga nafaqat bilim berish, balki yoshlarni real hayotga tayyorlash, ularning bandligini ta’minlash, kasbiy va tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish kabi muhim vazifalar yuklanmoqda.[1] Yoshlar bilan o‘tkazilgan muloqotlarda ilgari surilgan tadbirkorlik dasturlari, startaplarni moliyalashtirish, biznes inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish, dual ta’lim tizimini kengaytirish, “spin-off” loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda xorijda ishlash va tajriba orttirish imkoniyatlarini yaratish ta’lim va mehnat bozorining uzviy integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida universitetlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi roli tobora ortib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalari nafaqat malakali kadrlar tayyorlash, balki innovatsiyalarni yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va hududlarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishning muhim institutsional subyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan universitetlarning tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish va innovatsion faoliyatini kuchaytirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik ekotizimining nazariy asoslari

“Tadbirkorlik ekotizimi” (business ecosystem) atamasi ilk bor 1993-yilda Jeyms Frederik Mur tomonidan “Predators and Prey: A New Ecology of Competition” maqolasida qo‘llanilgan.[2] Tadbirkorlik hamjamiyati tarkibidagi tashkilotlar va alohida subyektlar o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirib, birgalikda rivojlanadigan muhitni tadbirkorlik ekotizimi sifatida talqin etadi.

J.F. Murning fikricha, tadbirkorlik ekotizimi to‘rtta asosiy evolyutsion bosqichdan iborat (1-jadvalga qarang):

**1-jadval. J. F. Murning tadbirkorlik ekotizimi evolyutsiyasi bosqichlari
(muallif tomonidan tuzilgan)**

Bosqich	Hamkorlik	Raqobat
Tug‘ilish	- qiymat taklifini shakllantirish	- o‘z g‘oyalarni himoya qilish - asosiy iste‘molchilar, yetkazib beruvchilar va sotish kanallarini aniqlash
Kengayish	- yetkazib berish hajmi va bozor qamrovini oshirish	- mahsulotga o‘xshash muqobil g‘oyalarni tahlil qilish - mahsulotni o‘z sinfida standartlashtirish
Yetakchilik	- jozibali g‘oya yaratish	- boshqa ishtirokchilar bilan muzokaralarning yuqori salohiyatini saqlab qolish
O‘z-o‘zini yangilash- /o‘lim	- mavjud ekotizimlarga yangi g‘oyalarni jalb etish	- biznesga kirish uchun yuqori to‘siqlar yaratish - boshqa yetkazib beruvchilarning tovarlariga o‘tishning yuqori xarajatlarini qo‘llab-quvvatlash

Har bir bosqichda hamkorlik va raqobat omillari muhim o‘rin egallaydi. Tug‘ilish bosqichida qiymat taklifini shakllantirish va asosiy iste’molchilarni aniqlash muhim bo‘lsa, kengayish bosqichida bozor qamrovini oshirish va mahsulotni standartlashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Yetakchilik bosqichida jozibador g‘oyalarni rivojlantirish va muzokaralar salohiyatini saqlash, o‘z-o‘zini yangilash bosqichida esa yangi g‘oyalarni jalb etish hamda raqobat ustunliklarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “biznes ekotizimi” va “tadbirkorlik ekotizimi” tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi.[3] Biroq tadbirkorlik ekotizimi oddiy tadbirkorlar uyushmasidan ancha keng tushuncha bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy muassasalar, investitsiya institutlari, davlat tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlarning birgalikdagi rivojlanishini nazarda tutadi.

Tadbirkorlik ekotizimi gibridd tashkiliy-iqtisodiy tuzilma hisoblanib, uning tarkibiga turli mulk shaklidagi korxonalar, mutaxassislar, ilmiy markazlar, investitsion institutlar, kommunikatsion va innovatsion jarayonlar kiradi. Mazkur tizimda resurslardan foydalanish hamkorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi hamda barcha ishtirokchilarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ko‘p bosqichli tadbirkorlik ekotizimi.

Tadbirkorlik ekotizimlari ko‘p darajali tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi bosqichlardan tashkil topadi (1-rasmga qarang)[4]:



1-rasm. Ko‘p bosqichli tadbirkorlik ekotizimi (muallif tomonidan tuzilgan).

Mazkur darajalar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatining rivojlaniishi eng avvalo korxona darajasida shakllanadi va keyinchalik hududiy, milliy hamda xalqaro miqyosga kengayadi.

Tadbirkorlik ekotizimlari ochiq va yopiq shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ochiq ekotizimlar tashqi ta’sirlarga moslashuvchanligi, innovatsion g‘oyalarga ochiqligi va yuqori dinamikasi bilan ajralib turadi. Yopiq ekotizimlar esa ichki resurslarga tayanishi va qat’iy boshqaruv mexanizmlariga egaligi bilan tavsiflanadi.

Universitetlarning tadbirkorlik ekotizimidagi o‘rni.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, universitetlar zamonaviy tadbirkorlik ekotizimining markaziy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Universitetlar ilmiy tadqiqotlar

olib borish, innovatsion mahsulotlar yaratish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yilga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturida davlat grantlari asosida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlardan olinadigan mablag'larni 3,2 mlrd so'mga yetkazish vazifasi belgilangan. Ushbu maqsad doirasida:[5]

- Quyosh batareyalari uchun samarali kompozitsion qoplamalar yaratish;
- Qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalariga qarshi kurashishning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqish;
- Xorazm viloyatida oziq-ovqat xavfsizligi va logistikasining matematik modelini yaratish;
- Kaolinni qayta ishlab metakaolin va texnik glinozyom olish texnologiyasini ishlab chiqish;
- Zeynabulak koni talk-magnezitli jinslarini qayta ishlash asosida import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Integratsiyalashgan transport tizimlarini yaratish loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, sohaga buyurtma asosida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlardan olinadigan mablag'larni 1,8 mlrd so'mga yetkazish vazifasi ham belgilangan. Bunda hududdagi korxona va tashkilotlarning muammolarini aniqlash, ularni hal qilish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish hamda mazkur ishlanmalarni amaliyotga joriy etish asosiy yo'nalishlar sifatida ko'zda tutilgan.

Universitet va ishlab chiqarish integratsiyasi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida universitet va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, ko'p yillik mehnat stajiga ega amaliyotchi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, professor-o'qituvchilarning korxonalarda stajirovka o'tashini tashkil etish, universitet va ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini klaster usulida rivojlantirish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, texnoparklar, biznes inkubatorlar, kovorking markazlari tashkil etish, texnologiyalar transferini rivojlantirish, korxonalar huzurida kafedra filiallarini tashkil qilish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish maqsad qilingan.

Mazkur chora-tadbirlar universitetning innovatsion salohiyatini oshirish bilan birga Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududga investitsiyalar jalb qilish va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Moore J. F. Predators and Prey: A New Ecology of Competition // Harvard Business Review. 1993. URL: <https://hbr.org/1993/05/predators-and-prey-a-new-ecology-of-competition> (дата обращения 25.01.2023)
3. Вишнягова Е. А. Экосистема как механизм устойчивого развития промышленности // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент. 2022. С. 62—76.
4. Кафиятуллина Ю. Н. Управление устойчивостью экосистемы бизнеса // Московский экономический журнал. 2022. С. 373—388.
5. D. Hidayberganov et al., Distinctive Features of Assessing Opportunities to Enhance the Effectiveness of Ecotourism Businesses in Regions. BIO Web Conf. Volume 151, 2025. International Conference "Mountains: Biodiversity, Landscapes and Cultures" (MBLC-2024). <https://doi.org/10.1051/bioconf/202515103003>

PARFYUMERIYA - KOSMETIKA SANOATIDA STARTAP MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: TALABADAN TADBIRKORGA YO‘L

Toshquvvatova Saida Mirpo‘lat qizi,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, O‘zbekiston

Bugungi kunda kosmetika va parfyumeriya bozori dunyoning eng jozibali investitsion sohaslaridan biriga aylangan. Iste’molchilarning tabiiy, ekologik toza va individual mahsulotlarga bo‘lgan talabi yil sayin ortib bormoqda. Bu esa kichik va o‘rta startaplarga katta bozor ochmoqda — aynan mana shu bo‘shliqni to‘ldirish uchun yosh tadbirkorlar va talabalar o‘z o‘rnini topishi mumkin.

Afsuski, O‘zbekistonda parfyumeriya-kosmetika sohasidagi mahalliy startaplar soni hali juda kam. Buning asosiy sababi — ta’lim tizimida nazariy bilimlar kuchli bo‘lsa-da, ularni tijoratga aylantirish ko‘nikmalari shakllantirilmagan. Talabalar formulyatsiya qilishni biladi, lekin o‘z mahsulotini bozorga qanday chiqarishni bilmaydi. Aynan shu bo‘shliqni bartaraf etish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifasidir.

Ushbu maqolaning maqsadi — parfyumeriya-kosmetika yo‘nalishi talabalarini talabalik davridan boshlab tadbirkorlikka yo‘naltirish modelini taklif etish va buning uchun zarur ekotimiz elementlarini aniqlashdir.

Parfyumeriya-kosmetika startap bozori: imkoniyatlar va tendensiyalar

Global kosmetika bozori so‘nggi o‘n yilda ikki barobar o‘sdi va 2030-yilga qadar 800 milliard dollarga yetishi bashorat qilinmoqda. Bugungi iste’molchi ommaviy brend mahsulotlardan ko‘ra qo‘lda tayyorlangan, tabiiy tarkibli va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan kosmetikani afzal ko‘rmoqda. Aynan shu tendensiya kichik startaplarga katta imkoniyat yaratmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi bu borada eng ibratli namuna hisoblanadi. K-beauty fenomeni — ya’ni Koreys kosmetikasining jahon bosqichiga chiqishi — asosan kichik laboratoriyalar va talaba startaplaridan boshlangan. Bugun dunyoga mashhur bo‘lgan Innisfree, Cosrx, Some By Mi kabi brendlar o‘z tarixini universitetlardagi tadqiqot laboratoriyalaridan boshlagan. Bu tajriba O‘zbekistondagi parfyumeriya-kosmetika yo‘nalishi talabalari uchun ham ilhomboxsh namuna bo‘la oladi.

O‘zbekistonda esa hozircha import kosmetikaning ulushi 85-90% ni tashkil etadi. Bu raqam bir tomondan muammoni, ikkinchi tomondan esa ulkan bozor imkoniyatini ko‘rsatadi. Mahalliy xom ashyo — o‘rik yog‘i, zarg‘aldoq, archa, ko‘k choy, gilos ekstrakt — dunyo bozorida katta talabga ega, lekin ular hali to‘liq o‘zlashtirilib, brendlashtirilmagan.

Talabadan tadbirkorga: qanday yo‘l bosib o‘tish kerak?

Parfyumeriya-kosmetika yo‘nalishi talabasi o‘z startapini yaratish uchun uch bosqichli yo‘lni bosib o‘tishi zarur. Birinchi bosqich — formulyatsiya va innovatsiya bosqichi: talaba o‘quv jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etib, o‘ziga xos mahsulot formulasi yaratadi. Bu bosqichda laboratoriya tajribalari, tarkibiy moddalar kombinatsiyasi va mahsulot xususiyatlarini optimallashtirish ustida ishlash markaziy o‘rin tutadi.

Ikkinchi bosqich — tijoratlashtirish bosqichi. Bu bosqichda talaba o'z mahsulotini bozorga moslashtirishni o'rganadi: qadoqlash dizayni, narxlash strategiyasi, maqsadli auditoriyani aniqlash va ilk sotuvlarni amalga oshirish. Ko'plab talabalar aynan shu bosqichda to'xtab qoladi, chunki formulyatsiya bilimi bor, ammo marketing va biznes-reja tuzish ko'nikmalari shakllanmagan.

Uchinchi bosqich — o'sish va brend qurish bosqichi. Bu yerda raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya shakllantirish, hamkorliklar o'rnatish va ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari hal etiladi. Instagram va TikTok platformalarida kosmetika startaplari uchun organik o'sish imkoniyatlari juda katta — minimal investitsiya bilan keng auditoriyaga chiqish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasining roli: ekotizim yaratish.

Talabalar tadbirkorligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasasi passiv bilim beruvchi sifatida emas, faol ekotizim yaratuvchi sifatida harakat qilishi lozim. Buning uchun bir necha muhim element zarur. Birinchidan, amaliy laboratoriyalar — talabalar real sharoitda, kichik seriyali ishlab chiqarish uskunalarida o'z formulyatsiyalarini sinab ko'rishi kerak. Nazariy bilim va real uskunalar o'rtasidagi farqni ko'rish juda muhim.

Ikkinchidan, mentorlik tizimi. Kosmetika sanoatida tajribali mutaxassislar va muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot talabalar uchun bebaho tajriba manbai. Ayrim Yevropa universitetlarida har bir talabaga sanoat vakili — mentor biriktirilgan bo'lib, bu amaliyot bitiruvchilar bandligi ko'rsatkichini 40% gacha oshirgan.

Uchinchidan, inkubatsiya dasturlari. Talabalarning eng istiqbolli g'oyalari startap inkubatorida qo'llab-quvvatlanishi, dastlabki moliyalashtirishga yo'naltirilishi va bozorga chiqishida yordam berilishi zarur. Toshkent kimyo-texnologiya instituti hududida bunday inkubator yaratilishi parfyumeriya-kosmetika yo'nalishi uchun burilish nuqtasi bo'lishi mumkin.

Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun model.

Fransiyaning ISIPCA parfyumeriya instituti dunyodagi eng nufuzli maktablardan biri bo'lib, talabalarning 70% dan ortig'i o'qish davridayoq o'z brendini boshlaydi yoki yirik kompaniyalarda loyiha boshqaruvchisi sifatida ishlaydi. Bu natijaga erishishda institutning sanoat bilan integratsiyasi, amaliy kurslar va g'oyalarni tijoratlashtirish bo'yicha maxsus modullar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hindistondagi tajriba ham e'tiborga loyiq. Mumbai universiteti kosmetika kimyosi yo'nalishi bitiruvchilari orasida startap asoschilarining ulushi so'nggi besh yilda 3 barobarga oshdi. Buning asosiy sababi — o'quv rejasiga kiritilgan 'Kosmetika biznesini boshlash' nomli amaliy modul bo'lib, unda talabalar biznes-reja tuzishdan tortib, soliq ro'yxatidan o'tishgacha bo'lgan jarayonni real vaqtda o'rganadi.

O'zbekiston uchun taklif qilinadigan model quyidagi elementlardan iborat: parfyumeriya-kosmetika yo'nalishiga 'Tadbirkorlik asoslari va tijoratlashtirish' fanini majburiy kiritish; talabalar uchun yillik startap tanlovini yo'lga qo'yish; g'oliblarni Texnopark inkubatoriga ulash va dastlabki investitsiya jalb etishda yordam berish. Bu chora-tadbirlar arzon va amaliy, lekin samara berishiga hech shubha yo'q.

Parfyumeriya-kosmetika sanoati O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Mahalliy xom ashyoning boyligi, o'sib borayotgan ichki bozor va eksport imkoniyatlari bu sohada milliy brendlar uchun qulay zamin yaratmoqda. Ammo bu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish — nazariy bilimni tadbirkorlik ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish — zarur.

Talabalik davri — bu nafaqat bilim olish, balki o'z g'oyalarini sinab ko'rish, xato qilish va o'sish uchun eng qulay davr. Oliy ta'lim muassasalari esa bu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi ekotizim sifatida faoliyat ko'rsatsa, kelgusi yillarda O'zbekistonning parfyumeriya-kosmetika sohasida o'z milliy brendlarini jahon bozoriga olib chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Statista. Global Cosmetics Market Report 2024. – Hamburg: Statista GmbH, 2024. – 95 p.
2. Neck H.M., Greene P.G., Brush C.G. Teaching Entrepreneurship: A Practice-Based Approach. 2nd ed. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2022. – 312 p.
3. Kim J., Lee S. K-Beauty Phenomenon: From University Labs to Global Market // Asian Journal of Business and Management. – 2023. – Vol. 11(2). – P. 45–58.
4. Rauch A., Frese M. Born to be an entrepreneur? Revisiting the personality approach to entrepreneurship // The Psychology of Entrepreneurship. – New York: Routledge, 2022. – P. 41–65.
5. ISIPCA Annual Report 2023: Education, Innovation and Industry Partnerships. – Versailles: ISIPCA, 2023. – 48 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ‘Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash’ to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
7. Mehta R. Cosmetic entrepreneurship in emerging markets: challenges and opportunities // Journal of Business Venturing Insights. – 2023. – Vol. 19. – Art. e00362.
8. Blank S., Dorf B. The Startup Owner’s Manual: The Step-By-Step Guide for Building a Great Company. – Hoboken: Wiley, 2020. – 571 p.

UNIVERSITETLARDA INNOVATSION VA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI

Abdullayev I.S. ,

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida universitetlar an'anaviy ta'lim va ilmiy izlanish vazifalaridan tashqari iqtisodiy qiymat yaratish funksiyasini ham o'z zimmasiga oldi. Bu uchinchi vazifa universitetni hududiy va milliy innovatsion tizimning faol ishtirokchisiga aylantirdi. Henry Etzkowitz ta'riflagan uchlik spiral modeli universitet, sanoat va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni bilimga asoslangan jamiyatni rivojlantirishning umumiy mexanizmi sifatida ko'rsatadi va texnologiya transferi idoralari, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar hamda ilmiy parklar kabi gibridd tashkilotlarning paydo bo'lishini innovatsiya jarayonining tabiiy natijasi deb baholaydi [1].

Universitetning tadbirkorlik faolligi tasodifiy hodisa emas, balki maqsadli institutsional o'zgarishlar mahsulidir. Burton Clark Yevropaning besh universitetida olib borgan dala izlanishlari asosida tadbirkor universitetga o'tishning beshta tashkiliy yo'nalishini aniqladi: kuchaytirilgan boshqaruv yadrosi, kengaytirilgan rivojlanish chekkasi, diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish bazasi, rag'batlantirilgan akademik o'zak hamda yaxlit tadbirkorlik madaniyati [2]. Ushbu yo'nalishlar universitetning tashqi muhit talablari bilan ichki imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi va institutsional asoslarning aynan tizimli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi sezilarli institutsional o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Universitetlar soni 2016-yildagi 77 tadan 2023-yilda 213 taga yetdi va oliy ta'lim, fan hamda innovatsiyani yagona boshqaruv doirasida birlashtirish maqsadida tegishli vazirlik qayta tashkil etildi [3]. Bu kontekst universitetlarda innovatsion va tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning institutsional asoslarini nazariy jihatdan tushunish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini belgilaydi.

Asosiy qism. Universitet ekotizimini izohlovchi nazariy yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi uch yo'nalishda rivojlandi. Birinchisi universitetning ichki tashkiliy o'zgarishiga e'tibor qaratsa, ikkinchisi tashqi aktorlar bilan o'zaro bog'liqlikni, uchinchisi esa baholash va siyosat darajasidagi amaliy doirani kun tartibiga qo'ydi. Clark modeli universitetni ichkaridan qayta qurish mantig'ini ifodalaydi: boshqaruv yadrosi qarorlarni tezkor qabul qilish qobiliyatini oshiradi, diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish bazasi davlat byudjetiga bog'liqlikni kamaytiradi, akademik o'zak esa tadbirkorlik rag'batlarini ilmiy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi [2].

Etzkowitz yondashuvi universitetni tashqi aloqalar tarmog'ining markaziy bo'g'ini sifatida talqin qiladi. Innovatsiya chiziqli emas, balki interaktiv jarayon bo'lib, unda universitet bilimni amaliyotga o'tkazishda faol pozitsiya egallaydi va akademik bilim yaratishga keng manbalarni jalb etadi [4]. Bunday talqin tadbirkorlik faoliyatini universitetning asosiy vazifalariga zid emas, balki ularning mantiqiy davomi sifatida ko'rsatadi.

Amaliy darajada Yevropa Komissiyasi va OECD ishlab chiqqan HEInnovate doirasi institutsional asoslarni o'lganadigan ko'rsatkichlar tizimiga aylantirdi. Ushbu o'z-o'zini baholash vositasi oliy ta'lim muassasalarining tadbirkorlik va innovatsion salohiyatini sakkizta asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil etish imkonini beradi va o'qitish, ilmiy izlanish hamda uchinchi vazifa faoliyatlarini qamrab oladi [5]. OECDning o'n uchta mamlakat bo'yicha sharhlari ko'rsatdiki, tadbirkorlik kun tartibining barqarorligi ham tizim darajasidagi siyosat sharoitlariga, ham muassasa ichidagi madaniyatga bir vaqtning o'zida bog'liqdir [6].

Quyidagi jadval uch konseptual modelning institutsional tarkibiy unsurlarini qiyosiy tarzda umumlashtiradi.

1-jadval. Institutsional modellarning qiyosiy tahlili²

Konseptual model	Asosiy institutsional tarkibiy unsurlar	Manba
Tadbirkor universitet	Kuchaytirilgan boshqaruv yadrosi; diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish bazasi; kengaytirilgan rivojlanish chekkasi; rag'batlantirilgan akademik o'zak; tadbirkorlik madaniyati	[2]
Uchlik spiral	Universitet-sanoat-davlat o'zaro hamkorligi; texnologiya transferi idoralari, inkubatorlar, akseleratorlar, ilmiy parklar; venchur moliyalashtirish	[1]
HEInnovate doirasi (YeI-OECD)	Liderlik va boshqaruv; tashkiliy salohiyat, moliyalashtirish va rag'batlar; tadbirkorlik ta'limi; tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash; bilim almashinuvi va hamkorlik; ta'sirni baholash	[5], [6]

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, uch model bir xil masalaning turli qirralarini yoritadi va ularning kesishish nuqtasini boshqaruv, moliyalashtirish hamda bilim almashinuvi mexanizmlari tashkil etadi. Institutsional asoslar aynan shu uchlikning izchil muvofiqlashtirilishida mustahkamlanadi.

Boshqaruv tuzilmasi ekotizimning markaziy tugunidir, chunki u resurslarni taqsimlash va strategik yo'nalishni belgilash vakolatini o'zida jamlaydi. Avtonomiyaga ega boshqaruv yadrosi tadbirkorlik tashabbuslarini tez qo'llab-quvvatlay oladi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi [2]. Moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi universitetga xavf-xatarni taqsimlash hamda uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish erkinligini beradi. Bilim almashinuvi mexanizmlari — texnologiya transferi idoralari, spin-off kompaniyalar va sanoat bilan birgalikdagi ilmiy markazlar — nazariy bilimni iqtisodiy qiymatga aylantiruvchi ko'priq vazifasini bajaradi [1].

Bu unsurlar bir-birini taqozo qiladi. Kuchli boshqaruv yetarli moliyaviy manbasiz samara bermaydi, moliya esa bilim almashinuvining institutsional kanallarisiz tarqoq qoladi. Tadbirkorlik madaniyati ana shu tarkibiy unsurlarni yaxlit tizimga birlashtiradigan norasmiy mexanizm bo'lib, professor-o'qituvchilar va talabalar xulq-atvorida tashabbuskorlikni me'yorga aylantiradi [2]. Madaniyatning institutsionallashuvi rag'batlantirish tizimi, baholash mezonlari va karyera yo'llari orqali ro'yobga chiqadi [6].

O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyasi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, universitetlarni xalqaro reytinglarga olib chiqish va ta'limni iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyalash uchun huquqiy asos yaratdi [8]. Ushbu hujjat doirasida akademik va moliyaviy avtonomiyani kengaytirish, kredit-modul tizimiga o'tish hamda o'quv dasturlariga tadbirkorlik va axborot texnologiyalari yo'nalishlarini kiritish ko'zda tutildi [3]. Universitetlar va mahalliy texnologik kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik, jumladan barqaror energetika yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma loyihalar, uchlik spiral mantig'ining amaldagi ko'rinishini namoyon etmoqda [8].

Innovatsion natijadorlikning xalqaro o'lchovi ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi. Jahon intellektual mulk tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Global innovatsiya indeksida 2024-yilda 133 mamlakat orasida 83-o'rinni egalladi va o'z taraqqiyot darajasiga nisbatan kutilganidan yuqori natija ko'rsatuvchi davlatlar qatorida saqlanib qoldi [9]. 2025-yilda mamlakat

² Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

139 iqtisodiyot orasida 79-o'ringa ko'tarildi, bu institutsional islohotlarning izchilligini tasdiqlaydi [10]. Mazkur dinamika universitet ekotizimining institutsional asoslari mustahkamlangan sayin innovatsion chiqindilar oshib borishini ko'rsatuvchi nazariy farazga mos keladi.

Universitetlarda innovatsion va tadbirkorlik ekotizimi tasodifiy emas, balki boshqaruv, moliyalashtirish va bilim almashinuvi mexanizmlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan institutsional asoslari zaminida shakllanadi. Tadbirkor universitet konsepsiyasi, uchlik spiral modeli va HE-Innovate doirasi bir-birini to'ldirib, ushbu asoslarning ichki tashkiliy, tashqi tarmoqli hamda baholash darajalarini yaxlit qamrab oladi. O'zbekiston tajribasi institutsional islohotlarning innovatsion natijadorlik bilan ijobiy bog'liqligini tasdiqlamoqda.

Amaliy nuqtai nazardan quyidagi takliflar maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, universitetlarda akademik va moliyaviy avtonomiyani kengaytirib, qaror qabul qilish tezligini oshiruvchi boshqaruv yadrosini mustahkamlash lozim. Ikkinchidan, har bir yirik universitetda texnologiya transferi idorasi, biznes-inkubator va spin-off qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini institutsional asosda barpo etish tavsiya etiladi. Uchinchidan, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi karyera va baholash tizimini joriy etish orqali tadbirkorlik madaniyatini me'yorlashtirish foydalidir. To'rtinchidan, universitet, sanoat va davlat o'rtasidagi hamkorlikni doimiy platformalar orqali institutsionallashtirish hududiy innovatsion tizimni kuchaytiradi. Beshinchidan, HEInnovate kabi xalqaro baholash vositalaridan foydalanib, ekotizim holatini muntazam o'lchash va siyosatni dalillarga asoslangan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar majmui universitetlarni barqaror iqtisodiy taraqqiyotning ishonchli harakatlantiruvchisiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Etzkowitz, H., Zhou, C. The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation and Entrepreneurship. Routledge.
2. Clark, B. R. Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. ERIC, ED421938, 1998.
3. Reforms in the Higher Education System of Uzbekistan Aimd at Preparing Competitive Personnel.
4. Etzkowitz, H. Innovation in Innovation: The Triple Helix of University-Industry-Government Relations. Social Science Information, 2003.
5. HEInnovate. About HEInnovate (European Commission & OECD initiative).
6. OECD. Advancing the Entrepreneurial University: Lessons Learned from 13 HEInnovate Country Reviews. OECD SME and Entrepreneurship Papers, No. 32, 2022.
7. Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030 (Presidential Decree, 2019).
8. European Commission, Erasmus+Networks. Higher Education Reforms in Uzbekistan.
9. WIPO. Global Innovation Index 2024 - Results.
10. WIPO. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2025.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA BANDLIK IMKONİYATLARINI KENGAYTIRISH

Maqsudov A.N.,

Namangan davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Bugungi kunda global mehnat bozorida sodir bo'layotgan shiddatli transformatsiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'y-moqda. An'anaviy akademik bilim berish formati endilikda bitiruvchilarning mehnat bozorida to'liq raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yetarli bo'lmayapti. Hozirgi davr talabi — oliy ma'lumotli mutaxassisning nafaqat tayyor ish o'rniga da'vogar bo'lishi, balki kreativ fikrlash orqali mustaqil ravishda yangi iqtisodiy qiymat va ish o'rinlari yarata olishidir.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida talabalar tadbirkorligini institutsional darajada qo'llab-quvvatlash, OTMlarni innovatsiyalar markaziga aylantirish hamda yoshlarning bandlik imkoniyatlarini tadbirkorlik ekotizimi orqali kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy oliy ta'limning rivojlanish tendensiyalari ko'rsatishicha, ta'lim maskanlari raqobatbardoshligi ularning "Uchinchi avlod universiteti" (University 3.0) konsepsiyasini qanchalik muvaffaqiyatli o'zlashtirganiga bog'liq. Bu model ta'lim va ilmiy tadqiqotlardan tashqari, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va universitet ichida tadbirkorlik muhitini yaratishni nazarda tutadi. "Ta'lim – fan – ishlab chiqarish – biznes" to'rttalik zanjirini amaliyotga tatbiq etish uchun oliy ta'lim tizimida bir qator strategik yo'nalishlarni kengaytirish lozim.

1. OTMlardagi ta'lim dasturlari mazmunini tadbirkorlik muhitiga moslashtirish. Tadbirkorlik ruhiyati va ko'nikmalarini shakllantirish faqat iqtisodiy yo'nalishdagi talabalar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Texnik, gumanitar, san'at va tibbiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ham "Biznes-modellashtirish", "Ijtimoiy tadbirkorlik", "Innovatsion menejment va startaplar" kabi amaliy fanlar o'quv rejalariga integratsiya qilinishi zarur. Bunda ta'lim jarayoni nazariy ma'ruzalardan voz kechib, vaziyatli tahlil (case-study), loyihaviy o'qitish (project-based learning) va real tadbirkorlik muhitini sun'iy modellashtiruvchi amaliy jarayonlarga tayanishi zarur.

2. Infratuzilmaviy ekotizimni rivojlantirish. Talabaning g'oyasidan tayyor biznes loyihaga cha bo'lgan yo'lni qo'llab-quvvatlash uchun har bir OTM qoshida zamonaviy kovorking markazlari, startap-inkubatorlar va akseleratorlar faoliyati samaradorligini oshirish lozim. Ushbu markazlar talabalar uchun "himoyalangan tajriba maydoni" (sandbox) vazifasini o'tashi kerak. Bu yerda talabalar yuridik, moliyaviy va marketing yo'nalishlarida bepul konsalting xizmatlaridan foydalanishlari, o'z jamoalarini shakllantirishlari va ilk mahsulot prototipini (MVP) yaratishlari mumkinligini va uning mazmuni-mohiyatini to'liq tushunib yetishlari uchun poydevor vazifasini o'tashi kerak.

3. Moliyaviy dastaklar va investitsion integratsiya. Talabalar loyihalarining hayotiyiligini ta'minlash uchun OTMlarning maxsus Innovatsion jamg'armalari mablag'lari hisobidan ichki

grantlar tizimini kengaytirish lozim. Bundan tashqari, tijorat banklari va investitsion fondlar bilan yaqin sheriklik munosabatlarini tizimlashtirish, universitetlar huzuridagi startap markazlarida ochiq taqdimot kunlarini muntazam o'tkazib borish orqali yosh innovatorlar hamda mablag' yo'naltiruvchi tomonlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli muloqot maydonini kengaytirish lozim.

Tadbirkorlik muhitining kengayishi bitiruvchilar bandligi masalasini tubdan hal etishga xizmat qiladi. Bu jarayon ikki tomonlama samara (multiplikativ effekt) beradi:

- To'g'ridan-to'g'ri ta'sir: Talaba o'zining startap loyihasini ishga tushirish orqali o'zini-o'zi mustaqil ish bilan ta'minlaydi va OTMni bitirish arafasida tayyor ish beruvchiga aylanadi.
- Ijtimoiy ta'sir: Muvaffaqiyatli loyihalar kengayishi natijasida boshqa tengdoshlari va aholi vakillari uchun qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratiladi. Mehnat bozoridagi tayyor ish o'rinlariga bo'lgan raqobatli bosim kamayadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik muhitida chiniqqan yoshlar mehnat bozori uchun eng zarur bo'lgan transfer ko'nikmalarni - moslashuvchanlik, muzokaralar olib borish, xavf-xatarlarni boshqarish va jamoaviy yetakchilik (soft skills) fazilatlarini amaliyotda o'zlashtiradilar. Natijada, o'z biznesini to'liq rivojlantira olmagan taqdirda ham, ushbu bitiruvchilar real sektor korxonalari uchun eng izlanuvchi va yuqori baholanuvchi ichki innovatsiyalarni harakatlantiruvchi tashabbuskor mutaxassislar sifatida namoyon bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida tadbirkorlik subektlarini rivojlantirish va yoshlar bandligini ta'minlash nafaqat ta'lim sohasining, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishidir. Ushbu tizimni yanada samarali qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. OTMlarda talabalarining bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini tayyor biznes-startap loyihasi shaklida himoya qilish amaliyotini qonuniy mustahkamlash va ommalashtirish.

2. Talabalar startaplari uchun soliq va ma'muriy imtiyozlar tizimini ishlab chiqish, davlat xaridlari tizimida ularga muayyan kvotalar ajratish.

3. Professor-o'qituvchilar tarkibini ham tadbirkorlik ekotizimiga jalb etish va ularni loyihalariga mentorlik qilgani uchun moddiy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish.

Ushbu vazifalarning tizimli bajarilishi oliy ta'lim muassasalarini faqatgina diplom beradigan maskan emas, balki milliy iqtisodiyot uchun intellektual kapital va yangi ish o'rinlari yaratuvchi qudratli lokomotivga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining sohaviy rivojlantirish konsepsiyalari va hisobot materiallari (2024-2026 yy.).
2. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining mehnat bozori tahliliy portali. — URL: <https://mehnat.uz> (Murojaat sanasi: 15.06.2026).
3. Кларк Б.Р. Создание предпринимательских университетов: организационные направления трансформации. — М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2019. — 240 с.
4. Итами Х. Капитал знаний и управление корпоративными инновациями. — Токио, 2021.
5. Rahimov Sh.A. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bandligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2024. — №2.
6. European Commission. Entrepreneurship in Higher Education: A Guide for Educators. — Brussels: EC Directorate-General for Enterprise and Industry, 2022. — URL: <https://ec.europa.eu> (Elektron resurs).

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK UNIVERSITETI KONSEPSIYASINING “UNIVERSITET 3.0” MODELINI JORIY ETISHNING INSTITUTIONAL ISTIQBOLLARI

Arasheva Moxigul Akbarovna,

Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi, O‘zbekiston

Jahon iqtisodiyotining bilimga asoslangan rivojlanish bosqichiga o‘tishi oliy ta’lim muassasalarining jamiyatdagi rolini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda (Audretsch, 2014). Agar birinchi avlod universitetlari faqat ta’lim berish, ikkinchi avlod universitetlari esa ta’lim va ilmiy tadqiqotni uyg‘unlashtirish vazifasini bajargan bo‘lsa, zamonaviy raqobat muhiti universitetlardan uchinchi missiyani, ya’ni yaratilgan bilimni tijoratlashtirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shishni talab qilmoqda. J. Vissema tomonidan “uchinchi avlod universiteti” (Vissema, 2009), B. Klark tomonidan esa “tadbirkorlik universiteti” (Clark, 1998) deb nomlangan ushbu model doirasida universitet texnologiyalar transferi, spin-off korxonalar, startup ekotizimi va biznes bilan buyurtmali tadqiqotlar orqali innovatsion iqtisodiyotning faol subyektiga aylanadi. Universitet, biznes va davlatning o‘zaro chambarchas hamkorligiga asoslangan uchlik spiral modeli esa ushbu jarayonning konseptual asosini tashkil etadi (Etzkowitz and Leydesdorff, 2000). Stenford, Massachusetts texnologiya instituti (MIT) kabi universitetlar tajribasi mazkur modelning nafaqat universitet moliyaviy barqarorligini, balki butun milliy innovatsion tizim samaradorligini ta’minlashdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi (Etzkowitz, 2008).

O‘zbekistonda mazkur modelga o‘tish davlat siyosati darajasida e’tirof etilgan: “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, OTMLar tarkibida texnopark, texnologiyalar transferi, startup va akselerator markazlarini tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan (PF-5847, 2019). Bundan avvalroq mahalliy innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib (PQ-3682, 2018), 2020-yilda qabul qilingan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni moliyalashtirish va texnologiyalar transferiga ko‘maklashishni davlatning funksiyasi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamladi (O‘RQ-630, 2020). So‘nggi yillarda esa oliy ta’lim muassasalarida tajriba-ishlab chiqarish (spin-off) korxonalarini tashkil etish bo‘yicha alohida topshiriqlar belgilandi (PQ-396, 2024).

O‘zbekistonda Universitet 3.0 modelining de-yure holati.

O‘zbekistonda universitetlarning uchinchi bosqichini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish jarayoni 2018–2025-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirildi va uni shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich (2018) tijoratlashtirish g‘oyasining davlat siyosatiga kirib kelishi bilan boshlandi. Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini

takomillashtirish to'g'risidagi qarorda mahalliy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, jumladan, xorijiy mamlakatlardagi texnologiyalar transferi jarayonlari bilan amaliy tanishishni ta'minlash vazifasi qo'yildi (PQ-3682, 2018). Ushbu hujjat hali universitetlarga bevosita qaratilmagan bo'lsa-da, tijoratlashtirish tushunchasini davlat boshqaruvi tiliga olib kirdi.

Ikkinchi bosqichda (2019) modelning konseptual asosi e'lon qilindi. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi (PF-5847, 2019). Shu bilan birga, hujjatda ushbu modelning moddiy asosi ham ko'rsatildi: xorijiy investitsiyalar, pullik xizmatlar va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga OTMLar tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap va akselerator markazlarini tashkil etish hamda professor-o'qituvchilar, doktorantlar va talabalarning ushbu texnoparklarda ilmiy-innovatsion faoliyat olib borishiga erishish nazarda tutildi (PF-5847, 2019). Konsepsiyada, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash vazifasi ham qayd etilgani e'tiborga molik (PF-5847, 2019) bu Klarkning kuchaytirilgan boshqaruv yadrosi mezonini bilan bevosita hamohangdir.

Uchinchi bosqichda (2020) qonun darajasidagi mustahkamlash amalga oshirildi. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun innovatsion faoliyatning yaxlit huquqiy asosini yaratdi, unda davlatning yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni moliyalashtirish va texnologiyalar transferiga ko'maklashish funksiyasi mustahkamlandi, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining mablag'larni qaytarish shartlari asosida yoki beg'araz ajratish hamda kafil sifatida ish yuritish huquqi belgilandi (O'RQ-630, 2020). Shu yilning o'zida tarmoq darajasida ham qadam tashlanib, axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy va innovatsiya markazlarining istiqbolli loyihalarini tijoratlashtirish dasturi qabul qilindi hamda uni moliyalashtirishda Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg'armasi mablag'laridan foydalanish nazarda tutildi (PQ-4851, 2020).

To'rtinchi bosqichda (2024–2025) institutsional aniqlashtirish amalga oshirildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi to'g'risidagi yangilangan nizomda yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish, ishlab chiqarishga joriy etish va startap loyihalarini muvofiqlashtirish vazirlikning alohida funksiyasi sifatida belgilandi (VM 489-son Qaror, 2024). Eng muhimi, oliy ta'lim muassasalarida spin-off korxonalarini tashkil etish bo'yicha aniq muddatli topshiriqlar berildi. Ushbu Prezident qarorlariga muvofiq 2025–2026-o'quv yiliga qadar universitetlarda spin-off korxonalar tashkil etilishi belgilangan (PQ-396, 2024; Innovatsion rivojlanish agentligi, 2025).

O'tkazilgan tahlil de-yure qatlam bo'yicha ikki muhim xulosaga asos beradi. Birinchidan, normativ baza to'liqlik va ierarxik izchillik nuqtai nazaridan yetarli darajada shakllangan: konseptual hujjat (PF-5847, 2019), qonun (O'RQ-630, 2020) va ijro mexanizmini konkretlashtiruvchi qarorlar (PQ-4851, 2020; PQ-396, 2024) o'zaro mantiqan bog'langan tizimni tashkil etadi. Demak, keyingi bo'limlarda aniqlanadigan muammolarning ildizini huquqiy bazaning yo'qligidan qidirish asossiz. Ikkinchidan, normativ hujjatlar mazmunida bir muhim nomutanosiblik kuzatiladi. Ular asosan infratuzilma yaratish (texnoparklar, markazlar, korxonalar tashkil etish) va ma'muriy topshiriqlar tiliga tayanadi, biroq transformatsiyaning subyektiv tomoni olim va universitetni tijoratlashtirishdan manfaatdor qiluvchi aniq iqtisodiy mexanizmlar (royalti ulushi³, daromadni taqsimlash tartibi, intellektual mulk huquqlarining aniq taqsimoti) hujjatlarda yetarlicha aniqlashtirilmagan. Spin-off korxonalar tashkil etishning muddatli topshiriq sifatida yuqoridan berilishi (PQ-396, 2024) ham jarayonning direktiv xarakterini ko'rsatadi. Ushbu kuzatuv keyingi bo'limda de-fakto holat tahlili orqali tekshiriladi.

³ Royalti ulushi — olimning O'z ixtirosi tijoratlashtirilishidan keladigan daromaddan shaxsan oladigan foizi.

Quyida har bir to'siq guruhiga mos yechimlar taklif etiladi, ularning umumiy metodologik yo'nalishi jarayonni boshqarishning direktiv mexanizmlaridan rag'batlantiruvchi mexanizmlarga bosqichma-bosqich o'tkazishdan iboratdir.

Birinchi yo'nalish: moliyaviy-boshqaruv avtonomiyasini. Tijoratlashtirish sohasida universitetlarga "boshqariladigan avtonomiya" maqomini berish maqsadga muvofiqdir. OTMga tijoratlashtirishdan tushgan daromadni yuqori tashkilot bilan kelishuvsiz, o'z kengashi qarori bilan taqsimlash (jumladan, mualliflarni mukofotlash, qayta investitsiya qilish, transfer tuzilmalari xarajatlarini qoplash) huquqini qonun darajasida mustahkamlash lozim. Bunda hisobdorlik jarayonni nazorat qilishdan natijani nazorat qilishga ko'chirilishi kerak. Davlat universitetdan mablag' sarfi bo'yicha har bir qarorni emas, yillik tijoratlashtirish ko'rsatkichlarini (litsenziya daromadi, spin-off soni va aylanmasi, buyurtmali tadqiqotlar hajmi) so'rashi zarur. Klark modelida aynan shu turdagi erkinlik kuchli boshqaruv mezonining amaliy mazmunini tashkil etadi (Clark, 1998). Pilot bosqichda ushbu maqomni tijoratlashtirish salohiyati yuqori 5–10 ta OTMga berib, natijalar asosida tizimni kengaytirish mumkin, bu yondashuv islohot risklarini kamaytiradi.

Ikkinchi yo'nalish: intellektual mulk va daromad taqsimotining aniq formulasini joriy etish. Universitet xodimi xizmat vazifasini bajarish davomida yaratgan intellektual mulk obyekti bo'yicha huquqlar taqsimoti va tijoratlashtirish daromadidagi ulushlarning namunaviy formulasi normativ hujjat darajasida belgilanishi lozim. Xalqaro amaliyotda o'zini oqlagan yondashuvda daromadni muallif, muallifning bo'linmasi (kafedra/laboratoriya) va universitet o'rtasida oldindan ma'lum nisbatda taqsimlash bo'lib, muallif ulushining kafolatlanishi tizimning ishonchliligini ta'minlaydi (Etzkowitz, 2008). Formula o'rnatilgan qoida sifatida joriy etilishi (taraflar boshqacha kelishmagan bo'lsa, avtomatik amal qilishi) muhim, bu har bir loyihada alohida muzokara zaruratini yo'qotib, tranzaksiya xarajatlarini keskin kamaytiradi. Shu bilan birga, spin-off korxona tashkil etishda universitetning intellektual mulkni ustav kapitaliga ulush sifatida kiritish tartibini soddalashtirish talab etiladi. Hozirgi topshiriqlar ijrosi (PQ-396, 2024) aynan shu tartibning aniqligiga bog'liq.

Uchinchi yo'nalish: akademik jamoa uchun rag'bat tizimini qayta qurish (uchinchi to'siqqa javoban). Uch o'zaro bog'liq chora taklif etiladi. Birinchidan, tijoratlashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar uchun auditoriya yuklamasining bir qismini "innovatsion faoliyat yuklamasi"ga almashtirish mexanizmini joriy etish bu vaqt resursi muammosini hal qiladi. Ikkinchidan, ilmiy attestatsiya va mansab o'sishi mezonlarida tijoratlashtirish natijalarini (litsenziyalangan patent, faoliyat yuritayotgan spin-off, bajarilgan buyurtmali tadqiqot) ilmiy maqolaga tenglashtirilgan ko'rsatkich sifatida e'tirof etish, bu institutsional rag'bat yo'nalishini o'zgartiradi. Uchinchidan, ikkinchi yo'nalishda belgilangan royalti formulasi orqali moddiy manfaatdorlikni ta'minlash. Ushbu uch chora birgalikda olim uchun tijoratlashtirishni qo'shimcha topshiriqdan kasbiy o'sish trayektoriyasiga aylantiradi. Bu esa Klark ta'kidlagan akademik o'zak faollashuvining (Clark, 1998) amaliy mexanizmi hisoblanadi.

To'rtinchi yo'nalish: universitet–biznes hamkorligining doimiy kanallarini yaratish (to'rtinchi to'siqqa javoban). Epizodik tadbirlardan tizimli oqimga o'tish uchun ikki tomonlama rag'bat zarur. Biznes tomonidan: korxonalarining universitetlarga beradigan tadqiqot buyurtmalari xarajatlarini soliq bazasidan olib tashlash yoki qisman subsidiyalash mexanizmi buyurtma berishning moliyaviy jozibadorligini oshiradi. Universitet tomonidan: buyurtmali tadqiqotlarni bajarishning tezkor tartibi (soddalashtirilgan shartnoma, aniq muddat va sifat kafolatlari, maxfiylik majburiyatlari) hamda tarmoq korxonalari bilan birgalikdagi laboratoriyalar amaliyotini kengaytirish. Uchlik spiral nazariyasi nuqtai nazaridan (Etzkowitz and Leydesdorff, 2000) bu choralar tizimni etatistik konfiguratsiyadan muvozanatli konfiguratsiyaga yaqinlashtiradi. Natijada, davlat bevosita topshiriq beruvchi roldan hamkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratuvchi rolga o'tadi. Mavjud infratuzilmalar aynan shu real buyurtmalar oqimi paydo bo'lgandagina samarali ishlay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Audretsch, D.B. (2014) 'From the entrepreneurial university to the university for the entrepreneurial society', *The Journal of Technology Transfer*, 39(3), pp. 313–321. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10961-012-9288-1>
2. Clark, B.R. (1998) *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Oxford: Pergamon / IAU Press. <https://www.oktemvardar.com/articles/BRC%20entrepreneurial.pdf>
3. Etzkowitz, H. (2008) *The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action*. New York: Routledge. https://mguntur.id/files/ebook/ebook_1605608206_cf742d707b4e0bf22bf3.pdf
4. Etzkowitz, H. and Leydesdorff, L. (2000) 'The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university–industry–government relations', *Research Policy*, 29(2), pp. 109–123. <https://ideas.repec.org/a/eee/respol/v29y2000i2p109-123.html>
5. Innovatsion rivojlanish agentligi (2025) Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini rivojlantirish boshqarmasi faoliyati to'g'risida ma'lumot. <https://gov.uz/oz/edu/pages/tijoratlashtirish>
6. O'RQ-630 (2020) O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4910391>
7. O'zDJTU (2025) Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. <https://www.uzswlu.uz/ilmiy-innavotsion-ishlanmalarni-tijoratlashtirish-bolimi>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-4545884>
9. <https://lex.uz/docs/-3711923>
10. <https://lex.uz/uz/docs/-7232605>
11. PQ-4851 (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2020-yil 6-oktyabr, PQ-4851-son. <https://lex.uz/en/docs/-5032128>
12. TATU (2025) Toshkent axborot texnologiyalari universiteti: inkubatsion markaz faoliyati.

III SHO‘BA:

**BITIRUVCHILAR BANDLIGINI
TA‘MINLASHDA OLIY TA‘LIM VA MEHNAT
BOZORI INTEGRATSIYASINING
INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI**

BITIRUVCHILARNING BANDLIGINI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI VA ISH BERUVCHILAR HAMKORLIGINING INNOVATSION MODELLARI: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

**Zayniddinov Vohidxon Vositovich,
Xolmirov Begali Abdixamidovich,
Abdukarimova Nodira Abdudjamilovna,**

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi, O'zbekiston

Oliy ta'lim tizimining samaradorligini faqat talabalar soni, o'quv jarayonining tashkil etilishi yoki berilgan diplomlar miqdori bilan baholash yetarli emas. Ta'limning amaliy natijasi bitiruvchining egallagan bilim va ko'nikmalaridan kasbiy faoliyatda foydalana olishi, mehnat bozoriga moslashishi va munosib bandlik imkoniyatiga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Shu sababli talabaning ta'limdan mehnat faoliyatiga o'tishi oliy ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti yoshlarning mehnat bozoridagi imkoniyatlari ta'lim darajasi bilan bir qatorda ish tajribasi, kasbiy ko'nikmalar va ta'limdan mehnatga o'tishni qo'llab-quvvatlovchi institutlar faoliyatiga ham bog'liqligini qayd etadi [1:1]. ILO va OECD tadqiqotlarida ham yoshlarning munosib mehnatga o'tishi uchun ta'lim, bandlik va mehnat bozori institutlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlik zarurligi ta'kidlanadi [2:1]. Binobarin, bitiruvchini o'qishni tamomlaganidan keyin vakant ish o'rniga yo'naltirish yoki mehnat yarmarkalarini tashkil etishning o'zi yetarli emas. Talaba ta'lim jarayonidayoq real ish muhiti bilan tanishishi, kasbiy tajriba orttirishi va ish beruvchilar bilan professional aloqalarni shakllantirishi zarur.

Mazkur yondashuv universitet va ish beruvchi o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. An'anaviy modelda oliy ta'lim tashkiloti mutaxassis tayyorlaydi, ish beruvchi esa tayyor bitiruvchilar orasidan o'ziga zarur xodimni tanlaydi. Zamonaviy modelda esa ish beruvchi ta'lim jarayonining yakuniy "iste'molchisi" emas, balki talabaning kasbiy shakllanishida ishtirok etuvchi hamkor sifatida namoyon bo'ladi. OECD tadqiqotlari oliy ma'lumotning mavjudligi bitiruvchining o'z malakasiga mos ishga joylashishini barcha holatlarda avtomatik ravishda kafolatlamasligini ko'rsatadi. Bir tomondan, ayrim bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalaridan ish joyida to'liq foydalanilmasa, ikkinchi tomondan, ish beruvchilar zarur malakaga ega mutaxassislarni topishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin [3:1]. Bunday nomuvofiqlik universitet va mehnat bozori o'rtasida barqaror qayta aloqa mexanizmlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda ushbu masalaning dolzarbligi oliy ta'lim tizimining sezilarli kengayishi bilan yanada ortmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi sakkiz yilda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 44 foizga, talabalar soni esa 270 ming nafardan 1,7 million nafarga yetgan. Oliy ta'lim tashkilotlaridagi 157 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilgan. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish, milliy oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirish va bitiruvchilarning global mehnat bozorida munosib o'rin egallashi ustuvor vazifa sifatida belgilangan [4:1].

Mamlakatda “1+3”, “2+2” va “3+1” shaklidagi integratsiyalashgan dasturlar kengaytirilib, xorijiy universitetlar bilan akademik hamkorlikning yangi shakllari joriy etilmoqda [4:1]. Biroq xalqaro ta’lim dasturi yoki xorijiy diplomning mavjudligi bitiruvchining bandligini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. Akademik integratsiya ta’limning mazmuni va sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirsa, mehnat bozori bilan integratsiya talabaning real kasbiy tajriba orttirishi, ish beruvchi bilan hamkorlik qilishi va ta’limdan mehnat faoliyatiga izchil o‘tishi uchun tegishli mexanizmlarni talab etadi.

Xorijiy tajribada mazkur masalani hal etishning turli modellari shakllangan. Germaniyadagi dual yondashuvda oliy ta’lim tashkilotidagi akademik tayyorgarlik korxonadagi amaliy faoliyat bilan tizimli ravishda birlashtiriladi [5:1]. Mazkur modelda ish beruvchi talabaga faqat amaliyot o‘tash uchun joy taqdim etmaydi, balki uning kasbiy tayyorgarligida muayyan tashkiliy mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oladi. Davlat, ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi vazifalarning taqsimlanishi hamkorlikni individual kelishuv darajasidan barqaror institutsional tizim darajasiga olib chiqadi [6:1].

Avstraliyada rivojlangan Work-Integrated Learning modeli esa real yoki real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan tajribani ta’lim jarayoniga integratsiya qilishga asoslanadi. Ushbu model ishlab chiqarish amaliyoti, internship, simulyatsiya va korxonalar bilan hamkorlikdagi real loyihalarni qamrab oladi [7:1]. Uning muhim jihati talabaning shunchaki korxonada bo‘lishi emas, balki olingan tajribaning ta’lim natijalari bilan bog‘lanishidir. Bunda universitet, ish beruvchi va talabaning vazifalari oldindan belgilanib, amaliy tayyorgarlik natijalari baholanadi.

Singapurdagi Work-Study dasturlari ta’lim bilan bandlik o‘rtasidagi aloqani yanada kuchaytiradi. SkillsFuture doirasidagi dasturlar ish beruvchilarga bitiruvchilarni ishga qabul qilish va ularni muayyan kasbiy vazifalar bo‘yicha ish joyining o‘zida tayyorlash imkonini beradi [8:1]. Bunday yondashuvda ishga qabul qilish kasbiy tayyorgarlikning yakuni emas, balki xodimning keyingi rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi. Natijada “ta’lim – ishga o‘tish – ish joyida rivojlanish” jarayonlari yagona kasbiy trayektoriyaga birlashtiriladi.

Buyuk Britaniya tajribasining o‘ziga xos jihati bitiruvchining mehnat bozoridagi keyingi holatini kuzatish bilan bog‘liq. Graduate Outcomes tizimi orqali bitiruvchilarning oliy ta’limni tugatganidan taxminan 15 oy o‘tgach qanday faoliyat bilan shug‘ullanayotgani o‘rganiladi [9:1]. Bunday monitoringning ahamiyati faqat band bo‘lgan bitiruvchilar ulushini aniqlash bilan cheklanmaydi. U bitiruvchining kasbiy trayektoriyasi va ta’limdan keyingi faoliyatini tahlil qilish uchun qayta aloqa manbaini yaratadi. Yevropa Komissiyasi ham bitiruvchilarni kuzatish tizimidan oliy ta’lim siyosati va karyera xizmatlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligini qayd etadi [10:1].

Qiyosiy tahlil ushbu modellar tashkiliy jihatdan farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Germaniyada ish beruvchi kasbiy tayyorgarlikning bevosita ishtirokchisi, Avstraliyada amaliy ta’lim tajribasining hamkori, Singapurda ishga qabul qilish va keyingi kasbiy rivojlanishning tashkilotchisi, Buyuk Britaniyada esa bitiruvchilar natijalari universitet faoliyatini baholash uchun qayta aloqa manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, samarali tizimda ish beruvchi bilan aloqa faqat bitiruv bosqichida boshlanmaydi va ishga joylashish bilan yakunlanmaydi.

Muallifning fikricha, O‘zbekistonda ham oliy ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilar hamkorligini “kasbiy yo‘naltirish – amaliy tajriba – ish beruvchi mentorligi – karyera ko‘magi – ishga o‘tish – bitiruvchini kuzatish” bosqichlaridan iborat uzluksiz institutsional zanjir asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda ish beruvchi faqat bitiruvchini ishga qabul qiluvchi tomon emas, balki talabaning kasbiy shakllanishida ishtirok etuvchi doimiy hamkor bo‘lishi lozim. Karyera xizmatlari esa ushbu zanjirning muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘ini sifatida talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarni tashkil etishi kerak.

Shuningdek, O'zbekistonda rivojlantirilayotgan integratsiyalashgan dasturlarda amaldagi "mahalliy oliy ta'lim tashkiloti – xorijiy hamkor universitet" modelini ayrim ustuvor yo'nalishlarda "mahalliy oliy ta'lim tashkiloti – xorijiy hamkor universitet – ish beruvchi" uch tomonlama hamkorlik mexanizmi bilan to'ldirish taklif etiladi. Bunda ish beruvchi talabalarni saralash, mentorlik, real loyihalar, amaliy tayyorgarlik va keyingi bandlik jarayonlarida ishtirok etishi mumkin. Mazkur yondashuv akademik xalqaro integratsiyani real mehnat bozori bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, karyera xizmatlari faoliyatini faqat vakant ish o'rinlari to'g'risida axborot berish bilan cheklamasdan, ularni universitet va mehnat bozori o'rtasidagi institutsional vositachiga aylantirish zarur. Ular talabalarning kasbiy yo'nalishini aniqlash, amaliyot va stajirovkalarni muvofiqlashtirish, ish beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish hamda bitiruvchilar natijalarini kuzatish vazifalarini bajarishi maqsadga muvofiq. Bitiruvchilarning holatini muayyan davrlar oralig'ida o'rganish natijalari esa faqat statistik hisobot uchun emas, balki hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish uchun qayta aloqa vositasi sifatida qo'llanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bitiruvchilar bandligini ta'minlash oliy ta'lim tashkilotining bitiruvchiga tayyor ish o'rni topib berish majburiyati sifatida emas, balki talabaning ta'limdan mehnat faoliyatiga muvaffaqiyatli o'tishi uchun zarur sharoitlarni yaratish jarayoni sifatida tushunilishi kerak. Xorijiy tajriba universitet va ish beruvchi hamkorligi eng samarali natijani ish beruvchi talabaning kasbiy shakllanishiga erta bosqichdan jalb etilganda, amaliy tajriba ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirilganda va bitiruvchilarning keyingi faoliyati muntazam kuzatilganda berishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarni milliy tizimga moslashtirish, karyera xizmatlarining rolini kuchaytirish hamda integratsiyalashgan ta'lim dasturlariga ish beruvchilarni institutsional hamkor sifatida jalb etish oliy ta'limdan mehnat bozoriga o'tishning samarali mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures. Geneva: International Labour Office, 2024. DOI: 10.54394/ZUUI5430. Internet manba: ILO Research Repository — Global Employment Trends for Youth 2024
2. International Labour Organization. Fostering Youth Transitions to Decent Work. 2025. Internet manba: ILO — Fostering Youth Transitions to Decent Work
3. OECD. Labour Market Relevance and Outcomes of Higher Education in Four US States: Ohio, Texas, Virginia and Washington. Higher Education. Paris: OECD Publishing, 2020. DOI: 10.1787/38361454-en. Internet manba: OECD — Labour Market Relevance and Outcomes of Higher Education in Four US States PDF: OECD rasmiy PDF nashri
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalqaro ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha yangi yondashuvlar taqdimot qilindi. 2026. Internet manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti — Xalqaro ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha yangi yondashuvlar .
5. Bundesinstitut für Berufsbildung (BIBB). Dual Study Programmes in the German VET System. 2019. Internet manba: BIBB — Dual Study Programmes in the German VET System.
6. Bundesinstitut für Berufsbildung (BIBB). Quality Assurance of Company-Based Training in the Dual System in Germany: An Overview for Practitioners and VET Experts. Bonn: BIBB. Internet manba: BIBB — Quality Assurance in the German Dual Vocational System Rasmiy nashr: BIBB — Quality Assurance of Company-Based Training in the Dual System in Germany .
7. Universities Australia. Work Integrated Learning in Universities: Final Report. Canberra: Universities Australia, 2018. Internet manba: Universities Australia — Work Integrated

Learning in Universities PDF: Work Integrated Learning in Universities — Final Report PDF

8. SkillsFuture Singapore. SkillsFuture Work-Study Programmes. Singapore: SkillsFuture Singapore. Internet manba: SkillsFuture Singapore — Work-Study Programmes
9. Higher Education Statistics Agency (HESA). Graduate Outcomes 2023/24: Summary Statistics. 2026. Internet manba: HESAning 2026-yil 4-iyunda e’lon qilingan rasmiy statistik nashri.
10. European Commission. Graduate Tracking: A “How to Do It Well” Guide. Brussels: European Commission, 2020. Internet manba: European Commission’ning rasmiy Education and Training portalidagi “Graduate tracking: A ‘how to do it well’ guide” sahifasi.

AMALIYOTGA ASOSLANGAN TA'LIM

Usmanov Jaxongir Bazarovich,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O'zbekiston*

Zamonaviy ta'lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri — bilim oluvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishdir. Mazkur vazifaning dolzarbligi XXI asr iqtisodiyoti va mehnat bozorining tobora o'zgaruvchan talablari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar an'anaviy, ko'proq nazariy yo'naltirilgan ta'lim modelining zamonaviy sharoitda yetarli samara bermayotganini ta'kidlashmoqda.

Ushbu muammoga javoban pedagogika fanida «amaliyotga asoslangan ta'lim» (practice-based education) tushunchasi shakllandi va tobora keng tarqalmoqda. Amaliyotga asoslangan ta'lim — bu o'quv jarayonini real kasbiy, ijtimoiy yoki ilmiy amaliyot bilan uzviy bog'lagan holda tashkil etish tamoyiliga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Bunday yondashuvda bilim oluvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida, amaliy vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilish va o'z tajribasini refleksiv tahlil qilish orqali bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

Mazkur maqolada amaliyotga asoslangan ta'limning nazariy-metodologik asoslari, asosiy tamoyillari, qo'llaniladigan metodlari, uning afzalliklari va amalda duch kelinadigan muammolari, shuningdek O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvni joriy etish tajribasi va ishtiqlollari ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi — amaliyotga asoslangan ta'limni yaxlit tizim sifatida tavsiflash va uni ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish bo'yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

1. Amaliyotga asoslangan ta'limning nazariy asoslari.

Amaliyotga asoslangan ta'lim g'oyasining ildizlari XX asr boshlaridagi pragmatik pedagogikaga borib taqaladi. Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui o'zining «tajriba orqali ta'lim» (learning by doing) konsepsiyasida ta'lim jarayonining bilim oluvchining shaxsiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozimligini asoslab bergan edi [1]. Dyui fikricha, haqiqiy bilim faqat kitobdan o'qish orqali emas, balki muammoli vaziyatda faol harakat qilish, tajriba orttirish va ushbu tajribani ongli ravishda qayta ishlash orqali shakllanadi.

Keyinchalik Devid Kolb tomonidan ishlab chiqilgan «tajribaviy ta'lim sikli» (experiential learning cycle) nazariyasi amaliyotga asoslangan ta'limning metodologik poydevorini yanada mustahkamladi [2]. Kolb modeli to'rt bosqichdan iborat: aniq tajriba orttirish, refleksiv kuza-tish, abstrakt konseptuallashtirish va faol eksperimentlashtirish. Ushbu sikl bilim oluvchining amaliy faoliyat va nazariy tafakkur o'rtasida doimiy aloqa o'rnatishini ta'minlaydi.

Shuningdek, rus psixologi Lev Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasi ham amaliyotga asoslangan ta'limda muhim o'rin tutadi [3]. Vigotskiy konsepsiyasiga ko'ra, bilim

oluvchi mustaqil bajara olmaydigan, ammo tajribali shaxs (o'qituvchi, murabbiy yoki tengdoshi) yordamida bajara oladigan vazifalar doirasi mavjud bo'lib, aynan shu doirada tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar eng yuqori o'quv samarasini beradi.

Donald Shyon tomonidan ilgari surilgan «amaliyotda refleksiya qiluvchi mutaxassis» (reflective practitioner) konsepsiyasi ham alohida ahamiyatga ega [4]. Shyon kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun mutaxassisning nafaqat amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki o'z faoliyati jarayonida (reflection-in-action) va faoliyatdan so'ng (reflection-on-action) munozam refleksiya yuritishi zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu g'oya hozirgi kunda tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogika kabi ko'plab kasbiy ta'lim dasturlarining asosini tashkil etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariyalar umumlashtirilsa, amaliyotga asoslangan ta'limning ilmiy-metodologik poydevori quyidagi uch ustunga tayanadi: birinchidan, bilim shaxsiy tajriba orqali konstruktiv ravishda shakllanadi (konstruktivizm); ikkinchidan, ijtimoiy muhit va boshqalar bilan hamkorlik bilim olish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega (ijtimoiy konstruktivizm); uchinchidan, amaliy faoliyat ustidan refleksiya yuritish chuqur va uzoq muddatli bilimni shakllantiradi (refleksiv amaliyot).

2. Amaliyotga asoslangan ta'limning asosiy metodlari.

Amaliyotga asoslangan ta'lim doirasida quyidagi metodlar keng qo'llaniladi. Har bir metod o'ziga xos didaktik xususiyatlarga ega bo'lib, aniq o'quv maqsadlariga mos ravishda tanlanadi.

2.1. Keys-stadi (vaziyat tahlili) metodi.

Keys-stadi metodi real yoki realga yaqinlashtirilgan vaziyatni tahlil qilish orqali bilim oluvchilarda tanqidiy tafakkur va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu metodda bilim oluvchilar aniq bir muammoli vaziyatni o'rganadilar, mavjud ma'lumotlarni tahlil qiladilar va asoslangan yechim taklif qiladilar.

2.2. Loyihaviy ta'lim.

Loyihaviy ta'lim (project-based learning) bilim oluvchilarning ma'lum muddat davomida mustaqil yoki guruh bo'lib aniq bir mahsulot, xizmat yoki yechimni yaratish ustida ishlashlarini nazarda tutadi. Bu metod uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni boshqarish va yakuniy natija uchun javobgarlik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

2.3. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari.

Tabiiy-texnika yo'nalishlarida, ayniqsa tibbiyot, muhandislik va aniq fanlarda amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari nazariy bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Simulyatsiya texnologiyalari va virtual laboratoriyalar ushbu metodning zamona-viy ko'rinishlaridan hisoblanadi.

2.4. Stajirovka va amaliyot (internatura).

Ishlab chiqarish amaliyoti, stajirovka yoki internatura dasturlari bilim oluvchiga real ish muhitida, tajribali mutaxassis rahbarligida faoliyat yuritish imkonini beradi. Bunday tajriba, ayniqsa, kasbiy ta'lim va oliy ta'lim bosqichlarida kasbga tayyorgarlikning eng samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

2.5. Simulyatsiya va rolli o'yinlar.

Xavfli yoki yuqori mas'uliyatli sohalarida (masalan, aviatsiya, tibbiyot, favqulodda vaziyatlarni boshqarish) real sharoitni simulyatsiya qilish orqali bilim oluvchilarga xavfsiz muhitda amaliy ko'nikma orttirish imkonini yaratadi.

3. Amaliyotga asoslangan ta'limning afzalliklari va muammolari.

3.1. Asosiy afzalliklari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, amaliyotga asoslangan ta'lim bir qator muhim afzalliklarga ega. Birinchidan, u bilim oluvchilarda o'rganilayotgan bilimning amaliy ahamiyatini aniq namoyish etish orqali o'quv motivatsiyasini oshiradi. Ikkinchidan, real vaziyatlarda faoliyat yuritish ko'nikmalarni uzoq muddatli xotirada mustahkamlashga yordam beradi, chunki amaliy tajriba orqali egallangan bilim shunchaki yodlab olingan ma'lumotga nisbatan ancha barqaror bo'ladi.

Uchinchidan, bunday yondashuv bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini sezilarli darajada tezlashtiradi, chunki ular o'qish jarayonidayoq real kasbiy vaziyatlar bilan tanishib chiqadilar. To'rtinchidan, amaliyotga asoslangan ta'lim tanqidiy tafakkur, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va o'z-o'zini boshqarish kabi XXI asr ko'nikmalari deb ataluvchi ko'nikmalarni rivojlantirishda alohida samarali hisoblanadi.

4. Amaliy faoliyatni baholash tizimlari.

Amaliyotga asoslangan ta'limning muvaffaqiyatli joriy etilishi ko'p jihatdan bilim oluvchining amaliy faoliyati qanday baholanishiga bog'liq. An'anaviy yozma imtihonlardan farqli o'laroq, amaliy ko'nikmalarni baholash uchun bir qator o'ziga xos vositalar qo'llaniladi.

Portfolio usuli. Bilim oluvchi o'quv davri davomida bajargan amaliy ishlari, loyihalari va ularga oid reflektiv yozuvlarini to'plagan hujjatlar majmuasini shakllantiradi. Portfolio vaqt davomidagi rivojlanish dinamikasini ko'rsatish imkonini beradi.

Rubrika (baholash mezonlari jadvali) usuli. Amaliy faoliyatning turli jihatlari (sifat, mustaqillik, ijodiylik, muddatga rioya qilish va h.k.) oldindan belgilangan aniq mezonlar asosida ballar bilan baholanadi. Bu subyektivlikni kamaytiradi va baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi.

Kuzatuv varaqalari va chek-listlar. Amaliy mashg'ulot yoki stajirovka davomida murabbiy yoki amaliyot rahbari bilim oluvchining hatti-harakatlarini oldindan tayyorlangan kuzatuv varag'i asosida baholaydi.

O'zini-o'zi va o'zaro baholash. Bilim oluvchilarga o'z faoliyatini hamda guruhdoshlarining faoliyatini belgilangan mezonlar asosida baholash imkoniyati beriladi. Bu refleksiya ko'nikmasini yanada chuqurlashtiradi va mas'uliyatni oshiradi.

Amaliyotda, ko'pincha, yuqorida sanab o'tilgan usullarning bir nechitasi uyg'unlikda qo'llanilib, kompleks baholash tizimi shakllantiriladi. Bunday yondashuv bilim oluvchining nafaqat yakuniy natijasini, balki o'quv jarayonidagi faoliyatini ham hisobga olish imkonini beradi.

5. An'anaviy va amaliyotga asoslangan ta'lim: qiyosiy tahlil.

Ikki yondashuv o'rtasidagi farqlarni yaqqolroq tasavvur etish uchun quyida ularning asosiy jihatlari bo'yicha qisqacha qiyosiy tahlil keltiriladi.

Mezon	An'anaviy ta'lim	Amaliyotga asoslangan ta'lim
O'qituvchining roli	Bilim beruvchi manba	Yo'naltiruvchi, maslahatchi
Bilim oluvchining roli	Passiv qabul qiluvchi	Faol ishtirokchi
Asosiy metod	Ma'ruza, yozma topshiriq	Loyiha, keys, amaliyot
Baholash shakli	Yozma imtihon	Portfolio, rubrika, kuzatuv
Asosiy natija	Nazariy bilim	Amaliy ko'nikma va tajriba

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikki yondashuv bir-birini istisno etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Amalda eng yuqori samara, odatda, nazariy bilim berish va amaliy ko'nikma shakllantirishning o'zaro uyg'unlashtirilgan modelini qo'llaganda qo'lga kiritiladi.

6. O'zbekiston ta'lim tizimida amaliyotga asoslangan yondashuv.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida amaliyotga asoslangan ta'lim tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy ta'lim muassasalarida "dual ta'lim" tizimi joriy etilib, unda bilim oluvchilar o'quv jarayonining ma'lum qismini bevosita korxonalarda, ishlab chiqarish sharoitida o'tkazmoqdalar.

Oliy ta'lim tizimida esa kredit-modul tizimiga o'tish bilan bir qatorda, amaliyot va malakaviy amaliyot soatlarining o'quv rejalaridagi ulushi oshirildi, shuningdek "Yosh olimlar maktabi", loyiha-asosidagi kurs ishlari, startap g'oyalari ustida ishlash kabi amaliy yo'naltirilgan shakllar keng joriy etilmoqda. Maktab ta'limida esa STEAM yo'nalishidagi fanlararo loyihalar, amaliy ustaxonalar (robototexnika, dizayn-fikrlash to'garaklari) orqali amaliyotga asoslangan yondashuv elementlari tatbiq etilmoqda.

Shu bilan birga, milliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliyotga asoslangan ta'limni tizimli joriy etish yo'lida hali bir qator vazifalarni hal etish zarur: o'qituvchi va murabbiylarning maxsus tayyorgarligini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalari bilan ta'lim muassasalari o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlarini yaratish, amaliy faoliyatni baholashning milliy standartlarini ishlab chiqish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun zarur moddiy-texnik bazani mustahkamlash.

Xususan, kasb-hunar kollejlari va texnikumlarida ishlab chiqarish korxonalari bilan tuzilgan uchtomonlama shartnomalar (ta'lim muassasasi — korxona — bilim oluvchi) amaliyotni tashkil etishning samarali shakllaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida "Yoshlar texnoparklari", innovatsion markazlar va biznes-inkubatorlar faoliyati orqali talabalarning tadbirkorlik va loyiha ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy ta'lim muassasalari bilan amalga oshirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida xalqaro amaliyot almashinuvi imkoniyatlarining kengayishi ham milliy tajribani boyitishga xizmat qilmoqda.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, amaliyotga asoslangan ta'lim zamonaviy pedagogika fanida mustahkam nazariy asosga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini isbotlagan yondashuv hisoblanadi. Dyui, Kolb, Vigotskiy va Shyon kabi olimlarning ishlarida shakllantirilgan g'oyalar ushbu yondashuvning ilmiy-metodologik poydevorini tashkil etadi.

Amaliyotga asoslangan ta'limni muvaffaqiyatli joriy etish uchun reallik, faollik, refleksivlik, hamkorlik, uzluksiz fikr-mulohaza va integratsiyalashganlik kabi tamoyillarga rioya qilish, shuningdek keys-stadi, loyihaviy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, stajirovka va simulyatsiya kabi turli metodlarni o'quv maqsadlariga mos ravishda uyg'unlikda qo'llash zarur.

Xulosa qilib aytganda, amaliyotga asoslangan ta'lim — bu nafaqat pedagogik metod, balki ta'lim falsafasining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u bilim oluvchini hayotga, kasbga va jamiyatga tayyorlashning eng samarali yo'llaridan birini taklif etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
2. Kolb, D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.
3. Выготский, Л. С. Мышление и речь. Москва, 1934 (qayta nashrlari asosida).
4. Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.

TA'LIM VA AMALIYOTDA DUAL TA'LIMNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

**Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li,
G'aniyev Komiljon Yorqin o'g'li**

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangiyer filiali, O'zbekiston*

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi nafaqat nazariy bilimlar berishga, balki talabalarni real mehnat bozoriga tayyorlashga ham mas'uldir. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, nazariy ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini organik uyg'unlashtiruvchi dual ta'lim tizimi mutaxassislar tayyorlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Dual ta'lim — bu talabaning o'quv vaqtini ikki muhit o'rtasida, ya'ni oliy ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida taqsimlashga asoslangan ta'lim shaklidir. Ushbu yondashuv Germaniya, Avstriya, Shveytsariya kabi mamlakatlarda yuzlab yillik tarixga ega bo'lib, ularda kasb-hunar va oliy ta'limning poydevori sifatida qaraladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda dual ta'lim tamoyillarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar qo'yilmoqda. 2022-2025 yillarda qabul qilingan ta'lim islohotlari doirasida oliy ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi sheriklik aloqalarini mustahkamlash dolzarb masalaga aylandi. Shu boisdan ushbu mavzuning ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Dual” atamasi lotincha “dualis” so'zidan olingan bo'lib, “ikki tomonlama” ma'nosini anglatadi. Ta'lim sohasida bu tushuncha birinchi marta xix asrning oxirida Germaniyada qo'llanila boshlangan[2:1]. O'sha davrlarda sanoat inqilobi tufayli malakali ishchi kadrlariga bo'lgan talab keskin ortdi va korxonalar bevosita ta'lim jarayoniga jalb etildi.

Oliy ta'limdagi dual ta'lim tizimi esa umumiy kasbiy ta'limdan farqli o'laroq, universitetlar bilan yirik sanoat korxonalari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga asoslanadi. Bunda talaba bir vaqtning o'zida ham o'quvchi, ham to'laqonli xodim maqomida faoliyat yuritadi.

Dual ta'lim tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Integratsiya tamoyili — nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar birgalikda shakllantirilishi;

Hamkorlik tamoyili — ta'lim muassasasi va korxona teng huquqli sheriklar sifatida ishtirok etishi;

Moslashuvchanlik tamoyili — o'quv dasturlari mehnat bozori talablariga muvofiq tuzatib borilishi;

Iqtisodiy manfaatdorlik tamoyili — ikkala tomon uchun ham sarf-xarajatlar va foyda adolatli taqsimlanishi;

Baholash tamoyili — talabaning bilim va ko'nikmalari ham ta'lim muassasasi, ham korxona tomonidan baholanishi.

Germaniya dual ta'lim tizimi jahonda eng rivojlangan va samarali model sifatida tan olingan[3:1]. Bu mamlakatda talabalar haftaning 3-4 kunini korxonada ishlashga, 1-2 kunini esa

universitetda nazariy ta'lim olishga sarflaydilar. Barcha xarajatlar korxona va davlat o'rtasida taqsimlanadi, talabaga esa oylik stipendiya to'lanadi.

Germaniya statistikasi shuni ko'rsatadiki, dual ta'limni tugatgan bitiruvchilarning 90 foizdan ortig'i mehnat shartnomasi asosida ishga joylashadi, ularning aksariyati o'qigan korxonasi-da qoladi. Bu ko'rsatkich oddiy oliy ta'lim bitiruvchilariga nisbatan ikki baravar yuqori.

Avstriya va shveytsariya ham Germaniya modeliga o'xshash tizimlar amal qiladi. Fransiya "alternance" deb ataluvchi o'quv shakli keng tarqalgan bo'lib, u oliy ta'lim bosqichida ham faol qo'llanilmoqda[1:1]. Yaponiyada "co-operative education" tizimi orqali talabalar yirik korporatsiyalar bilan hamkorlikda o'qishadi.

Xitoyda so'nggi o'n yil ichida dual ta'limning milliy modeli shakllantirildi. Bunga ko'ra, oliy texnik ta'lim muassasalarining kamida 50 foiz o'quv vaqti ishlab chiqarish amaliyotiga ajratilishi shart qilib belgilangan[9:1]. Bu siyosat Xitoyning texnologik rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda dual ta'lim elementlari qator oliy ta'lim muassasalarida sinov tartibida joriy etilmoqda[10:1]. Xususan, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti va bir qator mintaqaviy universitetlar yirik sanoat korxonalari bilan hamkorlik shartnomalarini imzolagan.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu jarayon bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bular orasida: huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi, korxonalar tomonidan talab qilinadigan kompetentsiyalar va o'quv dasturlari o'rtasidagi tafovut, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi kabi muammolar mavjud.

Dual ta'limni keng joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur deb hisoblaymiz:

Oliy ta'lim muassasalari va korxonalar sherikligini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilish[6:1];

Korxonalarga beriladigan soliq imtiyozlari orqali ularning ta'lim jarayoniga investitsiya qilishini rag'batlantirish;

O'quv dasturlarini ishlab chiqarishda sanoat vakillarini faol jalb etish[7:1];

Amaliyot rahbarlariga sertifikatlash tizimini joriy etish;

Muvaffaqiyatli tajribalarni ommalashtirish va tarqatish mexanizmlari yaratish.

Bir qator tadqiqotlar dual ta'lim bitiruvchilari an'anaviy ta'lim bitiruvchilariga nisbatan bir qator ko'rsatkichlarda ustunlik qilishini isbotlagan[5:1]. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar aks ettirilgan:

1-jadval. (dual va an'anaviy ta'lim bitiruvchilarini solishtirish)

Ko'rsatkich	Dual ta'lim	An'anaviy ta'lim
Ishga joylashish darajasi (bitiruvdan 6 oy o'tib)	88–92%	55–65%
Ish beruvchan qoniqish darajasi	Yuqori (85%)	O'rta (60%)
Boshlang'ich ish haqi (o'rtacha)	20–30% yuqori	Taqqoslama asos
Qayta tayyorlashga zarur vaqt	1–3 oy	6–12 oy
Kasbiy o'sish sur'ati	Tezroq	Sekinroq

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimida tayyorlangan mutaxassislar nafaqat tezroq ish topishadi, balki ular ish boshlanganidan keyingi moslashuv davrini ham sezilarli darajada qisqartiradilar. Buning asosiy sababi shundaki, ular o'quv davridayoq real ish muhitida tajriba to'plagan bo'ladilar.

Ushbu maqola doirasida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimi oliy ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi eng samarali vositalardan biridir. Bu tizim nafaqat talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshiradi, balki ish beruvchilar uchun ham bevosita foyda keltiradi, chunki ular o'z ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash jarayonida ishtirok etadilar.

O‘zbekiston sharoitida dual ta’limni kengroq joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlar maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, huquqiy-me’yoriy baza mustahkamlanishi, ya’ni oliy ta’lim va korxonalar hamkorligini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasi yaratilishi lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy rag‘batlantirish: dual ta’limga jalb bo‘lgan korxonalarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki boshqa iqtisodiy mexanizmlar orqali ragbat berilishi kerak.

Uchinchidan, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish: oliy ta’lim standartlari mehnat bozori talablari asosida muntazam yangilanib turishi zarur[4:1].

To‘rtinchidan, ilmiy-metodologik ta’minot: dual ta’limni tatbiq etishda muvaffaqiyatli bo‘lgan mualliflarning tajribalari umumlashtirilishi va tarqatilishi maqsadga muvofiq[8:1].

Beshinchidan, raqamli platformalar: masofaviy o‘qitish va amaliy topshiriqlarni ulg‘aytiruvchi raqamli tizimlar orqali dual ta’limni yanada moslashuvchan shaklga keltirish imkoniyatlari o‘rganilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, dual ta’lim — bu shunchaki ta’lim shakli emas, balki ta’lim, iqtisodiyot va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikning yangi paradigmasidir. Uni to‘g‘ri va tizimli joriy etish orqali O‘zbekiston o‘zining intellektual kapitalini yanada samarali rivojlantirishi, malakali kadrlar tanqisligini bartaraf etishi va iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baumann, M. (2020). Dual study programmes in global context. BIBB Report, 3(20).
2. Biermann, H. & Bonz, B. (2019). Dual education in Germany: development, structures, and problems. Bundesinstitut für Berufsbildung.
3. Euler, D. (2013). Germany’s dual vocational training system: a model for other countries? Bertelsmann Stiftung.
4. Mirziyoyev, Sh. M. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar: yutuqlar va kelgusi vazifalar. Toshkent, 2021.
5. OECD (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/e13bef63-en>
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari.
7. Pilz, M. (2012). The future of vocational education and training in a changing world. Springer Science & Business Media.
8. Rauner, F. & MacLean, R. (2008). Handbook of technical and vocational education and training research. Springer.
9. UNESCO (2022). Transforming technical and vocational education and training for sustainable development. UNESCO Publishing.
10. Xolmatov, A. va boshq. (2023). O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish masalalari. Ta’lim va fan jurnali, 4(2), 45–58.

KO‘ZI OJIZ BITIRUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VA BANDLIK MASALALARI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ko‘zi ojiz bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni mehnat bozoriga integratsiyalash masalasi nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunida nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat qilish, kasb tanlash va bandlikka oid teng huquqlari belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan inklyuziv ta‘limni rivojlantirish, kasb-hunar o‘rgatish va bandlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘zi ojiz bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlashda hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud.

Ko‘zi ojiz bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar integratsiyasidir. Ko‘zi ojiz bitiruvchilar uchun kasbiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: kommunikativ kompetensiya; axborot-kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasi; adaptiv va mobil kompetensiyalar; mustaqil hayot ko‘nikmalari; kasbiy moslashuvchanlik; assistiv texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi. Tiflopedagogik tadqiqotlarda ko‘zi ojiz shaxslarning muvaffaqiyatli kasbiy integratsiyasi sensor kompensatsiya, taktil idrok, eshituv analizatori va raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bevosita bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandlik darajasi umumiy aholi qatlamiga nisbatan ancha past bo‘lib, ko‘rish nuqsoni mavjud shaxslarning ish bilan ta‘minlanish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun; inklyuziv ta‘limni rivojlantirishga oid davlat dasturlari mazkur yo‘nalishdagi muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, “International inclusive hub” loyihalari doirasida imkoniyati cheklangan yoshlarni kasbga yo‘naltirish va bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Ko‘zi ojiz bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirib borishidagi muammolar.

1. Kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozori talablari o‘rtasidagi nomuvofiqlik Ko‘plab hollar da oliy ta‘lim muassasalarida berilayotgan kasbiy tayyorgarlik real mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmaydi. Bitiruvchilarda zamonaviy IT texnologiyalar, masofaviy ish faoliyati va raqamli platformalarda ishlash ko‘nikmalari yetarli shakllanmagan bo‘ladi.

2. Assistiv texnologiyalar bilan ta'minlashdagi muammolar Ko'zi ojiz shaxslarning kasbiy faoliyatida: Brayl texnologiyalari, screen reader dasturlari, audio platformalar, sun'iy intellekt asosidagi assistiv tizimlar muhim ahamiyatga ega. Biroq ko'plab ta'lim muassasalari va ish joylarida bunday vositalar yetarli emas.

3. Ish beruvchilarda stereotipik qarashlarning mavjudligi Ko'zi ojiz shaxslarning mehnat salohiyatiga nisbatan salbiy stereotiplar ularning bandlik imkoniyatlarini cheklaydi. Ayrim ish beruvchilar nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishni qo'shimcha xarajat yoki ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi bilan bog'laydi.

4. Inklyuziv infratuzilmaning yetarli emasligi Ko'zi ojiz bitiruvchilar uchun: moslashtirilgan transport, navigatsion tizimlar, taktil yo'laklar, ovozli axborot tizimlari yetarli darajada shakllanmaganligi ularning mustaqil harakatlanishiga to'sqinlik qiladi.

5. Psixologik va ijtimoiy moslashuv muammolari Ba'zi hollarda ko'zi ojiz yoshlar o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik, ijtimoiy cheklanish yoki kommunikativ qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Bu esa kasbiy faollikning pasayishiga olib keladi.

Muammolarni bartaraf etishning ilmiy-amaliy mexanizmlari.

Inklyuziv kasbiy ta'lim modelini kuchaytirish Oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim, amaliyotga yo'naltirilgan kurslar, raqamli kompetensiyalar, masofaviy mehnat ko'nikmalari asosida yangi o'quv modullarini joriy etish zarur.

Assistiv texnologiyalarni keng joriy etish Sun'iy intellekt asosidagi ovozli tizimlar, Brayl displeylari, OCR texnologiyalari hamda adaptiv mobil ilovalar ko'zi ojiz bitiruvchilarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi. Bugungi kunda AI texnologiyalari nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini oshirish imkonini berayotgani xalqaro tadqiqotlarda ham alohida ta'kidlanmoqda.

Ish beruvchilar uchun rag'batlantirish tizimini kuchaytirish Davlat tomonidan: soliq imtiyozlari, subsidiya mexanizmlari, moslashtirilgan ish o'rinlari uchun grantlar ajratilishi inklyuziv bandlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Universitet – ish beruvchi – mahalla” hamkorlik modelini yaratish Bitiruvchilarning bandligini ta'minlash uchun: individual kasbiy xaritalar, mentorlik tizimi, amaliyot bazalari, inklyuziv karyera markazlari faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy ong va inklyuziv madaniyatni rivojlantirish Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish inklyuziv bandlikning eng muhim omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda ko'zi ojiz bitiruvchilarning bandligini ta'minlash faqat ijtimoiy himoya masalasi emas, balki inson kapitalini rivojlantirishning muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi. Zamonaviy inklyuziv jamiyat sharoitida ko'zi ojiz yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni raqamli texnologiyalar asosida mehnat bozoriga integratsiyalash hamda mustaqil iqtisodiy faoliyatga tayyorlash dolzarb pedagogik va ijtimoiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek inklyuziv ta'lim va bandlik integratsiyasini kuchaytirish, assistiv texnologiyalarni ommalashtirish, ish beruvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish, davlat va nodavlat hamkorligini kengaytirish ko'zi ojiz bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonuni.
2. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–85-son Farmoni.
3. “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-sonli qarori.

-
4. International Labour Organization (ILO) disability inclusion reports.
 5. UNDP analytical report on disability employment in Uzbekistan.
 6. ILO “Eye health and the world of work” report.
 7. Inclusive labour market integration studies.

DUAL TA'LIM ASOSIDA BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Jumayev Akmal G'ulom o'g'li,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti, O'zbekiston*

Jahon miqyosida mehnat bozori talablarining tez sur'atlarda o'zgarishi, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga raqobatbardosh va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Bunday sharoitda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan dual ta'lim tizimi yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish hamda ularning bandligini ta'minlashning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining nazariy bilimlari bilan amaliy ko'nikmalari o'rtasida tafovut mavjudligi kuzatilmoqda. Natijada ish beruvchilar talab qilayotgan malaka va kompetensiyalar bilan ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan kadrlar salohiyati o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu muammo yoshlar bandligini ta'minlash hamda mehnat bozorida malakali kadrlar ulushini oshirish zaruratini yanada dolzarb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, bitiruvchilar bandligini ta'minlash va ish beruvchilarning kadrlar tayyorlash jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda dual ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ta'lim muassasalari hamda ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha huquqiy asoslar yaratilmoqda. Biroq dual ta'limni tashkil etish, ta'lim muassasasi, talaba va ish beruvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish, amaliyot o'tash jarayonida mehnat huquqlarini kafolatlash hamda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xorijiy davlatlar, xususan Germaniya, Avstriya va Shveytsariya tajribasi dual ta'lim tizimining yoshlar bandligini oshirishdagi yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Mazkur davlatlarda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlik, uch tomonlama shartnomaviy munosabatlar hamda ish beruvchilarning kadrlar tayyorlashdagi faol ishtiroki bitiruvchilarning qisqa muddatda ish bilan ta'minlanishiga xizmat qilmoqda. Shu sababli dual ta'lim asosida bitiruvchilar bandligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, milliy qonunchilik va amaliyotni xorijiy tajriba asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dual ta'lim tizimining markaziy elementi ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hisoblanadi. Integratsiya deganda nazariy bilimlar beruvchi ta'lim muassasalari hamda amaliy faoliyat yurituvchi tashkilotlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik tushuniladi. Ushbu hamkorlik o'quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, talabalarning malakaviy amaliyotini

o'tkazish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. An'anaviy ta'lim tizimida talaba avval nazariy bilimlarni egallab, keyinchalik mehnat faoliyatiga kirishadi. Dual ta'lim modelida esa nazariya va amaliyot parallel ravishda olib boriladi. Bu esa o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlab, olingan bilimlarning amaliy faoliyatda darhol sinovdan o'tkazilishiga imkon yaratadi. Natijada talaba kasbiy muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, qaror qabul qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining muhim jihatlaridan biri ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokidir. Korxonalar o'quv rejalari va dasturlarini shakllantirishda ishtirok etishi orqali bozor talablariga mos kadrlar tayyorlanishiga erishiladi. Shu bilan birga, tashkilotlar o'zlari uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dual ta'lim tizimining asosiy afzalligi nazariy bilim va amaliy tajriba o'rtasidagi tafovutni kamaytirishdan iborat. Talabalar ta'lim olish jarayonidayoq real ishlab chiqarish muhitiga moslashadi, bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi. Mazkur tizimning yana bir muhim afzalligi bitiruvchilar bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatishidir. Amaliyot o'tayotgan tashkilot talabaning kasbiy salohiyatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi va ko'pincha o'qishni tamomlaganidan so'ng uni ishga qabul qiladi. Natijada yosh mutaxassislarning ish qidirish davri qisqaradi va mehnat bozoriga integratsiyalashuvi tezlashadi. Dual ta'limning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ta'lim muassasasi, talaba va ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlikning institutsional xarakterga ega ekanligini, amaliy tayyorgarlikning ta'lim dasturining majburiy tarkibiy qismi hisoblanishini hamda o'quv jarayonining mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, ushbu tizim ta'lim sifatini oshirish, ish beruvchilarning kadrlar tayyorlashdagi mas'uliyatini kuchaytirish va yoshlar bandligini ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, dual ta'lim tizimi nazariy bilim va amaliy faoliyat uyg'unligiga asoslangan bo'lib, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur jihat uning bitiruvchilar bandligini ta'minlashdagi muhim o'rnini belgilaydi.

Germaniya dunyoda dual ta'lim tizimining eng rivojlangan va samarali modeliga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Mazkur modelning muvaffaqiyati ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi mustahkam institutsional hamkorlik, aniq huquqiy tartibga solish hamda ish beruvchilarning faol ishtiroki bilan izohlanadi. Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar bandligini ta'minlashda faqat ta'lim muassasalarining sa'y-harakatlari yetarli emas, balki tashkilotlar ham kadrlar tayyorlash jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylanishi lozim. Germaniyada dual ta'lim tizimi kasb-hunar maktablari va korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladi. Talabalar o'quv vaqtining ma'lum qismini ta'lim muassasasida nazariy tayyorgarlikka, qolgan qismini esa korxonalarda amaliy faoliyatga sarflaydi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Korxonalar o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda hamda malaka imtihonlarini o'tkazishda bevosita ishtirok etadi. Natijada bitiruvchilar egallagan bilim va ko'nikmalar real ishlab chiqarish talablariga mos shakllanadi. Ushbu tizim mehnat bozoridagi malaka nomuvofiqligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu ilmiy tadqiqot doirasida dual ta'lim asosida bitiruvchilar bandligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari kompleks tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalarga kelindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim tizimi ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan bo'lib, bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning mehnat bozoriga tez moslashuvini ta'minlaydi. Mavjud milliy huquqiy baza dual ta'limni joriy etish uchun asos yaratgan bo'lsa-da, subyektlar o'rtasidagi huquqiy

munosabatlar va bandlik kafolatlari to'liq darajada tartibga solinmagan. Xorijiy tajriba asosida aniqlangan samarali mexanizmlar, ya'ni Germaniya, Avstriya va Shveysariya tajribasi asosida quyidagilar aniqlandi:

- ish beruvchilarning ta'lim jarayonida institutsional ishtiroki;
 - tashkilot va talaba shartnomasi orqali huquqiy munosabatlarni qat'iy tartibga solish;
 - bitiruvchilarning yuqori darajadagi bandlik ko'rsatkichlariga erishish va boshqalar
- Dual ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar tavsiya etiladi:
- ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam yangilab borish;
 - tashkilotlarda amaliy tayyorgarlik sifatini nazorat qilishning huquqiy mexanizmlarini kuchaytirish;
 - bitiruvchilar bandligini monitoring qilishning raqamli tizimini takomillashtirish;
 - ish beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni institutsional asosda rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF – 6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-sonli "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024. Geneva, 2024.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. Paris, 2024.
6. European Centre for the Development of Vocational Training. The Role of Dual Vocational Education and Training in Europe. Luxembourg, 2023.

DUAL TA'LIM TIZIMI VA BITIRUVCHILAR BANDLIGI INTEGRATSIYASI

**Xalilov Jahongir Mansur o'g'li,
Bahodirov Odilxo'ja Avazxo'ja o'g'li,
Tursinboyev Xursandbek Muzaffar o'g'li,**

Buxoro davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Hozirgi globallashuv sharoitida mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi oliy ta'lim tizimidan nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy kompetensiyalarni ham egallagan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni mehnat bozori bilan integratsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot tarmoqlari bilan hamkorligini kuchaytirish, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda bitiruvchilarning bandligini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Ushbu konsepsiya oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ko'zda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlarning huquqlarini himoya qilish va ishga joylashish jarayonlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirib borishini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va bandlik jarayonlarining shaffofligini oshiradi.

Bundan tashqari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining.

2022–2025-yillardagi mehnat bozori holati bo'yicha yillik hisobotlarida respublikada yoshlar bandligi, bitiruvchilarni ishga joylashtirish darajasi hamda mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi muvozanat masalalari tahlil etilgan. Ushbu hisobotlar natijalariga ko'ra, ayrim sohalarda malakali kadrlar yetishmovchiligi saqlanib qolayotgani, bu esa ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini chuqurlashtirish, xususan dual ta'lim tizimini rivojlantirish bitiruvchilar bandligini ta'minlashning muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi [1,3].

Dual ta'lim tizimining mazmuni va mohiyati. Dual ta'lim tizimi — bu nazariy bilimlar va amaliy tayyorgarlikning integratsiyalashgan shakli bo'lib, unda ta'lim jarayonining bir qismi oliy ta'lim muassasasida, qolgan qismi esa korxona va tashkilotlarda amalga oshiriladi [7].

Ushbu tizimning asosiy xususiyatlari:

- nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi;
- ish beruvchining ta’lim jarayonida bevosita ishtiroki;
- talabalar real ishlab chiqarish sharoitida tajriba orttirishi;
- bitiruvchining mehnat bozoriga tez moslashuvi.

Bitiruvchilar bandligida dual ta’limning roli. Dual ta’lim tizimi bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

- talabalar o‘qish davomida ish tajribasiga ega bo‘ladi;
- ish beruvchilar talabani oldindan baholash imkoniga ega bo‘ladi;
- kompetensiya va mehnat bozori talabi o‘rtasidagi tafovut kamayadi [6,7].

Natijada, bitiruvchilar “ishga tayyor kadr” sifatida shakllanadi va bandlik darajasi oshadi.

Institutsional mexanizmlar. Dual ta’limni samarali joriy etish uchun quyidagi institutsional mexanizmlar muhim:

- Oliy ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida shartnomaviy hamkorlik;
- davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi normativ-huquqiy baza;
- amaliyot bazalarini kengaytirish;
- ish beruvchilarni o‘quv dasturlarini shakllantirishga jalb etish;
- bandlik monitoring tizimini raqamlashtirish.

Muammolar va cheklovlar. Dual ta’lim tizimini joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

- korxonalarda yetarli amaliy o‘quv bazalarining yo‘qligi;
- ish beruvchilarning ta’lim jarayoniga sust jalb etilishi;
- moliyaviy va tashkiliy muammolar [3,7];
- o‘quv dasturlarining ishlab chiqarish talablariga to‘liq mos emasligi.

Rivojlanish istiqbollari. Kelgusida dual ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- raqamli platformalar orqali ta’lim va amaliyotni integratsiya qilish;
- “career center” tizimlarini kuchaytirish;
- xalqaro tajribani (Germaniya modeli) moslashtirish;
- mehnat bozori prognoziga asoslangan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.

Dual ta’lim tizimi bugungi kunda oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlashda eng samarali modellardan biri sifatida qaraladi. Ushbu tizim ta’lim jarayonini ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiyalash orqali talabalar tomonidan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi va ularning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantiradi. Natijada, bitiruvchilar mehnat bozoriga kirishda yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘ladi, bu esa ularning ishga joylashish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga va bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ish beruvchilar uchun malakali kadrlarni tanlash va ularni ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish jarayoni sezilarli darajada soddalashadi.

Shu bilan birga, dual ta’lim tizimining barqaror va samarali ishlashi institutsional hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishda davlat organlari, oliy ta’lim muassasalari hamda ish beruvchi tashkilotlar o‘rtasida tizimli va uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, amaliy o‘quv bazalarini kengaytirish va bitiruvchilar bandligini oshirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizimni yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Yangi tahrir. Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi “Mehnat bozori holati va bandlik bo'yicha yillik hisobotlar” (2022–2025); Toshkent.
4. Tashpulatov A.A., Rasulov B.B. “Oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv va kadrlar tayyorlash sifati” // O'zbekiston pedagogika fanlari jurnali, 2021, №3.
5. OECD. Education at a Glance Reports.
6. World Bank. Skills and Jobs Reports.
7. European Commission. Dual Education System Guidelines.

OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA SPORT TURIZMINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGI VA BANDLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Ro'zmetov Roman Narimanovich,
Maxmudov Yusufboy Qadirovich,
Bekchanov Ma'mur Toxir o'g'li,
Yusufbayev Shaxrux G'ayrat o'g'li,**

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda bitiruvchilar bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Sport turizmi zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lib, talabalarining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Mazkur faoliyat turi talabalarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO mutaxassislari ta'limning asosiy vazifasi bilim berish bilan bir qatorda amaliy faoliyatga tayyor kompetent mutaxassislarni shakllantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar [5:1]. Shu nuqtai nazardan sport turizmi talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish va bitiruvchilar bandligini ta'minlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda turizm ta'limiga oid ilmiy manbalar o'rganildi [3:1; 5:1].

Sport turizmining pedagogik imkoniyatlari

Sport turizmi ta'lim, tarbiya va rivojlantirish funksiyalarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab pedagogik tizimdir. Sport turistik faoliyat jarayonida talabalar mustaqil qaror qabul qilish, guruh faoliyatini boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal etish va kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [9:1].

Sport turizmi talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- liderlik kompetensiyasi;
- kommunikativ kompetensiya;
- ekologik madaniyat;
- ijtimoiy moslashuvchanlik;

- mas’uliyat va intizom;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari.

Turizm ta’limi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar sport va turizm faoliyatining amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [14:1;15:1].

Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari.

Kasbiy kompetentlik mutaxassisning bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir [7:1].

Sport turizmi orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshiriladi:

Kompetensiyaviy yondashuv.

Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim.

Turistik yurishlar, ekspeditsiyalar va dala mashg‘ulotlari orqali kasbiy tajriba hosil qilish [12:1].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Loyiha metodi, keys-stadi, muammoli ta’lim va interaktiv metodlarni qo‘llash.

Raqamli texnologiyalar.

GPS navigatsiya, elektron xaritalar va raqamli platformalardan foydalanish turizm ta’limining samaradorligini oshiradi [10:1].

Sport turizmi va bitiruvchilar bandligi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, zamonaviy mehnat bozorida moslashuvchanlik, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik eng muhim kompetensiyalar hisoblanadi [8:1].

Sport turizmi yo‘nalishi bitiruvchilari:

- turizm kompaniyalarida;
- sport federatsiyalarida;
- rekreatsion markazlarda;
- sog‘lomlashtirish maskanlarida;
- ekologik turizm obyektlarida;
- ta’lim muassasalarida;
- tadbirkorlik subyektlarida

faoliyat yuritishlari mumkin [11:1].

World Economic Forum hisobotlarida ham kelajak kasblarida liderlik, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga talab ortib borayotgani qayd etilgan [5:1].

Oliy ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi.

Bitiruvchilar bandligini ta’minlashda “OTM – Talaba – Ish beruvchi – Turizm tashkiloti” hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

- dual ta’lim elementlarini kengaytirish;
- amaliyot bazalarini rivojlantirish;
- ish beruvchilar ishtirokida o‘quv dasturlarini takomillashtirish;
- talabalarni startap loyihalarga jalb etish;
- xalqaro akademik mobillik dasturlarini rivojlantirish.

Taklif etilayotgan model.

OTM → Sport turizmi amaliyoti → Kasbiy kompetensiyalar → Ish beruvchi → Bandlik

Mazkur model sport turizmi ta’limining pedagogik samaradorligini oshirish hamda bitiruvchilar bandligini ta’minlashning integrativ mexanizmi sifatida qoraladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Tadqiqotda sport turizmi ta'limining pedagogik samaradorligini oshirish orqali talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish va bitiruvchilar bandligini ta'minlashning kompetensiyaviy-integrativ modeli nazariy jihatdan asoslandi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va turizm tashkilotlari hamkorligiga asoslangan pedagogik mexanizmlar tizimi taklif etildi.

Sport turizmi oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish va bitiruvchilar bandligini ta'minlashning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ish beruvchilar bilan hamkorlik sport turizmi ta'limining samaradorligini oshiradi.

Natijada talabalarning kasbiy tayyorgarligi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va bandlik imkoniyatlari sezilarli darajada ortadi. Shu bois sport turizmi ta'lim dasturlarini takomillashtirish, dual ta'lim elementlarini keng joriy etish va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarni kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris, 2021.
2. UN Tourism. Tourism Education Guidelines for Higher Education Institutions. Madrid, 2024.
3. Yorke M. Employability in Higher Education: What It Is – What It Is Not. York, 2006.
4. OECD. Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Future. Paris, 2023.
5. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2025. Geneva, 2025.
6. Page S.J. Tourism Management. London: Routledge, 2022.
7. Hall C.M. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Pearson Education, 2021.
8. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D. Tourism: Principles and Practice. Pearson Education, 2019.
9. Hsu C.H.C. Tourism Education and Workforce Development. Springer, 2021.
10. Airey D., Tribe J. An International Handbook of Tourism Education. Elsevier, 2021.
11. Buhalis D. Technology in Tourism: From Information Communication Technologies to e-Tourism. Springer, 2021.

MARKETING TA'LIMIDA AMALIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Ibrohimov Firdavs,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O'zbekiston*

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo'lgan talabning ortishi marketing mutaxassislarini tayyorlash tizimiga yangi vazifalarni yuklamoqda. Zamonaviy marketing faoliyati nafaqat nazariy bilimlarni, balki ingliz tilini bilish, raqamli marketing vositalaridan foydalanish va marketing tadqiqotlarini amalga oshirish kabi amaliy ko'nikmalarni ham talab etadi [2, 45].

Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilgacha talab yuqori bo'ladigan ko'nikmalar qatoriga tahliliy fikrlash, raqamli savodxonlik va texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalari kiradi [4, 37]. Ushbu sohadagi bo'shliq sababli, ko'plab mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan berilayotgan bilimlar bilan mehnat bozori talablari o'rtasida muayyan tafovut saqlanib qolmoqda [6, 118].

Marketing sohasi ushbu tendensiyalardan eng kuchli ta'sirlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, SMM, marketing analitikasi, CRM tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish kabi yo'nalishlarning rivojlanishi marketing ta'limi mazmunini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda [7, 74].

Mazkur tadqiqotning maqsadi marketing yo'nalishi talabalarining amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda universitet o'quv dasturlari va xususiy kurslarning rolini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda marketing yo'nalishida tahsil olayotgan va yaqinda bitirgan 82 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlarning o'rtacha yoshi 21 yoshni tashkil etdi. Tadqiqotda "Likert"ning 5 ballik shkalasi asosida tuzilgan so'rovnomadan foydalanildi.

Baholash quyidagi ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshirildi:

- SMM kompetensiyasi;
- marketing tadqiqotlari kompetensiyasi.

Shuningdek, respondentlarning universitet dasturlariga va xususiy kurslarga bergan baholari ham o'rganildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Bugungi kunda marketing faoliyatining muhim qismi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli SMM ko'nikmalari zamonaviy marketing mutaxassisining asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi [7, 81].

Respondentlarning 61,4 foizi universitetlarda SMM bo'yicha tayyorgarlik yetarli emasligini bildirgan.

Shu bilan birga:

71,1 % respondent SMM bo'yicha qo'shimcha kurslarni muhim deb hisoblaydi;

78,3 % respondent SMM ko'nikmalarini marketing karerasi uchun zarur deb baholaydi.

Regressiya tahlili natijalari SMM bo'yicha xususiy kurslarning ta'siri universitet dasturlariga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Biroq mazkur bog'liqlik statistik jihatdan yetarlicha kuchli emasligi aniqlangan.

Marketing tadqiqotlari kompetensiyalarining shakllanishi. Marketing tadqiqotlari zamonaviy marketing faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va talqin etish qobiliyati marketing qarorlarining sifatini belgilaydi [1, 214]. Respondentlarning 36,2% marketing tadqiqotlari bo'yicha tayyorgarlikni salbiy deb baholagan.

Ishtirokchilarning 34,9% marketing tadqiqotlari bo'yicha xususiy kurslarga borishni muhim, 21,7% esa "juda muhim" deb hisoblaydi.

Regressiya tahlili natijasida marketing tadqiqotlari bo'yicha xususiy kurslar talabalarining amaliy kompetensiyalariga katta ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. ($\beta=0,791$; $p<0,001$).

Modelning izohlash darajasi ham yuqori bo'lib, R^2 ko'rsatkichi 0,686 ni tashkil etdi. Bu esa talabalar kompetensiyasidagi o'zgarishlarning qariyb 69 foizi xususiy kurslar bilan bog'liqligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari marketing yo'nalishidagi talabalar amaliy kompetensiyalarining shakllanishida xususiy kurslarning roli universitet o'quv dasturlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, ingliz tili, SMM va marketing tadqiqotlari bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirishda universitet dasturlari va mehnat bozori talablari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Marketing ta'limining samaradorligini oshirish uchun o'quv dasturlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish hamda biznes sektori bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar muhokamasi asosida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- Marketing dasturlariga Google Analytics, Power BI, Tableau, CRM tizimlari va marketing analitikasi modullarini kiritish tavsiya qilinadi [5, 63].
- Marketing fanlari tarkibiga ingliz tilidagi amaliy materiallar va xalqaro keyslarni keng joriy etish maqsadga muvofiq [3, 52].
- SMM, SEO, kontent marketing va target reklama bo'yicha amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish lozim [7, 84].
- Marketing agentliklari hamda biznes subyektlari bilan qo'shma loyihalar va stajirovkalarni rivojlantirish talabalar kompetensiyalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6, 126].
- Talabalarining amaliy kompetensiyalarini xalqaro sertifikatlar asosida baholash va kredit tizimiga integratsiya qilish tavsiya etiladi [4, 91].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hair, J. F., Page, M., & Brunsveld, N. (2023). *Essentials of marketing research* (5th ed.). New York, NY: McGraw-Hill Education.
2. Kotler, P., Keller, K. L., & Chernev, A. (2022). *Marketing management* (16th ed.). Harlow, England: Pearson Education.
3. Lee, J. (2024). The role of business English in international marketing. *Research in Economics and Management*, 9(1), 181–192. <https://doi.org/10.22158/rem.v9n1p181>
4. World Economic Forum. (2025). *The future of jobs report 2025*. Geneva, Switzerland: World Economic Forum.
5. OECD. (2024). *Education at a glance 2024: OECD indicators*. Paris, France: OECD Publishing.
6. OECD. (2023). *Skills outlook 2023: Skills for a resilient green and digital transition*. Paris, France: OECD Publishing.
7. Pascucci, F., Savelli, E., & Gistri, G. (2023). How digital technologies are changing marketing: Evidence from a qualitative investigation. *Italian Journal of Marketing*, 27–58. <https://doi.org/10.1007/s43039-023-00063-6>

OLIV TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI ASOSIDA BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA'MINLASH

Masharipova Maksuda Beknazarovna,

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Global iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanishi, raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi va mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishi oliy ta'lim tizimidan mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi institut, balki iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlovchi strategik subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda [1:1].

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda oliy ta'lim bitiruvchilarining bandligi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich sifatida qaralmoqda. Shu bois ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, ish beruvchilar ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2:45].

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, tizimli yondashuv, ilmiy umumlashtirish va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO, ILO va OECD hisobotlari hamda mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi.

Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining nazariy asoslari

Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi ta'lim muassasalari, davlat organlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik tizimini anglatadi. Ushbu integratsiyaning asosiy maqsadi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash hamda bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasini oshirishdan iborat [3:52].

Institutsional mexanizmlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- davlat va xususiy sektor hamkorligi;
- ta'lim dasturlarini ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish;
- dual ta'lim tizimini joriy etish;
- amaliyot va stajirovka dasturlarini kengaytirish;
- bitiruvchilar monitoringi tizimini rivojlantirish;
- universitetlarda karyera markazlari faoliyatini takomillashtirish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi kuchli bo'lgan davlatlarda yoshlar ishsizligi darajasi nisbatan past bo'ladi [4:77].

Bitiruvchilar bandligini ta'minlashning institutsional mexanizmlari

Bitiruvchilar bandligini oshirishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Dual ta'lim tizimi.

Dual ta'lim modeli nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ushbu tizimda talabalar ta'lim olish jarayonida korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o'taydi va real ish tajribasiga ega bo'ladi [5:36].

2. Karyera markazlari faoliyati.

Universitetlarda tashkil etilgan karyera markazlari talabalar va ish beruvchilar o'rtasidagi vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Ular bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari, kasbiy maslahatlar va ishga joylashtirish xizmatlarini tashkil etadi.

3. Ish beruvchilar bilan strategik hamkorlik.

Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda korxona va tashkilotlar vakillarining ishtiroki bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Bu esa mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash imkonini yaratadi [6:91].

4. Raqamli monitoring tizimlari.

Bitiruvchilarning bandlik holatini muntazam kuzatish ta'lim sifati va dasturlar samaradorligini baholash imkonini beradi. Monitoring natijalari asosida o'quv rejalari takomillashtiriladi.

1-jadval. O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni (2022–2024 yy.).

Yil	Bitiruvchilar soni (ming nafar)
2022	102,4
2023	184,1
2024	211,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni 2022–2024 yillar davomida ikki baravardan ortiq oshgan. Bu holat oliy ta'lim tizimining kengayib borayotganini hamda mehnat bozoriga kirib kelayotgan malakali mutaxassislar sonining ortayotganini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim bitiruvchilari sonining o'sishi

O'zbekiston sharoitida integratsiyani rivojlantirish istiqbollari. So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Universitetlar sonining ortishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi va xususiy sektor bilan hamkorlikning kuchayishi mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda [7:18].

Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

- ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga to'liq mos emasligi;
- amaliy mashg'ulotlar ulushining yetarli emasligi;
- ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarining sustligi;
- bitiruvchilar monitoringi tizimining to'liq shakllanmaganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Dual ta'lim dasturlarini keng joriy etish.
2. O'quv rejalari va fan dasturlarini ish beruvchilar ishtirokida ishlab chiqish.
3. Karyera markazlari faoliyatini raqamlashtirish.
4. Bitiruvchilar bandligi bo'yicha milliy monitoring platformasini yaratish. Universitet-korxona-klaster hamkorligini rivojlantirish.

2-jadval. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasi.

Yil	Qamrov darajasi (%)
2021	28,2
2022	36,6
2023	45,9
2024	47,7

Bugungi iqtisodiyotda mamlakatning raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy kuch endi tabiiy boyliklar emas, balki bilim va inson salohiyatidir. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar hamda bulutli texnologiyalar mehnat bozorida talab etilayotgan ko'nikmalarni juda tez o'zgartirib yubormoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimi oldiga yangicha, murakkab vazifalarni qo'yimoqda.

COVID-19 pandemiyasi Markaziy Osiyo davlatlarini masofaviy va aralash ta'limga tez o'tishga majbur qildi. Pandemiyadan keyingi yillarda esa raqamlashtirish shunchaki vaqtinchalik chora bo'lmay qoldi, u davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Rasmiy ma'lumotlar buni yaqqol ko'rsatadi: O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2021-yildagi 25,4 milliondan 2025-yilga borib 36,8 millionga yetdi. Bu aholining 95 foizidan ortig'i tarmoqqa ulangani, ya'ni oliy ta'limni raqamlashtirish uchun zarur negiz allaqachon shakllanganini anglatadi.

Mavzuning dolzarbligini bir necha sabab bilan izohlash mumkin. Avvalo, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortgani sari unga xizmat qiladigan malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham keskin kuchaymoqda. Ikkinchidan, mintaqa davlatlari inson salohiyatini rivojlantirishni asosiy ustuvorlik deb biladi, oliy ta'lim sifati esa iqtisodiy islohotlarning naqadar samarali kechishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, pandemiya yillarida orttirilgan masofaviy ta'lim tajribasi endi barqaror raqamli muhitga aylantirilishi kerak bo'lgan yangi bosqichni ochib berdi.

Ushbu maqolada pandemiyadan keyingi yillarda uchta Markaziy Osiyo davlatining oliy ta'limni raqamlashtirish tajribasi qiyoslab o'rganiladi, ularga xos umumiy muammolar aniqlanadi hamda tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili va qiyosiy yondashuvga asoslanadi.

O'zbekiston modeli. O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirishning o'zagini «Raqamli universitet» loyihasi doirasida yo'lga qo'yilgan HEMIS axborot tizimi tashkil etadi. 2021-yil 1-sentyabrdan bosqichma-bosqich joriy etilgan bu tizim ma'muriy, o'quv, ilmiy va moliyaviy jarayonlarni bir joyda boshqaradi, 35 dan ortiq hisobot esa endi faqat elektron ko'rinishda shakllantiriladi. Islohotlarning samarasi ko'zga tashlanib turibdi: bugun respublikada 211 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, ulardan 112 tasi davlat, 30 tasi xorijiy va 69 tasi nodavlat muassasasidir. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 9 foizdan 43 foizga ko'tarildi, 2024/2025 o'quv yilida esa davlat muassasalarining o'zida 1 million 167 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda.

Bu ishlarning huquqiy asosini «Raqamli O'zbekiston 2030» strategiyasi (Prezident Farmoni PF-6079-son, 2020-yil) va oliy ta'limni isloh qilishga bag'ishlangan PF-81-son Farmon (2024-yil 24-may) tashkil etadi. Ikkinchi hujjatga ko'ra, davlat buyurtmasi parametrlari endi

mehnat bozorining talab prognozi asosida, to'rt yillik davrga belgilanmoqda. Bu qadam oliy ta'limni iqtisodiyotning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'lashga xizmat qiladi.

HEMIS tizimi amalda bir qancha qulaylik keltirdi. Endi bitiruvchilar diplom va uning ilovasini elektron tarzda oladi, to'lov-kontrakt shartnomalari ham to'liq raqamli ko'rinishga o'tdi. Guruh jurnali, dars jadvali, reyting daftarchasi va davomat hisobotlari kabi o'quv hujjatlari elektronlashtirildi. Natijada qog'ozbozlik kamaydi, boshqaruv esa shaffofroq bo'ldi. Yaqin kelajakda yagona elektron baza va EduBilling tizimi orqali moliyaviy jarayonlarni butunlay avtomatlashtirish ko'zda tutilgan.

Qozog'iston modeli. Qozog'iston raqamli iqtisodiyot indeksi bo'yicha mintaqadagi yetakchi davlatlardan biri bo'lib qolmoqda va oliy ta'limni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishni jadallashtirdi. «Digital Kazakhstan» davlat dasturi doirasida masofaviy ta'lim platformalarini rivojlantirish, universitetlarga ko'proq mustaqillik berish hamda Bolonya tizimi tamoyillarini chuqur joriy etish bu davlat tajribasiga xos jihatlardir. Qozog'iston modeli bozor mexanizmlari va muassasalarning mustaqilligiga tayanadi: ko'plab universitetlar o'z o'quv dasturlarini o'zi shakllantirish va xalqaro reyting talablariga moslash imkoniga ega.

Bunday yondashuvning kuchli tomoni shundaki, universitetlar mehnat bozoridagi o'zgarishlarga tez moslasha oladi. Ammo markazlashuv sust bo'lgani sababli ta'lim sifati bo'yicha yagona milliy me'yorni saqlab qolish qo'shimcha nazorat talab qiladi. Aynan shu jihat O'zbekiston va Qozog'iston modellari orasidagi asosiy farqni belgilaydi.

Qirg'iziston modeli. Qirg'iziston moliyaviy imkoniyatlari cheklangan bo'lishiga qaramay, xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va DVV International ko'magida raqamli ta'lim negizini qurmoqda. Bishkekda mintaqaviy markazlar orqali kattalar ta'limi va umr bo'yi o'qish yo'nalishida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu model ko'proq tashqi ko'mak va mintaqaviy hamkorlikka tayanadi.

1-jadval. Uch davlat raqamlashtirish modelining qiyosiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Qozog'iston	Qirg'iziston
Asosiy platforma	HEMIS (Raqamli universitet)	Digital Kazakhstan platformalari	Xalqaro donorlik loyihalari
Model turi	Markazlashgan	Bozor va avtonomiya	Tashqi hamkorlik
Huquqiy asos	PF-6079, PF-81	Digital Kazakhstan dasturi	Milliy ta'lim strategiyasi
Ustuvorlik	Yagona axborot tizimi	Xalqaro integratsiya	Kadrlar va lifelong learning

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, uch davlatni bir narsa birlashtiradi: pandemiya so'ng raqamlashtirish ularning barchasida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Farq esa uni amalga oshirish sur'ati va tanlangan yo'lda seziladi. O'zbekiston markazlashgan yagona axborot tizimiga, Qozog'iston bozor va muassasalar mustaqilligiga, Qirg'iziston esa xalqaro sheriklarning ko'magiga ko'proq suyanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limni yangilash Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror iqtisodiy o'sishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagilarni tavsiya etamiz.

1) O'quv dasturlariga sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va dasturlash kabi raqamli ko'nikmalarni tizimli ravishda kiritish;

2) Universitet-korxona hamkorligini kuchaytirish va amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kengaytirish;

3) Mintaqaviy hamkorlikni qo'shma o'quv dasturlari, ilmiy almashinuv va yagona raqamli platformalar orqali rivojlantirish;

4) Raqamli tengsizlikni kamaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish;

5) Oliy ta'lim axborot tizimlarida kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini ta'minlash.

Bu tavsiyalar bir-birini to'ldiradi. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish kadrlar salohiyatini

oshiradi, universitet va korxona hamkorligi ta'limni amaliyotga yaqinlashtiradi, mintaqaviy hamkorlik esa resurslarni birlashtirib umumiy samaraga olib keladi. Ularni alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida joriy etsak, eng yaxshi natijaga erishamiz.

Xullas, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limni yangilash faqat texnologik emas, ayni paytda tashkiliy va mazmuniy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Bu ishlar inson salohiyatini oshirib, mintaqa iqtisodiyotini bilimga tayangan barqaror taraqqiyot yo'liga olib chiqadi. Bundan keyingi tadqiqotlarda har bir davlat modelining iqtisodiy samarasini aniq raqamlar bilan o'lchab baholash foydali bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari (2021–2025-yillar). stat.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil hisobotlari. gov.uz/edu
4. UNDP. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: sun'iy intellektdan foydalanish uchun raqamli tayyorlik. 2025.
5. United Nations, Department of Economic and Social Affairs (UN DESA). E-Government Development Index. New York, 2024.
6. "Digital Kazakhstan" davlat dasturi. Ostona, 2021.

ENHANCING THE IMAGE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION: THE CASE OF THE “STUDY IN UZBEKISTAN” PLATFORM

Gaziev Saidjalolkhan Saydaliyevich,

*Center for Higher Education Development and
Global Cooperation, Uzbekistan*

In recent years, the rapid development of digital technologies has had a profound impact on all spheres of society, including the higher education system. Intensifying competition in the education market, increasing international student mobility, and applicants' growing reliance on digital information sources when selecting higher education institutions have made it essential for universities to effectively establish and promote their institutional image in the digital environment.

The image of a higher education institution is a multifaceted concept that reflects public perceptions of its educational quality, research capacity, infrastructure, as well as its reputation among society, prospective students, employers, and international partners [3:33]. In the academic literature, image (brand image) is defined as the set of perceptions that currently exist in the minds of consumers or users, whereas brand identity is regarded as a long-term and stable concept [3:34]. In international practice, the purposeful development of an organization's or a country's image is examined through the concept of competitive identity, according to which image is not formed by chance but is the outcome of a consistent strategic process [1]. Within the field of education, this approach has evolved in close connection with the theory of nation branding [2].

In Uzbekistan, this approach is increasingly being implemented in practice. One of the key directions for expanding the international activities of higher education institutions and strengthening their reputation among external stakeholders is the digitalization of processes related to international student admissions. The “Study in Uzbekistan” platform, developed within the framework of this research, is specifically designed to digitalize the admission process for international students by providing an integrated online application system.

In the context of digital transformation, new mechanisms for institutional image formation are emerging. The digital footprint created through institutional digital platforms, web resources, and online services has become as significant as traditional reputation-building factors in shaping the image of higher education institutions [3:38].

At the same time, the practical mechanisms for enhancing the image of higher education institutions—particularly through the implementation of real digital platforms—have not been sufficiently explored in the existing academic literature. This gap determines the scientific novelty of the present study. Therefore, the objective of this research is to provide a theoretical justification for the mechanisms of enhancing the image of higher education institutions in the context of digitalization and to propose practical solutions for their effective implementation.

Research methodology. The study employed the following research methods. The theoretical analysis method was used to conduct a systematic review of the existing scientific literature

on higher education institutional image, branding theory, and digital transformation [3], [4]. Within the framework of the case study method, the “Study in Uzbekistan” platform developed as part of this research was examined as a practical case. The platform is designed to digitalize the admission process for international students, including online application submission, document uploading, and application review procedures.

The comparative analysis method was applied to compare the impact of traditional paper-based admission procedures and digitalized admission processes on the institutional image of higher education institutions. This comparison was based on existing practices of digitalizing administrative and management processes in higher education institutions [4:198]. In addition, the document analysis method was employed to examine the functional requirements specified in the draft resolution and the Technical Specification (TS) developed for the platform, which served as the practical foundation of the research.

The findings of the study demonstrate that the digitalization of the admission process has a positive impact on the image of higher education institutions in several key aspects.

First, it accelerates the admission process by simplifying electronic application submission and online document verification procedures, thereby significantly reducing the time required for applicants to complete the admission process [4:197].

Second, it enhances transparency. The ability to monitor application status and admission results in real time strengthens applicants’ trust and confidence in the institution [3:52].

Third, it expands international outreach. Providing international applicants with the opportunity to submit applications remotely improves the institution’s visibility and accessibility at the global level.

Fourth, it contributes to the development of a modern institutional image. The availability of digital services positions the institution as a technologically advanced organization, which is recognized as one of the key factors in building a strong university brand image [3:41].

Furthermore, the functional requirements specified in the draft resolution and the Technical Specification (TS) developed for the “Study in Uzbekistan” platform have been fully implemented in practice. This has ensured the stable operation of the system and facilitated its user-friendly adoption by applicants and other stakeholders.

The findings of this study confirm that digitalization is not merely a technical process but also a strategic instrument for institutional image management in higher education institutions [1]. By digitalizing the admission process, higher education institutions not only improve their internal operational efficiency but also establish a positive institutional image among external stakeholders, including prospective students, parents, and international partners.

However, the effectiveness of these mechanisms depends not only on the availability of technological solutions but also on their usability, reliability, and continuous improvement. Therefore, future research is recommended to incorporate statistical data on platform usage as well as the results of user satisfaction surveys to provide a more comprehensive evaluation of the platform’s effectiveness.

In conclusion, the digitalization of admission processes represents one of the most effective mechanisms for enhancing the image of higher education institutions in the era of digitalization. The “Study in Uzbekistan” platform, developed within the framework of this research, serves as a practical implementation and successful demonstration of this mechanism.

REFERENCES:

1. Anholt, S. (2007). *Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
2. Gudjonsson, H. (2005). *Nation Branding. Place Branding*, 1(3), 283–298.

-
3. Ikramov, M. A., Eshmatov, S. A., & Jalilov, J. G. (2021). Branding: A Textbook. Tashkent: Innovative Development Publishing House. 276 p.
 4. Improving the Mechanisms of Educational Process Management under the Conditions of Higher Education Digitalization. (2024). In: Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference “Current Issues of Innovative Technologies, Science, and Educational Development in the 21st Century”, 2(2), 195–201.

A COMPREHENSIVE ASSESSMENT MODEL FOR THE CLINICAL PRACTICE BASES OF MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Yuldashev Mukhammad Shukhrat ugli,

*University of Information Technologies named
after Muhammad al-Khwarizmi, Uzbekistan*

In recent years, the digitalization of higher education systems, the introduction of artificial intelligence technologies into educational processes, and data-driven decision-making in management have become one of the priority directions worldwide. In medical higher education institutions in particular, improving the quality of students' clinical practical training alongside theoretical knowledge is one of the most important components of the educational process.

The professional competencies of students pursuing medical education are directly related to the modernity of clinical practice bases, their material and technical provision, the availability of qualified specialists, and the quality of the organization of practical training sessions. For this reason, the assessment of clinical practice bases should not be limited merely to studying the existing infrastructure, but should also comprehensively analyze their impact on learning outcomes.

The Role of Clinical Practice Bases in Medical Higher Education.

Within the system of medical higher education, clinical practice bases constitute an important link in transforming students' theoretical knowledge into practical skills. According to the modern concept of medical education, the quality of physician training depends not only on classroom instruction but is also directly linked to the effectiveness of practical training organized at clinical institutions.

The World Health Organization (WHO) and international medical education standards note that the material and technical provision of clinical practice bases, modern diagnostic and treatment equipment, simulation centers, digital information systems, and the availability of qualified clinical mentors are among the key factors determining the quality of medical education.

Application of Artificial Intelligence Technologies in the Education System.

Today, artificial intelligence (AI) technologies are widely applied in almost all areas of the higher education system. In particular, machine learning, deep learning, natural language processing (NLP), and Learning Analytics technologies serve as important tools for personalizing the learning process, forecasting academic outcomes, and monitoring the quality of education.

In medical education, artificial intelligence technologies are being effectively applied in the following areas:

- management of clinical simulations;
- virtual patient systems;
- automatic assessment of student knowledge;
- clinical decision support;
- analysis of practical training sessions;
- monitoring of education quality.

Because these technologies are capable of processing large volumes of data in real time, identifying complex dependencies, and generating forecasts, they are recognized as one of the effective tools for managing education quality.

Artificial Intelligence Model.

The assessment is based not solely on a formula, but also on a machine learning algorithm.

Model:

$$Y = f(X, \theta)$$

where:

- Y — the rating of the clinical practice base;
- X — the 30 indicators;
- θ — the model parameters.

The following machine learning algorithms are recommended:

- Random Forest
- XGBoost
- CatBoost
- LightGBM

These algorithms are distinguished by their high accuracy when working with large volumes of data and their ability to identify complex dependencies among indicators.

Advantages of the Proposed Model.

The proposed model differs from traditional assessment methods in the following respects:

- Comprehensive assessment — 30 indicators are combined into a single index;
- AI-based forecasting — quality indicators are predicted in advance;
- Real-time monitoring — data is continuously updated;
- Decision support — recommendations for management are generated automatically;
- Reduced subjectivity — assessment is carried out on a data-driven basis;
- Resource optimization — it is determined which clinical base or direction requires investment.

V. Conclusion.

In this study, a comprehensive assessment model for the clinical practice bases of medical higher education institutions, based on artificial intelligence technologies, was developed. The proposed model makes it possible to integrate, within a single system, the material and technical provision, clinical infrastructure, teaching staff potential, education quality, digital infrastructure, and student feedback of clinical practice bases.

In the course of the study, 30 main assessment indicators were formulated, and on their basis a method for calculating an integral quality index was proposed. This index enables an objective assessment of the overall state of clinical practice bases and allows comparison among them.

The scientific novelty of the proposed model lies in the integration of assessment criteria with artificial intelligence technologies, the use of multi-criteria assessment methods, and the development of an intelligent decision-support system. The results of experimental testing showed that the proposed model is an effective tool for the rapid and objective assessment of the state of clinical practice bases, for identifying existing problems, and for making well-grounded management decisions to address them.

REFERENCES:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
3. Bishop, C. M. (2006). *Pattern Recognition and Machine Learning*. Springer.
4. UNESCO. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO.

5. World Health Organization (WHO). (2021). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. Geneva: WHO.
6. World Federation for Medical Education (WFME). (2023). Basic Medical Education: WFME Global Standards for Quality Improvement. Copenhagen.
7. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. *EDUCAUSE Review*, 46(5), 30–40.

GENERATIV SUN'IIY INTELLEKT SHAROITIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNING INNOVATSION MODEL: ARM BILAN INTEGRATSIYALASHGAN WEB-QUEST TEXNOLOGIYASI

Raxmanova Iroda Omiljonovna,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O'zbekiston*

Bugungi axborot jamiyatida oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng jiddiy xavflardan biri – bo'lajak pedagoglarning raqamli illuziyaga tushib qolishidir. Generativ sun'iy intellekt (ChatGPT, Gemini, Claude) vositalarining ommalashuvi natijasida talabalar tayyor matnlarni osonlikcha ko'chirib olishni o'zlashtirgan bo'lsalar-da, ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, ishonchliligini tekshirish va original xulosa chiqarish kompetensiyasiga ega emaslar.

Ayniqsa, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar ertaga maktab yoki litseylarda iqtidorli o'quvchilar bilan tadqiqot ishlari olib borishi, ularni fan olimpiadalariga tayyorlashi lozim. Axborotni filtrlay olmaydigan va kognitiv yuklamani boshqara olmaydigan o'qituvchi zamonaviy o'quvchining ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, Veb-kvest texnologiyasiga shunchaki “qiziqarli dars o'tish usuli” yoki “internetdan ma'lumot qidirish” sifatida qarash o'zini oqlamaydi. Maqolada ilgari surilayotgan yondashuvga ko'ra, Veb-kvest – bu OTTning Axborot-resurs markazi (ARM) bilan uzviy bog'langan, bo'lajak o'qituvchini qat'iy belgilangan axborot maydonida mustaqil qaror qabul qilishga majburlaydigan va akademik halollikni o'rgatadigan kognitiv trenajyordir.

Asosiy qism. Metodik tayyorgarlikda Web-Quest 3.0 va xorijiy tajriba integratsiyasi.

B. Dodge tomonidan 1995-yilda yaratilgan klassik veb-kvest (Web-Quest 1.0) modeli faqat qidiruv tizimlariga asoslangan edi. Bugungi kunda bu yondashuv eskirgan. AQSh Oliy ta'lim kutubxonachilari assotsiatsiyasining (ACRL) “Axborot savodxonligi ramkasi” standartiga muvofiq, bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligi Web-Quest 3.0 (Ilmiy-tadqiqot va verifikatsiya kvesti) modeliga o'tkazilishi shart.

Bunda OTTlardagi kutubxonalar shunchaki resurs saqlash joyi emas, balki kvestlarning asosiy ishchi platformasiga aylanadi. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlaridagi amaliyotga joriy etilgan “Embedded Librarianship” (Ta'lim jarayoniga biriktirilgan kutubxonachilik) instituti orqali kutubxona hodimlari mutaxassislik kafedralariga biriktiriladi. Ular professor-o'qituvchilar bilan birgalikda bo'lajak pedagoglar uchun loyihaviy yondashuvga asoslangan veb-kvestlarni ishlab chiqadi va axborot qidirish jarayonida ularga ilmiy bazalarda (Scopus, ScienceDirect, milliy resurslar) to'g'ri navigatsiya qilishni o'rgatadi.

Veb-kvest asosida kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda Web-Quest 3.0 texnologiyasi quyidagi qat'iy didaktik bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

Strategik tavsiyalar:

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini veb-kvestlar orqali oshirish bevosita OTT rahbariyati va ARM boshqaruvining tizimli ishlashiga bog'liq. Shu maqsadda quyidagi qadamlarni amalga oshirish belgilangan:

1. O'quv yuklamalarini maqsadli yo'naltirish: Pedagogika yo'nalishi talabalarining Mustaqil ta'lim ishlari (MBI) hajmining kamida 50 foizini ARMning elektron resurslariga bog'langan Web-Quest 3.0 formatida shakllantirish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi zarur. Bu talabalarining izlanish ko'nikmalarini oshirish bilan birga, davlat tomonidan xarid qilingan xalqaro ilmiy bazalar rentabelligini ta'minlaydi.

2. "Embedded Librarian" shtatlarini joriy etish: ARMlar tuzilmasini qayta ko'rib chiqib, fakultetlarga biriktiriladigan "Axborot navigatorlari" (veb-kvest dizaynerlari) shtatlarini shakllantirish. Ular professor-o'qituvchilarga metodik yordamchi sifatida xizmat qiladi.

3. Plagiat va SI-Detektorlar integratsiyasi: Bo'lajak o'qituvchi o'z o'quvchilarining ishini xolis baholay olishi uchun, avvalo o'zi akademik halollik filtridan o'tishi shart. OTTlardagi mavjud Antiplagiat tizimlarini zudlik bilan sun'iy intellekt generatsiyasini aniqlovchi (AI-Detection) modullar bilan boyitish talab etiladi.

4. Mikro-malaka (Micro-credentials) tizimi: O'quv jarayonida murakkab ilmiy veb-kvestlarni muvaffaqiyatli yakunlagan va axborot savodxonligini namoyish etgan bitiruvchilarga xalqaro standartlarga mos keluvchi raqamli nishonlar (Digital Badges) berish amaliyotini yo'lga qo'yish. Bu ularning ish beruvchilar (Tegishli vazirliklar, ta'lim tashkilotlari) oldidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Sun'iy intellekt va ma'lumotlar almashinuvi avj olgan davrda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning qancha ma'lumot yod olganligi bilan emas, balki axborotni qanchalik to'g'ri baholay olishi va amaliyotda samarali foydalana olishi bilan o'lchanadi. OTT Axborot-resurs markazlari infratuzilmasiga tayangan Web-Quest 3.0 texnologiyasi bo'lajak pedagoglar uchun shunchaki ta'lim metodi emas, balki "kognitiv xavfsizlik" va akademik halollik vositasidir.

Ushbu maqolada ilgari surilgan strategik yondashuvlarni OTTlar amaliyotiga tizimli joriy etish – pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishning va milliy ta'lim tizimida innovatsion muhitni yaratishning asosiy kafolati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Association of College and Research Libraries (ACRL). (2015). Framework for Information Literacy for Higher Education. American Library Association.
2. SCONUL Working Group on Information Literacy. (2011). The SCONUL Seven Pillars of Information Literacy: Core Model for Higher Education. London: SCONUL.
3. Kvenild, H., & Calkins, K. (Eds.). (2011). Embedded Librarians: Moving Beyond One-Shot Instruction. Association of College and Research Libraries.
4. Lo, L. S. (2023). The CLEAR path: A framework for enhancing information literacy through prompt engineering. *The Journal of Academic Librarianship*, 49(4), 102720.
5. Mackey, T. P., & Jacobson, T. E. (2014). *Metaliteracy: Reinventing Information Literacy to Empower Learners*. Neal-Schuman Publishers.
6. Dodge, B. (1995). WebQuests: A technique for Internet-based learning. *Distance Educator*, 1(2), 10-13.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISHNING MODEL VA SAMARADORLIK MEZONLARI

To'rayev Adxam Akram o'g'li,

*Oliy ta'limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O'zbekiston*

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi, AKT texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, shuningdek sun'iy intellekt va bulutli platformalarning ta'limga kirib kelishi o'quv jarayonining mazmuni va uslubiya-tini tubdan yangilamoqda. Endilikda ta'limning asosiy vazifasi tayyor bilim berishdan ko'ra, shaxsda mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini boshqarish, tanqidiy fikrlash va uzluksiz rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu bois raqamli muhitda mustaqil ta'limni ilmiy asoslangan pedagogik model orqali tashkil etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim oluvchilarga vaqt-makon chegarasiz resurslardan foydalanish, o'z ta'lim yo'lini belgilash, interaktiv hamkorlik qurish va natijalarni tezkor kuzatish imkonini beradi. Biroq amaliyot ko'rsatishicha, faqat texnologiyaning mavjudligi ta'lim sifatini oshirmaydi — uning samarasi pedagogik maqsadga muvofiqligi, didaktik asoslanganligi va mustaqil ta'lim jarayoniga tizimli singdirilishiga bog'liq. Shu tufayli raqamli imkoniyatlarni pedagogik loyihalashtirish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifaga aylanmoqda.

Mustaqil ta'lim masalasi pedagogika va didaktikada ilgari ham o'rganilgan bo'lsa-da, raqamli sharoitda uni loyihalashtirish, strukturaviy modelni yaratish, pedagogik shart-sharoitlari va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish borasida hali kompleks yondashuv yetishmaydi. Oliy ta'limdagi islohotlar ham talabalarning mustaqil ta'lim ulushini oshirish, raqamli resurslardan foydalanish va individual yondashuvni kuchaytirishni taqozo etadi. Shu asosda tadqiqotning maqsadi — raqamli texnologiyalar muhitida mustaqil ta'limni pedagogik loyihalashtirishning strukturaviy-funksional modelni yaratish hamda uning samaradorligini aniqlovchi mezonlar va diagnostik metodikani ilmiy asoslashdan iborat. Tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida modelning tarkibiy bloklari tavsiflanib, uni baholash uchun motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va raqamli kompetentlik mezonlari taklif etiladi.

XXI asr jamiyatining raqamli transformatsiyasi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar, LMS tizimlari va raqamli resurslarning keng qo'llanilishi ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini yangicha ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunday sharoitda mustaqil ta'lim talabaning kasbiy-shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim jarayon sifatida ahamiyat kasb etadi, shu bois uni raqamli muhitda ilmiy asosda loyihalashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Pedagogik loyihalashtirish — ta'lim tizimining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini o'zaro bog'liq holda oldindan rejalashtirish texnologiyasi bo'lib, jarayonni tasodifiy emas, balki aniq maqsad va mezonlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim esa talabaning bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan uzluk-

siz faoliyati bo'lib, o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va raqamli axborot bilan ishlash kompetensiyalarini ham qamrab oladi. Raqamli ta'lim muhiti — elektron kutubxonalar, virtual laboratoriyalar, adaptiv tizimlar va sun'iy intellekt xizmatlarini birlashtirgan integrallashgan pedagogik makon bo'lib, talabaga istalgan vaqtda o'quv materiallaridan foydalanish, o'z sur'atini tanlash va tezkor teskari aloqa olish imkonini beradi. Modelning nazariy asosi bir necha yondashuvlar integratsiyasiga tayanadi: tizimli yondashuv mustaqil ta'limni o'zaro bog'liq elementlar (maqsad, mazmun, metod, vosita, subyekt, natija) yig'indisi sifatida ko'radi; faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvga ko'ra bilim talabaning faol izlanishi jarayonida shakllanadi; kompetensiyaviy yondashuv natijalarni bilim hajmi emas, amaliy qo'llash qobiliyati bilan baholaydi; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual ehtiyojlarini hisobga oladi, bunda o'qituvchi bilim manbai emas, balki jarayon dizayneri va fasilitatori vazifasini bajaradi.

Loyihalashtirishning didaktik negizini ilmiylik, tizimlilik, individuallashtirish, moslashuvchanlik, interaktivlik va refleksivlik tamoyillari tashkil etadi. Jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: ehtiyojlarni diagnostika qilish → maqsad belgilash → mazmunni modullashtirish → vositalarni tanlash → faoliyatni tashkil etish → monitoring → yakuniy baholash va refleksiya. Taklif etilgan model beshta blokdan iborat: Maqsadli blok — mustaqil ta'limning maqsadi, vazifalari va shakllantiriladigan kompetensiyalarni davlat standartlari va mehnat bozori talablariga muvofiq belgilaydi. Mazmuniy blok — o'quv modullari, elektron resurslar, video ma'ruzalari, keyslar va loyiha topshiriqlarini modullilik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida shakllantiradi. Texnologik blok — LMS, bulutli xizmatlar, sun'iy intellekt vositalari hamda "flipped classroom", loyiha metodi, adaptiv o'qitish kabi texnologiyalarni birlashtirib, mustaqil faoliyatni boshqarish va monitoring qilishni ta'minlaydi. Tashkiliy-pedagogik blok — raqamli infratuzilma, o'qituvchining raqamli kompetentligi, talaba motivatsiyasi, teskari aloqa va akademik halollik kabi amaliy shart-sharoitlarni qamrab oladi. Diagnostik-natijaviy blok — motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va raqamli kompetentlik mezonlari asosida modelning samaradorligini baholash mexanizmini o'z ichiga oladi. Modelning amaliy mexanizmi izchil bosqichlarda amalga oshadi: dastlab talabalarning tayyorgarligi diagnostika qilinadi, so'ng maqsad va mazmun aniqlanadi, tegishli texnologiya va metodlar tanlanadi, jarayon monitoring qilinadi va yakunda natijalar baholanib, refleksiya asosida model takomillashtiriladi.

Modelning ilmiy yangiligi shundaki, raqamli texnologiyalar bu yerda qo'shimcha vosita emas, balki mustaqil ta'limni loyihalashtirishning integral qismi sifatida qaraladi. Bu esa ta'lim maqsadlari, mazmuni, vositalari va baholash tizimini yagona mexanizmga birlashtirib, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish, ta'limni individuallashtirish hamda oliy ta'limda raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Pedagogik modelning samaradorligini aniqlash tadqiqotning muhim bosqichi hisoblanadi. U qo'yilgan maqsadlarga erishish darajasi hamda talabalarning mustaqil ta'lim kompetentligidagi ijobiy o'zgarishlar orqali baholanadi. Baholash metodikasi diagnostik, kompetensiyaviy, tizimli va natijaga yo'naltirilgan yondashuvlar integratsiyasiga asoslanib, nafaqat yakuniy natijani, balki jarayonning dinamikasini ham kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Samaradorlik quyidagi beshta mezon asosida baholanadi:

Motivatsion mezon — talabaning mustaqil ta'limga bo'lgan ichki ehtiyoji, raqamli vositalarga qiziqishi va o'quv faoliyatidagi tashabbuskorligini tavsiflaydi. Indikatorlar: ichki motivatsiya, platformalardan muntazam foydalanish istagi, mas'uliyatli munosabat, kasbiy rivojlanishga intilish. So'rovnoma, testlar va kuzatuv orqali aniqlanadi.

Kognitiv mezon — nazariy bilim, axborotni izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatini o'lchaydi. Elektron testlar, nazorat ishlari va keys-topshiriqlar orqali baholanadi.

Operatsion-faoliyat mezoni — mustaqil ta'limni amaliy tashkil etish, LMS va raqamli resurslardan foydalanish, o'quv faoliyatini rejalashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Amaliy topshiriqlar, elektron portfolio va ekspert baholari orqali aniqlanadi.

Refleksiv mezon — talabani o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘zlashtirishni baholash va kamchiliklarni bartaraf etish strategiyasini shakllantirish qobiliyatini ko‘rsatadi. Reflektiv esse, portfolio va suhbat orqali o‘lchanadi.

Raqamli kompetentlik mezoni — raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar va sun‘iy intellekt vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, axborot xavfsizligiga rioya qilish va raqamli kontent yaratish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: mustaqil ta‘lim samaradorligi raqamli texnologiyalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning pedagogik jihatdan asosli loyihalashtirishi bilan belgilanadi; taklif etilgan model maqsad, mazmun, texnologiya va baholash tizimini yagona mexanizmga integratsiyalaydi; kompleks mezonlar va diagnostik vositalar asosidagi baholash natijalarning ishonchliligini ta‘minlaydi; raqamli muhitda tashkil etilgan mustaqil ta‘lim talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va raqamli kompetentligini rivojlantiradi. Taklif etilgan model va uni baholash metodikasi oliy ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘limni takomillashtirish hamda ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yil-larga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste‘dod, 2008. – 180 b.
6. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 279 b.
7. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
8. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000. – 127 b.
9. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.
10. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009.
11. Aripov M.M., Muhammadiev J.O‘. Informatika, axborot texnologiyalari. – Toshkent: Universitet, 2005.
12. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2007.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,

O'ZMU Jizzax filiali, O'zbekiston

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, jumladan oliy ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat mavjud jarayonlarni raqamlashtirish, balki ta'lim paradigmasini tubdan qayta qurish, yangi pedagogik modellarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutadi [1], [2].

Bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim platformalari oliy ta'lim muassasalariga (OTM) o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, ta'limga kirishni kengaytirish va global raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini beradi [2], [3]. COVID-19 pandemiyasi raqamli transformatsiya zarurligini yanada kuchaytirdi va ko'plab OTMlarni tezkor ravishda onlayn ta'limga o'tishga majbur qildi [8], [13]. Ushbu tajriba raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari bilan bir qatorda, infratuzilma yetishmasligi, o'qituvchilar va talabalarning tayyorgarligi, raqamli tengsizlik kabi jiddiy muammolarni ham yuzaga chiqardi [5], [8].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya kompleks yondashuvni talab qiladi: strategik rejalashtirish, raqamli liderlik, infratuzilma investitsiyalari, kadrlar malakasini oshirish va ma'lumot boshqaruvi tizimlarini joriy etish [1], [7], [9]. Turli mamlakatlar va mintaqalar o'z kontekstiga mos strategiyalarni ishlab chiqmoqda, ammo umumiy tamoyillar va eng yaxshi amaliyotlar mavjud [5], [13], [12]. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Raqamli transformatsiya bu jarayonning muhim qismi bo'lib, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu tezis xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari, muammolari va samarali strategiyalarini ko'rib chiqadi hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar taqdim etadi.

Xalqaro tadqiqotlar va amaliyot raqamli transformatsiyaning bir nechta ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'liq bo'lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Raqamli transformatsiya an'anaviy o'qitish modellarini tubdan o'zgartirmoqda. Gibril (blended) va HyFlex modellari, shaxsiylashtirilgan ta'lim, modul tizimi va mikrokreditlar kabi yangi yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt pedagogik innovatsiyalarga turtki beradi va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini ta'minlaydi [1], [2].

Aralash ta'lim modeli an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va onlayn ta'limni birlashtiradi, bu esa moslashuvchanlikni oshiradi va talabalarning turli o'rganish uslublariga javob beradi [2], [10]. HyFlex modeli esa talabalarga bir vaqtning o'zida yuzma-yuz, sinxron onlayn yoki asinxron formatda ishtirok etish imkoniyatini beradi [1]. Shaxsiylashtirilgan ta'lim o'quv tah-

lillari (learning analytics) yordamida har bir talabaning o'zlashtirish darajasini kuzatish va individual o'quv yo'llarini yaratishni ta'minlaydi.

Barqaror va zamonaviy raqamli infratuzilma transformatsiyaning asosiy shartlaridan biridir. Bulutli xizmatlar, o'quv boshqaruv tizimlari (LMS), tizimlararo integratsiya va keng polosali internet kirishiga investitsiya qilish zarur [2], [5]. Afrika mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar infratuzilma va boshqaruv imkoniyatlarining yetishmasligi asosiy to'siq ekanligini ko'rsatdi [5]. Zamonaviy LMS platformalari nafaqat o'quv materiallarini joylashtirish, balki talabalar faoliyatini kuzatish, baholash, muloqot va hamkorlikni ta'minlash uchun ham xizmat qiladi [2], [13]. Bulutli yechimlar xarajatlarni kamaytirish, miqyoslanuvchi va xavfsiz xizmatlarni ta'minlash imkonini beradi [2], [5]. Tizimlararo integratsiya esa turli platformalar va xizmatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi [13].

O'quv tahlillari (learning analytics) va sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, adaptiv o'quv tizimlari va talabalar muvaffaqiyatini bashorat qilish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga talabalarning qiyinchiliklarini erta aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkonini beradi [1]. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berish, avtomatik baholash, virtual yordamchilar (chatbotlar) va o'quv kontentini dinamik ravishda moslashtirishda qo'llaniladi. Biroq, bu texnologiyalarning qo'llanilishi ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik adolat va etik masalalarni ko'taradi [1], [2]. 2.4. Raqamli liderlik va boshqaruv

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati katta darajada raqamli liderlik va strategik boshqaruvga bog'liq. Raqamli yetakchilik, strategik rejalashtirish, ichki kommunikatsiya va innovation madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega [3], [9].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli liderlik transformatsiyani muvaffaqiyatli boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli liderlar o'zgarishlarga ochiq madaniyatni yaratish, xodimlarni jalb qilish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak [9]. Strategik rejalashtirish esa aniq maqsadlar, bosqichma amalga oshirish rejasi va monitoring mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerak [1], [7]. Yuqori rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi va resurslarni ajratish transformatsiya uchun zarur shartdir.

Xalqaro tajriba va tadqiqotlar asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar milliy kontekst, mavjud imkoniyatlar va xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni hisobga oladi. Xalqaro tajriba infratuzilma va keng polosali internetni ustuvor deb hisoblaydi [2], [5]. O'zbekiston OTMlarida zamonaviy raqamli infratuzilmani yaratish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

Barcha OTMlarda yuqori tezlikdagi internet kirishini ta'minlash va tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

Zamonaviy LMS platformalarini joriy etish va tizimlararo integratsiyani ta'minlash;

Bulutli xizmatlar va markazlashgan yechimlar orqali xarajatlarni optimallashtirish;

Talabalar uchun texnik vositalar va internet kirishiga subsidiyalar yoki grant dasturlarini joriy etish [5], [8];

Texnik xizmat ko'rsatish va yangilanishlar uchun doimiy moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish [5], [13];

Raqamli liderlik va institutsional strategiyalar OTMlarda raqamli liderlik va institutsional strategiyalarni shakllantirish orqali transformatsiya samaradorligini oshirish mumkin [3], [7], [9].

Raqamli transformatsiya zamonaviy oliy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat texnologik o'zgarishlar, balki pedagogik, tashkiliy va madaniy transformatsiyani ham o'z ichiga oladi. Xalqaro tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Asosiy ustuvor yo'nalishlar qatoriga pedagogik innovatsiyalar, infratuzilma modernizatsiyasi, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt,

raqamli liderlik, kadrlar malakasini oshirish hamda ma'lumotlar xavfsizligi va etik masalalar kiradi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning barchasi bir vaqtning o'zida rivojlantirilishi kerak. Raqamli transformatsiya jarayonida OTMLar infratuzilma yetishmasligi, raqamli tengsizlik, o'qituvchilar va talabalarning tayyorgarligi, pedagogik va baholash muammolari, boshqaruv va moliyalashtirish qiyinchiliklari hamda ma'lumotlar xavfsizligi kabi jiddiy to'siqlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun strategik rejalashtirish, investitsiyalar, raqamli liderlik, kadrlar tayyorgarligi va hamkorlik zarur.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar infratuzilma modernizatsiyasi, raqamli liderlik va institutsional strategiyalar, o'qituvchilar va talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ma'lumotlar siyosati va etik me'yorlar, bosqichma-bosqich amalga oshirish va pilot loyihalar, xalqaro hamkorlik hamda inklyuziv yondashuvni o'z ichiga oladi. Raqamli transformatsiya uzoq muddatli jarayon bo'lib, u doimiy monitoring, baholash va moslashtirishni talab qiladi.

Muvaffaqiyat nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki strategik viziya, raqamli liderlik, kadrlar tayyorgarligi va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokiga ham bog'liq. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish va milliy kontekstga moslashtirilgan strategiyalarni amalga oshirish orqali raqamli transformatsiyada muhim yutuqlarga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anbarasan, M., et al. (2025). Digital transformation in higher education: a blend of social science, management, and policy perspectives. *Lex localis*. <https://doi.org/10.52152/801549>
2. Rivera-Gutiérrez, E., et al. (2024). Strategic approach to digital transformation in higher education institutions. *ECORFAN Journal*. <https://doi.org/10.35429/ejs.2024.20.11.1.14>
3. Onan, O. (2024). A Qualitative Study on Digital Transformation and Digital Leadership in Higher Education. *Uluslararası sosyal bilgilerde yeni yaklaşımlar dergisi*. <https://doi.org/10.38015/sbyy.1587587>
4. Mexhuani, E. (2024). Adopting Digital Tools in Higher Education: Opportunities, Challenges and Theoretical Insights. *European Journal of Education*. <https://doi.org/10.1111/ejed.12819>
5. Babalola, Y. T., et al. (2024). Managing Digital Transformation in African Higher Education Institutions: Challenges and Opportunities. *International Journal of e-Learning and Distance Education*. <https://doi.org/10.55667/ijede.2024.v39.i1.1333>
6. Aljanazrah, A., et al. (2022). Digital transformation in times of crisis: Challenges, attitudes, opportunities and lessons learned from students' and faculty members' perspectives. *Frontiers in Education*. <https://doi.org/10.3389/feduc.2022.1047035>
7. Hashim, M. A., et al. (2021). Higher education strategy in digital transformation. *Education and Information Technologies*. <https://doi.org/10.1007/S10639-021-10739-1>
8. Cesco, S., et al. (2021). Higher Education in the First Year of COVID-19: Thoughts and Perspectives for the Future. *The International Journal of Higher Education*. <https://doi.org/10.5430/IJHE.V10N3P285>
9. Pařová, D., et al. (2025). Digital Transformation of Higher Education Institutions. *Proceedings of MIPRO 2025*. <https://doi.org/10.1109/mipro65660.2025.11132039>
10. Romero, M., et al. (2022). La transformación digital en la educación superior: el caso de la UOC. *RIED: Revista Iberoamericana de Educación a Distancia*. <https://doi.org/10.5944/ried.26.1.33998>
11. Alenezi, M., et al. (2023). Digital Transformation Blueprint in Higher Education: A Case Study of PSU. *Sustainability*. <https://doi.org/10.3390/su15108204>

-
12. Wang, Y. (2023). Implementing Digital Transformations in Higher Education Following COVID-19: A Norwegian Case Study. In *Digital Transformation in Higher Education*. https://doi.org/10.1007/978-3-031-27758-0_11
 13. Habib, M. (2023). Digital transformation strategy for developing higher education in conflict-affected societies. *Social Sciences & Humanities Open*. <https://doi.org/10.1016/j.ssha.2023.100627>

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Dilnavoz Xusniddinovna

Buxoro davlat texnika universiteti, O‘zbekiston

Hozirgi globallashtirish va sanoatning raqamli transformatsiyasi davrida muhandislik ta’limi tizimiga zamonaviy talablar qo‘yilmoqda. Ayniqsa, mashinasozlik texnologiyasi va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardan nafaqat nazariy bilim, balki ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, dasturiy vositalardan foydalanish hamda innovatsion fikrlash kompetensiyalari talab etiladi.

Bugungi kunda Industry 4.0 konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilmoqda. Aqlli zavodlar, robotlashtirilgan liniyalar va avtomatik boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ham zamonaviy texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirishi zarur. Raqamli dasturiy vositalardan foydalanish orqali talabalar ishlab chiqarish jarayonlarini virtual muhitda modellashtiradi, texnologik operatsiyalarni oldindan sinab ko‘radi va muammolarni tahlil qilishni o‘rganadi [1:45].

Ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar muhandislik ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalarini tadqiq etganlar.

Mechanical Engineering sohasidagi tadqiqotlarga ko‘ra, CAD/CAM texnologiyalari talabalar ijodiy fikrlashi va konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Industry 4.0 konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va robotlashtirish uchun raqamli platformalardan foydalanish muhim omil sifatida qayd etiladi [2:17].

Mahalliy tadqiqotlarda esa raqamli ta’lim vositalari orqali talabalar mustaqil ishlash ko‘nikmalari, texnik tafakkuri va innovatsion faoliyatini rivojlantirish mumkinligi ta’kidlangan.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- taqqoslash va statistik tahlil;
- kuzatish va eksperimental o‘qitish;
- so‘rovnoma va diagnostik testlar;
- grafik va diagrammali tahlil usullari.

Tadqiqot obyekti sifatida mashinasozlik texnologiyasi va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo‘nalishi 2–4 bosqich talabalari olindi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli

Bo‘lajak muhandis kompetentligi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Kompetentlik turi	Mazmuni	Raqamli vosita
Texnik kompetentlik	Chizma va modellash	CAD
Texnologik kompetentlik	CNC va CAM dasturlash	CAM
Analitik kompetentlik	Muhandislik hisoblari	CAE
Axborot kompetentligi	Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash	ERP/MES
Kommunikativ kompetentlik	Onlayn platformalarda ishlash	LMS

Talabalar natijalari

Ko'rsatkich	Dastlabki holat	Tajribadan keyin
CAD dasturlarini bilish	42%	86%
CNC dasturlash ko'nikmasi	35%	81%
3D modellash	40%	88%
Muhandislik tahlili	37%	79%
Avtomatlashtirish tushunchasi	45%	90%

Mashinasozlik texnologiyasi va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo'nalishida o'qitiladigan fanlarda AutoCAD, SolidWorks, Kompas 3D, CATIA, MATLAB, Simulink kabi dasturlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Masalan, SolidWorks dasturi yordamida murakkab mexanik uzellarni yaratish, ularning harakatini modellash va texnik tahlillarni amalga oshirish mumkin. MATLAB va Simulink dasturlari esa avtomatik boshqaruv tizimlarini modellash va matematik hisob-kitoblarni bajarishda qo'llaniladi [3:46]. Bunday dasturlar talabalarni real ishlab chiqarish muhitiga tayyorlaydi hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan virtual laboratoriyalar ham katta pedagogik ahamiyatga ega. Virtual laboratoriyalar orqali talabalar qimmat va murakkab uskunalarsiz turib turli tajribalarni bajarishi mumkin. Ayniqsa CNC dastgohlar bilan ishlashni virtual simulyatsiya orqali o'rganish talabalar xavfsizligini ta'minlaydi va uskunalar bilan ishlash bo'yicha amaliy tajribani oshiradi. Virtual muhitda bajarilgan mashg'ulotlar talabalar bilimini mustahkamlaydi va ularda mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi [4:65].

Shuningdek, Artificial Intelligence texnologiyalarining rivojlanishi muhandislik ta'limida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida talabalar individual tarzda o'qitilishi, bilim darajasi avtomatik baholanishi hamda texnologik jarayonlar prognoz qilinishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga talabalarining innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli dasturiy vositalardan foydalangan holda ta'lim olgan talabalar an'anaviy usulda o'qigan talabalarga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatmoqda. Ayniqsa ularning chizma o'qish, texnologik jarayonlarni loyihalash, CNC dasturlash va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo'yicha kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanadi [5:12]. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar talabalarining ijodiy yondashuvini va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini ham oshiradi [5:15].

Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli dasturiy vositalarning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy CAD/CAM/CAE tizimlari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari muhandislik ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ishlab chiqarish korxonalari uchun zamonaviy texnologiyalarni mukammal biladigan, raqobatbardosh va yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'xtaxo'jayev M.X. Kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Saidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Xodjayev B.X., Abdullaeva M.R. Oliy ta'limda raqamli ta'lim muhitini shakllantirish masalalari. Pedagogik ta'lim, 2021, №4, 45–49-b.
4. Qurbonov S.E. Texnika fanlarini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish metodikasi. Ta'lim va innovatsiyalar, 2022, №2, 62–66-b.
5. Felder R. M., & Brent R. Teaching and learning STEM: A practical guide. Jossey-Bass. 2016.
6. European Commission. Digital competence framework for educators (DigCompEdu). 2022.

GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARINI MATEMATIKA KURSLARIGA INTEGRATSIYA QILISH. MOTIVATSIYA VA O‘ZLASHTIRISH KO‘RSATKICHLARI

Fayzullayeva E‘zoza O‘tkir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Matematika — talabalar orasida eng ko‘p qo‘rquv va tashvish uyg‘otadigan fanlardan biri. Matematik bezovtalik muammosi Ashcraft tomonidan batafsil o‘rganilgan bo‘lib, u nafaqat akademik natijalarni, balki talabalarning kelajakdagi kasb tanlovini ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotladi. An‘anaviy o‘qitish usullarida matematika ko‘pincha jazo va majburiyat sifatida idrok etiladi. Xatolar uchun baho kamaytiriladi, har bir imtihon talabaning layoqatini sinash sifatida qabul qilinadi.

Gamifikatsiya — o‘yin bo‘lmagan kontekstlarga o‘yin elementlarini tatbiq etish[7, 10]. Bu yondashuv so‘nggi 15 yillikda ta‘lim sohasi, ayniqsa STEM fanlarida keng qo‘llanila boshladi. Gamifikatsiya matematika darslarini majburiyatdan imkoniyatga, xatodan tajribaga, raqobatdan hamkorlikka aylantirish salohiyatiga ega. Biroq gamifikatsiya hammaqda va har qanday sharoitda samarali ishlaydi, degan tushuncha xato. Ba‘zi tadqiqotlar gamifikatsiyaning, ayniqsa tashqi motivatsiyaga (ballar, reytinglar) haddan ortiq tayanishning ichki motivatsiyani zaiflashtirishi mumkinligini ko‘rsatdi[6, 658]. Shu sababli ushbu maqolada gamifikatsiyaning qachon va qanday qo‘llanilgandagina samarali bo‘lishini aniqlash asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

Maqolaning maqsadi- adabiyotlar tahlili asosida oliy matematika kurslarida gamifikatsiya elementlarini samarali joriy etishning nazariy modelini yaratish va O‘zbekiston oliy ta‘limi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Gamifikatsiya tushunchasi Deterding tomonidan «o‘yinga xos elementlarni o‘yin bo‘lmagan kontekstlarda qo‘llash» sifatida ta‘riflangan. Eng ko‘p qo‘llaniladigan gamifikatsiya elementlari- ball, daraja, yutuq, reyting jadvali, vazifa va vaqt cheklovi.

Deci va Ryanning o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi (Self-Determination Theory — SDT) gamifikatsiyani psixologik jihatdan asoslaydi. Nazariyaga ko‘ra, inson uchta asosiy psixologik ehtiyojga ega. Muxtorlik, kompetentlik va aloqadorlik. Gamifikatsiya to‘g‘ri tuzilganda ushbu uchala ehtiyojni qondira oladi. Talaba o‘zi uchun vazifa tanlasa (muxtorlik), ballar oshsa (kompetentlik), jamoaviy missiyalarda ishtirok etsa (aloqadorlik).

Csikszentmihalyining «oqim» nazariyasi esa gamifikatsiyaning eng muhim shartini belgilaydi- vazifaning qiyinlik darajasi talabaning mahorat darajasiga mos kelganda «oqim holati» yuzaga keladi. Bu holda talaba vaqtni ham, charchoqni ham unutib, to‘liq g‘arq bo‘ladi. Matematikada bu holat, masala talaba bilimidan bir oz yuqori, ammo erishib bo‘ladigan darajada bo‘lganda vujudga keladi.

Hamari meta-tahlili 24 ta empirik tadqiqotni o‘rganib, gamifikatsiya o‘rtacha 89% hollarda motivatsiyani oshirganini, 62% hollarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilaganini aniqladi. Biroq bu natijalar kontekstga kuchli bog‘liq. Gamifikatsiya qisqa muddatda (bir semestr ichida) yaxshi natija beradi, lekin uzoq muddatda «to‘yish effekti» kuzatilishi mumkin.

Maths tadqiqotlarida Attali va Arieli-Attali gamifikatsiya elementlari (vaziyatli ballar, darhol teskari aloqa) qo'llanilgan matematik mashqlarda talabalar standart mashqlarga nisbatan 2,5 baravar ko'proq masala yechishlari va xatolardan o'rganish ko'rsatkichlari 34% yuqori bo'lganini qayd etdi.

Biroq Lee va Hammer muhim ogohlantirish beradi. Agar gamifikatsiya sirtqi (tashqi mukofot) ga asoslangan bo'lsa va mazmunli o'rganish ta'minlanmasa, talabalar «ball yig'ish mashinasi»ga aylanib, chuqur tushunish o'rniga ball olish uchun eng oson yo'lni qidiradilar. Bu matematikada ayniqsa xavfli, talaba formulani eslab, uni tushunmasdan qo'llay boshlaydi.

Prodigy Math (3–8 sinf), Mathigon, Brilliant.org kabi platformalar matematikani gamifikatsiya qilishning turli modellarini taqdim etadi. Brilliant.org (oliy matematika uchun mos) interaktiv muammolar, vizual izohlar orqali foydalanuvchilarning 72% ini bir yildan ortiq davomida faol saqlashga muvaffaq bo'ldi. Buning asosiy sababi- platforma tashqi mukofotdan ko'ra ichki qiziqishni rag'batlantirishga e'tibor qaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

1. Nazariy tahlil- SDT va Flow nazariyalarini gamifikatsiya bilan bog'liqligini matematik ta'lim kontekstida o'rganish.

2. Meta-tahlil sharhi- Gamifikatsiya va matematika ta'limiga oid 2010–2023 yillardagi empirik tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish (Google Scholar, Scopus, ERIC bazalari).

3. Platforma tahlili- Brilliant.org, Mathigon, Duolingo va Prodigy Math platformalarining pedagogik strukturasi qiyosiy o'rganish.

4. Tavsiya modeli ishlab chiqish- O'zbekiston oliy ta'limi uchun gamifikatsiya modelini nazariy asosda loyihalash.

Natijalar va muhokama. Har bir gamifikatsiya elementi bir xil darajada samarali emas. Adabiyotlar tahlili asosida ularning motivatsiya va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval. Gamifikatsiya elementlarining ta'lim ko'rsatkichlariga ta'siri

Element	Motivatsiyaga ta'sir	O'zlashtirishga ta'sir	Ehtiyot bo'lish kerak
Ball	Yuqori (qisqa)	O'rta	Tashqi motivatsiyaga bog'liqlik xavfi
Reyting jadvali	O'rta	Past	Zaif talabalarni demotivatsiya qilishi
Yutuq	Yuqori	O'rta-yuqori	Mazmunsiz yutuqlar qiziqishni o'ldiradi
Daraja	Yuqori	Yuqori	Optimal qiyinlik darajasini saqlash shart
Missiya	Juda yuqori	Yuqori	Yaxshi scenario kerak
Darhol teskari aloqa	Yuqori	Juda yuqori	Minimal xavf

Reyting jadvali eng ko'p muhokama qilinadigan va ziddiyatli gamifikatsiya elementidir. Landers va Landers tadqiqotiga ko'ra, reyting jadvali yuqori o'rinli talabalar uchun motivatsiyani oshiradi, lekin o'rta va quyi o'rinli talabalar uchun ba'zan teskari ta'sir ko'rsatadi- ular o'zlarini «hech qachon yuqoriga chiqa olmaydi» deb his qilib, faollikdan to'xtaydi.

Matematikada bu muammo yanada keskin, oliy matematika kurslarida talabalar orasidagi bilim tafovuti katta bo'lishi mumkin. Shuning uchun global reyting o'rniga «shaxsiy progress reyting»i (talabani o'z oldingi natijalariga nisbatan o'sishi) ko'proq mos keladi. Bu yondashuv SDT nazariyasidagi muxtorlik ehtiyojini qondiradi va har bir talabani o'z o'sishiga e'tibor qaratishga undaydi.

Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi model taklif etiladi. Modelning asosiy prinsipi- tashqi mukofotdan ichki motivatsiyaga bosqichma-bosqich o'tish.

1-bosqich (1–2 hafta) — Kiritish bosqichi. Har bir masala yechish va video ko‘rish uchun ball. Maqsad: oddiy odatni shakllantirish.

2-bosqich (3–6 hafta) — Mahorat bosqichi. Daraja tizimi va yutuqlar. Har bir mavzuning «ustasi» bo‘lish uchun ma’lum masalalar yechiladi. Maqsad: kompetentlik hissini shakllantirish.

3-bosqich (7–12 hafta) — Hamkorlik bosqichi. Jamoaviy missiyalar va guruh reytingi. Maqsad: aloqadorlik ehtiyojini qondirish va ichki motivatsiyani mustahkamlash.

4-bosqich (13–16 hafta) — Mustaqillik bosqichi. Talaba o‘zi uchun matematik muammo tanlaydi va yechadi. Ball emas, hamkasblarga taqdimot. Maqsad: to‘liq ichki motivatsiyaga o‘tish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, quyidagi hollarda gamifikatsiya matematika ta’limida salbiy natija berishi mumkin.

1. Ba’zi o‘quvchilar vaqt bosimi ostida matematik bezovtalik kuchayadi, natijada o‘zlashtirish pasayadi.

2. Haddan ortiq raqobat. Matematika — o‘z sur’atida o‘rganish talab etadigan fan. Global reyting bardavom raqobat yaratsa, kuchsiz talabalar tizimdan chiqib ketishi mumkin.

3. Sirtqi gamifikatsiya. Darsning mazmunsiz qismlariga (masalan, formulalarni yodlash) ball berish, lekin tushunishni o‘lchamaslik — chuqur o‘rganishga zarar yetkazadi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu nazariy-analitik tadqiqot gamifikatsiya elementlarining oliy matematika ta’limidagi roli va samaradorlik shartlariga oid bir qancha xulosalarni oldi.

Gamifikatsiya oliy matematika ta’limida motivatsiyani oshirish uchun kuchli vosita bo‘la oladi, biroq faqat tashqi mukofot (ball, reyting) ga tayangan gamifikatsiya uzoq muddatda samarasiz yoki zararli bo‘lishi mumkin. SDT va Flow nazariyalari asosida ishlab chiqilgan gamifikatsiya — muxtorlik, kompetentlik va aloqadorlikni uyg‘unlashtirgan — matematik ta’limda eng yuqori natija beradi. Global reyting jadvali o‘rniga shaxsiy progress reyting tizimi matematika ta’limiga ko‘proq mos keladi.

Izlanishlar natijasida bir qancha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. O‘qituvchilar Moodle yoki boshqa LMS tizimlarida «badge» (yutuq) va progress bar funksiyalarini faollashtirishi va har bir mavzuning muhim bosqichlari uchun avtomatik yutuqlar belgilashi lozim.

2. Vaqt cheklovi asosidagi testlarni matematik bezovtalik yuqori bo‘lgan talabalar uchun ixtiyoriy holatga keltirish yoki olib tashlash tavsiya etiladi.

3. Har bir gamifikatsiya elementi joriy etilishidan oldin ushbu savol berilsin. «Bu element talabaning tushunishini oshiradimi yoki faqat faolligini oshiradimi?» Agar javob ikkinchi bo‘lsa, elementni qayta ko‘rib chiqish lozim.

4. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ikkita guruhda (gamifikatsiya qilingan va an’anaviy) nazorat tajribasi o‘tkazib, lokal ma’lumotlarga asoslangan model yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashcraft, M. H. (2002). Math anxiety: Personal, educational, and cognitive consequences. *Current Directions in Psychological Science*, 11(5), 181–185.
2. Attali, Y., & Arieli-Attali, M. (2015). Gamification in assessment: Do points affect test performance? *Computers & Education*, 83, 57–63.
3. Brilliant.org. (2022). Annual Impact Report. San Francisco: Brilliant.org Inc.
4. Csikszentmihalyi, M. (1990). *Flow: The Psychology of Optimal Experience*. Harper & Row.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. Plenum Press.

6. Deci, E. L., Koestner, R., & Ryan, R. M. (1999). A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation. *Psychological Bulletin*, 125(6), 627–668.
7. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. *MindTrek '11 Proceedings*, 9–15.
8. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification. *47th Hawaii International Conference on System Sciences*, 3025–3034.
9. Landers, R. N., & Landers, A. K. (2014). An empirical test of the theory of gamified learning: The effect of leaderboards on time-on-task and academic performance. *Simulation & Gaming*, 45(6), 769–785.
10. Lee, J. J., & Hammer, J. (2011). Gamification in education: What, how, why bother? *Academic Exchange Quarterly*, 15(2), 1–5.

OLIJ TA'LIMDAGI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA EDTECH YECHIMLARNING O'RNI

Ergasheva Nafisa Baxriddinovna,

O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston

Yigirma birinchi asrning birinchi choragiga kelib, global miqyosda axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt (AI) tizimlarining shiddatli rivojlanishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatori oliy ta'lim tizimini ham tubdan transformatsiya qilishni taqozo etmoqda. Oliy ta'limda raqamli transformatsiya — bu shunchaki an'anaviy dars xonalariga kompyuter yoki proyektorlarni o'rnatish emas, balki ta'lim paradigmalarni, o'qitish metodologiyasini va talaba bilan professor-o'qituvchi o'rtasidagi kommunikatsiyani raqamli ekotizim talablari asosida qayta ko'rib chiqish jarayonidir [1, 42-45].

Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchilardan nafaqat fundamental nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi raqamli kompetensiyalarni, muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini va doimiy o'z ustida ishlash (lifelong learning) qobiliyatini talab qilmoqda. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda Educational Technology (EdTech) yechimlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi [2, 112-115]. EdTech yechimlari ta'lim mazmunini vizuallashtirish, individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish hamda talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini monitoring qilish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Biroq, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish jarayoni bir qator muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Bularga professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi, metodik qo'llanmalarining yetishmasligi, an'anaviy va raqamli ta'lim o'rtasidagi muvozanatning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hamda texnik infratuzilma bilan bog'liq masalalarni kiritish mumkin [3, 98]. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni (masalan, fizika, kimyo, biologiya) o'qitishda mavhum konseptlarni vizuallashtirish va laboratoriya ishlarini raqamli muhitga ko'chirish masalasi alohida yondashuvni talab etadi [4, 24-26].

Ushbu tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya sharoitida EdTech yechimlarining pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash, ularni dars jarayonlariga integratsiya qilish metodikasini ishlab chiqish va talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sirini kvantitativ-kvalitativ yondashuvlar orqali baholashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kvantitativ va kvalitativ (mixed-methods) tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Bu yondashuv raqamli

texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'sirini ham statistik ma'lumotlar (miqdoriy), ham subyektiv fikrlar va pedagogik kuzatishlar (sifatiy) orqali har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi [5, 215-218].

Pedagogik eksperiment oliy ta'lim muassasasining talabalari ishtirokida tashkil etildi. Eksperimentda jami 80 nafar talaba ishtirok etdi va ular ikkita teng guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi (40 nafar talaba): Ushbu guruhda mashg'ulotlar an'anaviy ma'ruza va amaliyot shaklida, standart pedagogik uslublar yordamida olib borildi. Eksperimental guruh (40 nafar talaba): Ushbu guruhda dars jarayonlari innovatsion pedagogik texnologiyalar va EdTech yechimlari yordamida tashkil etildi. Jumladan, Learning Management System (LMS - Moodle platformasi), interaktiv virtual laboratoriyalar (PhET va Yenka interfaol simulyatorlari) hamda topshiriqlarni baholash va qayta aloqa o'rnatish uchun sun'iy intellekt dasturlaridan foydalanildi [6, 14-18].

Olingan natijalar oliy ta'limda raqamli transformatsiyaning nafaqat texnik jarayon, balki chuqur pedagogik evolyutsiya ekanligini ko'rsatadi. Avvalgi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, raqamli muhit talabalarining fanga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi [7, 63]. Bizning tadqiqotimiz ham EdTech vositalarining, xususan virtual laboratoriyalarning to'g'ri integratsiyasi talabalarda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash imkonini kengaytirishini isbotladi.

Biroq, raqamli transformatsiya sharoitida o'qitishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish lozim:

Raqamli tengsizlik (Digital Divide): Hamma talabalarda ham yuqori tezlikdagi internet yoki zamonaviy kompyuter texnikasidan foydalanish imkoniyati bir xil emas. Bu holat ba'zan masofaviy topshiriqlarni bajarishda qiyinchilik tug'diradi [8, 48].

Pedagogik yuklama: O'qituvchilar uchun raqamli platformalar materiallarini tayyorlash, videoma'ruzalar yozish va LMS tizimini muntazam yangilab borish an'anaviy darsga qaraganda 2 barobar ko'p vaqt va mehnat talab qiladi [9, 134-136].

Axborot xavfsizligi va plagiat: Sun'iy intellekt matn generatorlarining (masalan, ChatGPT va boshqalar) ommalashishi talabalar tomonidan mustaqil vazifalarni tayyorlashda akademik halollik tamoyillarining buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa baholash tizimini qayta ko'rib chiqishni va kreativ, muammoli, tahliliy topshiriqlar ulushini oshirishni taqozo etadi [10, 5-7].

"Teskari sinfxona" (Flipped classroom) modelini qo'llash orqali biz an'anaviy ma'ruzalardagi vaqtni tejab, uni auditoriyada faol munozaralar, keyslar tahlili va interaktiv guruh ishlariga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldik. Bu esa EdTech vositalaridan o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi va pedagogik samaradorlikni oshiruvchi instrument sifatida foydalanish zarurligini ko'rsatadi [11, 114]. Oliy ta'lim muassasalarida platformali iqtisodiyot va raqamli ekotizim modellarini joriy etish ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning strategik yo'nalishidir [12, 88-91].

Oliy ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish sharoitida innovatsion pedagogik texnologiyalar va EdTech yechimlarini integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishning muqarrar mexanizmi hisoblanadi. O'tkazilgan kvantitativ-kvalitativ tadqiqot natijalari LMS platformalari va interfaol simulyatorlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichini 13.8% ga oshirishini va ularda mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisherov, A. A. (2024). Digitalization of higher education: Challenges and opportunities. Tashkent: Fan va Texnologiya.
2. Bates, A. W. (2019). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. Tony Bates Associates Ltd.
3. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.
4. Karimov, I. T. (2025). Pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 4(1), 22-29.
5. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). Research design: qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.).

-
- SAGE Publications. 6. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. (2013). The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. *Teachers College Record*, 115(3), 1-47.
5. Mirzaqobilov, A. (2026). Platforma iqtisodiyoti samaradorligini oshirish yo'llari. *Jizzax: O'zMU Jizzax filiali nashriyoti*.
6. Nishonov, F. M. (2023). Virtual laboratoriyalardan fizika va tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish metodikasi. *Zonaviy ta'lim*, 11(2), 45-51.
7. Selwyn, N. (2020). *Education and technology: Key issues and debates*. Bloomsbury Publishing.
8. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10. 11. Tojiyev, M., & Ziyadullayev, S. (2024). Oliy ta'limda EdTech yechimlarining pedagogik tahlili. *Pedagogik mahorat*, 3(2), 112-119. 12. Williamson, B. (2017). *Big data in education: The digital future of discourse, policy and practice*. SAGE Publications.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIIY TA'LIM: TIKUVCHILIK KIIYIMLARINI KONSTRUKSIYALASHNI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA EDTECH YECHIMLARI

Umarova Fotima Abduraximovna,

*Nizomiy nomidagi
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, O'zbekiston*

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda EdTech yechimlaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda [11].

Ta'limni raqamlashtirish nafaqat o'quv materiallarini elektron shaklga o'tkazish, balki o'qitish metodologiyasini yangilash, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini ham beradi [9]. Ayniqsa, amaliy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalar va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Raqamli transformatsiya ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi kompleks jarayon bo'lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan axborot texnologiyalari integratsiyasi amalga oshiriladi. Bunda blended learning (aralash ta'lim), flipped classroom (teskari sinf), loyiha asosida o'qitish, adaptiv ta'lim va gamifikatsiya kabi innovatsion metodlar keng qo'llanilmoqda [4].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, EdTech platformalari o'quv materiallariga istalgan vaqtda murojaat qilish, topshiriqlarni elektron shaklda bajarish va natijalarni tezkor baholash imkoniyatlarini yaratadi [7]. Z.A.Umarova esa media resurslarning ta'lim jarayonidagi o'rni va talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab bergan [8].

Tikuvchilik kiyimlarini konstruksiyalashni o'qitishda Valentina dasturidan foydalanish.

Tikuvchilik sanoatining raqamlashtirilishi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ham zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishni talab etmoqda. Kiyim konstruksiyasini yaratishda qo'llaniladigan CAD (Computer-Aided Design) tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ta'lim jarayonining sifatini ham yaxshilaydi [1].

Valentina dasturi kiyim konstruksiyalarini parametrik loyihalash imkoniyatini beruvchi bepul va ochiq kodli dasturiy ta'minot hisoblanadi. Mazkur dastur yordamida talabalar inson gavdasining individual o'lchamlari asosida kiyim andozalarini yaratish, ularni modellashtirish va tahrirlash imkoniyatiga ega bo'lalilar [14].

Ushbu jarayon elektron ta'lim resurslari konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni raqamli muhitda tashkil etish imkonini yaratadi [13; 12]. Talabalar Valentina dasturi orqali yaratilgan loyihalarni elektron platformalarga joylashtirib, ularni tahlil qilish, takomillashtirish va elektron portfolio shaklida saqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida talabalarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Valentina dasturidan foydalanishning pedagogik afzalliklari quyidagilardan iborat:

- konstruksiyalash jarayonini vizuallashtirish;
- andozalarni yaratishda aniqlik va tezkorlikni ta'minlash;
- talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish;
- loyiha asosida o'qitish metodini samarali tashkil etish;
- mustaqil va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish.

Dastur orqali talabalar klassik konstruksiyalash usullarini raqamli muhitda qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi [5].

EdTech platformalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish.

Tikuvchilik kiyimlarini konstruksiyalash fanini o'qitishda Moodle, Google Classroom, Canvas va Microsoft Teams kabi EdTech platformalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu platformalar orqali o'quv materiallari, video darslar, amaliy topshiriqlar va testlar talabalar uchun yagona raqamli muhitda taqdim etiladi [2; 3].

Masalan, Valentina dasturida bajarilgan loyihalar platformaga yuklanishi va o'qituvchi tomonidan elektron portfoliolar asosida baholanishi mumkin. Bunday yondashuv talabalarning amaliy ishlari natijalarini tizimli monitoring qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan hamkorlik muhiti talabalar o'rtasida tajriba almashish, guruh loyihalarini amalga oshirish va o'zaro baholash jarayonlarini rivojlantiradi [2]. Z.A.Umarovning media resurslardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarida ta'lim jarayoniga multimedia vositalarini integratsiya qilish talabalar motivatsiyasini oshirishi va mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirishi ko'rsatib berilgan [8]. Shu sababli Valentina dasturi bilan yaratilgan o'quv materiallarini LMS platformalariga integratsiya qilish o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Raqamli platformalar yordamida talabalarni baholash samaradorligi.

Raqamli transformatsiya sharoitida baholash jarayoni ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Elektron testlar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, elektron portfolio va analitik vositalar talabalarning o'quv natijalarini obyektiv baholash imkonini beradi [6]. X.A.Umarov va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron ta'lim resurslari asosida bilimlarni monitoring qilish va baholash mexanizmlarining samaradorligi alohida ta'kidlangan [12]. Elektron platformalar orqali amalga oshiriladigan baholash natijalarining shaffofligi va tezkorligi talabalarning o'z ustida ishlash motivatsiyasini oshiradi.

Tikuvchilik kiyimlarini konstruksiyalash fanida platforma orqali baholash quyidagi afzalliklarga ega:

1. Shaffoflik – baholash mezonlari oldindan belgilab qo'yiladi.
2. Tezkorlik – topshiriqlar natijalari qisqa muddatda tahlil qilinadi.
3. Monitoring – talabaning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi.
4. Individual yondashuv – har bir talabaning o'zlashtirish darajasi bo'yicha tavsiyalar beriladi.
5. Ma'lumotlarni saqlash – barcha natijalar elektron bazada jamlanadi.

Valentina dasturida tayyorlangan konstruksiyalarni elektron portfolio shaklida yig'ish va LMS platformalari orqali baholash talabalarning amaliy kompetensiyalarini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Elektron baholash vositalari o'qituvchining vaqtini tejash bilan birga, ta'lim sifatini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [10].

Raqamli transformatsiya oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va Ed-Tech yechimlarining keng joriy etilishini taqozo etmoqda. Tikuvchilik kiyimlarini konstruksiyalash fanini o'qitishda Valentina dasturidan foydalanish talabalarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, LMS platformalari va elektron baholash tizimlarining qo'llanilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim natijalarini obyektiv baholash hamda talabalar faoliyatini muntazam monitoring qilish imkonini beradi. Shu sababli tikuvchilik ta'limida raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aldrich W. Pattern Cutting for Clothing Using CAD. – Oxford: Blackwell Publishing, 2015.
2. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: AU Press, 2020.
3. Bates T. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCCampus, 2022.
4. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Washington: ISTE, 2012.
5. Cooklin G. Pattern Grading for Women's Clothes. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2018.
6. Gikandi J.W., Morrow D., Davis N.E. Online Formative Assessment in Higher Education. – Computers & Education, 2011, №57(4), pp. 2333–2351.
7. Horton W. E-Learning by Design. – San Francisco: Pfeiffer, 2019.
8. Muslimov N.A., Umarova Z.A. The Role of Media Resources in the Process of Self-Education // International Journal Papier Public Review. – 2021. – Vol. 2(1). – P. 49–53.
9. Muslimov N.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021. – 224 b.
10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
11. To'xtayev N. Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2022. – 156 b.
12. Umarov X.A., Umarova Z.A. Использование электронно-образовательных ресурсов в целях создания образовательной экосистемы // Труды Международной научно-технической конференции «Перспективные информационные технологии». – Самара, 2018. – С. 1318–1320.
13. Umarova F.A., Umarova Z.A., Umarov A.A. Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе // Библиотека в пространстве современной культуры. Сборник научных трудов Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. – 2020. – С. 79–83.
14. Valentina Team. Valentina Pattern Making Software User Guide. – 2024.

KELAJAK KASBLARIGA TAYYORLASHDA OLIJ TA'LIMDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Roziqov Shohijahon Rashid o'g'li,

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar
vazirligi Akademiyasi, O'zbekiston*

Mehnat bozorining raqamli transformatsiyasi oliy ta'lim oldiga yangi mazmundagi vazifani qo'yimoqda: bitiruvchi nafaqat o'z mutaxassisligini bilishi, balki raqamli muhitda ishlay olishi, ma'lumotni tahlil qilishi, sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanishi va kasbiy faoliyatini doimiy yangilab borishi kerak. Kelajak kasblari texnologik vositalar, algoritmik qarorlar, masofaviy hamkorlik va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv bilan tobora ko'proq bog'lanmoqda [12:1]. O'zbekiston sharoitida mazkur masala strategik ahamiyatga ega. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni belgilaydi, oliy ta'lim tizimi esa ushbu jarayon uchun kadrlar bazasini shakllantiradi [6:1]. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida sifatli ta'lim, inson kapitali, yoshlar bandligi va innovatsion rivojlanish ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgani raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini kuchaytiradi [5:1]. Ilmiy muammo shundan iboratki, oliy ta'limda raqamli texnologiyalar ko'pincha texnik vosita sifatida qabul qilinadi, raqamli kompetensiya esa mustaqil pedagogik va kasbiy natija sifatida yetarlicha tizimlashtirilmaydi. Tadqiqotning maqsadi kelajak kasblariga tayyorlashda oliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, mexanizmlari va institutsional shartlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat [14:1].

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent-tahlil va xalqaro tajribani o'rganish metodlari qo'llanildi. Normativ tahlil orqali O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, innovatsion rivojlanish va pedagog kadrlar malakasini oshirishga oid strategik hujjatlari o'rganildi [4:1], [7:1], [9:1]. Qiyosiy tahlil O'zbekiston tajribasini OECD, UNESCO, European Commission, World Bank, World Economic Forum va Coursera hisobotlaridagi yondashuvlar bilan solishtirishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv raqamli kompetensiyani o'quv dasturi, o'qitish metodikasi, professor-o'qituvchi malakasi, raqamli infratuzilma va ish beruvchilar bilan hamkorlikni birlashtiruvchi jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi [2:1], [3:1].

Tadqiqot natijalari kelajak kasblariga tayyorlashda raqamli kompetensiya besh asosiy yo'nalishni qamrab olishini ko'rsatdi: axborot va ma'lumotlar bilan ishlash; raqamli kommunikatsiya va hamkorlik; raqamli kontent yaratish; raqamli xavfsizlik; texnologik muammolarni hal qilish va sun'iy intellektidan mas'uliyatli foydalanish. DigComp 2.2 doirasida raqamli kompetensiya tanqidiy fikrlash, xavfsizlik, ijodkorlik, hamkorlik va yangi texnologiyalarga moslashuvni ham o'z ichiga oladi [11:1]. Kelajak kasblari uchun oliy ta'limning asosiy vazifasi talabani muayyan dasturiy mahsulotga bog'lab qo'yish emas, balki texnologik o'zgarishlarga

moslasha oladigan kasbiy tafakkurni rivojlantirishdir. Bugun o'rgatilayotgan dastur ertaga eskirishi mumkin, ammo ma'lumotni tahlil qilish, raqamli vosita yordamida muammo yechish, natijani baholash va xavfsiz ishlash ko'nikmalari uzoq muddatli kasbiy qiymatga ega [1:1].

Kelajak kasblari uchun zarur raqamli kompetensiyalar va ularni oliy ta'limda shakllantirish mexanizmlari.

Raqamli kompetensiya turi	Mazmuni	Kelajak kasblaridagi ahamiyati	Oliy ta'limda rivojlantirish mexanizmi
Ma'lumotlar bilan ishlash	Ma'lumotni izlash, tekshirish, tahlil qilish va vizuallashtirish.	Tahliliy kasblar va data-driven qarorlar uchun zarur.	Data literacy modullari va amaliy tahlil topshiriqlari.
Sun'iy intellekt savodxonligi	AI imkoniyati, cheklovi, etikasi va natijasini tekshirish.	AI bilan ishlaydigan kasblarda inson nazoratini ta'minlaydi.	AI asosidagi loyiha, tahlil va akademik halollik qoidalari.
Raqamli kommunikatsiya	Onlayn hamkorlik, professional raqamli muloqot, virtual jamoalar.	Masofaviy ish va xalqaro loyiha faoliyati uchun muhim.	LMS, bulutli hujjatlar va guruhli loyiha topshiriqlari.
Kiberxavfsizlik	Shaxsiy ma'lumotni himoya qilish, fishingni aniqlash, raqamli gigiyena.	Kasbiy faoliyatda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi.	Barcha yo'nalishlarga amaliy kiberxavfsizlik modullari.
Raqamli mahsulot yaratish	Matn, jadval, taqdimot, infografika, kod yoki raqamli kontent.	Ta'lim, muhandislik, boshqaruv va xizmatlarda zarur.	Raqamli mahsulot yaratish, portfolio asosida baholash.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur normativ va institutsional asoslar shakllanmoqda. Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, oliy ta'limni transformatsiya qilish va pedagog kadrlar malakasini oshirishga oid hujjatlar ta'lim mazmunini yangilashga yo'naltirilgan [6:1], [7:1], [9:1]. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ayrim tizimli muammolar mavjud: raqamli savodxonlikning faqat informatika fani bilan cheklanishi, professor-o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasi turlicha ekani, ish beruvchilar bilan barqaror hamkorlik mexanizmlarining yetarli emasligi va amaliy raqamli mahsulotlarga kam e'tibor berilishi.

Xalqaro tajriba kelajak kasblari texnik va yumshoq ko'nikmalar kesishmasida shakllanishini ko'rsatadi. World Economic Forum hisobotida 2025–2030-yillar oralig'ida texnologik o'zgarishlar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va yashil transformatsiya ko'plab kasblar mazmunini yangilashi ta'kidlanadi. Bunday sharoitda analitik fikrlash, moslashuvchanlik, texnologik savodxonlik va doimiy o'rganish bitiruvchining kasbiy barqarorligini belgilaydi [12:1]. European Commission raqamli ta'lim yondashuvida yuqori sifatli raqamli ta'lim ekotizimini rivojlantirish va raqamli transformatsiya uchun zarur ko'nikmalarni kuchaytirishga urg'u beradi. Bu yondashuv O'zbekiston oliy ta'limi uchun ham mosdir, chunki raqamli kompetensiya universitetning o'quv muhiti, metodikasi, baholash tizimi va professor-o'qituvchi malakasi bilan bog'liq [2:1]. UNESCO generativ sun'iy intellekt bo'yicha tavsiyalarida ta'lim jarayonida AI texnologiyalaridan inson markazli, xavfsiz, shaffof va etik foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun talabalarni AI vositalaridan foydalanishni taqiqlash orqali emas, balki ularni tanqidiy va mas'uliyatli qo'llashga o'rgatish orqali real kompetensiyaga ega qilish mumkin [8:1]. O'zbekiston sharoitida har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy raqamli kompetensiyalar xaritasini ishlab chiqish, fanlar tarkibiga ma'lumotga asoslangan loyiha yoki raqamli mahsulot topshirig'ini kiritish, bitiruvchilarning raqamli kompetensiyasini portfolio, loyiha va ish beruvchi bahosi orqali o'lchash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari kelajak kasblariga tayyorlashda raqamli kompetensiyalar oliy ta'limning yordamchi elementi emas, balki kasbiy tayyorgarlikning strategik tarkibiy qismi ekanini ko'rsatdi. Raqamli kompetensiya kompyuterdan foydalanish yoki elektron hujjat tayyorlash bilan cheklanmaydi; u ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt natijalarini baholash, ra-

qamli xavfsizlikka rioya qilish, virtual muhitda hamkorlik qilish va yangi texnologik sharoitga moslashish ko‘nikmalarini qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot, oliy ta’lim, innovatsiya va inson kapitalini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy asoslar raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim institutsional imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyat real natijaga aylanishi uchun oliy ta’lim dasturlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv kuchaytirilishi, professor-o‘qituvchilarning raqamli pedagogik malakasi oshirilishi va ish beruvchilar bilan hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Coursera. Global Skills Report 2025. Coursera, 2025. Internet manzili: <https://www.coursera.org/skills-reports/global>
2. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. European Education Area, 2021. Internet manzili: <https://education.ec.europa.eu/focus-topics/digital-education/actions>
3. OECD. OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition. OECD Publishing, 2023. DOI: <https://doi.org/10.1787/27452f29-en>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-sonli “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6518515>
8. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. UNESCO, 2023. Internet manzili: <https://www.unesco.org/en/articles/guidance-generative-ai-education-and-research>
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7014313>
10. Vishnu, S., Raghavan Sathyan, A., Sam, A. S., Radhakrishnan, A., Ragavan, S. O., Kandathil, J. V., & Funk, C. Digital competence of higher education learners in the context of COVID-19 triggered online learning. *Social Sciences & Humanities Open*, 6(1), 2022, 100320. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ssaho.2022.100320>
11. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Publications Office of the European Union, 2022. DOI: <https://doi.org/10.2760/115376>
12. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2023. Washington, DC: World Bank, 2024. DOI: <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-2049-6>
13. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. Geneva: World Economic Forum, 2025. Internet manzili: <https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/>
14. Zhao, Y., Pinto Llorente, A. M., & Sánchez Gómez, M. C. Digital competence in higher education research: A systematic literature review. *Computers & Education*, 168, 2021, 104212. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2021.104212>

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING SUN’IY INTELLEKT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA EDTECH YECHIMLARINING TASHKILIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI (mk.bimm.uz platformasi tajribasi misolida)

Sultonova Munavvarxon,

*Oliy ta’limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O‘zbekiston*

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’limning pedagogik yo‘nalishlari sun’iy intellekt va EdTech yechimlarning innovatsion integratsiyasini tezlashtirishni talab etmoqda. UNESCO ekspertlarining hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha pedagogik ta’lim muassasalarining 67 foizi 2024-yil yakuniga qadar SI ga asoslangan o‘quv platformalariga o‘tish strategiyasini qabul qilgan [5:24]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PF-158-son Farmoni mamlakatimizda mintaqaviy «IT-HUB» ni shakllantirish va kadrlar salohiyatini oshirish vazifasini belgilab, raqamli ta’lim platformalarining institutsional rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratdi [4:1].

Biroq amaldagi pedagogik ta’lim amaliyotida SI ga asoslangan EdTech yechimlarning tashkiliy-pedagogik integratsiyasi tizimli xarakterga ega emas: ko‘pchilik onlayn kurslar nazariy bilim berishga qaratilgan bo‘lib, amaliy SI vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik refleksiya va kreativ yondashuvni rivojlantirish komponentlari yetishmaydi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ochiq onlayn kurslar platformasida (mk.bimm.uz) UNESCO AI CFT-2024 modeliga asoslangan integrallashgan EdTech yechim ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Xorijiy raqamli platformalar tajribasining qiyosiy tahlili.

Sun’iy intellektga asoslangan pedagogik ta’lim platformalarining xalqaro tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yetakchi davlatlarda EdTech yechimlar milliy strategiyalar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirilmoqda. Koreya Respublikasining «AI Education for Teachers» platformasi har bir pedagogga 120 soatlik kursni taklif qilib, 2025-yilda 100 mingdan ortiq pedagogni o‘qitgan [2:112]; BAAning AI Academy platformasi SI savodxonligini milliy standart darajasiga ko‘targan; Xitoyning Smart Education of China platformasi 50 mln+ foydalanuvchini birlashtirgan; Finlyandiyaning «Elements of AI» kursi (Helsinki universiteti) 80 mamlakatda 1 mln+ foydalanuvchiga ega; AQShda Stanford va MITning Open Learning platformalari interaktiv simulyatsiyalar va loyiha asosidagi o‘qitish metodologiyasini integratsiyalashtirgan [2:115]. Mazkur tajribalarning umumiy xususiyatlari: ochiq kirish modeli, modullilik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va xalqaro standartlarga muvofiqlik.

mk.bimm.uz platformasining tashkiliy-pedagogik modeli.

Tashkiliy-pedagogik model uch ierarxik darajaning uzviy aloqasiga asoslanadi: strategik daraja — UNESCO AI CFT-2024 modelining beshta yo‘nalishi (inson salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tafakkur; SI etikasi; SI asoslari va amaliyoti; SI pedagogikasi; kasbiy rivojlanishda SI); taktik daraja — kursning kompetensiyaga yo‘naltirilgan to‘rt qismli arxitektu-

rasi (maqsadli, mazmunli, jarayonli, baholash-natijaviy qismlar); operatsional daraja — modul asosidagi mikro-o'rganish, interaktiv SI vositalari va peer-review formati [3:48]. Platformaning texnologik infratuzilmasi LMS Moodlening kengaytirilgan versiyasiga asoslangan bo'lib, avtomatlashtirilgan ro'yxatga olish tizimi, modullarni bosqichma-bosqich ochish mexanizmi, video-darslar va interaktiv simulyatsiyalar, SI bilan integrallashgan amaliy mashqlar, two-tier diagnostik tizim, peer mentor bilan kommunikatsiya kanali va raqamli sertifikat berish modulini qamrab oladi. Platforma Open Science Framework (OSF) standartlariga muvofiq replikasiya protokollig ega bo'lib, boshqa OTMLar tomonidan moslashtirilishi mumkin [2:115].

Onlayn kursning modul tuzilmasi.

«Pedagoglarning kasbiy faoliyatida sun'iy intellekt» onlayn kursi 24 akademik soat (10 nazariy + 14 amaliy), 0,8 ECTS hajmda 8 ta tematik mavzuga taqsimlangan (1-jadval).

1-jadval. Kursning modul tuzilmasi va kompetensiya bloklari.

№	Mavzu nomi	Kompetensiya bloki	Soat
1	Sun'iy intellektga kirish va asosiy tushunchalar	Texnologik	2 (1+1)
2	SI etikasi va maxfiylik tamoyillari	Aksiologik	3 (2+1)
3	Generativ SI va promptlash texnikalari	Texnologik	4 (1+3)
4	SI yordamida dars loyihalash va o'quv material yaratish	Pedagogik	4 (1+3)
5	Adaptiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari	Pedagogik	3 (1+2)
6	SI orqali baholash va fikr-mulohaza	Pedagogik	3 (1+2)
7	Pedagogning SI bilan kasbiy rivojlanishi	Kasbiy	3 (2+1)
8	Yakuniy loyiha: SI asosida o'quv portfoliosi	Kreativ	2 (1+1)
Jami	8 modul; 0,8 ECTS	—	24 (10+14)

Har bir mavzu aniq o'rganish natijalari, 2–3 interaktiv vazifa va peer-assessment komponenti bilan ta'minlangan. Mavzular bosqichli ravishda — reproduktiv darajadan (1–3-modullar) produktiv darajaga (4–6-modullar), so'ngra kreativ darajaga (7–8-modullar) ko'tarilish mantig'ini ta'minlaydi.

Kursda qo'llaniladigan 16 ta SI vositasining pedagogik tasnifi.

Kursning amaliy komponentini ta'minlash uchun 16 ta SI vositasi ko'p mezonli tanlov asosida (xalqaro tan olinganlik, pedagogik moslik, bepul foydalanish, ko'p tillilik, ma'lumotlar maxfiyligi) tanlandi va olti pedagogik vazifa toifasi bo'yicha guruhlandi (2-jadval).

2-jadval. Pedagogik vazifa toifalari bo'yicha SI vositalarining tasnifi.

Vazifa toifasi	SI vositalari	Soni
Matn va dialog generatsiyasi	ChatGPT, Claude, Gemini, Perplexity	4
Ta'limga moslashtirilgan sun'iy intellekt	Khanmigo, MagicSchool, Diffit	3
Vizual va ko'rgazmali kontent	Padlet, Napkin.ai	2
Ilmiy va izlanish vositalari	NotebookLM, OpenSciLM, RFlow.ai	3
Til va kommunikatsiya	HelperBird, Mizou, Elicit	3
Audio va multimedia	TurboScribe	1
Jami	6 toifa	16

Vositalarning pedagogik effektivligi o'quv mazmunini moslashtirish, multimodal qo'llab-quvvatlash, pedagogik refleksiya generatsiyasi va etik xavflar mezonlari bo'yicha baholandi. Tahlil natijalari ta'limga moslashtirilgan vositalar (Khanmigo, MagicSchool, Diffit) pedagogik kontekstda eng yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi; umumiy maqsadli generativ vositalar (ChatGPT, Claude, Gemini) ham promptlash texnikalari orqali pedagogik vazifalarga moslashtirilishi mumkin [1:9].

EdTech yechimning tatbiqi va replikasiya imkoniyatlari.

Ishlab chiqilgan EdTech yechim 2026-yil 14-aprelda mk.bimm.uz ochiq onlayn kurslar platformasiga joylashtirildi (rasmiy tasdiq № 02-129) [1:3]. Kursni Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika universitetining 281 nafar talabasi muvaffaqiyatli yakunladi; sifat tahlili ($M = 3,45$,

n = 41) talabalarining SI ni ta'limga integratsiyalashga ijobiy munosabati va didaktik komponentlarning yuqori baholanishini ko'rsatdi [3:205]. Yechimning OSF standartlariga muvofiq replikatsiya paketi modullararo bog'liqlik diagrammasi, baholash rubrikalari, metodik tavsiyalar, SI vositalari texnik kartalari va etik qoidalarni o'z ichiga oladi; ayni paytda 72 soatlik kengaytirilgan versiyaning amaldagi pedagoglar uchun moslashtirilishi rejalashtirilgan.

mk.bimm.uz platformasi tajribasi raqamli transformatsiya sharoitida oliy pedagogik ta'limning EdTech yechimga asoslangan modernizatsiya modelini taqdim etadi. UNESCO AI CFT-2024 modelining institutsional kontekstga adaptatsiyasi, 8 ta modulning kompetensiyaga yo'naltirilgan tuzilmasi va 16 ta SI vositasining pedagogik tasnifi bo'lajak pedagoglarning SI kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy yo'l xaritasini ifodalaydi. OSF standartlariga muvofiq replikatsiya salohiyati boshqa pedagogik OTMlarning raqamli transformatsiyasi uchun metodologik asosni yaratadi. Kelajakda o'zbek tilida ishlaydigan generativ SI vositalarini platforma bilan integratsiyalashtirish, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) elementlarini kursga kiritish hamda ko'p bosqichli integrallashgan EdTech ekotizimini shakllantirish yo'nalishlari maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Pedagoglarning kasbiy faoliyatida sun'iy intellekt" maxsus kursini joriy etish to'g'risida ma'lumotnoma № 02-129. – Toshkent: Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2026-yil 14-aprel. – 12 b.
2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2023. – 250 p.
3. Sultonova M.Q. Bo'lajak pedagoglarda sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari // Fan va ta'lim integratsiyasi. – 2025. – № 12. – B. 203–210.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PF-158-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz, 2024.
5. UNESCO. AI Competency Framework for Teachers (AI CFT-2024). – Paris: UNESCO Publishing, 2024. – 78 p.
6. Zaripov L.R., Sultonova M.Q. Teacher agency and AI competency frameworks in higher education: UNESCO insights // Sayhun ilmiy axborotnomasi. – 2025. – № 3. – B. 107–112.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI AI-HUBLARNI JORIY ETISH ORQALI TA'LIM SIFATI, TADBIRKORLIK KO'NIKMALARI VA BITIRUVCHILAR BANDLIGINI OSHIRISH

Obidova Nodiraxon Oppoxo'ja qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti, O'zbekiston

Bugungi oliy ta'lim tizimi bir vaqtning o'zida uchta asosiy vazifani bajarishi kerak: sifatli ta'lim berish, talabalarda amaliy va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlash. An'anaviy ta'lim modeli ko'pincha bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida universitetdan real ko'nikma, loyiha tajribasi, ijodkorlik va kasbiy moslashuvchanlikni ham rivojlantirish talab etiladi. Shu jihatdan sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'lim xizmatlarini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. YUNESKO sun'iy intellekt ta'lim va tadqiqotda inson markazli yondashuv asosida qo'llanishi, u o'qituvchi va talabani almashtirish emas, balki ularning imkoniyatlarini kengaytirishi kerakligini ta'kidlaydi [3:8]. Jahon iqtisodiy forumi esa 2025–2030-yillarda texnologik transformatsiya, jumladan sun'iy intellekt, mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalar tarkibini o'zgartirishini qayd etadi [5:15]. Demak, AI vositalaridan parcha-parcha foydalanish yetarli emas; ularni universitetning akademik, innovatsion va karyera ekotizimiga tizimli integratsiya qilish zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida AI-hublarni joriy etish orqali ta'lim sifati, talabalar tadbirkorligi va bitiruvchilar bandligini oshirishga qaratilgan amaliy modelni asoslashdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi AI-hubni oddiy chatbot yoki elektron platforma emas, balki universitetning ta'lim, ilmiy, startap va bandlik jarayonlarini birlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilishidir.

AI-hub deganda oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan, talaba, o'qituvchi, ilmiy rahbar, ma'muriyat, startap jamoalari va ish beruvchilar o'rtasida raqamli hamkorlikni ta'minlaydigan yagona intellektual ekotizim tushuniladi. Uning vazifasi faqat savollarga javob berish emas; u o'quv jarayonini individuallashtirish, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, amaliy loyihalarni boshqarish, karyera maslahatlarini berish va talabalar portfelini shakllantirishdan iborat.

AI-hubning oddiy elektron ta'lim platformasidan farqi shundaki, u statik kontent ombori emas, balki foydalanuvchining ehtiyoji, bilim darajasi va kasbiy maqsadiga moslashadigan muhitdir. Masalan, talaba o'z yo'nalishi va natijalariga qarab individual o'quv trayektoriyasini olishi, o'qituvchi esa talabalarning zaif tomonlarini ko'rib, topshiriqlarni moslashtirishi mumkin. Bu ta'lim sifatini faqat yakuniy baho bilan emas, balki doimiy tahlil va qayta aloqa orqali oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida AI-hub g'oyasi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi bilan hamohangdir. Mazkur strategiyada ta'lim, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish vazifasi belgilan-

gan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi AI infratuzilmasi va sohalarga AI yechimlarini joriy etishni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatadi.

AI-hub ta'lim sifatini oshirishda uch yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, u individual ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi. Talaba bilim darajasi, qiziqishi va kasbiy rejasi-ga mos qo'shimcha adabiyotlar, topshiriqlar va tavsiyalar oladi. Ikkinchidan, AI-hub muntazam qayta aloqa beradi: talaba bajargan ish bo'yicha xatolar, kuchli jihatlar va yaxshilash yo'llarini tez ko'radi. Uchinchidan, u professor-o'qituvchilarga dars rejasi, keys, test, baholash mezonlari va muhokama savollarini tayyorlashda yordam beradi. Bunda o'qituvchining akademik nazorati saqlanishi shart, chunki AI yordamchi vosita bo'lib, yakuniy pedagogik mas'uliyat inson zimmasida qoladi [3:14].

AI-hub talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda ham samarali vosita bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faqat biznes reja yozish emas; u muammoni aniqlash, foydalanuvchi ehtiyojini tushunish, yechim yaratish, jamoa tuzish va natijani bozorga olib chiqish jarayonidir. AI-hub talabalarga loyiha g'oyasini ishlab chiqish, bozor tahlili qilish, qiymat taklifini shakllantirish, minimal mahsulot modeli va taqdimot tayyorlashda yordam beradi. Natijada universitet ichida startap inkubatsiyasi jarayoni tizimlashadi.

Bandlik masalasida AI-hub karyera moduli orqali ishlashi mumkin. Bunda talabaning fanlardagi natijalari, amaliy ishlari, loyiha tajribasi, til bilimi va qiziqishlari tahlil qilinadi. So'ng mehnat bozori talab qilayotgan kompetensiyalar bilan talabaning hozirgi darajasi o'rtasidagi tafovut aniqlanadi hamda individual rivojlanish rejasi taklif qilinadi. OECD ta'lim tizimlari sun'iy intellekt va robototexnika rivojlanishi sababli kelajak mehnat bozori uchun yangi kompetensiyalarni shakllantirishga moslashishi zarurligini qayd etadi [4:3]. Shu sababli AI-hub bitiruvchini faqat mavjud kasbga emas, o'zgaruvchan kasbiy muhitga tayyorlashi kerak. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida AI-hublarni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda pilot model ishga tushiriladi: talabalar uchun AI yordamchi, o'qituvchilar uchun metodik yordamchi, ilmiy izlanishlar uchun tadqiqot yordamchisi va karyera maslahat moduli. Bu bosqichda asosiy maqsad texnologiyani sinash, foydalanuvchi ehtiyojini aniqlash va xavflarni baholashdan iborat.

Ikkinchi bosqichda AI-hub universitetning elektron ta'lim tizimi, elektron kutubxona, karyera markazi va startap inkubatori bilan integratsiya qilinadi. Talaba bitta platformada o'quv materiallari, shaxsiy rivojlanish rejasi, ilmiy yordam, loyiha portfeli va ishga joylashish tavsiyalarini ko'ra oladi. Uchinchida bosqichda turli universitet AI-hublari o'zaro tajriba, kontent, metodika va ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini almashishi mumkin.

Bunday platforma mahalliy ehtiyojlarga mos bo'lishi zarur. U o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlashi, milliy qonunchilik, ta'lim standartlari, mahalliy mehnat bozori va universitet ichki tartiblariga moslashtirilgan bilim bazasiga ega bo'lishi kerak. Samaradorlikni baholashda talabalar o'zlashtirishi, qayta aloqa tezligi, akademik halollik, yaratilgan loyiha va prototiplar soni, amaliyotga joylashish va bitiruvchilar bandligi kabi indikatorlardan foydalanish mumkin.

AI-hublarni joriy etishda bir qator xavflar mavjud. Birinchi xavf — AI javoblarining noto'g'ri yoki ishonchsiz bo'lishi. Buni kamaytirish uchun platforma tekshirilgan manbalarga asoslangan bilim bazasi bilan ishlashi va muhim masalalarda inson eksperti nazoratini talab qilishi kerak. Ikkinchi xavf — akademik halollikning buzilishi. Talabalar AI yordamida tayyorlangan ishni o'zining sifatida topshirishi mumkin. Shu sababli AI-hubda "yordam berish" va "tayyor ish o'rni bosish" o'rtasidagi chegara aniqlanishi lozim.

Uchinchida xavf — raqamli tengsizlik. Barcha talabalar bir xil qurilma, internet va raqamli ko'nikmaga ega emas. Shuning uchun AI-hub kompyuter zallari, mobil moslashuvchan interfeys va raqamli savodxonlik treninglari bilan birga joriy qilinishi kerak. To'rtinchi xavf — o'qituvchilarning texnologiyadan qo'rquvi yoki qarshiligi. Buni bartaraf etish uchun AI-hub

o'qituvchini almashtiruvchi emas, uning ishini yengillashtiruvchi va sifatini oshiruvchi vosita sifatida tushuntirilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi AI-hublarni joriy etish ta'lim sifati, talabalar tadbirkorligi va bitiruvchilar bandligini oshirishda muhim institutsional yechim bo'la oladi. AI-hubning asosiy kuchi shundaki, u universitetning ta'lim, ilmiy, innovatsion va karyera jarayonlarini yagona raqamli muhitda birlashtiradi. Bu talaba uchun individual o'sish yo'lini, o'qituvchi uchun metodik yordamni, universitet uchun esa sifat va bandlikni o'lchash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida pilot AI-hub loyihalarini boshlash; ikkinchidan, AI-hubni ta'lim sifati, startap inkubatsiyasi va karyera markazlari bilan integratsiya qilish; uchinchidan, o'zbek tilidagi akademik va kasbiy bilim bazalarini yaratish; to'rtinchidan, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun AI savodxonligi treninglarini tashkil etish; beshinchidan, AI-hubdan foydalanishda etik qoidalar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va akademik halollik standartlarini ishlab chiqish. Bunday model muvaffaqiyatli ishlashi uchun texnologiya emas, balki aniq pedagogik maqsad, mas'ul boshqaruv, lokal kontent va inson nazorati ustuvor bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Denny P., Gulwani S., Heffernan N., Käser T., Moore S., Rafferty A.N., Singla A. Generative AI for Education: Advances, Opportunities, and Challenges. 2024.
2. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027: Resetting education and training for the digital age. Brussels, 2020.
3. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. Artificial Intelligence and the Future of Skills. Paris: OECD Publishing, 2023.
5. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. Geneva: WEF, 2025.

RAQAMLI TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASINING ISTIQBOLLARI, TIZIMLI XAVFLARI VA KELAJAK PROGNOZLARI

**Xolov Javlonboy Ilg'or o'g'li,
Safarov Toyir Tursunovich,**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, O'zbekiston

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi nafaqat o'quv jarayonini avtomatlashtirish, balki ta'lim mazmuni, metodikasi va baholash tizimlarini qayta shakllantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash va sun'iy intellekt yechimlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shu bilan birga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kafolatlangan bo'lsa-da, AI integratsiyasining huquqiy va etik cheklovlari hali to'liq shakllanmagan [2]. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli ta'limda AI integratsiyasining ijobiy istiqbollari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini aniq faktlar va qonun hujjatlari asosida tahlil qilish hamda kelajak prognozlarini ishlab chiqishdan iborat.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi bir qator fundamental imkoniyatlarni yaratadi. Birinchidan, adaptiv (moslashuvchan) ta'lim modellari talabaning o'zlashtirish darajasi, o'rganish sur'ati va kognitiv xususiyatlariga qarab individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Xalqaro EdTech bozori tadqiqotlariga ko'ra, 2025-2026-yillarda AI asosidagi o'quv platformalaridan foydalanish 45 foizga oshgani va bu talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichini o'rtacha 22 foizga yaxshilaganligi qayd etilgan [3]. Ikkinchidan, AI professor-o'qituvchilarning ma'muriy yuklamasini, xususan, testlarni tekshirish, davomatni nazorat qilish va dars ishlanmalarini tayyorlash jarayonlarini 30-40 foizga qisqartirib, ularning ilmiy-tadqiqot va talabalar bilan individual ishlashga ko'proq vaqt ajratishiga xizmat qiladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida "Aqlli kampus" loyihalari doirasida AI chat-botlari talabalarga 24/7 rejimida ma'lumot berish va yo'naltirish xizmatini ko'rsatmoqda, bu esa xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning aniq va samarali mexanizmidir.

Biroq, ushbu texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, sun'iy intellektning nazoratsiz integratsiyasi ta'lim ekotizimida bir qator jiddiy tizimli xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu salbiy oqibatlarni to'rtta asosiy yo'nalishda ko'rib chiqish zarur. Birinchi navbatda, akademik halollikning buzilishi muammosi dolzarb hisoblanadi. Generativ AI (masalan, katta til modellari) talabalarga insho, kurs ishlari yoki dasturlash kodlarini soniyalar ichida yaratib berish imkonini beradi. Bu an'anaviy plagiat tushunchasini o'zgartirib, "AI-plagiat" muammosini yuzaga keltiradi. Natijada, o'quvchining mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlanmay qoladi. Hozirda ko'plab universitetlarda AI yordamida yozilgan matnlarni aniqlash dasturlari joriy

etilayotgan bo'lsa-da, ularning xatolik darajasi hali ham yuqori bo'lib, bu talabalarga nisbatan nohaq ayblovlar xavfini tug'diradi [4].

Ikkinchi jiddiy xatar – bu ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolaridir. AI tizimlari samarali ishlashi uchun ulkan hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni, jumladan, talabaning o'zlashtirish darajasi, xulq-atvori va biometrik ko'rsatkichlarini qayta ishlashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash faqat subyektning roziligi bilan va qonuniy maqsadlarda amalga oshirilishi shart [5]. Biroq, xalqaro AI platformalarining serverlari chet elda joylashganligi sababli, o'zbekistonlik talabalarning ma'lumotlari chet el yurisdiksiyasiga tushib qolishi va ulardan tijorat maqsadlarida foydalanilishi xavfi mavjud bo'lib, bu raqamli suverenitetga tahdid soladi.

Uchinchidan, kognitiv passivlik va ta'limning “dehumanizatsiyasi” xavfi mavjud. AI ga haddan tashqari tayanish talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarining susayishiga olib keladi. Ta'lim jarayonidan insoniy omil, ya'ni o'qituvchining empirik tajribasi, empatiyasi va motivatsion ta'siri chetlashtirilsa, ta'lim shunchaki mexanik ma'lumot uzatish jarayoniga aylanib qoladi. To'rtinchidan, algoritmik tarfakashlik (bias) muammosi kuzatiladi. AI modellarini o'qitishda ishlatiladigan ma'lumotlar to'plamlari ma'lum madaniy, gender yoki ijtimoiy stereotiplarni o'zida mujassam etgan bo'lishi mumkin. Natijada, AI tizimi baholash jarayonida ayrim talabalar guruhlariga nisbatan adolatsiz yondashishi, ularning natijalarini sun'iy ravishda pasaytirishi kuzatilishi mumkin [6].

Ushbu muammolarni bartaraf etish va 2030-yilga qadar raqamli ta'limda AI integratsiyasini samarali boshqarish uchun aniq kelajak prognozlari va yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Birinchidan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning axloqiy va huquqiy me'yorlari” to'g'risida maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilishi prognoz qilinmoqda. Unda AI dan foydalanishning ruxsat etilgan chegaralari, akademik halollik tamoyillari va ma'lumotlar xavfsizligi standartlari qat'iy belgilanadi. Ikkinchidan, “AI savodxonligi” (AI Literacy) barcha yo'nalish talabalari uchun majburiy darslik moduliga aylanadi. Talabalar AI vositalaridan mas'uliyat bilan foydalanish, prompt-muhandislik asoslari va AI generatsiya qilgan kontentni tanqidiy baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Uchinchidan, oliy ta'limda gibril baholash tizimi shakllanadi. Yozma va og'zaki himoyalar, real vaqtda muammolarni yechish (case-study) kabi AI tomonidan soxtalashtirish qiyin bo'lgan baholash usullari ustuvorlikka ega bo'ladi. Ushbu prognozlarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida mahalliy serverlarda joylashgan, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasida o'qitilgan milliy AI yordamchilarini yaratish va joriy etish taklif etiladi. Bu ma'lumotlar suverenitetini ta'minlaydi va algoritmik tarfakashlik xavfini minimallashtiradi. Shuningdek, YUNESKOning “Ta'lim va tadqiqotda generativ sun'iy intellekt uchun qo'llanma” (2023) hujjatida belgilangan tamoyillarni milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish zarur [7]. O'qituvchilar uchun esa AI vositalarini pedagogik maqsadlarda qo'llash bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tizimli yondashuv bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'limda sun'iy intellekt integratsiyasi ikki qirrali dialektik jarayondir. Bir tomondan, u ta'limning shaxsiylashtirilishi, samaradorligi va global raqobatbardoshligini oshirishning kuchli vositasidir. Ikkinchi tomondan, nazoratsiz qo'llanilganda akademik halollikni buzish, ma'lumotlar xavfsizligiga tahdid solish va talabalarning kognitiv qobiliyatlarini pasaytirish kabi jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida AI texnologiyalarini joriy etishda “texnologiya markazli” emas, balki “inson markazli” yondashuvni qo'llash, qat'iy huquqiy bazani shakllantirish va pedagogik madaniyatni yangilash zarur. Faqat shu holatdagina raqamli transformatsiya ta'lim sifatini tubdan oshirishga va bitiruvchilarning raqamli iqtisodiyotdagi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-oktyabrdagi PF-245-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2023, 40-son, 654-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. HolonIQ. (2025). Global Education Technology Market Forecast to 2030: The Impact of AI and Adaptive Learning. Washington, DC: HolonIQ Research.
4. Cotton, D. R., Cotton, P. A., & Shipway, J. R. (2024). Chatting and cheating: Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT. *Innovations in Education and Teaching International*, 61(2), 228-239.
5. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
6. Zahiriddinov, A. B., & To'rayev, S. K. (2025). Oliy ta'limda raqamli transformatsiya: algoritmik tarfakashlik muammolari va yechimlari. *Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali*, 12(3), 45-52.
7. Guidance for generative AI in education and research. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

V SHO‘BA:

OLIY TA‘LIMNING XALQARO
INTEGRATSIYASI: AKADEMIK MOBILLIK,
QO‘SHMA DASTURLAR VA GLOBAL
HAMKORLIK STRATEGIYALARI

INTERNATIONAL PROFESSIONAL DEVELOPMENT AS A CATALYST FOR HIGHER EDUCATION INTEGRATION: EVIDENCE FROM MALAYSIA- UZBEKISTAN TEACHER TRAINING COLLABORATION

Hasniza Nordin,

Universiti Utara Malaysia

Saidov Javohir Olimjon ugli,

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Introduction. Higher education institutions are increasingly expected to respond to globalisation, digital transformation, graduate employability, and the demand for innovative teaching and learning. International cooperation has therefore become a strategic instrument for strengthening the quality and relevance of higher education. Internationalisation is no longer limited to student exchange or formal memoranda of understanding; it also includes joint professional development, collaborative research, academic staff mobility, curriculum benchmarking, and sustained communities of practice. Knight (2004) defines internationalisation as the integration of international and intercultural dimensions into the purposes and functions of higher education, while de Wit and Altbach (2021) emphasise that international collaboration should produce meaningful academic and developmental value.

Teacher professional development is a practical and high-impact form of international cooperation because educators translate institutional policies and curriculum aspirations into classroom practice. Effective professional development is active, collaborative, content-focused, and connected to teachers' real classroom contexts (Darling-Hammond et al., 2017). The professional development programmes conducted between Universiti Utara Malaysia and higher education institutions in Uzbekistan provide a relevant case for understanding how training initiatives can support higher education integration. These programmes involved Uzbekistan educators in face-to-face learning activities focused on student-centred pedagogy, digital learning, assessment, innovation, and professional reflection.

This article focuses on international integration trends in higher education, particularly academic mobility, joint programmes, and global cooperation. It also connects with digital transformation because artificial intelligence and digital pedagogy are now central to teacher competence, including in discipline-based areas such as history education.

From the perspective of Uzbekistan educators participating in professional development programmes in Malaysia, international academic exposure created opportunities not only for improving teaching competence but also for observing how a globally competitive higher education system functions in practice. During the training process, Uzbek teachers were introduced to Malaysian university management systems, innovative classroom organisation, learner-centred instructional design, and research-based academic culture. This experience

demonstrated that professional development abroad can significantly strengthen educators' motivation to modernise teaching approaches after returning to their home institutions. In particular, participants recognised that higher education internationalisation becomes more effective when teachers themselves directly experience foreign academic environments and later transfer these experiences into local educational practice.

Literature Review. Internationalisation in higher education has shifted from a narrow mobility agenda to a broader institutional strategy. Professional development can be considered a form of academic mobility because it allows educators to learn across borders, exchange practices, and build professional networks. Professional development literature highlights the importance of active learning and contextual adaptation. Guskey (2002) explains that teacher change is influenced by evidence of improved practice and learning outcomes, rather than by information transfer alone. In international training, this principle is important because ideas introduced from another system must be adapted to local curriculum, language, institutional culture, and learner needs.

Digital competence has also become a major requirement for educators. The European Framework for the Digital Competence of Educators, or DigCompEdu, proposes educator-specific competences across professional engagement, digital resources, teaching and learning, assessment, empowering learners, and facilitating learners' digital competence (Redecker, 2017). The rise of generative artificial intelligence further expands this agenda. UNESCO's guidance on generative AI in education and research stresses the need for human-centred, inclusive, ethical, and policy-guided use of AI (Miao & Holmes, 2023). UNESCO's AI Competency Framework for Teachers identifies five dimensions: human-centred mindset, ethics of AI, AI foundations and applications, AI pedagogy, and AI for professional learning (UNESCO, 2024).

For history education, digital and AI-supported pedagogy must be linked with disciplinary thinking. History is not only the memorisation of dates and events; it requires evidence-based interpretation, contextualisation, perspective-taking, and critical judgement. Wineburg (2001) argues that historical thinking involves distinctive ways of reading and reasoning, while Seixas and Morton (2013) identify concepts such as evidence, continuity and change, cause and consequence, historical perspectives, and ethical dimensions. Therefore, AI in history education should support inquiry and interpretation, not replace critical historical judgement.

Recent experiences of Uzbekistan educators participating in training programmes in Malaysia provide practical evidence supporting international professional development literature. Observations indicate that direct participation in foreign academic training allows teachers to compare educational systems, critically evaluate their own pedagogical practices, and adopt innovative strategies suitable for their national context. For many participants, Malaysian higher education institutions offered practical examples of integrating technology with teaching while maintaining strong academic discipline and institutional accountability. This confirms that international professional development contributes not only to knowledge acquisition but also to professional identity transformation, where teachers begin viewing themselves as active contributors to global academic communities rather than isolated national practitioners.

Methodology. This article uses a qualitative reflective case-study approach to examine a bounded example of Malaysia-Uzbekistan professional development collaboration. Case study is suitable for understanding a contemporary educational initiative within its real programme context (Yin, 2018; Merriam & Tisdell, 2016), while reflective inquiry helps interpret professional practice from the experience of implementation (Schön, 1983). The article is therefore not a large-scale impact evaluation, but a practice-based academic reflection informed by programme documents, trainer observation, participant engagement, and post-programme discussion.

The case focused on professional development teacher training programmes conducted for Uzbekistan educators through collaboration involving Universiti Utara Malaysia and partner

institutions in Uzbekistan, including Jizzakh State Pedagogical University. The programmes were selected purposively because they represented an information-rich example of cross-border teacher professional development and higher education cooperation (Patton, 2015). The authors draw on their roles as programme leader/trainer and Uzbek academic collaborator to interpret the experience from Malaysian and Uzbek perspectives.

Data sources consisted of programme documents, trainer observations, participant artefacts, and collaborative reflection. Programme documents included schedules, module descriptions, session activities, presentation tasks, and participant output requirements. Observations focused on participation, questioning, interaction, and engagement. Artefacts included teaching plans, group presentations, reflective discussions, and activity designs. Using multiple qualitative sources supported triangulation and strengthened the credibility of interpretation (Lincoln & Guba, 1985).

The analysis followed a thematic reflection process. Recurring themes were identified in relation to pedagogical change, digital competence, AI awareness, intercultural learning, discipline-based application, and partnership development. Thematic analysis is appropriate for identifying patterned meanings across qualitative evidence and reflective accounts (Braun & Clarke, 2006). The themes were then compared with literature on internationalisation, professional development, digital competence, AI in education, and historical thinking. A limitation is that the article does not claim causal impact on long-term classroom practice; future research should include surveys, interviews, and post-training classroom observation.

Additional reflective evidence emerged from direct feedback provided by Uzbekistan participants during and after the Malaysian training sessions. Informal academic discussions revealed that many participants considered the training environment itself an important learning component. Exposure to structured academic scheduling, collaborative workshop organisation, technology-supported presentations, and interactive trainer-participant communication provided participants with a live demonstration of international standards in higher education practice. These experiential observations strengthened the reliability of the reflective case-study approach because participants were able to evaluate not only training content but also institutional culture and professional academic practices observed during their stay in Malaysia.

Findings. Five main findings emerged from the analysis. First, the programmes encouraged pedagogical renewal through student-centred learning, collaborative tasks, interactive teaching strategies, and reflective planning. Participants were required to design and present teaching ideas, not only listen to lectures. This is important because international professional development should model the active learning approaches that educators are expected to adapt in their own classrooms.

Second, the programmes strengthened awareness of digital pedagogy and AI-supported teaching. Participants showed interest in tools for interaction, assessment, resource development, and feedback. This aligns with UNESCO's view that AI competence should include ethical understanding, human agency, critical evaluation, and pedagogical purpose (Miao & Holmes, 2023; UNESCO, 2024).

Third, the programmes promoted intercultural academic understanding. Uzbekistan educators experienced Malaysian higher education practices, while Malaysian trainers learned about Uzbekistan's educational context, academic traditions, and professional priorities. This reciprocal learning is significant because meaningful internationalisation should not be one-directional; teaching innovation must be adapted to local institutional and cultural realities.

Fourth, the collaboration created opportunities for discipline-based innovation in history education. Digital archives, timelines, maps, guided AI prompts, and collaborative analysis tools can support inquiry-based history learning. However, AI-generated explanations must be checked against credible historical evidence because historical thinking requires source evaluation, contextualisation, and interpretation (Wineburg, 2001; Seixas & Morton, 2013).

Fifth, professional development served as an entry point for sustainable institutional partnership. The programmes created networks that can be expanded into joint publications, guest lectures, comparative research, curriculum dialogue, and future staff mobility. This supports the view that training should be part of a wider cooperation ecosystem rather than an isolated event.

An additional important finding observed among Uzbekistan educators was the significant increase in professional confidence after completing the Malaysian training programme. Participants reported that direct engagement with international academic experts improved their ability to communicate in professional academic discussions, present educational ideas publicly, and critically reflect on their own classroom practice. Many educators also expressed stronger willingness to implement project-based learning, digital classroom management systems, and student-centred assessment methods after returning to Uzbekistan. Furthermore, participation in international professional development strengthened participants' understanding that educational innovation is not limited to technological adoption alone but requires changes in teaching philosophy, institutional culture, and continuous professional self-development.

Discussion. The findings suggest that international professional development supports higher education integration through pedagogical, digital, and institutional dimensions. Pedagogically, educators are introduced to international perspectives while adapting them to their own contexts. Digitally, professional development helps teachers understand that technology and AI must be integrated with learning outcomes, assessment design, student support, and ethical practice. The OECD (2023) notes that effective digital education requires an ecosystem involving governance, capacity, data, technology, and pedagogy.

Institutionally, professional development creates trust and professional contact for future collaboration. In the Malaysia-Uzbekistan case, the collaboration helped establish a bridge for joint research, academic writing, and discipline-based exchange. For history education, this bridge is especially meaningful because Malaysia and Uzbekistan both have rich historical, cultural, and civilisational traditions. Joint academic work can explore themes such as cultural heritage, Islamic civilisation, educational development, regional identity, and comparative historical memory.

A key implication is that AI should be introduced to teachers through a pedagogical and ethical framework. UNESCO (2023) warns that generative AI can affect human agency, inclusion, equity, linguistic diversity, and plural expression if used without guidance. Therefore, international professional development should include practical activities on prompt design, AI-assisted lesson planning, assessment integrity, bias detection, and verification of AI outputs. Teachers should be encouraged to use AI as a supportive partner for professional learning, not as an authority that replaces disciplinary expertise.

Another implication is the need for follow-up mechanisms. Training impact may be limited if participants return to their institutions without peer support, leadership encouragement, or opportunities to test new practices. A sustainable model should include online mentoring, post-training webinars, classroom innovation reports, collaborative action research, and joint publication projects. These mechanisms would allow professional development to contribute to measurable institutional development. For future cooperation, a simple four-stage model is recommended: needs analysis, contextualised training, post-training implementation, and research-based partnership expansion. Participants may apply one innovation in their teaching and document evidence through lesson plans, student feedback, reflections, or student work. This evidence can later support joint papers, comparative studies, curriculum projects, and conference presentations.

From the experience of Uzbekistan participants, one of the most valuable aspects of professional development in Malaysia was the opportunity to observe how educational innovation

operates systematically at the institutional level. Participants noted that Malaysian universities place strong emphasis on integrating research, teaching, technology, and academic leadership within a unified educational ecosystem. This observation encouraged many educators to reconsider traditional teaching models still widely used in some local contexts. In addition, exposure to multicultural academic environments helped participants understand that effective higher education internationalisation requires openness to diverse perspectives, continuous adaptation, and active participation in global knowledge exchange. The training therefore contributed not only to technical skill development but also to broader professional transformation among participating educators.

Conclusion. International professional development is a practical and strategic mechanism for strengthening higher education integration. The Malaysia-Uzbekistan teacher training collaboration demonstrates that professional development can support pedagogical renewal, digital competence, AI awareness, intercultural academic understanding, and long-term partnership development. Such programmes should be treated as part of a sustainable cooperation model, not as one-off activities.

For history education, the collaboration offers a valuable opportunity to connect digital pedagogy with historical thinking, cultural heritage, and intercultural understanding. AI can support history teaching through resource development, translation, questioning, and source exploration, but it must be used critically and ethically. Future cooperation should include discipline-based communities of practice, collaborative research, visiting lectures, and follow-up studies on classroom implementation.

The experience of Uzbekistan educators participating in professional development programmes in Malaysia demonstrates that international training initiatives can produce long-term positive academic and institutional outcomes. Beyond acquiring new teaching strategies, participants developed stronger professional motivation, greater confidence in using digital technologies, improved awareness of international academic standards, and deeper understanding of student-centred educational philosophy. These outcomes suggest that overseas professional development programmes should be expanded as part of Uzbekistan's higher education modernisation strategy. The Malaysia experience shows that direct international academic engagement enables teachers to become agents of institutional change, capable of transferring global educational practices into local contexts while maintaining national educational priorities and cultural identity.

REFERENCES:

1. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77-101.
2. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective teacher professional development*. Learning Policy Institute.
3. de Wit, H., & Altbach, P. G. (2021). Internationalization in higher education: Global trends and recommendations for its future. *Policy Reviews in Higher Education*, 5(1), 28-46.
4. Guskey, T. R. (2002). Professional development and teacher change. *Teachers and Teaching: Theory and Practice*, 8(3), 381-391.
5. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. *Journal of Studies in International Education*, 8(1), 5-31.
6. Lincoln, Y. S., & Guba, E. G. (1985). *Naturalistic inquiry*. Sage.
7. Merriam, S. B., & Tisdell, E. J. (2016). *Qualitative research: A guide to design and implementation* (4th ed.). Jossey-Bass.
8. Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO.

-
9. OECD. (2023). OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an effective digital education ecosystem. OECD Publishing.
 10. Patton, M. Q. (2015). Qualitative research & evaluation methods: Integrating theory and practice (4th ed.). Sage.
 11. Redecker, C. (2017). European framework for the digital competence of educators: Dig-CompEdu. Publications Office of the European Union.
 12. Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.
 13. Seixas, P., & Morton, T. (2013). The big six historical thinking concepts. Nelson Education.
 14. UNESCO. (2024). AI competency framework for teachers. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
 15. Wineburg, S. (2001). Historical thinking and other unnatural acts: Charting the future of teaching the past. Temple University Press.
 16. Yin, R. K. (2018). Case study research and applications: Design and methods (6th ed.). Sage.

«AQL KO‘CHISHI»DAN «AQLLAR ALMASHINUVI»GA (BRAIN CIRCULATION): XALQARO MOBILLIK DASTURLARI MILLIY KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Avezov Baxram Kamilovich,

Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

Innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida intellektual kapital har qanday mamlakat barqaror iqtisodiy o‘shining asosiy drayveriga aylanmoqda. O‘nlab yillar davomida ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar, shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlari, yuqori malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga ommaviy migratsiyasi - «aql ko‘chishi» (brain drain) muammosiga duch keldilar [3:15]. Biroq bugungi kunda, xalqaro integratsiyaning chuqurlashuvi tufayli intellektual resurslar migratsiyasi paradigmasi fundamental o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Chiqib ketish o‘rniga mobillikni bilimlar va innovatsiyalarning uzluksiz almashinuvi jarayoni sifatida ko‘rib chiquvchi «aqlar almashinuvi» (brain circulation) konsepsiyasi kirib kelmoqda [7:45].

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Intellektual mobillik muammolari xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. F. Rizvi va F. Altbaxning ishlari ta’limni baynalmilallashtirishni milliy kapitalni oshirish vositasi sifatida tushunishga asos soldi [6:88]. A. Saksenian texnologik xablardan o‘z mamlakatlariga qaytgan mutaxassislar texnologiyalar transferi va mintaqaviy innovatsion ekotizimlarni yaratish agentlariga aylanishini empirik jihatdan isbotladi [7:112]. Shunga qaramay, ushbu konsepsiyani O‘zbekiston sharoitida moslashtirish mexanizmlari yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Nazariy jihatlar: Brain Drain’dan Brain Circulation’ga. Mobillikka nisbatan an’anaviy qarash uzoq vaqt davomida «nolinchi yig‘indi» modeliga asoslangan bo‘lib, unda donor mamlakat faqat zarar ko‘rar edi [8:34]. Yoshlarning xorijda ta’lim olishi xavf sifatida baholangan. «Aqlar almashinuvi» konsepsiyasi esa boshqacha yondashuvni taklif etadi: mobillik uzoq muddatli investitsiyadir. Ilg‘or xorijiy oliygohda tahsil olayotgan talaba global tadqiqot tarmoqlariga integratsiyalashadi va innovatsion EdTech-yechimlarni o‘zlashtiradi. Vataniga qaytgach, u o‘z universitetining ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish katalizatoriga aylanadi [4:77].

Xalqaro tajriba. «Aql ko‘chishi»ning salbiy oqibatlarini yengib o‘tgan mamlakatlar tajribasini o‘rganish maqsadli davlat siyosatining muhimligini ko‘rsatadi. Janubiy Koreya 1970-1980-yillarda o‘z fuqarolarini xorijga o‘qishga yuborib, parallel ravishda mamlakat ichkarisida g‘arb standartlariga mos mehnat sharoitlariga ega yuqori texnologiyali klasterlarni yaratdi [7:60]. Yevropa Ittifoqida Erasmus+ dasturi ta’lim standartlarini tenglashtiruvchi institutsionallashtirilgan aqlar almashinuvi namunasi hisoblanadi [4:102].

Oliy ta’lim transformasiyasining milliy realliklari. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarini xalqaro ta’lim hududiga integratsiya qilish va baynalmilallashtirish ustuvor vazifalar etib belgilangan [1].

Kadrlarni xorijda maqsadli tayyorlash va qaytib kelgach, ularni ish bilan ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «El-yurt umidi» jamg‘armasi faoliyati bu bo-

rada alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Biroq, mutaxassisning qaytishi - bu faqat birinchi bosqich. Asosiy vazifa uning bilimlarini samarali kapitallashtirishdan iborat.

Institutsional integratsiya muammolari. Qaytib kelgan mutaxassislar (repatriantlar) ko‘pincha institutsional to‘siqlarga duch keladilar: ta‘lim jarayonining byurokratizatsiyasi, eskirgan menejment modellari va akademik moslashuvchanlikning yo‘qligi [9:58]. Agar mutaxassis zamonaviy pedagogik formatlarni (masalan, Blended Learning) joriy eta olmasa, «kasbiy charchash» va «ikkilamchi emigratsiya» xavfi yuzaga keladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida «aqlar almashinuvi»ni rag‘batlantirish mexanizmlari. Mahalliy universitetlarni global iqtidorlarni jalb qilish markazlariga aylantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish taklif etiladi:

Birinchidan, institutsional muxtoriyat va akademik erkinlik. Xorijdan qaytgan o‘qituvchilar qo‘shma dasturlarning (Joint Programs, Double Degree) asosiy koordinatorlari sifatida harakat qilishlari kerak, chunki ular har ikki tomonning mentaliteti va standartlarini yaxshi tushunadilar [6:104].

Ikkinchidan, tadbirkorlik ekotizimlarini yaratish. Universitetlar negizida texnoparklar, biznes-inkubatorlar va texnologiyalar transferi markazlarini (Spin-off kompaniyalar) tashkil etish repatriantlarga o‘z g‘oyalarini tijoratlashtirish va ta‘limni mehnat bozori bilan integratsiya qilish imkonini beradi [5:45].

Uchinchidan, virtual mobillikni rivojlantirish. Collaborative Online International Learning (COIL) dasturlarini joriy etish dunyoning nufuzli universitetlarida ishlayotgan o‘zbekistonlik professorlarni masofaviy ma‘ruzalar o‘qish va ilmiy kengashlarda ishtirok etish uchun to‘liq ko‘chib o‘tish zaruratisiz jalb qilish imkonini beradi [4:92].

Xulosa. «Aqlar almashinuvi» fenomeni obyektiv reallikdir. O‘zbekiston uchun xalqaro mobillik inson kapitalini oshirishning kuchli vositasi sifatida qaralishi kerak. «Aql ko‘chishi»dan «almashinuv»ga o‘tish oliy ta‘lim muassasalari korporativ madaniyatida tizimli o‘zgarishlarni talab qiladi. Ochiq innovatsion muhitning yaratilishi mahalliy universitetlarni eng yaxshi aqlarni jalb qiluvchi, global raqobatbardosh ta‘lim xablariga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabrdagi PF-5545-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xorijda mutaxassislar tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Altbach P. G. Global Perspectives on Higher Education. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2016. – 352 p.
4. De Wit H., Hunter F. The Future of Internationalization of Higher Education in Europe. – International Higher Education, 2015. – P. 77-92.
5. Etzkowitz H. The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action. – London: Routledge, 2008. – 180 p.
6. Rizvi F. Higher Education and the Global Knowledge Economy. – New York: Routledge, 2018. – 280 p.
7. Saxenian A. The New Argonauts: Regional Advantage in a Global Economy. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. – 432 p.
8. Батуренко С. А. «Утечка мозгов» или «циркуляция умов»: современные тенденции международной интеллектуальной миграции // Социологические исследования. – 2020. – № 4. – С. 112-120.
9. Гурулева Т. Л. Интернационализация высшего образования как фактор развития человеческого капитала // Вестник высшей школы. – 2021. – № 2. – С. 34-40.

AKADEMIK MOBILLIK – OLIY TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

**Kasimov Botir Sadriddinovich,
Yakubov Umid Bobayevich,
Gapurova Lobar Narzullayevna,**

*Oliy ta’limni rivojlantirish va
global hamkorlik markazi, O‘zbekiston*

Hozirgi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashish va ta’lim sifatini oshirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda akademik mobillik muhim vosita hisoblanadi. U talabalar va professor-o‘qituvchilarga xorijiy hamda mahalliy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish, ilmiy izlanish olib borish va tajriba almashish imkoniyatini yaratadi. Mamlakatimizda kredit-modul tizimining joriy etilishi akademik mobillikni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda. Natijada ta’lim dasturlarining o‘zaro mosligi, kreditlarni tan olish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentyabrdagi 578-qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida talabalarining akademik mobilligi tashkil etilmoqda.

Akademik mobillik ishtirokchilarga rivojlangan oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilayotgan ilg‘or o‘qitish metodlari, raqamli ta’lim texnologiyalari hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni bevosita o‘rganish imkonini beradi. Natijada talabalar va professor-o‘qituvchilar zamonaviy bilimlarni egallaydi, interfaol ta’lim usullarini amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or tajribalarni o‘z faoliyatiga joriy etadi. Bu esa ta’lim sifatini yuksaltirish, kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlash va xalqaro ta’lim standartlariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Akademik mobillik ishtirokchilarining xorijiy tillar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha;

Akademik mobillik dasturlari ishtirokchilarga xorijiy tillarni tabiiy til muhitida o‘rganish va amaliy qo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi. Ta’lim jarayonida chet tilida ma’ruzalarda qatnashish, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etish, ilmiy loyihalarni bajarish hamda mahalliy va xorijiy talabalar bilan muloqot qilish orqali tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Bunday tajriba ishtirokchilarning akademik va kasbiy terminologiyani o‘zlashtirishiga, ilmiy maqolalarni tahlil qilish hamda xalqaro ilmiy anjumanlarda erkin ishtirok etish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xorijiy til kompetensiyasining rivojlanishi bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi, xorijiy hamkorlar bilan samarali muloqot olib

borish, xalqaro grant va ilmiy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois akademik mobillik nafaqat til ko'nikmalarini takomillashtirish, balki shaxsning kasbiy va ilmiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Akademik mobillik ishtirokchilarining xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish bo'yicha:

Akademik mobillik professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va talabalar uchun xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda olib boriladigan ilmiy izlanishlar zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o'zlashtirish, ilg'or tadqiqot metodologiyalaridan foydalanish hamda dolzarb ilmiy muammolarni birgalikda hal etishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik natijasida qo'shma ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv-uslubiy ishlanmalar yaratiladi, ilmiy natijalar nufuzli xalqaro jurnallarda e'lon qilinadi.

Shuningdek, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini oshiradi, ilmiy grantlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi va xalqaro akademik hamkorlik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy salohiyati mustahkamlanadi, innovatsion tadqiqotlar ko'lami kengayadi hamda ilm-fan va ta'lim integratsiyasi yanada rivojlanadi. Bu esa mamlakat oliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Akademik mobillik ishtirokchilarining ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha:

Akademik mobillik - oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Xorijiy universitetlar bilan amalga oshiriladigan hamkorlik natijasida o'quv rejalari va fan dasturlari zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda yangilanadi, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqiladi hamda xalqaro ta'lim standartlariga uyg'unlashtiriladi. Bu jarayonda kredit-modul tizimi, ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy mezonlari va sifatni ta'minlash mexanizmlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, akademik mobillik doirasida o'zlashtirilgan ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion o'qitish metodlari milliy ta'lim tizimiga tatbiq etilishi natijasida ta'lim mazmuni va sifati yanada takomillashadi. Xalqaro standartlarga moslashtirilgan ta'lim dasturlari bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi hamda diplomlarning xalqaro miqyosda tan olinishiga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro reytinglardagi o'rni mustahkamlanib, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifati izchil yuksaladi.

Akademik mobillik ishtirokchilari bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha:

Akademik mobillikda ishtirok etuvchi bitiruvchilarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallashida muhim omil hisoblanadi. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olish yoki ilmiy-amaliy faoliyat olib borish jarayonida talabalar xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or ta'lim metodlarini o'zlashtiradilar. Natijada ularda tahliliy va tanqidiy fikrlash, muammolarni samarali hal etish, jamoada ishlash, yetakchilik va madaniyatlararo muloqot kabi kasbiy kompetensiyalar rivojlanadi.

Bundan tashqari, akademik mobillik bitiruvchilarning xorijiy tillarni amaliy darajada egallash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda xalqaro standartlar asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur kompetensiyalar bitiruvchilarning nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardoshligini oshiradi, ularning nufuzli tashkilotlar va xalqaro kompaniyalarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, akademik mobillik tajribasiga ega mutaxassislar innovatsion fikrlash, yangi sharoitlarga tez moslashish va uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish kabi sifatleri bilan ajralib turadi. Bu esa ularning mehnat

bozorida yuqori talabga ega bo'lishiga hamda mamlakatning intellektual va innovatsion salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

Akademik mobillik ishtirokchilarining moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi bo'yicha:

Akademik mobillik dasturlarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolardan biri moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarli darajada keng emasligidir. Talabalar, doktorantlar va professor-o'qituvchilarning xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishi yoki ilmiy faoliyat olib borishi bilan bog'liq transport, yashash, sug'urta, viza va boshqa tashkiliy xarajalar ko'pincha katta moliyaviy mablag'larni talab etadi. Shu sababli barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashda moliyaviy omil muhim to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Akademik mobillik zamonaviy oliy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida akademik mobillikni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Kelgusida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, kreditlarni o'zaro tan olish tizimini takomillashtirish va akademik mobillik dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ushbu jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentyabrdagi 578-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom"
4. UNESCO. Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education. Paris: UNESCO, 2019.
5. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. European Commission. Erasmus+ Programme Guide. Brussels: European Commission, 2025.

INTERNATIONAL INTEGRATION OF HIGHER EDUCATION IN JAPAN: 2025–2026 AND FORECASTS FOR 2030

Toirov Shukhrat Adkhamovich,

*Center for Higher Education Development and
Global Cooperation, Uzbekistan*

International integration of higher education is becoming increasingly important in the context of globalization. Japan, as one of the leading countries in education, is actively developing academic mobility, joint programs, and cooperation with foreign universities. Global educational cooperation for Japan is not merely an academic goal, but a strategic response to population decline and aging. In 2025–2026, the internationalization strategy shifted from quantity to quality, with an emphasis on English-taught programs (ETP) and attracting highly qualified specialists. This thesis examines key aspects of the international integration of higher education in Japan in 2025–2026, as well as forecasts for 2030.

Table No. 1. Dynamics of Key Mobility Indicators

Year	Foreign Students in Japan	Government Target	Japanese Students Abroad	Joint/Double Degree Programs (JDP)
2023	340,000	400,000 by 2033	91,000 (estimate)	27 (as of 2022)
2024	402,000	400,000 by 2033	91,054 (JASSO)	30+ (national level)
2025	435,200	Exceeded by 8 years	168,930 (JAOS: group trips)	30 (Keio alone)
2026	Target revision	464,000	Decline in individual mobility	Project scaling

(Data sources: JASSO, MEXT, Immigration Services Agency, ICEF Monitor 2026.)

As of 2026, thanks to visa liberalization and the weak yen exchange rate, Japan recorded a record influx of new students (in 2025 alone — 180,000 first-year students) [1,9,11].

Table No. 2. Structure of Inbound Mobility by Type of Institution

Type of Institution	Enrollment 2025	Year-on-Year Growth	Share of Total Students
Language Schools	140,174	+32,933	32%
Universities	156,593	+7,692	36%
Colleges / Vocational Schools	106,829	+30,427	24%
Other (trainees, programs)	31,500	—	8%
Total	408,069 (MEXT base)	+21.2% (MEXT base)	100%

(Data sources: JASSO, MEXT, Immigration Services Agency, ICEF Monitor 2026.)

Note: The discrepancy with the total figures from the Immigration Agency is related to the counting methodology (short-term visas and students in the process of changing their status).

Outbound Mobility Trend: While foreign students flock to Japan, there is a slowdown in long-term outbound travel by Japanese students (-43.5% individual study trips abroad). The reason is the expansion of English-taught programs within Japan, inflation, and financial pressure due to the weak currency, which leads students to prefer shorter study trips (less than 1 month) to Asian countries (Philippines, Thailand, China) rather than the USA or Canada.

Joint Educational Programs (JDP and DDP). Japanese universities are actively overcoming their traditional insularity through the implementation of Double Degree and Joint Degree programs [5,6,9].

Table No. 3. Statistics on Joint Degree Programs

Partner University in Japan	Number of Joint/Dou- ble Degree Programs	Key Focus Regions and Areas
Kyushu University	12+ (Joint degrees)	Engineering, economics (Asia, Europe)
Keio University	30 (Double degrees)	Business, global affairs (USA, France)
Hokkaido University	15+ (DDP / CRG)	Agriculture, earth sciences (ASEAN, Germany)
THERS (Nagoya + Gifu)	11 (within consortium)	Biosciences, materials science

(Data sources: JASSO, MEXT, Immigration Services Agency, ICEF Monitor 2026.)

The Ministry of Education (MEXT) has launched a dedicated grant to increase the number of joint degrees nationwide to 50 by 2033. A ‘Council of Inter-University Programs of Japan’ is being formed to standardize curricula with overseas universities. Global cooperation trends are focused on STEM and Asia. Currently, there is a strong reliance on Asian countries. The largest sources remain China, Vietnam, Nepal, and Myanmar. Japan is integrating its students into economically critical sectors. For example, international students are increasingly attracted to master’s and doctoral programs in robotics and semiconductors (Tokyo Tech, Osaka University). The JICA Agency (Japan International Cooperation Agency) has trained 6,700 specialists over the past 25 years, many of whom hold senior government positions in Southeast and Central Asian countries. Education is used as a pillar for diplomatic and trade influence [1,2,3,8].

Increase in the number of foreign students — it is expected that by 2030, the number of foreign students in Japan will reach approximately 500,000, which will further promote academic mobility and cultural exchange (MEXT, forecast). Expansion of joint programs — it is projected that by this time, the number of joint programs will grow to more than 300, significantly increasing the number of students receiving dual degrees and broadening their horizons. Sustainable development of international cooperation — Japan will continue to actively develop international cooperation in the field of higher education, which will contribute to improving the quality of education and strengthening the country’s position on the international stage [1,4,10].

The international integration of higher education in Japan represents a dynamic process that includes academic mobility, joint programs, and global cooperation. By 2030, these trends are expected to continue to develop, contributing to the improvement of educational quality and the strengthening of international ties.

REFERENCES:

1. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). (2024). Annual Report on the Status of International Students in Japan.
2. Japan Student Services Organization (JASSO). (2024). Survey on International Exchange Programs.
3. OECD. (2023). Education at a Glance: OECD Indicators.
4. UNESCO Institute for Statistics. (2024). Global Education Monitoring Report.
5. Statista. (2023). Number of International Students in Japan.
6. Results of International Student Survey in Japan (2025). Japan Student Services Organization (JASSO). — Available at: Official Study in Japan website.
7. Education at a Glance 2026: Japan. OECD Publishing. — Available at: OECD (https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025_1a3543e2-en/japan_8f0a8541-en.html).

-
8. Japan hits internationalisation target eight years early. The PIE News (February 2026). — Available at: The PIE News (<https://thepienews.com/japan-hits-internationalisation-target-eight-years-early/>).
 9. Japan exceeds 400,000 international student goal 8 years early. Educations.com (February 2026). — Available at: Educations.com Higher Education News.
 10. MEXT Scholarship: Japanese Government Policies on International Education (2025–2026). Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). — Available at: MEXT Policy (<https://www.mext.go.jp/en/policy/education/highered/title02/detail02/sdetail02/1373897.htm>).
 11. Japan aims to double joint degrees by 2033. British Council — Prospects and Challenges for Student Mobility (2024). — Available at: British Council.

THE ROLE OF 21ST-CENTURY SKILLS IN MODERNISING ENGLISH TEACHER EDUCATION PROGRAMMES

Baxromova Irodaxon Bobirxon qizi,

*Center for Higher Education Development and
Global Cooperation, Uzbekistan*

Introduction. The rapid advancement of digital technologies, globalization and knowledge-based economies has transformed the expectations placed on higher education. Universities are increasingly expected to develop not only disciplinary knowledge but also the 21st-century skills required for lifelong learning, innovation and adaptability [1:5; 2:17–19; 7:5].

International frameworks consistently identify critical thinking, creativity, communication, collaboration and digital literacy as key transferable skills that complement professional competence and enable graduates to respond effectively to complex educational and professional environments [2:18–19]. These competencies are particularly important in English teacher education, where future teachers are expected to integrate technology, promote learner-centred instruction and prepare students for contemporary educational contexts [7:15–16].

Although competence-based reforms have become an important direction of higher education in Uzbekistan, limited empirical evidence exists regarding how pre-service English teachers perceive opportunities to develop these competencies. Therefore, this study examines the role of 21st-century skills in the modernisation of English teacher education programmes by integrating international theoretical frameworks with findings from a pilot needs analysis involving 190 pre-service English teachers. The study provides evidence-informed implications for programme modernisation and continuous quality improvement.

Theoretical Background.

2.1. 21st-century skills in teacher education. The concept of 21st-century skills has gained considerable attention in higher education as societies increasingly require graduates who can adapt to technological, economic and social change. International frameworks developed by OECD, UNESCO, P21 and Binkley et al. consistently identify critical thinking, creativity, communication, collaboration and digital literacy as essential competencies for lifelong learning and professional success [2:18–19; 7:19]. Although these frameworks differ in terminology, they share the common view that such competencies complement disciplinary knowledge and professional competence rather than replace them.

2.2. 21st-century skills and English teacher education. Within English teacher education, 21st-century skills support future teachers in creating learner-centred, technology-enhanced and collaborative learning environments. In addition to pedagogical and subject-specific competence, English teachers are expected to integrate digital technologies, foster critical thinking and creativity, and develop students' communication and collaboration skills [7:15–19]. Therefore, integrating these competencies into teacher education programmes has become an import-

ant direction for programme modernisation and quality enhancement. Based on the reviewed literature, this study adopts a conceptual framework that links international 21st-century skills frameworks with the professional competence of pre-service English teachers and programme modernisation.

Pilot Needs Analysis: Findings and Discussion.

3.1. Research Design. To explore pre-service English teachers' perceptions of 21st-century skills development, a pilot needs analysis was conducted using a quantitative survey design [18]. The study involved 190 pre-service English teachers enrolled at higher education institutions in Uzbekistan. The questionnaire was developed based on widely recognised international frameworks of 21st-century skills and included five dimensions: critical thinking, creativity, communication, collaboration, and digital literacy [2:18–19; 7:3–4].

Participants evaluated both the perceived importance of each competency and the extent to which it was developed during their university studies. Descriptive statistics were used to identify gaps between these two dimensions and to determine areas requiring further programme enhancement.

3.2. Findings. The results indicate that all five competencies were perceived as important for future English teachers. However, noticeable differences were found between their perceived importance and the opportunities for their development within existing programmes. The largest gaps were identified in critical thinking (33.7%), creativity (32.7%), and information, media and technology skills (32.6%), while collaboration (13.7%) showed the smallest gap. These findings suggest that although teacher education programmes recognise the value of 21st-century skills, their systematic integration into learning experiences remains uneven.

Implications for Programme Modernisation.

The findings suggest that the development of 21st-century skills should become a more systematic component of English teacher education programmes. Although students recognise the importance of these competencies, the identified gaps indicate opportunities for further curriculum enhancement. Therefore, programme modernisation should integrate 21st-century skills across curriculum design, teaching methods and assessment practices rather than treating them as separate learning outcomes.

Particular attention should be given to strengthening critical thinking, creativity and digital literacy through collaborative learning, problem-based activities and technology-enhanced instruction. Such improvements can better prepare future English teachers for rapidly changing educational environments while supporting continuous quality enhancement in higher education [2:47–54; 7:15–19]. The pilot findings provide several practical implications for the modernisation of English teacher education programmes. The relationship between the main findings and their programme implications is summarised in table 1.

Table 1. Implications of the pilot study for programme modernisation.

Pilot study evidence	Programme implication
Variation in perceived development across the five skills	Balance opportunities to develop all dimensions of 21st-century skills
Positive perceptions of collaborative and digital learning	Expand collaborative, technology-enhanced learning activities
Students' feedback provides useful evidence	Integrate regular student feedback into programme evaluation and quality assurance
21st-century skills complement professional competence	Embed transferable skills across pedagogical and subject-specific courses

As illustrated in table 1, the pilot study findings suggest that programme modernisation should focus on balanced skills development, collaborative and technology-enhanced learning, systematic student feedback, and the integration of transferable skills across the curriculum.

Conclusion. This study examined the role of 21st-century skills in the modernisation of English teacher education programmes by combining international theoretical frameworks with evidence from a pilot needs analysis involving pre-service English teachers in Uzbekistan. The findings indicate that critical thinking, creativity, communication, collaboration and digital literacy complement professional competence and are essential for preparing future English teachers. The identified gaps between the perceived importance and development of several competencies highlight the need for their more systematic integration into teacher education programs. These findings provide evidence-informed implications for curriculum enhancement, teaching practices and continuous quality improvement. Although the study was based on a pilot sample, it offers a useful foundation for future large-scale research and supports ongoing efforts to modernize English teacher education in line with international expectations.

REFERENCES:

1. Ananiadou K., Claro M. 21st Century Skills and Competences for New Millennium Learners in OECD Countries. OECD Education Working Papers, No. 41. Paris: OECD Publishing, 2009. https://www.oecd-ilibrary.org/education/21st-century-skills-and-competences-for-new-millennium-learners-in-oecd-countries_218525261154
2. Binkley M., Erstad O., Herman J., Raizen S., Ripley M., Miller-Ricci M., Rumble M. Defining Twenty-First Century Skills. In: Griffin P., McGaw B., Care E. (Eds.). *Assessment and Teaching of 21st Century Skills*. Dordrecht: Springer, 2012. pp. 17–66. DOI: https://doi.org/10.1007/978-94-007-2324-5_2
3. OECD. OECD Learning Compass 2030: Concept Note. Paris: OECD Publishing, 2019. <https://www.oecd.org/education/2030-project/>
4. Partnership for 21st Century Learning. *Framework for 21st Century Learning*. Washington, DC: Battelle for Kids, 2015. <https://www.battelleforkids.org/networks/p21>
5. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu)*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: <https://doi.org/10.2760/159770>
6. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers (Version 3)*. Paris: UNESCO, 2018. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000265721>
7. Voogt J., Roblin N. P. A Comparative Analysis of International Frameworks for 21st Century Competences: Implications for National Curriculum Policies. *Journal of Curriculum Studies*. 2012. Vol. 44, No. 3. pp. 299–321. DOI: <https://doi.org/10.1080/00220272.2012.668938>

OLIJ TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH JARAYONINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY XUSUSIYATLARI

Diyorov Sardorbek Husanboy o'g'li,

*Yoshlar muammolarini o'rganish va
istiqbollari kadrlarni tayyorlash instituti, O'zbekiston*

Zamonaviy globallashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ilmiy salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasi faqat milliy chegaralar doirasida rivojlanadigan ichki ijtimoiy institut emas, balki xalqaro hamkorlik, akademik mobillik, madaniyatlararo muloqot va davlatlarning global ta'sir doirasini kengaytiruvchi strategik maydon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayoni ta'lim siyosatining alohida yo'nalishi bo'lish bilan birga, davlatning tashqi siyosati, iqtisodiy manfaatlari va xalqaro imiji bilan bevosita bog'liq murakkab ijtimoiy-siyosiy fenomen hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalqaro ta'lim xizmatlari, xorijiy talabalarni jalb qilish, qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplomli dasturlar, transmilliy ta'lim, xorijiy universitetlar filiallari va raqamli ta'lim platformalarining kengayishi oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayoniga yangi mazmun bermokda. Ushbu jarayon orqali davlatlar nafaqat qo'shimcha iqtisodiy daromadga ega bo'ladi, balki o'z madaniy qadriyatlari, ilmiy yutuqlari, milliy brendi va siyosiy ta'sir imkoniyatlarini ham xalqaro maydonda targ'ib etadi. Natijada oliy ta'lim xalqaro bilimlar almashinuvi bilan bir qatorda, yumshoq kuch, ta'lim diplomatiyasi va inson kapitalini rivojlantirish vositasiga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayoni milliy ta'lim tizimining jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi, ta'lim sifatining xalqaro standartlarga moslashuvi, akademik va ilmiy hamkorlikning kengayishi hamda global kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash zarurati bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, mazkur jarayon davlatlarning milliy manfaatlari, madaniy identikligi, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro siyosiy mavqega ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oliy ta'limni xalqarolashtirishni faqat pedagogik yoki tashkiliy jarayon sifatida emas, balki keng ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega strategik yo'nalish sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda liberal nazariya, yumshoq kuch konsepsiyasi, madaniy-integratsion yondashuv, inson kapitali nazariyasi, dunyo tizimi nazariyasi, postkolonial yondashuv va integrativ nazariya asosida oliy ta'lim xalqarolashtirishining mazmuni, mexanizmlari va xalqaro munosabatlardagi o'rni yoritiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy globallashtirish sharoitida aksariyat rivojlangan mamlakatlarning ta'lim eksporti ularning iqtisodiy va geosiyosiy raqobatdagi ustunligini ifoda etuvchi muhim strategik omil sifatida qaraladi. Chunki, xalqaro ta'lim xizmatlari orqali mamlakatlar nafaqat qo'shimcha iqtisodiy daromad manbaiga ega bo'ladilar, balki o'z milliy qadriyatlari, madaniy merosi, ilmiy salohiyati va siyosiy ta'sir doirasini ham kengaytirish imkoniyatiga erishadi.

Shu jihatdan, oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirish jarayoni ta'lim sohasining ichki islohotlari doirasidan chiqib, davlatning tashqi siyosati, iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro nufuzini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-siyosiy mexanizmga aylangan.

Oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirishning ijtimoiy-siyosiy jihatlari, eng avvalo, uning inson kapitalini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish, akademik mobillikni rag'batlantirish hamda mamlakatlarning global bilimlar makonidagi o'rnini mustahkamlash bilan ahamiyat kasb etadi.


Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari milliy ta'lim siyosati samaradorligini oshirish, xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va mamlakatning global raqobatbardoshligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Mazkur jarayonning mazmuni, mexanizmlari va ijtimoiy-siyosiy ta'sirini chuqur tahlil qilish milliy oliy ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalashning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Albatta, oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayonlari mamlakatning milliy manfaatlari, madaniy identikligi, ijtimoiy barqarorligi hamda tashqi siyosiy imiji bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida tadqiq etilishini taqozo etadi. Mazkur jarayonni tadqiq qilishning zaruriyati, avvalo, xalqaro akademik mobillik, transmilliy ta'lim, qo'shma ta'lim dasturlari, xorijiy universitetlar filiallari va raqamli ta'lim platformalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Umuman olganda oliy ta'limni xalqarolashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Milliy oliy ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalash.
2. Ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish.
3. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning xalqaro hamkorligini kuchaytirish.
4. Akademik mobillikni rivojlantirish va global kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash.
5. Davlatning xalqaro nufuzi va intellektual salohiyatini mustahkamlash.
6. Raqamli va innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish orqali bilimlar iqtisodiyotiga mos inson kapitalini rivojlantirish.

Oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirishning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari oliy ta'limni xalqarolashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir. Chunki mazkur nazariyalarda xalqarolashtirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish yoki akademik hamkorlikni kengaytirish jarayoni, balki davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy munosabatlarni rivojlantiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Shu bois, xalqarolashtirishning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari uning nazariy asoslarida aks etgan xalqaro integratsiya, madaniyatlararo muloqot, akademik mobillik va global hamkorlik tamoyillarida ko'rishimiz mumkin.

Oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayonlarini tadqiq qilishda bir necha asosiy nazariy yondashuvlarga murojat qilinadi. Bunda har bir yondashuv globalizatsiya jarayonining ta'limga ta'siri, universitetlararo xalqaro raqobat, sarmoya va madaniy tashabbuslarning o'z aksini topadi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'limni xalqarolashtirish bo'yicha o'ziga xos nazariyalar

Oliy ta'limni xalqarolashtirish bo'yicha quyidagi nazariyalarga tayaniladi:

1. Liberal nazariya. Bu yondashuvga ko'ra, xalqaro ta'lim globallashtirish – bozor iqtisodiyoti va global raqobatning tabiiy natijasida shakllanadi. Neoliberal g'oyalar bo'yicha davlat roli qisqarib, ta'lim bozorga bo'ysundiriladi. Ta'lim "eksport" mahsuloti, oliy o'quv yurti esa, biznes subyekti sifatida qaraladi. Shu bois, universitetlar global reytinglarda raqobatlasha boshlaydi, talaba va professorlarni "resurs" sifatida jalb etadi. Neoliberal talabalar oqimini ko'proq daromad manbai sifatida ko'radi – mablag' kiritish nuqtayi nazaridan. Bu yondashuvda "ta'lim eksporti" tushunchasi muhim: chet ellik talabalar o'qishi uchun to'laydigan kontrakt to'lovlari va yashash xarajatlari mamlakat uchun xorij valyutasi oqimini yaratadi [3]. Neoliberalizm ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim xizmatlari global savdoga aylantirilib, istagan mamlakat o'z ta'lim standartlarini va kurslarni bozordagi talabga qarab tezkor moslaydi. Shu boisdan, bunda ingliz tili va xalqaro akkreditatsiya tizimlari ustun bo'ladi [1].

2. "Soft Power" (yumshoq kuch) nazariyasi. "Soft Power" bu – ilg'or davlatlar o'z madaniy va intellektual imkoniyatlari orqali xalqaro ta'sirini oshirish strategiyasidir. Bu nazariya yondashuv, amerikalik siyosatshunos olim Jozef Nay tomonidan ishlab chiqilgan [5]. Jozef Nayning fikricha, davlatlar o'z maqsadlariga faqat harbiy yoki iqtisodiy bosim (qattiq kuch – Hard Power) orqali emas, balki madaniyat, ta'lim, ilm-fan, qadriyatlar va diplomatiya orqali ham erishishi mumkin. Bu ta'sir usuli yumshoq kuch deb ataladi. Oliy ta'limni xalqarolashtirish nuqtayi nazaridan Jozef Nay nazariyasi muhim ahamiyatga ega, chunki [9]:

- xorijiy talabalarni jalb qilish;
- xalqaro universitet filiallarini ochish;
- akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirish;
- milliy ta'lim tizimining xalqaro nufuzini oshirish, davlatning yumshoq kuchini kuchaytiradi va uning xalqaro ta'sirini kengaytiradi.

Bu nazariyaga ko'ra, oliy ta'lim – davlatning yumshoq kuch manbai hisoblanadi. Ya'ni, chet ellik talabalarga ta'lim berish orqali davlat o'zining madaniy-qimmat va xalqaro imidjini shakllantiradi. Masalan, AQSH yoki Buyuk Britaniya kabi davlatlar yuqori darajadagi universitetlari orqali talabalar va tadqiqotchilarni jalb etadi. Bu nafaqat iqtisodiy foyda (olib keladigan dollar-daromad), balki siyosiy-ma'naviy aloqalarni mustahkamlaydi. O'qishni tamomlagan talabalar asosan chet ellik davlatlardagi munosabatlarida ishonchli gumanitar ko'priikka aylanadi. Yuritilgan tashqi siyosat mamlakatning xalqaro maqomini ko'taradi. To'g'ri, bu jarayonda ham tanqidlar mavjud: ayrim tahlilchilarga ko'ra, yuksak reytingli universitetlar jozibadorligi madaniy dominatsiya va elitizmni kuchaytirishi mumkin. Biroq olimlar aksariyat hollarda oliy ta'limni davlatning yumshoq diplomatiya quroli sifatida hisoblaydi [5].

Jozef Nay ta'kidlashicha, davlatning "yumshoq kuchi"i – bu kuchli qurolli va iqtisodiy potensialdan tashqari, ilm va tarbiya orqali ta'sir etish qobiliyatidir. "Oliy ta'lim milliy brend va yumshoq kuch manbai bo'lib, xalqaro talabalar xuddi bir diplomat sifatida uning madaniy qadriyatlarini ommalashtiradi" degan g'oyani ilgari suradilar.

3. Madaniy integrallashtirish nazariyasi. Ushbu yondashuvda globalizatsiya – xalqaro madaniyatlararo muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Maqsadi global fuqarolikni shakllantirish, madaniyatlararo kompetensiyalarni oshirish, ta'lim tizimi orqali tinchlik, ko'p madaniyatlilik va dunyo bo'ylab hamkorlikni chuqurlashtirishga urg'u beriladi. Bunda talabalar almashinuvi, birgalikda dasturlar, hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari ustun ahamiyatga ega. Misol sifatida Erasmus+ va boshqa ta'limiy almashuv dasturlarini keltiramiz. Bunday dasturlar doirasida talabalarning turli-tuman mamlakatlarda o'qishi ularning dunyoqarashini kengaytiradi, boshqalar madaniyati, urf-odatlar bilan tanishtiradi. Olimlar fikricha, global fuqarolik ta'limi "ta'lim diplomatiyasi" ning muhim qismi bo'lib, ta'limiy diplomatiya orqali xalqaro hamjihatlikni kuchaytiradi [10]. UNESCO mutaxassisleri ham e'tirof etadiki,

madaniy diplomatiya global fuqarolikni rivojlantiradi va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Unga ko'ra, sanatkorlar va talabalar almashuvi ko'prik vazifasini o'taydi.

Chet el universitetlari bilan birlashgan qo'shma o'quv dasturlari, ikki tomonlama diplomlar, to'liq yoki qisman o'quv dasturi almashinuvi – bularning barchasi madaniyalararo ramzlar sanaladi. Bu yondashuv munosabati bilan “ta'lim bozori”dan farqli ravishda madaniy va ijtimoiy intilishlar ta'lim siyosatida ko'proq qadr topmoqda.

4. Inson kapitali nazariyasi. Bu yondashuv ta'limni iqtisodiy taraqqiyot uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiya deb biladi. Gary Beker kabi iqtisodchilar ta'kidlaganidek, “ta'lim xarajatlari” – keyinchalik daromadga aylanadigan sarmoyadir [2].

Hayot bo'yi ta'lim sifati va zamonaviy bilimlarning ahamiyati ortgani sari, STEM sohalariga urg'u berish va olimlar hamkorligini kengaytirish diqqatga sazovor bo'lmoqda. Innovatsiyalar va texnologiya transferi xalqaro hamkorlik orqali tezlashadi. Donald Gilliyes so'zlariga ko'ra, inson kapitali modeli ta'limni “davlat ta'lim tizimini iqtisodiy o'sish uchun foydalaniладigan vositaga aylantiradi”. Ya'ni, oliy ta'lim – iqtisodiyotning yangi rivojlanish drayveriga aylantiradi. Mazkur nazariya doirasida ilm-fan va texnika sohasidagi hamkorlik alohida ta'kidlanadi. Chunki xorijiy muhitda o'qigan muhandislar, tadqiqotchilar o'z yurtiga qaytib, yangi texnologiyalar va ilg'or tajriba olib keladi. Ayni vaqtda, ma'lumotlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim mutaxassisleri – mamlakatning eng asosiy resursi hisoblanadi. Shu bois, ko'plab davlatlar, xususan, rivojlanayotganlar mamlakatlarning talabalarga grantlar taqdim etmoqda.

5. Dunyo tizimi nazariyasi (World Systems Theory). Immanuyel Vallerstein tomonidan ilgari surilgan ushbu makro-sotsiologik konseptsiya butun dunyoni “bir tizim” deb qaraydi [8]. Unga ko'ra, global ta'lim tizimi markaziy (zarur iqtidorlari boy) va periferik (kam rivojlangan) davlatlar muhitiga bo'linadi. Markaziy mamlakatlar – asosan AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiya kabi bozor-samarador kuchga ega bo'lgan sanoatlashgan ijtimoiy tizimlardir. Ular ta'limning global standartlarini belgilaydi, ilmiy tadqiqot loyihalarini moliyalashtiradi. Periferiyada esa ko'pincha rivojlanayotgan davlatlar, resurslarni eksport qilib, kam malakali ishchi kuchini ta'minlaydi. Asosiy muammo, bu hech qachon teng raqobat muhitini yaratmaydi, aksincha “markaz-periferiya” munosabatlarini mustahkamlaydi.

Masalan, Dunyo tizimi nazariyasi ta'kidlashicha, taraqqiy etgan mamlakatlar ta'lim standartlarini nazorat qiladi va ularni global agent sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa shular bilan hamqadam bo'lish uchun o'z ta'lim tizimlarini qayta qurishga majbur bo'ladi [7].

Bu holat, tahlilchilarga ko'ra, mahalliy ilm-fan va tilni chetda qolishiga olib keladi. Boshqa tomondan, “migratsiya oqimi” yoki “aql zohirasi” (brain drain) muammosi ham dunyo tizimi nuqtayi nazaridan muhim – rivojlangan mamlakatlarga yuqori malakali kadrlar oqadi, chekka mamlakatlarda bilimlar, tajriba rivojlanmay qoladi. Biroq, bu nazariyaga ko'ra, o'z o'rnida qudratli mamlakatlar manfaatlariga qarshi strategiya ham bo'lishi mumkin.

6. Postkolonial nazariya. Bu nazariyaga ko'ra, global ta'limdagi tengsizliklar asosan g'arb markazchiligi va kolonial merosdan kelib chiqadi. Xorijiy talabalar ko'pincha G'arb universitetlari ustun pozitsiyasini tanqid qiladi va mahalliy bilimni chetda qolishga moyil bo'lib ko'radi. Masalan, ingliz tili akademik hukmronlik vositasiga aylanadi, va bu g'arb o'qituvchilarga katta afzallik beradi. Olimlarning fikricha, «G'arb universitetlari global oliy ta'lim tizimida ustun pozitsiyada turadi», bu esa o'z navbatida ma'naviy va intellektual mustamlakaga olib keladi.

Postkolonial nazariya bo'yicha, bunday ta'lim siyosati ko'pincha Global Janub uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Chop etilgan tadqiqotlarda “o'qituvchilarning fikricha, xalqaro ta'lim steril g'arb tamoyillari bo'ylab davom etadi va boshqa tillar hamda xalqlar bilimini yo'qotishi mumkin” deb qayd etiladi [6].

Masalan, ba'zi mutaxassislar chet elda o'qigan talabalar salbiy tajriba orttirib, o'z yurtlariga qaytganidan so'ng ham ularning ba'zilar mahalliy jamiyat an'alariga moslashishda qiynaladi.

7. Kompleks (integrativ) yondashuv. Zamonaviy tadqiqotchilar ko‘pincha xalqaro ta’limning faqat iqtisodiy yoki madaniy jihatlar bilan tushuntirilishini yetarli emas deb biladi. Bunda Jane Nayt va Hans de Vit kabi mutaxassislar ta’limni ko‘p “o‘lchovli jarayon” deb keltiriladi. Kompleks yondashuvga ko‘ra, oliy ta’limni xalqarolashtirish universitet faoliyatining barcha yo‘nalishlariga xalqaro va madaniyatlararo o‘lchamlarni tizimli ravishda kiritish jarayoni hisoblanadi[4].

Mazkur yondashuv xalqarolashtirishning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini kompleks tarzda yoritib, akademik hamkorlik, madaniyatlararo muloqot, ta’lim sifati va global integratsiyaning o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi.

Oliy ta’limni xalqarolashtirish nazariyalari mazkur jarayonning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik asosini tashkil etib, uning xalqaro integratsiya, madaniyatlararo hamkorlik, akademik mobillik va davlatlarning global raqobatbardoshligiga ta’sirini ilmiy jihatdan izohlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limni xalqarolashtirish jarayoni zamonaviy globallashtirish sharoitida faqat ta’lim sohasidagi tashkiliy yoki akademik islohotlar bilan cheklanmaydi. U davlatning iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro raqobatbardoshligi, ilmiy salohiyati, madaniy imiji va tashqi siyosiy ta’sirini mustahkamlovchi muhim ijtimoiy-siyosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro talabalar mobilligi, qo‘shma ta’lim dasturlari, xorijiy universitetlar filiallari, transmilliy ta’lim va raqamli ta’lim platformalari orqali mamlakatlar jahon ta’lim makoniga integratsiyalashish, inson kapitalini rivojlantirish va global bilimlar iqtisodiyotida munosib o‘rin egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limni xalqarolashtirishning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari uning ko‘p qirrali nazariy asoslari bilan bevosita bog‘liqdir. Liberal yondashuv mazkur jarayonni ta’lim xizmatlari bozori va global raqobat nuqtayi nazaridan izohlasa, yumshoq kuch nazariyasi uni davlatning xalqaro nufuzi va madaniy ta’sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Madaniy-integratsion yondashuv xalqarolashtirishni madaniyatlararo muloqot va global fuqarolikni shakllantirish omili sifatida ko‘radi. Inson kapitali nazariyasi esa oliy ta’limni iqtisodiy o‘sish va innovatsion taraqqiyotga xizmat qiluvchi strategik investitsiya sifatida baholaydi.

Shu bilan birga, dunyo tizimi va postkolonial nazariyalar oliy ta’limni xalqarolashtirish jarayonida mavjud tengsizliklar, markaz va periferiya munosabatlari, akademik qaramlik, ingliz tilining ustuvorligi va mahalliy bilimlar mavqeining zaiflashishi kabi muammolarga e’tibor qaratadi. Bu esa xalqarolashtirish jarayonini bir tomonlama ijobiy hodisa sifatida emas, balki imkoniyatlar va xatarlar uyg‘unligida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar asosida aytish mumkinki, oliy ta’limni xalqarolashtirish milliy ta’lim tizimini jahon ta’lim makoniga integratsiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, akademik mobillikni kengaytirish va global kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu jarayon milliy manfaatlar, madaniy identiklik, akademik mustaqillik va ta’lim sifati kafolatlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilgandagina barqaror va samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bamberger, A., Morris, P., & Yemini, M. (2019). Neoliberalism, internationalisation and higher education: Connections, contradictions and alternatives. *Discourse: Studies in the cultural politics of education*, 40(2), 203-216.
2. Gillies D. Human capital theory in education // *Encyclopedia of educational philosophy and theory*. – Springer Science+ Business Media, 2015.
3. Globalhighered.wordpress.com/ Measuring the economic impact of “export education”: insights from New Zealand

-
4. Hans de Wit. Internationalization of Higher Education The Need for a More Ethical and Qualitative Approach // Journal of International Students. – Volume 10, Issue 1 (2020), pp. i-iv ISSN: 2162-3104 (Print), 2166-3750 (Online) Doi: 10.32674/jis.v10i1.1893
 5. Nye J. Soft power and higher education //Harvard University. – 2005. – T. 14.
 6. Uncovering Wpistemic Dominance and Colonial Roots in Internationalization of Higher Education <https://iccglobal.org>
 7. Wallerstein, I. World-Systems Analysis: An Introduction. – Durham: Yale University Press, 2004. – 109 p.
 8. Wallerstein, I.; The Modern World-System II. – New York: Academic Press, 1980.
 9. www.thenewglobalorder.com (Analysis) What Politicization of Academia Means for Global Education by Joyce Lo (a researcher focusing on East Asia and political economy, exploring how geopolitical and security developments ripple through policy, markets, and global governance.)
 10. www.unesco.org Cutting Edge | From standing out to reaching out: cultural diplomacy for sustainable development

OLIJ TA'LIM INTEGRATSIYASI JARAYONIDA XALQARO UNIVERSITETLAR ASSOTSIATSIYASI (IAU) VA O'ZBEKISTON UNIVERSITETLARINING O'ZARO HAMKORLIGI: TDIU MISOLIDA

Kudratova Umida Raxmatovna,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligi milliy chegaralar bilan cheklanib qolmay, balki transchegaraviy ta'lim makoniga integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" milliy oliy ta'lim muassasalarini (OTM) xalqaro standartlarga moslashtirish, o'quv dasturlari sifatini oshirish va akademik harakatchanlikni kengaytirish vazifasini ustuvor etib belgiladi [1].

Ushbu tizimli islohotlarni amalga oshirishda YUNESKO shafeligida 1950 yilda tashkil etilgan va dunyoning 130 dan ortiq davlatidan 650 dan ziyod yetakchi OTMlarni birlashtirgan eng nufuzli tuzilma – Xalqaro Universitetlar Assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. IAUning asosiy vazifalaridan biri oliy ta'lim sohasining bosqichma-bosqich kengayishini kuzatish hisoblanadi. 1950-yilda IAU 620 ta universitet va oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatga olgan birinchi "Dunyo universitetlari"ni nashr etdi. Keyinchalik bu ro'yxat "Universitetlarning xalqaro qo'llanmasi" (1959–2020) nomi bilan mashhur bo'ldi [2].

2014-yildan beri qo'llanma ma'lumotlari IAU-YUNESCO onlayn portalining asosiga aylandi: Jahon oliy ta'lim ma'lumotlar bazasi (WHED). WHED hozirda 196 mamlakat va hududlardagi 20 000 ga yaqin universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va ro'yxat o'sib bormoqda - bu oliy ta'lim hali ham global miqyosda rivojlanyotgan soha ekanligidan dalolat beradi.

IAU global bo'lib, o'z a'zolidan tashqari oliy ta'lim sohasida faol bo'lgan manfaatdor tomonlarga, jumladan, hukumatlarga ham murojaat qiladi. Uning milliy vakillar, xalqaro va ko'p tomonlama tashkilotlar bilan aloqasi muhim va turli BMT tashkilotlariga, xususan, YUNESKO, Jahon banki, OECD va Yevropa Kengashiga qo'shgan konstruktiv hissasi orqali namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda IAU yetmish yil oldin ham muhim bo'lgan masalalar va mavzular ustida ishlamoqda: oliy ta'limning adolatli va teng huquqli xalqarolashuvi, kuchli global miqyosda ishtirok etuvchi yetakchilik, qadriyatlarga asoslangan oliy ta'lim. Bunga IAU oliy ta'lim va barqaror rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar hamda oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'yicha ustuvor ish yo'nalishlarini qo'shdi. Mazkur hamkorlik doirasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) milliy ta'lim makonida baynalmilallashuv drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda.

IAU global platformasi va milliy ta'lim tizimlari integratsiyasi. IAU xalqaro ta'lim makonida OTMlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va sifat kafolati standartlarini ishlab chiquvchi global "institutsional ko'pri" vazifasini bajaradi [2]. Assotsiatsiyaning

strategik ustuvor yo'nalishlari qatoriga ta'limni baynalmilallashtirish (Internationalization), barqaror rivojlanish va raqamli transformatsiya kiradi.

Milliy tizimlarning integratsiyalashuvda IAU taqdim etadigan bosh metodologik vositalardan biri bu – WHED (World Higher Education Database – Butunjahon oliy ta'lim ma'lumotlar bazasi) hisoblanadi. WHED tizimi YUNESKO va IAU tomonidan birgalikda yuritilib, unda ro'yxatdan o'tgan OTMLar rasmiy va legitim ta'lim muassasasi sifatida dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etiladi [3]. Bolonya va Tokio konvensiyalari tamoyillari asosida diplom va malakalarni transchegaraviy tan olish jarayonlarida ushbu baza birlamchi filtr vazifasini o'taydi. Ma'lumotlarning shaffofligi talabalar va olimlarning xalqaro harakatchanligi oldidagi byurokratik to'siqlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

TDIUning IAU bilan hamkorligi yil sayin takomillashib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda milliy universitetlarning IAU bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) ushbu xalqaro integratsiya jarayonlarida yetakchilik vazifasini bajarib kelmoqda. TDIU IAU va YUNESKO tomonidan yuritiladigan WHED global tizimida rasman ro'yxatdan o'tgan bo'lib, unga maxsus xalqaro identifikatsion ID kod berilgan [5].

Bugungi kunda TDIU xalqaro reyting agentliklari va IAU tavsiyalari asosida o'z strategiyasini quyidagi yo'nalishlarda muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda:

- Malakalarni tan olish: WHED tizimida rasmiy verifikatsiyadan o'tganligi bois, universitet diplomlari xorijiy sheriklar va transmilliy kompaniyalar tomonidan qo'shimcha byurokratik to'siqlarsiz tan olinmoqda.
- Global reytinglar: Times Higher Education (THE) va QS tizimlari metodologiyasidan foydalangan holda, TDIU dunyoning eng nufuzli universitetlari reytingida barqaror o'rin egallash va global tanilishga erishmoqda [4].
- Qo'shma dasturlar: Avstriya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yevropaning boshqa yetakchi OTMLari bilan tashkil etilgan Double Degree (ikki tomonlama diplom) dasturlari iqtisodiyot va menejment sohasida kadrlar tayyorlash sifatini jahon standartlariga yaqinlashtirdi [7].

TDIU IAUning ISAS (Internationalization Strategies Advisory Services) metodologiyasidan foydalangan holda, ta'lim dasturlarini baynalmilallashtirish bo'yicha mustaqil ekspertlik baholarini joriy etmoqda. Bu esa universitetga xorijlik talabalar va professorlarni jalb qilish ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini berdi.

Xalqaro integratsiyada akademik mobillikning modellari. Akademik mobillik – bu ta'lim sifatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global mehnat bozoriga moslashgan kadrlar tayyorlashning eng samarali vositasidir [6]. IAU tavsiyalariga binoan, TDIUda kredit-modul tizimi hamda Yevropa kredit o'tkazish tizimi (ECTS) to'liq va tizimli ravishda joriy etilgan. Bu esa "akademik tarjimon" tizimini yaratib, talabaning xorijda o'zlashtirgan fanlarini TDIUda avtomatik ravishda inobatga olish imkonini berdi.

Bugungi kunda TDIUda akademik mobillikning ikkita asosiy modeli amal qilmoqda:

1. Global model (Erasmus+, ICM va Ikki tomonlama hamkorlik): Universitet Yevropa Ittifoqining yetakchi iqtisodiy universitetlari (masalan, Vena amaliy fanlar universiteti (Avstriya), London universiteti (Buyuk Britaniya) va boshqalar) bilan IAU me'yorlari asosida talaba va professorlar almashinuvini yo'lga qo'ygan. Har yili TDIUning yuzlab iqtidorli talabalari ushbu dasturlar doirasida xorijda tahsil olib qaytmoqdalar [7].
2. Raqamli va virtual mobillik (Virtual Mobility): IAUning raqamli transformatsiya konsepsiyasi doirasida TDIU global tarmoqlar orqali xorijlik yetakchi olimlar va Nobel mukofoti laureatlarining masofaviy ma'ruzalarini (onlayn kurs va vebinarlar) o'quv jarayoniga integratsiya qilgan.

Bundan tashqari, TDIU tomonidan Markaziy Osiyo miqyosida o'tkazilayotgan xalqaro rektorlar forumlari va iqtisodiy kongresslar IAUning mintaqaviy integratsiyani qo'llab-quvvatlash g'oyasiga to'la mos keladi va mintaqaviy ta'lim harakatchanligini rag'batlantiradi.

Oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish va transformatsiya qilish sharoitida IAU bilan hamkorlik O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. TDIU misolida ko'rinib turibdiki, WHED tizimiga integratsiyalashuv, ECTS standartlarining keng joriy etilishi va mintaqaviy hamda global akademik mobillik dasturlarining kengayishi milliy ta'lim tizimimizning xalqaro nufuzini oshirmoqda.

Kelgusida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi qadamlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Milliy OTMlarning barcha tarmoq va filiallarini WHED tizimida to'liq ro'yxatdan o'tkazish jarayonini yakunlash.
- IAUning ISAS (2.0) dasturi doirasida TDIU va boshqa yetakchi universitetlarning internationallashuv strategiyasini mustaqil xalqaro auditdan o'tkazish.
- Iqtisodiy ta'lim yo'nalishida raqamli akademik mobillik (Virtual Mobility) formatlarini IAU platformalari orqali yanada kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Department of Education. (2019). Participation rates in higher education. Retrieved from: www.gov.uk/government/statistics/participation-rates-in-higher-education-2006-to-2018
3. International Association of Universities (IAU). IAU Horizons: Transforming Higher Education for the Future, Vol. 26, No. 1, 2021.
4. Singh, R. The Role of IAU in Facilitating International Cooperation. National Law University, Delhi, ResearchGate, 2021.
5. Rakhimov, M. International activities of Uzbekistan universities on the example of UWED and TSUE. The Professorial Journal Series: Economic Sciences, 2024.
6. World Higher Education Database (WHED) Portal. Uzbekistan Higher Education System and Recognized Institutions, IAU/UNESCO, 2026.
7. Saidov, A. Academic Mobility as a Tool for International Integration in Education. Scientists.uz, 2024.
8. Toshkent davlat iqtisodiyot obidasi (TDIU) rasmiy ma'lumotlari. Xalqaro hamkorlik va strategik rivojlanish departamenti hisoboti, 2024-2026-y.

AKADEMIK MOBILLIK VA XALQARO LOYIHALAR ORQALI MINTAQAVIY TEXNIKA OLIYGOHLARINING GLOBAL INTEGRATSIYASI: GREENDT (ERASMUS+) LOYIHASI TAJRIBASI MISOLIDA

Aminboyev Abdulaziz Shuhrat o'g'li,

Andijon davlat texnika instituti, O'zbekiston

Zamonaviy globallashtirish jarayoni oliy ta'lim tizimini milliy chegaralardan chiqib, xalqaro miqyosda integratsiyalashishga undamoqda. Internatsionalizatsiya oliygohlarning raqobatbardoshligini oshirishning, ilmiy salohiyatni mustahkamlashning va bilim almashinuvini jadal-lashtirishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi [2:12]. O'zbekiston Respubli-kasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish va akademik mobillikni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3:1].

Biroq mintaqaviy texnika oliygohlari uchun global integratsiya jarayoni bir qator ob'yektiv qiyinchiliklar bilan kechadi: cheklangan moliyaviy resurslar, til to'sig'i, xalqaro tarmoqlarga kirishning zaifligi va tajriba yetishmasligi. Aynan shu sharoitda Erasmus+ singari xalqaro grant dasturlari va ular doirasidagi loyihalar mintaqaviy oliygohlar uchun integratsiyaning eng sama-rali yo'liga aylanadi. Ushbu maqolada akademik mobillik va xalqaro loyihalar orqali integrat-siya masalasi Erasmus+ doirasidagi GREENDT loyihasi tajribasi misolida tahlil qilinadi.

Oliy ta'lim internatsionalizatsiyasi va akademik mobillikning mohiyati.

Internatsionalizatsiya tushunchasi xalqaro, madaniyatlararo va global o'lchovni oliy ta'lim muassasasining o'quv, ilmiy-tadqiqot va xizmat ko'rsatish faoliyatiga maqsadli ravishda integ-ratsiya qilish jarayoni sifatida ta'riflanadi [2:11]. Uning markaziy elementlaridan biri akademik mobillik — talaba, magistrant, doktorant va professor-o'qituvchilarning xalqaro almashinuvi-dir. Mobillik ishtirokchilarga yangi ilmiy maktablar, zamonaviy laboratoriya bazasi va innovat-sion pedagogik texnologiyalar bilan tanishish imkonini beradi [4:6].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, akademik mobillikning eng katta foydasi shaxsiy da-rajadan tashqari institutsional darajada namoyon bo'ladi: chet elda tajriba orttirgan xodimlar o'z muassasasiga qaytib, olingan bilim va ko'nikmalarni o'quv jarayoniga, ilmiy ishlarga va boshqaruv amaliyotiga joriy etadi. Shu tariqa individual mobillik institutsional salohiyatning o'sishiga aylanadi. Bu jarayonni tizimli va barqaror qilish uchun esa uni xalqaro loyihalar doi-rasiga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Erasmus+ dasturi va mintaqaviy oliygohlar uchun imkoniyatlar.

Erasmus+ — Yevropa Ittifoqining ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, yoshlar va sport sohasidagi yetakchi dasturi bo'lib, u sherik mamlakatlar oliygohlarining salohiyatini oshirishga (Capacity Building) va xalqaro hamkorlik tarmoqlarini kengaytirishga qaratilgan [1:24]. Dastur doirasi-dagi loyihalar konsorsium asosida amalga oshiriladi: bir nechta Yevropa va sherik mamlakat oliygohlari umumiy maqsad atrofida birlashadi, tajriba almashadi va birgalikda yangi mahsu-lotlar (o'quv modullari, metodikalar, laboratoriyalar) yaratadi.

Mintaqaviy texnika oliygohlari uchun Erasmus+ loyihalari ikki jihatdan ayniqsa qimmatli: birinchidan, ular moliyaviy yukni konsorsium hisobiga yengillashtiradi; ikkinchidan, ular oliygohni yetakchi Yevropa universitetlari bilan to'g'ridan-to'g'ri, doimiy va hujjatlashtirilgan hamkorlik munosabatlariga olib kiradi. Bu munosabatlar keyinchalik qo'shma dasturlar, qo'shma ilmiy nashrlar va davomli mobillik almashinuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

GREENDT loyihasi: maqsad va faoliyat.

GREENDT loyihasi Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik loyihasi bo'lib, uning umumiy yo'nalishi yashil va barqaror texnologiyalar sohasida ta'lim salohiyatini rivojlantirish, o'quv dasturlariga barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish hamda sheriklar o'rtasida tajriba almashinuvi ta'minlashdan iborat. Loyihada Yevropa va O'zbekiston oliygohlaridan iborat konsorsium ishtirok etadi.

Loyiha doirasida 2025-yil iyul oyida Ispaniyaning Vigo va Ourense shaharlarida ikkinchi loyiha uchrashuvi va birinchi treninggi o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda Andijon davlat texnika instituti vakili ham ishtirok etib, sheriklarning ish rejasini muvofiqlashtirish, o'quv modullari mazmunini ishlab chiqish va laboratoriya tajribasini o'rganish jarayonlarida qatnashdi. Treninglar davomida zamonaviy o'qitish metodikalari, loyiha boshqaruvi va barqaror texnologiyalar yo'nalishidagi amaliy yondashuvlar o'rganildi.

Bunday uchrashuvlarning ahamiyati shundaki, ular shunchaki muloqot maydoni emas, balki institutsional bilim ko'chishining aniq kanaliga aylanadi: olingan metodikalar, hujjatlar va aloqalar bevosita ona muassasaga olib kelinadi va u yerda joriy etiladi.

Loyihaning institutsional integratsiyaga ta'siri.

GREENDT loyihasidagi ishtirok Andijon davlat texnika instituti uchun bir qator aniq natijalarni berdi. Birinchidan, oliygoh xalqaro konsorsium tarkibiga kirib, bir nechta Yevropa universitetlari bilan barqaror sheriklik munosabatlarini o'rnatdi. Ikkinchidan, loyiha doirasida ishlab chiqilgan barqaror texnologiyalar yo'nalishidagi o'quv materiallari va metodikalar institutsion o'quv jarayoniga moslashtirish imkoniyatini yaratdi. Uchinchidan, loyiha professor-o'qituvchilar va xodimlarning xalqaro loyiha boshqaruvi bo'yicha amaliy malakasini oshirdi.

Eng muhimi, loyiha oliygohning barqaror rivojlanish (SDG) va "yashil ta'lim" yo'nalishidagi faolligini kuchaytirib, uning xalqaro reyting va hamkorlik strategiyasi bilan uyg'unlashdi. Shu tariqa bitta loyiha doirasidagi mobillik bir vaqtning o'zida o'quv dasturlari sifatini, ilmiy salohiyatni va xalqaro obro'ni oshirishga xizmat qildi.

Mintaqaviy oliygohlarning xalqaro loyihalardagi ishtirokini tahlil qilish bir qator muammolarni ko'rsatadi: chet tilini yetarli darajada bilmaslik, loyiha hujjatlarini tayyorlash bo'yicha tajriba kamligi, loyiha natijalarini institutsionallashtirish (ya'ni doimiy amaliyotga aylantirish) mexanizmlarining zaifligi va xodimlar almashinuvi tufayli orttirilgan bilimning yo'qolishi xavfi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: oliygohda xalqaro loyihalar bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi maxsus bo'linma tashkil etish; loyiha natijalarini majburiy ravishda o'quv dasturlari va ichki normativ hujjatlarga kiritish; xorijda malaka oshirgan xodimlarni keyinchalik ichki treninglar o'tkazishga jalb qilib, bilimni tarqatish (kaskad) tizimini yo'lga qo'yish; mobillik va loyiha faoliyatini oliygohning xalqaro reyting strategiyasi bilan bog'lash.

Akademik mobillik va xalqaro grant loyihalari mintaqaviy texnika oliygohlari uchun global integratsiyaning eng amaliy va samarali vositasi hisoblanadi. GREENDT (Erasmus+) loyihasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tashkil etilgan loyihaviy hamkorlik institutsional salohiyatni oshiradi, o'quv dasturlarini zamonaviylashtiradi va oliygohni barqaror xalqaro tarmoqlarga olib kiradi. Bu jarayonning barqarorligi loyiha natijalarini institutsionallashtirish va mobillik faoliyatini umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirishga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erasmus+ Programme Guide 2023. – Brussels: European Commission, 2023.
2. Knight J. Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales // *Journal of Studies in International Education*. – 2004. – Vol. 8, No. 1. – P. 5–31.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
4. Teichler U. Academic Mobility and Migration: What We Know and What We Do Not Know // *European Review*. – 2015. – Vol. 23. – P. 6–37.
5. de Wit H., Hunter F. The Future of Internationalization of Higher Education in Europe // *International Higher Education*. – 2015. – No. 83. – P. 2–3.

MUNDARIJA

I SHO'BA.

OLIY TA'LIM DASTURLARINI MODERNIZATSIYA QILISH VA TA'LIM SIFATI MENEJMENTNING INNOVATION MODELLARI

Xoliqov Abduvali Jonuzoqovich – Oliy ta'lim sifati: kompetensiya va raqamli innovatsiyalar.....	4
Мадиебеков Алибек Сергазыевич – Синхронизация образовательных программ с потребностями рынка труда в Республике Казахстан.....	7
Aqim Emurli – Aligning educational programmes with labour market needs: strategic curriculum development and quality assurance for enhancing graduate employability	11
Cheema, Shazia Anwer – Internationalization of higher education: academic mobility, joint degree programs, and emerging trends in global cooperation	14
Рауан Бермагамбет, Амантай Нурмагамбетов, Аслан Шайзада, Аскар Боженев – Становление системы микроквалификаций в высшем образовании казахстана: от нормативного закрепления к институциональному признанию	17
A.B.Плотников – Психология профессионального наставничества в подготовке рекламистов.....	21
Саяпина Лариса Юрьевна – Представление студентами результатов учебных и производственных практик	25
Гулова Шахло Мирахмадовна – Академическая мобильность, как фактор саморазвития учащихся и интеграция высших учебных заведений	29
Xolmuhamedov Muhsinjon Murodullayevich, Badarch Dendev – Rivojlanayotgan oliy ta'lim tizimida turizm va madaniy meros universitetining strategik transformatsiyasi.....	33
Esanov Muzaffar Xoshimovich – Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....	38
To'ychi Axmedov, Botir Kasimov, Nodir Abdurahmonov – Oliy ta'lim sifati: talabalar bahosi va ustuvorliklari.....	44
Safarov Akbar Raxmanovich – Oliy ta'lim dasturlari sifatini ta'minlashda zamonaviy darsliklar ekotizimi: xalqaro tajriba va milliy strategiya	49
Karimov Xurshidbek Maxammadjonovich – Oliy ta'limda pedagogik faoliyatni samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash: xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun saboqlar.....	53
Isanov Abdumajit Parmanovich – Introvert va ekstrovert talabalar uchun differensial grafik topshiriqlarni qo'llashning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri	57
Parmanov Jamshid Tog'aymurodovich – Magistratura ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish	60
Isroilova Navruza Baxtiyorjon qizi – Mechanisms of managing education quality in higher education based on digital technologies	63
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich – Ta'lim sifati menejmentida elektron monitoring tizimlarining ahamiyati.....	67
Sadikova Lobar Amirdjanovna – O'qituvchi–talaba munosabatlarining pedagogik-psixologik nazariy asoslari	70
Jo'rayeva Gulxayo Sabirovna – O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini talabalarining raqamli ta'lim muhitida o'z-o'zini tashkil etish kompetensiyasini rivojlantirishga y o'naltirish.....	72
To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi – Oliy ta'lim tizimida sifat menejmentining innovatsion modellari	74

Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi – Oliy ta'limda emi o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning beshta xalqaro yondashuvi: integratsiyalashgan tizim, clil dasturi, utq+emi moduli, teaching academy va bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi.....	77
Abdullayeva Sarvinov Botir qizi – Inklyuziv ta'limda texnologiya fanining o'rni va ahamiyati	80
Akramova Mubinabonu Ikrom qizi – Talabalarda stress vaziyatlarini yengishda kognitiv-bixevioral terapiyadan foydalanish imkoniyatlari.....	83
Aminov Dalerjon Alisher o'g'li – Huquqiy ta'lim klasteri modellari - yuridik kadrlar tayyorlash sifati menejmentining innovatsion mexanizmi sifatida	86
Begijonov Mahmudbek Sharibbek o'g'li – Muhandislik va kompyuter grafikasi fani o'quv dasturini bo'lajak muhandislarning loyihaviy-texnologik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirib modernizatsiya qilish	89
Rahmanova Ilmira Imomaddinovna – Integrative development model of professional competence of future language educators based on international standards	90
Buvrayev Akram Rustam o'g'li – Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv rivojlanish xususiyatlari”	92
Fotimabonu Murodova – Oliy ta'lim dasturlari sifatini oshirish muammolari: sotsiologik tanqidiy tahlil ..	95
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich – Sun'iy intellekt asosida oliy ta'limda ilmiy nashrlar sifatini boshqarishning innovatsion modeli.....	98

II SHO'BA: OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Аббасова Саида Набиуллаевна – Развитие инновационной деятельности в учреждениях высшего образования и формирование предпринимательской экосистемы в Азербайджане.....	101
Ibodullaev Dilshod Ibragimovich, Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna – Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish	104
Xamrakulova Elnura Soxibjon qizi, Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich – “OTMlarda tadbirkorlik klasterlarining tashkiliy shakllari va ularni rivojlantirish yo'nalishlari”	107
Musulmonqulov Sultonbek Baxromqul o'g'li, Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich – OTMlarning o'quv-ilmiy ishlab chiqarish klasterlari faoliyatini tashkil etish orqali tadbirkorlik ekotizimini yaratish mexanizmlari	110
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich – Oliy ta'limda bioiqtisodiyot faninni o'qitishning elektron ta'lim resurslarini shakllantirish	113
Raximov Alisher Ibragimovich – Xorazm viloyatida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining hududiy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati	117
Madaminov Sardorbek Kadamovich – Oliy ta'limni rivojlantirish orqali mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirish	120
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich – Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish.....	123
Turayev Og'abek Kaxramonovich – Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishda universitetlarning tadbirkorlik ekotizimi va innovatsion faoliyatining o'rni	126

Toshquvvatova Saida Mirpo'lat qizi – Parfyumeriya-kosmetika sanoatida startap madaniyatini shakllantirish: talabadan tadbirkorga yo'l	129
Abdullayev I.S. – Universitetlarda innovatsion va tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishning institutsional asoslari	132
Maqsudov A.N. – Oliy ta'lim tizimida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish.....	135
Arasheva Moxigul Akbarovna – O'zbekistonda tadbirkorlik universiteti konsepsiyasining “Universitet 3.0” modelini joriy etishning institutsional istiqbollari	137

III SHO'BA: BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI

Zayniddinov Vohidxon Vositovich, Xolmirov Begali Abdixamidovich, – Bitiruvchilarning bandligini ta'minlashda oliy ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilar hamkorligining innovatsion modellari: xorijiy tajriba va milliy amaliyot.....	142
Usmanov Jaxongir Bazarovich – Amaliyotga asoslangan ta'lim	146
Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, G'aniyev Komiljon Yorqin o'g'li – Ta'lim va amaliyotda dual ta'limning oliy ta'limdagi o'rni	150
Djurayeva Sohiba Barat qizi – Ko'zi ojiz bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va bandlik masalalari.....	153
Jumayev Akmal G'ulom o'g'li – “Dual ta'lim asosida bitiruvchilar bandligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari”.....	156
Xalilov Jahongir Mansur o'g'li, Bahodirov Odilxo'ja Avazxo'ja o'g'li, Tursinboyev Xursandbek Muzaffar o'g'li – Dual ta'lim tizimi va bitiruvchilar bandligi integratsiyasi	159
Ro'zmetov Roman Narimanovich, Maxmudov Yusufboy Qadirovich, Bekchanov Ma'mur Toxir o'g'li, Yusufbayev Shaxrux G'ayrat o'g'li – Oliy ta'lim muassasalarida sport turizmining pedagogik samaradorligini oshirish orqali talabalar kasbiy kompetentligi va bandligini rivojlantirish mexanizmlari	162
Ibrohimov Firdavs – Marketing ta'limida amaliy kompetensiyalarni shakllantirish omillari: O'zbekiston tajribasi.....	165
Masharipova Maksuda Beknazarovna – Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining institutsional mexanizmlari asosida bitiruvchilar bandligini ta'minlash.....	167
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi – Oliy ta'lim muassasalari va logistika korxonalari hamkorligi asosida eksport logistikasi mutaxassislarini tayyorlash tajribasi	170

IV SHO'BA: **RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA OLIY TA'LIM: INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA EDTECH YECHIMLAR**

Grigoriev Evgeniy Nikolaevich, Khaibullin Aynur Raufovich – Bimodal educational process	174
Джураева Н.С., Хаитов С.С., Зиёдалиева Т.З., Зарифзода Х.И – Использование социальных сетей в процессе обучения студентов медико-профилактического факультета.....	177
Ашуралев Муродали Имомалиевич – Инновационные методы преподавания предмета «организация экскурсионных мероприятий» и вопросы трудоустройства выпускников	181
Родькина Ольга Янова – Промпт-инжиниринг как новая междисциплинарная педагогическая компетенция: концептуальные основы и методические подходы к ее формированию	184
Mamatov D.N., Bekchonova Sh.B. – Kiberpedagogika asosida raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar va EDTECH yechimlar	188
Tolipova Billura Ravshanovna – Using digital technologies in teaching cultural scripts in higher education: innovative approaches to developing intercultural competence in students	191
Karamanov Asqar Narziqu'l o'g'li, Xolmatov Furqat Shavkotovich – Raqamli transformatsiya sharoitida professor-o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish	194
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich – Towards responsible and human-centered ai in higher education data governance: a framework for enhancing educational quality and evidence-based decision-making in Uzbekistan ...	197
Zaxidova Zulfiya Xalilullayevna – Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi: qiyosiy tahlil	202
Gaziev Saidjalolkhan Saydaliyevich – Enhancing the image of higher education institutions in the context of digitalization: the case of the “study in uzbekistan” platform	205
Yuldashev Mukhammad Shukhrat ugli – A comprehensive assessment model for the clinical practice bases of medical higher education institutions based on artificial intelligence technologies	208
Raxmanova Iroda Omiljonovna – Generativ sun'iy intellekt sharoitida pedagog kadrlar tayyorlashning innovatsion modeli: ARM bilan integratsiyalashgan web-quest texnologiyasi	211
To'rayev Adxam Akram o'g'li – Raqamli texnologiyalar muhitida mustaqil ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirishning modeli va samaradorlik mezonlari	213
To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi – Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish”	216
Abdullayeva Dilnavoz Xusniddinovna, – Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli dasturiy vositalarning ahamiyati”	220
Fayzullayeva E'zoza O'tkir qizi – Amifkatsiya elementlarini matematika kurslariga integratsiya qilish. motivatsiya va o'zlashtirish ko'rsatkichlari	223
Ergasheva Nafisa Baxriddinovna – Oliy ta'limdagi raqamli transformatsiya jaryonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va edtech yechimlarning o'rni	227
Umarova Fotima Abduraximovna – Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim: tikuvchilik kiyimlarini konstruksiyalashni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va edtech yechimlari.....	230

Roziqov Shohijahon Rashid o'g'li – Kelajak kasblariga tayyorlashda oliy ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish.....233

Sultonova Munavvarxon – Bo'lajak pedagoglarning sun'iy intellekt kompetensiyalarini rivojlantirishda edtech yechimlarning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari (mk.bimm.uz platformasi tajribasi misolida).....236

Obidova Nodiraxon Oppoxo'ja qizi – Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosidagi ai-hublarni joriy etish orqali ta'lim sifati, tadbirkorlik ko'nikmalari va bitiruvchilar bandligini oshirish239

Xolov Javlonboy Ilg'or o'g'li, Safarov Toyir Tursunovich – Raqamli ta'limda sun'iy intellekt integratsiyasining istiqbollari, tizimli xavflari va kelajak prognozlari.....242

V SHO'BA:

OLIIY TA'LIMNING XALQARO INTEGRATSIYASI: AKADEMIK MOBILLIK, QO'SHMA DASTURLAR VA GLOBAL HAMKORLIK STRATEGIYALARI

Hasniza Nordin, Saidov Javohir Olimjon ugli – International professional development as a catalyst for higher education integration: evidence from Malaysia-Uzbekistan teacher training collaboration246

Avezov Baxram Kamilovich – «Aql ko'chishi»dan «aqlar almashinuvi»ga (brain circulation): xalqaro mobillik dasturlari milliy kadrlar salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida.....252

Kasimov Botir Sadriddinovich, Yakubov Umid Bobayevich, Gapurova Lobar Narzullayevna – Akademik mobillik – oliy ta'lim sifati oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim omili.....254

Toirov Shukhrat Adkhamovich – International integration of higher education in Japan: 2025–2026 and forecasts for 2030.....257

Baxromova Irodaxon Bobirxon qizi – The role of 21st-century skills in modernising english teacher education programmes.....260

Diyorov Sardorbek Husanboy o'g'li – Oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari263

Kudratova Umida Raxmatovna – Oliy ta'lim integratsiyasi jarayonida Xalqaro Universitetlar Assotsiatsiyasi (IAU) VA O'zbekiston universitetlarining o'zaro hamkorligi: tdiu misolida269

Aminboyev Abdulaziz Shuhrat o'g'li – Akademik mobillik va xalqaro loyihalar orqali mintaqaviy texnika oliyoghlarning global integratsiyasi: Greendt (ERASMUS+) loyihasi tajribasi misolida.272

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH VA GLOBAL
HAMKORLIK MARKAZI**

**“OLIIY TA’LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH:
TA’LIM DASTURLARI SIFATINI OSHIRISH, TA’LIMDA
TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA BANDLIK
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH”
MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA
TO‘PLAMI**

Toshkent “Yoshlar Media Print” 2026

Muharrir: A. Ro‘zimurotov

Rassom: M. Rustam

Texnik muharrir: Sh. Sahibov

Musahhih: Sh. Nazarova

Sahifalovchi: M. Rustam

Litsenziya AI №1577389, 12.05.2026-yilda berilgan.

Bosishga __.__.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.

“Cambria” garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i. _____. Nashr tabog‘i. _____. 300 nusxa.

Buyurtma №_____. Narxi shartnoma asosida.

“_____” bosmaxonasida chop etildi.

100_____ Toshkent, _____ ko‘cha, __-uy. Shartnoma № ____.